

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**QADRIYATLAR FALSAFASI
MODULI DASTURI
(O'QUV USLUBIY MAJMUA)**

3 KREDIT (ECTS)

Bilim sohasi:	100000	–	gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000	–	pedagogika
Ta'lif yo'nalishi:	5111600	–	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Namangan – 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Yuridik fakulteti

**«Fuqarolik jamiyati va huquq ta'lifi»
kafedrası**

**“QADRIYATLAR FALSAFASI”
FANIDAN**

MA'RUZALAR

MATNI

Namangan - 2023

Mazkur ma'ruzalar matni NamDUNing “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, “Qadriyatlar falsafasi” fanidan sistemali bilimlar beradi va ko'nikma-malakalar oshirishni belgilab beradi. Jumladan qo'llanmada jamiyatimiz taraqqiyoti-negizi tamoyillarini aks ettiradigan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar ifoda etilgan.

Ma'ruzalar matni NamDUNing “Fuqarolik jamiyati va huquq asoslari” kafedrasining 2020 yil dagi yiqilishida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan.

Tuzuvchilar:

f.f.d. B. TAlapov

Taqrizchi:

p.f.d. T. Ismoilov

So'z boshi

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimiz qayta tiklanib, yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o'tkazilayotgan islohatlar muvaffaqiyatli amalgam osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta oladi. SHunday ekan, xalqimizning boy madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa yosh avlodni ma'naviy etuk, fidoyi etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

“Qadriyatlar falsafasi” fanidan tuzilgan ushbu ma'ruzalar matnida qadriyatlamining mohiyati va asosiy turlari, tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy qadriyatlamining o'tmishdagi ahvoli, ularning mustaqillik sharofati bilan tiklanishi, istiqboli, hadriyatlarning islohotlarni chuqurlashtirib, jamiyatimizni yangilashdagi, inson ma'naviy barkamollgi, uning dunyoqarashi, bunyodkorlik faolligini, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishdagi o'rni, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlamining mushtarakligi, milliy qadriyatlarimizning jahon hamjamiatiga kirishdagi vositachilik roli kabi dolzarb masalalar haqida fikr yuritiladi.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish, va ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish shu kunning muhim vazilaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtlaridagi tegishli kafedralar zimmasiga o'quv predmatlarining dasturlari hamda dasrlik va o'quv qo'llanmalarini xozirgi zamon talablari va ilm-fanning keyingi yutuqlarini xisobga olgan holda yangilab borish, O'zbekiston Respublikasi mustaqilka erishgandan so'ng o'quv rejasiga kiritilgan yangi fan-predmetlar bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklar yaratish vazifasini yuklaydi. Zero, ming yillar davomida to'plangan boy ma'naviy merosni avaylab-asrab, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosid shakllantirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish-mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir. Hech bir xalq o'zini anglamasdan, milliy madaniyati va qadriyatlarini avaylab-asrab saqlamasdan turib boshqa xalqlaming qadriyatlariga xurmat-izzat bilan qaray olmaydi. SHuning uchun qadriyatlamining tiklanishi umuminsoniy qadriyatlar sari rivojlanishining yakkayu-yagona yo'lidir.

«Qadriyatlar falsafasi» fani mustaqil O'zbekistonimizning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga nechog'li sodiqligiga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, milliy qadriyatlamining umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketish jarayoni, ularning taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarning paydo bo'lish jarayoni, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlamining mushtarakligi masalalarining qay ahvolda bo'lganligi va qay tarzda xal etilganligiga alohida urg'u beradi. Istiqlol tufayli kiritilgan yangi «Aksiologiya» o'quv predmetining ahamiyati uning ijtimoiy fanlar orasidagi o'rinni, ular bilan o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri hamda tarbiyaviy funktsiyalari bilan belgilanadi.

1-MAVZU: Qadriyatshunoslikning predmeti, mavzulari, maqsad va vazifalari.

REJA:

1. "Qadriyatshunoslik", "Aksiologiya", "Qadriyatlar falsafasi", "Qadriyatlar nazariyasi" atamalari, ulaming mohiyati, mazmuni, o'zaro aloqadorligi va farqlari.

2. Qadriyatlar falsafasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

3. Qadriyatami o'rghanuvchi ilim sohasining sobiq ittrifoqdagi taqdiri.

4. Jamiyatimiz rivojining hozirgi davrida "qadriyatshunoslik" va qadriyatlarga munosabatning tubdan o'zgarganligi, qadrlash falsafasini o'rghanish zaruryatining oshib borayotganligi.

Inson va insoniyat uchun ahamiyatlari bo'lgan barcha narsalarga qadriyatlar deyiladi. Qadriyatlar - narsa va voqealar, jamiyat, moddiy va ma'naviy boyliklaming ahamiyatini ifodalash uchun qo'llanadigan tushuncha. Qadriyatami Garb mamlakatlarida "Aksiologiya" fani o'rganadi. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga XX asming ikkinchi yarmida nesim aksiologi Y. Gartman va frantsuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan- to'g'ri "qadriyatshunoslik" deb atash ham mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergen asosiy tushunchalar bo'lgani kabi "qadriyat" tushunchasi ham "qadriyatshunoslik" atamasi uchun shunday asos bo'la oladi. Farbda bu atama yunoncha "axio" (qadriyat) va "Logos" (fan, ta'limot) tushunchalaridan tashkil topgan. Qadriyat va qadriyatlar milliy g'oyaning muhim kategoriyalardan biri, bo'lib, qadriyatlar axloqiy qoida va me'yorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham o'zida aks ettiradi. Ular halollik, poklik, o'zaro yordam,adolatlilik, haqiqatgo'ylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar, burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi. Qadriyat o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida u o'zgaradi va takomillashadi. SHuning uchun qadriyat to'g'risidagi ta'limotlar ham takomillashib, rivojlanib boradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tushunchasi, uning ta'ifi va tavsifi. Demak, "Qadriyat" tushunchasi - juda keng tushuncha bo'lib, uning bir qismi - ma'naviy qadriyatlardir. Milliy-ma'naviy qadriyatlar - "milliylik", "Ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalami o'z ichiga oladi.

Qadriyatlar deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatlari bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlaming manfaatlari va maqsadlari yo'lida xizmat qilishdagi erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, xaqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, xalollik, burchga sadoqatli singari fazilatlar majmun tushuniladi. O'tmishdagi barcha falsafiy ta'limotlarda qadriyatlamining mohiyati va ulaming jamiyat taraqqiyotida tutgan o'mi masalasiga katta e'tibor berilib, ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning maxsuli, jamiyat ma'naviy kamolotining muhim omili ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining, moddiy va ma'naviy boyliklar rivojining yakuni, inson kamolotining kelajak uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy maxsulidir.

Insonning ob'ektiv olamiga nisbatan aktiv faoliyati, moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi vorislik asosida sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlamining shakllanishiga, o'tmishdan meros bo'lib o'tganlari esa davr mxi, yangi ijtimoiy extiyoj talablari asosida rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, manaviy taraqqiyotning imkoniyatlari xam kengayadi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakillangan xar qanday xodisa o'tmishda ijobiy axamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlari yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli xam qadiriyat deb ataladi.

Qadiriyatlar olamni bilish va uning amaliy o'zgartirishning muxim omilidir. Xar bir qadriyatning moxiyati taraqqiyot, jamiyat va ruxiy olam xodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va mabnaviy taraqqiyot tabsir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Qadiriyatlarning ko'pligi, mavzuni, ularni aniqlash va ularga ebtiqod qilish insoning bilish qobiliyati va amaliy imkoniyatlaritakomilashib, chukirlashib, kengayib borayotganini ifodalaydi. Yangi qadiriyatlamining yuzaga kelishi insoning obbekтив olam, mabnaviyatborasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir.

Qadiriyatlar inson an'anaviy kamolotining muhim omilidir. Xar bir millat rivojlanishdagi tarixiy voqealar, unga ijobiy xisa qo'shgan shaxslar xam milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi. qadiriyatlarda ular yuzaga kelgan davirning ruxi, imkoniyatlari, talab va extiyojlari o'zining yaqqol ifodasini topadi.

Xar bir kadriyat mablum kankret davr, sharoit va extiyoj laming maxsuligina emas, balki uning ko'zgusi xamdir. qadriyatlarga baxo berishdan oldin ular yuzaga kelgan konkret tarixiy sharoitlar, usha davirlarga xos bo'lgan imkoniyat va extiyojlarni xam bilmoq kerak. Kechagi voqealarni bugungi talab bilan o'lhash mumkin bo'limgani dek, xar bir qdriyatning ishtimoiy axamiyatini bilishda muayan tarixiy sharoitlami xisobga olib yondoshmoq kerak.

Qadriyatlama shakilanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muxit, tabiy sharoitlar, ishonch usuli, kasb malakalari yoki turmush tarzi bilan xam bog'liqidir. Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqiyoti jarayonida shakilangan va rivojlangan, utmishida, xozirgi kunda va keljakda xam ijtimoiy taraqiyotiga ijobiy tasir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy axamiyat kasb etadigan modiy va manaviy boylikdir.

Qadriyatlar kishilarning modiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakilanadi va rivojlanadi. Bu qadriyatlama obektiv zaminidir. Qadriyatlar ijtimoiy, modiy, manaviy, xodisa bo'lsa xam, ularning axamiyati va moxiyati kishitlama ularga nisbatan bo'lgan munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchani uzi xam qadr-qimmat degan manoni bildiradi. Xar bir ijtimoiy xodisaga kishilar o'z duny qarashi, taraqiyot va istiqbol muamolarining xisobga olib yondashadilar va baxo beradilar.

Qadriyatlama baholash turli xildagi manfatlar bilan xam bog'liqidir. Muayan qadriyatlarga amal qilishiga, ulami baholashga shaxsiy, gumhiy, miliy va umuminsoniy manfatlar ham bevosita tasir etishi shubxasizdir. Bular qadriyatlarga baxo berishning subektiv omili xisoblanadi.

Qadiriyatlarga baxo berishda jamiyat azolarining umumiyy manaviy kamoloti ijtimoiy, miliy onging etugligi xam kata axamiyatga ega. Ma'naviy jixatdan etuk shaxs, jamiyat miliy va umuminsoniy qadriyatlama mazmuni va moxiyatini tug'ri baxolash imkoniyatiga egadir. Qadriyatlar va meros tushunchalari uzaro yaqin bo'lsa xam u bir xil manoni bildirmaydi. Qadriyat va meros bir-biriga uzviy bog'liq bo'lishiga qaramay, xar qanday meros qadriyat bo'la olmaydi. Meros tushunchasining moxiyati qadriyatga nisbatan kengdir bundan tashqari, qadriyat faqat o'tmishdan qolgan merosgina emas. Xozirgi kun talablari, yangi sharoit va imkoniyatlari asosida shakilanayotgan ijtimoiy, ma'naviy siyosiy xodisalar xam qadriyat xisoblanadi. Xozir O'zbekistonda miliy istiqbol mafkurasining rivojlantirishi uchun kata ishlar olib borilmoqda. Taroqiyotning xozirgi vazifalari va milat manfatlariga mos keluvchi bunday mafkura yaratilmoqda. Bu mafkuraning yaratishda utmish merosidan unumli foydalansila xam u yangi davirda shakilangan qadiriyat sifatida yuzaga kelmoqda. Meros o'tgan avlodlar tamonidan yaratilgan, bizgayaa etib kelgan ijtimoiy - ma'naviy xodisalar madaniy boyliklar, urf odatlari, marosimlar, axloq normalaridir. Meros taraqiyot uchun xam zarur omil bo'lgandagina qadriyat darajasiga kutarila oladi. Meros xozirgi kun uchun xam bo'lgan axamiyatini bilish- uni qadriyatlar jumlasiga kiritishdir.

Ijtimoiy taraqqiyot-doim yangilanib, takomilashib turadigan uzlusiz jarayon ekan, buning negizida muayyan qadriyatlarni baxolash mezonlari xam o'zgarib boradi. Qadriyatlama baxolashda taraqqiyotning muayyan bosqichida may donga chiqqan ijtemoiy kuchlarning manfatlari xam ma lum axamiyat kasb etadi. Qadriyatlarga tor siyosiy guruxlarning manfatlari asosida yondashish ularning axamiyati va imkoniyatlarini notug'ri tushunishga olib keladi.

«Aksiologya» fanining baxs mavzusini quyidagi masalalar tashkil etadi: milliy qadriyatlama tiklanishi; milliy o'zligini anglash; milliy ong va tuyg'u; milliy madaniyat, til, urf-odat, udum va an'analar; ulaming inson ma'naviy barkamolligini ta'minlashda va dunyoqarashini shakllantirishda hamda bunyodkorlik faolligini oshirishdagi o'rni; milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlama mushtarakligi; ijtimoiy-siyosiy, moddiy va ma'naviyat qadriyatlarimizning jahon hamjamiyatiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishdagi vositachilik roli; yaqin o'tmishda, sovet tartibotlari xukm surgan davrda bu qadriyatlama poymol etilganligi, yuzaga chiqarilmaganligi, o'qib-o'rganilmaganligi, faqatgina O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'nggina asrlar osha to'plangan qadriyatlarga xayot baxsh etilganligi, bu qadriyatlar ijtimoiy rivojlanishda, demokratik jamiyat qurishda muhim omil bo'lishi kabi dolzarb masalalar falsafiy nuqtai nazardan taxlil qilinadi.

Bu fan xalqimizning boy madaniy merosi, yuksak qadriyatlami chuqur o'ganib falsafa, tarix, siyosatshunoslik, siyosiy-huquqiy ta' limotlar tarixi, Sharq va Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixi va boshqa xususiy o'quv fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi, o'z oldida turgan vazifalarini bajaradi.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Aksiologya, qadriyat, aktsiologya predmeti, qadriyatlar - fazilatlar majmun, moddiy va mabnaviy muxit, vorislik, davr ruxi, inson kamoloti, qadriyatlaming baxolash, qadr-qimmat, meros, qadriyatlar-kishilar extiyojlarini qondimvchi ijtimoiy xodisalar majmuasi.

Mavzuga doir nazarot savollari:

1. Aksiologya qanday fan?
2. Aktsiologya fanining predmei nima?
3. Aksiologya fanining asosiy tadqiqot ob'ektlari nimalar?
4. Qadriyatlaming moo'iyati va ahamiyati qanday?
5. Qadriyatlar deganda nimalar tushiniladi?
6. Qadriyat qanday omillar maxsuli xisoblanadi?
7. Qadriyatlaming ob'ektiv va sub'ektiv jixatlari nimadan iborat?
8. Qadriyatlaming baxolashda qaysi omillar axamiyatli va muhim sanaladi?
9. Qadriyat va meros tushunchalarining farqi nimada?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqımız bilan quramiz. T.: “O’zbekiston”. 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta’minalash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O’zbekiston”. 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O’zbekiston”. 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T.: “O’zbekiston”. T.: “O’zbekiston”. 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2002;
6. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2003;
7. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog'liq. 12-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2004.
8. Karimov I.A. O zbek xalqi hech kimga, hech qachon qaram bo'lmaydi. 13-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2005.
9. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlami chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2007.
10. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2008.
11. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'miniash - bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2009.
12. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - Toshkent: O’zbekiston, 2009.
14. Ж.Туленов. Қадриятлар фалсафаси.- Т.: 1998.
15. Назаров Қ.Н. Қадриятлар фалсафаси.-Т.: УФМЖ. 2004.
16. Ачилдиев А.С. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. -Т., Ўзбекистон, 2004.

2-MAVZU: Qadriyatshunoslikning sharqona ildizlari.

Reja:

1. Qadimiy sharq va O'rta Osiyoda qadiriyatlar to'g'risidagi g'oyalar takomili va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.
2. Olam, koinot, jamiyat va inson to'g'risidagi daslabki aksilogik qarashlar.
3. Diniy va mifalogik qadiriyatlar. Iudaizim, Buddizim, Zardushtiylik va boshqa dinlarning qadiriyatlari.
4. O'rta Osiyoda islom dini yoyilishining sivilizatsiyamiz qadiriyatlariga ta'siri.
5. XX asr va hozirgi davorda qadiriyatlar mavzui.
6. Jahon madaniyatining rivojiga jamiki xalqlar baholi qudrat o'z ulushlarini qo'shganlar. Ammo bunda SHarq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining hissasi alohidadir.

SHarq xalqlarining tarixi va madaniyati, ilk siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy, falsafiy qarash va tasawurlari haqidagi, ularning mazmun va mohiyati haqidagi qimmatli material va ma'lumotlar antik zamon mualliflarining asarlarida, arxeologik manbalarda, xalq og'zaki ijodiyotida keng ko'lamma aks etgan.

Dastlabki falsafiy tasavvurlar SHarqning eng qadimgi mamlakatlaridan biri- Bobilda miloddan avvalgi to'rtinchı ming yillik boshlarida paydo bo'lgan. O'shandayoq odamlarning dunyoda ro'y berib turadigan xilma-xil hodisa va jarayonlarga bo'lgan munosabatlari va qiziqishlarini, garchi sodda, yuzaki, ibridoiy shaklda bo'lsada, o'zida aks ettirgan falsafiy qarashlar namoyon bo'la boshlagan.

Qadimgi Bobil adabiyotining mashhur asarlaridan biri «Gilgamesh haqida doston» bo'lib, unda tuproq, suv, havo, quyosh inson hayoti va tirikligining abadiy manbai ekanligi, Gilbgameshning obi hayot qidirib, boshidan kechirgan sarguzashtlari va chekkan azob-uqubatlari, odamlarning tabiat qonunlari asosida yashash zarurligi, ular hayot va o'lim sirlarini bilishga azaldan intilib kelganligi hikoya qilingan.

Gilgamesh haqidagi dostonda qadimgi kishilarning baxt va farovonlikka, salomatlik va bardamlikka, o'limni engib, mangu hayot kechirishga intilishlari, abadiy umr ato qiluvchi obihayot, o'simlik, har xil meva va ma'danlarni izlab topish haqidagi orzu-niyatlari o'z ifodasini topgan.

Adapa haqidagi dostonda esa insoniyatning abadiy hayot to'g'risidagi orzulari ko'rsatilgan. Unda «o'lgan va qayta tirlgan» xudolarga, jumladan Bobil xudosi Marduqqa nisbat berilgan.

Inson o'zini qurshab olgan muhit, koinot bilan doimo aloqadordir. Binobarin, u shu muhit, koinot haqida o'ylaydi, fikr yuritadi, er yuzidagi hodisa va jarayonlarni koinot bilan bog'lashga intiladi, samoviy sir-asrorlar haqida xayol suradi, faraz qiladi, har xil ertaklar, rivoyatlar, afsonalar to'qiydi. Bobilliklarning etapa haqidagi afsonalari ana shu zaminda paydo bo'lgan.

Etapa haqidagi afsona ham yuqorida aytib o'tilgan dostonlarda bo'lgani kabi odamlarning quyosh bilan, oy va sayyoralar bilan qiziqsanligi, samoviy sirlar sabablarini bilishga intilishlari, Bobil xalqining tabiiy hodisalar mohiyatini, yilning fasllarga bo'linib, o'zgarib turishini, yil davomida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarning boisi nimadan iborat ekanligini tushunib olishga intilishlari, shuningdek, ularning din va axloqqa doir falsafiy qarashlari ilgari surilgan.

Qadimgi bobilliklarning yaxshilik bilan yomonlikning, ezgulik bilan yovuzlik, boylik bilan qashshoqlikning, hurlik bilan xo'rlikning bir-biriga tubdan zid ekanligi, o'zara qarama-qarshi va murosasizligi haqidagi falsafiy g'oyalarni o'zida ma lum darajada bayon qiluvchi «Jafokash avliyo haqida doston» va «Xo'jayinning qul bilan suhbati» degan asarları ham mavjudligini aytib o'tish zarur. Ularning birinchesida baxt va baxtsizlik,adolat va adolatsizlik, ularning sabablari, bartaraf etish yo'llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvur va g'oyalar bayon etilgan. Keyingisida xo'jayin bilan qul o'rtasidagi ziddiyat ular orasidagi ta'sirli dialogda ifoda qilingan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi o'rtaga qo'ygan talablar va inson amaliy faoliyati ehtiyojlari asosida Bobilda tabiat hodisalarining ichki mazmunini ilmiy asosda tushunib, ulardan turmushda foydalanish zaruriyati tobora kuchayib borgan. Mahsulot va mollarning miqdorini, og'irligini o'lchash, ish kuchlari miqdorini aniqlash, binolar hajmini belgilash, er sathini hisoblab chiqish zaruriyati eng qadimgi matematik hisoblarning paydo bo'lishiga va bu sohada tegishli bilimlar to'planishiga hamda arifmetika va geometriyaning tug'ilishiga olib kelgan. Vaqtni hisoblash zaruriyati kalendar (taqvim) paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu esa odamlardan astronomiya

sohasida ma lum bilimlarni talab qilgan. Bobilliklar quyosh soatini, quyosh ko'rsatkichini va kunning 12 bo'lakka bo'linishini azaldan bilishgan. Antik davr ma'lumotlariga ko'ra, Bobilda matematika, arifmetika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda meditsina, tarix va filologiya, muzika, tasviriy san'at, astrologiya ham sekin-asta kurtak ota boshlagan.

Qadimgi SHarq xalqlarining madaniyatlari singari Bobil xalqi madaniyati, falsafasi, ahloqi, urf-odatlari, dunyoqarashi ham asosan diniy g'oyalar bilan sug'orilgan. Odamlarda diniy z'tiqod kuchli bo'lgan. Quyosh, oy, yulduzlar xudo hisoblantani, ibodatxonalarda ularga topinganlar. Xalqlarning, davlat, hukmdorlar va odamlarning kelgusidagi taqdirini yulduz va sayyoralarining vaziyatiga qarab oldindan aytib berish qadimgi Mesopotamiya va Bobilda astrologiya nomini olgan.

Bobilliklarning qadimgi madaniyati, diniy e'tiqodlari, falsafiy qarashlari, adabiy asarlari, bilimlari, o'lchov birliklari, afsona va rivoyatlari nasldan naslga o'tib, rivojlanib, boyib SHarqdagi ko'pgina xalqlarning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

Misr madaniyati jahon madaniyatining eng qadimgilaridan bo'lib hisoblanadi. Qadimgi Misrda ilk madaniy yodgorliklar miloddan to'rt ming yil ilgari vujudga kelgan. Qadimgi SHarq madaniyatining boshqa namunalari singari Misr madaniy yodgorliklarda, xususan, ertak, rivoyat, gimn, duo, masal, epos, lirika va boshqalarda o'sha davrdagi ijtimoiy muhit, iqtisodiy hayot, nabobat, urf-odatlar, tabiat hodisalari, diniy, axloqiy, huquqiy, falsafiy qarashlar, garchi yuzaki tarzda bo'lsada, o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Misr mifologiyasida, hamma narsa suvdan paydo bo'lган va hamma narsalarda ham havo bor, deyiladi. SHuning uchun ham misrliklar suvni odamga oziq-ovqat beruvchi dastlabki ulug' ne'mat deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning asosi bo'lib ko'ringan. Misrliklar, hayot suvdan boshlanadi, deb bilib, suvsiz hech qanday hayot bo'lmasligini ko'rib, suvni ulug'lovchi qanchadan-qancha rivoyat va afsonalar to'qiganlar. Ular Nil daryosini nihoyatda ulug'lashtirganlar, ilohiyashtirganlar, uni «odamlarga hayot baxsh etish uchun toshib turadigan Nil», deb ulug'langanlar. SHuning uchun misrliklar marhumlar ruhiga duo qilib, uning abadiy yashashini ta'minlamoqchi bo'lganlarida xudoga quyidagicha nola qilganlar: «Sen ulug' xudoga — Ozirisga marhamat aylaganingda unga Nil keladigan bo'ldi, uning uchun yaylovlarda o't pay do bo'ldi va papirus o'sadigan bo'ldi. Xuddi shu singari unga — marhumga ham marhamat aylagilki, u sening suvingdan bahramand bo'lsin, u sening oqar suvlaringdan icha olsin».

Misrliklar o'zlarining dunyoviy va diniy falsafiy poeziyalarida odamlarni bu dunyoning butun noz-ne'matlaridan to'la bahramand bo'lib yashashga, quvnoq, shod-xurram hayot kechirishga, o'lim, oxirat haqida hadeb o'layvermaslikka chaqirgan.

Misrliklarning ibridoiy falsafiy tasavvurlari haqida bir muncha ma'lumot beradigan qadimiylar manbalardan biri — «Nasihatnomda»da bilimning xosiyati haqida, bilimdon kishining qadr-qimmati to'g'risida aytib o'tilgan. «Agar sen bilimdon odam bo'lsang, aytganing-aytgan, deganing-degan bo'ladi. YOzish- o'qishni chuqur egallab, ko'nglingga chuqur jo qilib ol, ana shunda har bir aytgan gaping hammaga manzur bo'ladi».

Qadimgi misrliklarning xalq og'zaki ijodiyotida, ayniqsa diniy-mifologik asarlarida tabiat hodisalari va tabiat kuchlari ilohiyashtirilgan. Usimlik va daraxtlarga topinish Misrda eng qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. «Hayot osmon daraxti» to'g'risidagi qadimgi afsonada, o'simliklar simvoli bo'lgan daraxt insonning er yuzidagi hayoti uchun zarurdir, degan fikr ilgari surilgan. Misrliklarning har holda sodda bo'lsa ham tabiatni, dunyonи unga asoslanib turib tushuntirish uchun qilgan urinishlari o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

Qadimgi Misrda falsafiy fikr kurtaklarining shakllanishi va rivojida tabiatshunoslik fanlarining ham hissasi bor. Bundan bir necha ming yillar ilgari qadimgi misrliklar astronomiya sohasida ba'zi bir bilimlarga ega bo'lganlar. Osmondagisi yulduzlarni doim kuzatish natijasida sayyoralarini yulduzlardan ajrata bilganlar va, hatto, ular osmon kartasini ham tuzganlar.

Kasalliklarni keltirib chiqargan, rivojlantirib, avj oldirib, kuchaytirib yuborgan sabablarni aniqlash, ularni oldini olish, inson salomatligini tikiash va mustahkamashga bo'lgan zaruriyat qadimgi. Misrda tibbiyot fanini yuzaga keltirdi. Qadimgi misrliklar kasalliklarning juda ko'p turlaridan, masalan, bosh og'rig'i, dezinteriya, sariq kasali, yo'tal, ziqnafas, qon ketish, bod, skarlatina, moxov, suvli temiratki va boshqa har xil kasalliklardan xabardor bo'lganlar. Misr tabiblari miyaga, umurtqa pog'onasiga va ko'krak qafasiga alohida e'tibor berganlar va ularni kasalliklar uyasi

deb bilib, bu erdag'i kasalliklarni topib yo'qotish kerak, deb hisoblashgan. Misrliklar diagnostika — tashxis sohasida katta tajriba to'plaganlar. Misrda ginekologiya, xirurgiya va ko'z kasalliklarini davolash ancha rivojlangan. Ular insondagi ko'pgina kasalliklar yurak qon aylanishi tizimining qandayligiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlashgan. Misrda, tabiblikning siri — yurak harakatini bilishdan boshlanadi, tomirlar butun a'zoyi badanga o'shandan tarqaladi, deb hisoblashgan.

Bashariyat tarixida qariyb birinchi tsivilizatsiya beshigi hisoblangan Hindiston falsafasi o'zining juda qadimiylari va boy tarixiga ega. Hindistonda eramizdan uch ming yil awal erni sun'iy sug'orish taraqqiy etgan, anhorlar qazilgan, kulolchilik, yog'ochsozlik, to'qimachilik, zargarlik rivojlangan, yog'och va metalldan jang aravalari yasashgan, pishiq g'ishtdan ko'p qavatli binolar qurishgan. Jun va zig'ir tolasidan matolar tayyorlashgan, mis va temirdan, jezdan quro'l-aslahalar yasashgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» nomli asarida aytishicha, Hindistonda eraning birinchi asrlaridayoq tib, riyoziyot, ilmi nujum, din, kimyo, muzika, poeziya, san'at, falsafa rivojlangan.

Antiqa tabiatga, saxiy zaminga, ajoyib hayvonot va nabobot olamiga ega bo'lган qadimiylari Hindistonda falsafa, badiiy adabiyot o'tmish davrlardan boshlab vujudga kelgan va g'oyat darajada rivojlangan. «Ramayana», «Maxabxarata», «Rural», «Megatuta», «Regxuvensha», «Kumarasambava», «Panchatatra», «Xitopadesha», «SHakuntala», «Kalila va Dimna» kabi mashhur asarlari shular jumlasidandir.

YUksak, nafosat va mangu hikmat xazinasi bo'lган ana shu asarlarda hind xalqining urf-odatlari va an'analari, odob-axloqi va madaniyati, dini va tarixi, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy, falsafiy, diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan.

Ana shu nodir asarlar o'z navbatida qadimgi hind falsafasining o'rganish va ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lган qadriyatlarni bilib olishda asil manbalar bo'lib ham xizmat qiladi.

Hind madaniyati va falsafasining ana shu beba ho yodgorliklarining har birida aql-idrok,adolat, insof-diyonat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, milliy totuvlik, to'g'ri so'zlilik, va'daga vafo qilish to'g'risida, zulm va zo'ravonlikka, xiyonat va riyokorlikka, nafsi buzuqlik va ochko'zlikka, fitnachilik .va qalloblikka, munofiqlikka qarshi kurashish zarurligi haqida juda muhim va foydali falsafiy g'oyalar, hikmatlar, rivotatlar, maqol va matallar bayon etilganki, ular shak-shubhasiz, ham milliy, ham umuminsoniy, umumbashariy ahamiyatga molikdir.

Hind falsafasining paydo bo'lishi va rivojanishi masalasi bo'yicha so'z yuritilganda, odatda uch asosiy davr alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular eramizdan awalgi birinchi ming yillikning boshi va eramizning dastlabki asrlarini qamrab oladigan eng qadimgi davr, X—XII asrlardan XVII—XVIII asrlargacha bo'lган ilk o'rtta asr va kech o'rtta asrichilik davri hamda yangi (bunga hozirgi davr ham kiradi) davrlardan iborat.

Hindistonning eramizdan oldingi birinchi ming yilliklardagi dastlabki falsafasini o'rganishda qadimgi hindlarning «Veda» deb ataladigan diniy to'plamlari va ikkita katta epik dostoni — «Ramayana» va «Maxabxarata», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asari muhim ahamiyatga egadir.

«Veda» deb ataladigan muqaddas kitobning «ma'nosi bilmagan narsani bilishdir. Hindlar «Veda» kitobini, oliy tangrining Baroxim og'zidan aytilan so'zi, deydilar».

«Veda» kitobi Rigveda, Samaveda, YAjurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to'rt bo'limdan iborat. To'rt bo'limning har birini o'ziga xos o'qish yo'li bor. Mazkur bo'limlarning har birida muayyan falsafiy g'oya ilgari surilgan.

«Veda»lar hind xalqining dini, afsonalari, urf-odatlari, poeziyasi, ilm, falsafiy tasawur va bilimlarini o'rganish uchun ayniqsa ko'p material beradi.

«Veda»larda borliq, fazo, vaqt, dunyoning paydo bo'lishi, inson hayotining tabiiy asoslari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, ilohiy kuchlar haqida fikr yuritiladi, «Veda» kitobi yaxshi ishlarga targ'ib qilishni, yomon ishlardan qaytarishni, amallaming chegarasini aniq ko'rsatib qiziqtirishni, qo'rkitishni, yaxshi mukofot va yomon jazolarni bayon qiladi. «Veda»ning ko'p qismi turli duolar va olov uchun qilinadigan turli qurbanliklar haqidadir. Undagi qurbanlik turlari ko'p va rasm-rusumlari qiyindir».

«Veda» kitobini tashkil etgan bo'limlarning eng qadimiysi Rigveda, hindlarning xudrlari bo'lган parilar to'g'risidagi miflar bilan bir qatorda dunyodagi har bir narsa tabiiy ravishda paydo

bo'lgan, degan g'oyalari bor. Rigvedadagi dunyo suvdan yaratilgan, degan fikr e'tiborga sazovordir.

Qadimgi Hindiston dini va falsafasida suvning muqaddaslashtirilishi, uni dunyoni tashkil etgan unsurlardan biri sifatida qaralishi, bunga «Veda» va «Rigveda»da alohida e'tibor berilganligi bejiz emas, albatta. «Ammo hindlar fikricha, — deyiladi Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida, — yaratilgan narsalarning oldingisi suvdir. CHunki ular «to'zonga aylangan hamma narsa suv bilan birikadi, hamma unadigan narsa suv bilan unib chiqadi va hamma jon egasi suv bilan tirik turadi, suv san'at egasi, biron moddadan ma lum bir narsa ishlatmoqchi bo'lganida unga suv vosita bo'ladi, deydilar».

«Veda» gimnlariga qadimgi hind diniy-falsafiy sharhlardan iborat bo'lgan upanishadalarda borliqning bosh manbai, moddiy ibtidosi deb hisoblangan suv, olov, havo, yorug'lik, to'proq, oziq-ovqat, fazo, vaqt, olamning tuzilishi va uni boshqaruvchi qonunlar, inson bilimining manbalari va turlari, ijtimoiy tafovutlarning kelib chiqishi, insonning ijtimoiy majburiyatları, hayotning oliy maqsadiga erishish kabi qator falsafiy masalalar qarab chiqiladi. Upanishadalar ta'limotiga ko'ra, inson er yuzida yangi tug'ilishlar girdobidan qutilmoq uchun o'z ruhining barkamol braxman bilan birligi haqidagi o'y-fikrga berilmog'i lozim. Unda ta'kidlanishicha, tana jonning qobig'i bo'lib, jon esa — dunyoviy ruhning bir bo'lagidir. Upanishadalar shu tariqa butun qadimiy hind falsafasining keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilganligi va sharoit yaratib bergenligi tufayli ham alohida ahamiyat va ilmiy qimmatga egadir.

Charveka nomi bilan ataladigan qadimiy hind falsafiy oqimi tarafdorlari, dunyoni, tabiat hodisalarini qanday bo'lsa o'shanday tushuntirmoq kerak, degan talabni ilgari surgan edilar. Ular nuqtai nazaricha, butun olam olov, suv, havo, tuproq yig'indisidan iborat, inson ham ana shu to'rt unsur birikmasidan tashkil topgan.

Charvakalar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning zaminida moddiy elementlar birikishi yetadi, deb hisoblaydilar. Ular «o'tni kim issiq haroratli qildi, suvni kim sovuq qildi» — degan savol berib, «bulaming hammasini shu hodisalarning o'zidan qidirish kerak», — deb javob qaytaradilar. Ular dunyoni bilish mumkin va bu bilimning manbai idrokdir deb, bilishda hissiyotning rolini bo'rttirib yuborganlar, xulosalar yolg'on bo'lishi mumkin, deb hisoblanganlar.

Xitoya dastlabki falsafiy ta'limotlar hind falsafasi bilan taxminan bir vaqlarda — eramizdan avvalgi IX—VII asrlardayoq paydo bo'lgan edi. Ilk falsafiy ta'limotlarda dunyo abadiy va u besh unsur — olov, suv, er, daraxt va metalldan tashkil topgan, deb uqtiriladi.

Eramizdan oldingi VII—VI asrlarda esa dao qonuniga binoan harakat qiluvchi tsi — elementining mavjudligi haqida fikr yurgizilgan. Xitoy mutafakkirlari fikricha, tabiat hodisalari tsi degan moddiy zarralardan tarkib topib, dao degan ob'ektiv tabiiy qonuniyatga bo'ysunadi. Xitoyliklarning tabiat hodisalari qonuniyatli asosda, taraqqiy qiladi, degan tasavvurlari, ularning, dunyo moddiyidir, degan ta'limotiga bog'liqidir. Dao haqidagi ta'limot falsafadagi qonun tushunchasini hosil qilishdagi dastlabki urinishdir.

«Daosizm» so'zining o'zi «dao» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «yo'b», «taraqqiyot», «dunyo negizi» degan ma'noni oildiradi. Daosizmning asoschisi Dao-tszi bo'lib, u dunyo abadiy harakat va o'zgarishda bo'ladi, deb hisoblagan. Masalan, Dao-tszi bu haqda bunday degan: «Ulug' dao hamma yoqqa qarab oqadi. U o'ngga ham, chapga ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudod tug'iladi. Bu mavjudod hamisha o'zgarishda bo'lib bir joyda to'xtab qolmaydi.»

Daosizmda dunyoda qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog'liqligi amal qiladi, tabiat hodisalari o'z ziddiga aylanib rivojlanadi, deb fikr yuritiladi. Ta'kidlanishicha, go'zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo'qlik, uzun bilan kaltalik bir-birini tug'diradi, birin ketin keladi, bir-biriga bog'liq bo'ladi, tabiatdagagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi.

Daosizm vakillari bilishda hissiy va mantiqiy jihatlarning mavjudligi masalasini o'rtaqa qo'yib, bilishda hissiyot va amaliyotning ahamiyatini kamsitib, aqliy bilishni bo'rttirib yuborganlar.

Miloddan avvalgi V—III asrlarda vujudga kelgan konfutsiychilik qadimgi Xitoya keng tarqagan falsafiy ta'limotlaridan bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy Miloddan oldingi 551—479 yillarda yashagan. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, odamlarning hammasi ham tug'ma xususiyatlariga ko'ra bir-birlariga yaqindir. Tug'ilgandai keyin hosil qilgan xususiyatlariga ko'ra, ular bir-birlaridan farq qiladilar.

Konfutsiya, agar podsho osmon va dengiz kabi ulug'vor bo'lsa, xalq uni hurmatlaydi, uning

aytganlariga quloq soladi va uning ishlariga xayrixohlik qiladi, deb podshohni ilohiyashtiradi. U to'g'ridan-to'g'ri imperator Osmon o'g'li, uning erdagi ko'rinishi Osmoñning jonli timsolidir. Er yuzidagi quriqlikning markazi Osmon o'g'lidir. Har qaysi xalq o'z chegarasida bir knyazga itoat qiladi. Osmon o'g'li amrni osmondan oladi, tobe knyazlar esa buyruqni Osmon o'g'lidan oladilar, deydi.

Aytib o'tilganlarning hammasi Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy singari qadimgi SHarq mamlakatlari va boshqa davlatlarda pay do bo'lган va rivojlana boshlagan, dastlabki falsafiy bilim va tasavvurlarning ildizlari, boshlang'ich asoslari jahon xalqlari tarixi va madaniyatining uzoq o'tmishiga borib taqalishini ko'rsatib va isbotlab turibdi.

Qadimgi SHarq falsafasining dastlabki kurtaklari jahon falsafasining ilk yutuqlariga asoslangan, ulardan oziqlangan ijodiy foydalangan holda shakllanib, rivojlanib borishi bilan bir qatorda, o'z navbatida insoniyat falsafiy bilimlarining kelgusi taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi hamda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo jahoning ilmu fan, falsafa, din, adabiyot va san'at qadimdan rivojlangan, tarixi nixoyatda boy mintaqalaridan biridir. So'nggi tarixiy va arxeologik tadqiqotlar ana shu muqaddas zaminda odamzodning ilk faoliyati bir million yilga yaqin janligidan dalolat beradi.

Juda ko'plab og'zaki va yozma manbalar, turli asori-atiqa obidalardan ma lum bo'lishicha Dneprdan Oltogyacha bo'lган mintaqada skiflar, Kaspiy orti tekisligida massagetlar, ulardan sharqroqda saklar, so'g'dlar, baqtiriyaliklar, xorazmiylar, parfyonlar yashaganlar.

Hozirgi markaziy osiyoliklarning o'tmishdagi ana shu ajdodlari asrimizdan bir necha ming yillar ilgari sug'orishga asoslangan dehqonchilik hamda chorvachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Hozirgi tojik, o'zbek, turkmanlarning ajdodlarida sug'orma dehqonchilik madaniyati shu qadar rivoj topganki, hatto birligina Araks (hozirgi Amudaryo) havzalarida juda ko'plab sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari qazilib cho'l va sahrolarga suv olib chiqilgan.

SHu tariqa moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilgan. Ajdodlarimiz yashagan hududlarda qadimda xilma-xil madaniyat o'choqlari tarkib topgan va rivojlangan.

Mintaqamizda miloddan avvalgi V ming yillikda mintaqamizning markaziy va shimoliy rayonlarida esa miloddan avvalgi III ming yillikda qishloq xo'jaligi bilan birga hunarmandchilik, konchilik, mis va temir eritish, metallardan har xil harbiy va mehnat, qurollari yasash, kemasozlik, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik ham taraqqiy eta boshlagan. Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm kabi dastlabki davlatlar, Toshkent, Xiva, Marokand (Samarqand), Qiropol (hozirgi O'rakepa) va boshqa shaharlar paydo bo'lган. Dunyodagi eng qadimiy tsivilizatsiyalardan biri mana shu mintaqada vujudga kelgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng buyuk madaniy muvaffaqiyatlaridan biri yozuvni ixtiro etganliklaridir. Bu er da yozuvning tarixi juda qadim zamonlardan boshlangan. Miloddan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi keng tarqalgan. Iskandar Zulqarnayn, (Aleksandr Makedonskiy) istilosidan keyin yunon yozuvi ham kirib kelgan. eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, Sug'd, Kushon, O'rxun-Enisey, Uyg'ur yozuvlari vujudga kelgan. YOzuvning ixtiro qilinishi, inson bilim doirasi va dunyoqarashi kengayishi va chuqurlasha borishiga xizmat qilgan.

Ko'rinish turganidek, Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, o'zbeklarning madaniyati tarixi ildizlari, ijtimoiy, falsafiy, ahloqiy, diniy, badiiy qarashlari va fikrlari shakllana va rivojiana borishining ilk davrlari qadim zamonlarga borib taqaladi.

Avlodu ajdodlarimizning qadim ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, an'analari, madaniyati, tili, tarixi badiiy-falsafiy jihatdan o'ziga xos tarzda aks ettiradigan og'zaki ijodiyotni nihoyatda boy va xilma-xildir. Miflar, afsonalar, qahramonlar to'g'risidagi dostonlar, to'y hashamlarda, xalq yig'inlarida, bayramlarda, safarlarda aytilgan ashula — qo'shiq va laparlar, lirik she'rlar, maqol va matallar, masal va topishmoqlar xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lган sohalaridir. Ularning ijodkori, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga avaylab-asrab o'tkazuvchi asosiy kuch — barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi, bitmas- tugumas manbai bo'lган xalqdir.

Tarix qa'ridan, necha-necha o'tmish davrlardan bizgacha eson-omon etib kelgan miflar, afsona va rivoyatlar, dostonlar, ertak, maqol va qo'shiqlar, o'tmishning shunchaki bir aks-sadosi emas, balki

xalq ko'nglidagi qayg'u-hasrat va shodlikning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobi hamdir.

Xalq og'zaki ijodiyotining namunalari bo'lgan ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bilan tanishar ekanmiz, xalqda voqealarни oldindan ko'ra biluvchi ajoyib qobiliyat va iste'dod bor ekanligyni, u hech qachon orzu-umidsiz yashamaganligini, har doim kelajak tomon intilganligini anglab olamiz. Har qanday mif, ertak va afsonaning, qadimgi rivoyatning zamirida xalqning muayyan maqsad va niyatları, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bo'lган munosabatlari, mehnat mashaqqatlarini engillashtirish, mehnat unumdarligini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lган intilishlari yashirinib yotgan bo'ladi. Ular xalq ommasining dahosi, uning talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelishi bilan bir qatorda, o'z navbatida ularning o'zi kishilarning ma'naviy, aqliy, axloqiy taraqqiyotiga to'rtki vazifasini ham o'tagan; mehnatni sevishga o'rgatgan, tabiatning xatarli kuchlariga qarshi kurashish va ularni oldini olishda kishilarga yordam bergen, olamda ro'y berib turadigan murakkab hodisa va jarayonlar sir-asrorlarini bilib olishga da'vat etgan, inson, fikri, tafakkuri va xayolotini o'tmishdan kelajakka tomon tortgan, hayotni sevishga chorlagan.

Miflar, ertak va rivoyatlar, termalar, dostonlar, barcha folbklor asarlari o'tmishning eng katta tarixiy hujjati, ajdodlarimizdan bizga qolgan nodir boylikdir. Jamiki san'at asarlari va madaniyat yodgorliklarini hech ikkilanmay inson ko'nglidagi shodlik va quvonchning, g'am va anduhning ifodasi, inson aql- idroki diniy qomusi, bitmas-tuganmas hikmatlar xazinasi, deb aytish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotining eng qadimgi turlaridan biri — mifdir. YAxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashda ezguliknint yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya dunyoning boshqa xalqlarida bo'lganidek, bizning miflar uchun ham xarakterlidir. Qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda, yomonlik olamiga esa Axriman boshchilik qiladi, baxt va baxtsizlik, hayot va mamot shu qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash va uning oqibatlariga bog'liq. YAxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi jangu jadallar ezgulik uchun kurashadigan Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Gershasp obrazida va baxtsizlik timsoli bo'lgan Axriman, dev, ajdar, jinlar bilan bog'liq miflarda o'z ifodasini topgan.

Ezgulik miflarda Mitra kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxt etadigan, dushmanlarga dahshat soladigan, kishilarni ofatdan qutqaradigan quyosh xudosi sifatida, Anaxita esa er, suv va hosil ma'budasi, qahramonlarga kuch-quvvat va muvaffaqiyat baxsh etuvchi tarzida tasvirlanadi. Miflarda tasvirlanishicha, Kayumars Axuramazda tomonidan yaratilgan birinchi odam va insoniyat ibtidosidir. Jamshid — yima — adolatli hukmrondir. Yimaning hukmronlik davri oltin davr hisoblanadi. U davrda odamlar go'yo o'lim va qarilik nimaligini bilishmagan. U er yuzini uch baravar kengaytiradi, chorvani va turli xil qushlarni nihoyatda ko'paytiradi.

Ko'pchilik SHarq mamlakatlarida bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham qadimda er, osmon, quyosh, yulduz va sayyoralar haqida kosmogonik miflar vujudga kelgan. Ularda insonlaming tabiiy muhit, koinot, samoviy hodisalar haqidagi o'y-fikrlari, hayolotlari ifodalangan. Insonlar taqdiri, qismatini yulduzlarga qarab bashorat qilish mumkinligi, baxt yulduzi haqida qanchadan- qancha afsonalar va rivoyatlar yaratilgan. Mifologiyada insonlarga rizq beradigan er, nur va issiqlik beradigan osmon benihoya e'zozlangan, ota Quyoshga, ona esa Oyga qiyoslangan.

Markaziy Osiyoda bir necha ming yillar osha yuzaga kelgan tarixiy taraqqiyot jarayonida mif va afsonalar ijodiy qayta ishlangan, yangi-yangi voqeja va ma'lumotlar, fikr-tushunchalar va g'oyalari bilan boyib, takomillashib insoniyat ma'naviy madaniyatiga hissa bo'lib qo'shilgan.

«To'maris», «SHiroq», «Zariagr va Odatida», «Zarina va Strangiya», «Uch og'a-ini botirlar», «Qahramon», «Malikai Husnobod» kabi qissalar va «Alpomish», «Qirqqiz», «Go'ro'g'li», «Ravshan», «Avazxon», «CHambil qamali», «Oysuluv» singari dostonlarida ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalari ilgari surilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashini badiiy aks ettiruvchi To'maris va SHiroq to'g'risidagi rivoyatlar fikrimizga misol bo'ladi.

To'maris haqidagi qissada massagetlar malikasi To'marisning eron bosqinchilariga qarshi kurashdagi mardligi, dovyurakligi, jasorati, donishmandligi, vataniga sadoqati, dushmanlarga nisbatan ziyrak va xushyorligi chuqur bayon etilgan. Qissada aytishicha, eron shohi Kir massagetlar yurtini o'ziga qaram qilish, boyliklarni talash maqsadida To'marisga uylanmoqchi bo Tib, sovchilar yuboradi. Malika shohning asl maqsadini tushunib unga qayliq bo'lishni, o'z elini qul qilib topshirishni istamasligini qat'iy qilib aytadi. SHundan so'ng Kir ochiq, tajovuzga o'tadi va

massagetlar tomon qo'shin tortadi. SHoh daryodan o'tish uchun ko'priklar qurdira boshlaydi. Uning bu hatti- harakatlaridan xabardor bo'lgan To'maris Kirga elchi yuborib shunday deydi: «Ey shoh, qilayotgan ishingni to'xtat! Hali sen boshlagan ishning qanday tugashini bilmaysan-ku? Qo'y, sen o'z yurtingda podshohlik qilaver, bizni ham o'z holimizga qo'y. Lekin sen bunga ko'nmaydigan ko'rinasan. Agar biz bilan kuch sinashmoqchi bo Tsang, u holda ko'priklar qurib, ovora bo'lma, biz daryodan uch kunlik nariga ketamiz, sen bizning erimizga o't, yoki o'z yurtingda uchrashishni istasang, shuni xabar qil».

Malika To'maris rahbarligidagi massagetlar eron qo'shnlari bilan bo'lajak qonli to'qnashuvga, hayot-mamot jangiga hozirlik ko'ra boshlashadi. Massaget qo'shnlari beomon jangda eroniylarni mahv etib, g'alabani qo'lga kiritishadi. Jangda Kir o'ldiriladi. Jang maydonida emas, nayrang bilan qo'lga olinib halok bo'lgan o'g'li Siparangiz dog'ida o'rtangan To'maris o'z suvoriylariga o'ldirilgan Kir kallasini kesib, oldiga keltirishni, bir meshni esa qon bilan toTdirishni buyuradi. SHundan so'ng u soch-soqoliga qon yopishib qolgan kallani qo'liga olib, unga shunday xitob qiladi: «Ey nomard, sen meni —jangda halollik bilan engib chiqqan bir ayolni — makkorlik bilan o'g'lidan judo qilib, farzand dog'ida kuydirding, sen umring bo'yi qonga to'ymading, men o'z ontimga amal qilib seni qon. bilan sug'ordim. Birovning yurtiga zo'ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu».

Vatanni himoya qilish, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketganligi SHiroq haqidagi tarixiy rivoyatda ham chuqur va har taraflama ochib berilganligini eslatib o'tish mumkin. Naql qilishlaricha, eradan burungi V asr oxirlarida Doro boshchiligidagi eron qo'shnlari Turon eliga bostirib kirib, uning hududidagi turli urug' va qabilalarni birma-bir bosib ola boshlaydi. Doro qo'shini bilan sak qabilasi o'rtasida jang davom etib turgan paytda SHiroq ismli cho'pon yigit podshohi huzuriga kelib, agar bolalariga, oilasiga, avlodiga g'am-xo'rlik qilishsa, dushmani yakka o'zi hiyla bilan halok etajagini aytadi. Ularning va'dasini olgach, SHiroq o'sha erdayoq quloq-burnini kesadi. So'ng saklardan eron qo'shnlari tomonga qochib o'tgan kishi sifatida eroniylar turgan joyga keladi. SHiroq Doroga arz qilib, o'zini saklardan alam ko'rgan kishi qilib ko'rsatadi. eron qo'shinini saklar turgan joyga olib borajagini, g'alabani ta'minlashga yordam berishini aytadi. eron qo'shinini yo'lga boshlaydi. Atrofi suvsiz quruq qum sahroga boshlab boradi. Dushman qo'shini suvsizlikdan sahroda halok bo'ladi. SHu tariqada dushman qo'shini yakka o'zi engadi. SHiroq o'z el-yurtini himoya qilish uchun jonidan kechadi. Borsa kelmas joyga kelib qolganidan g'azablangan Doro o'limga mahkum qilgan yolg'onning sababini so'raganda SHiroq kulib bunday deydi: «Men g'alabani qo'lga kiritdim, chunki vatandoshlarim bo'lgan saklar boshidagi falokatni bartaraf etdim, eroniylarni suvsizlik va ochlikdan o'ldirdim, endi nima qilsalaring ixtiyor o'zlaringga». Sak elining mard o'g'lonining boshini kesadilar. Lekin saklar qo'shimi omon qoladi.

O'rta Osiyoda yashagan qadimgi avlod-ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, e'tiqodi, tarixi, madaniy merosi, jumladan, falsafiy fikrlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishda «Avesto», «Baxistun», «Bundaxishn», «Denkard» singari yozma yodgorliklar muhim tarixiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo xalqlarining falsafiy fikrlariga doir qimmatli ma'lumotlarni olishda zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto» qadimiy tarixiy-adabiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. «Avesto»da aks etgan asosiy falsafiy g'oyalar, diniy e'tiqodning etakchi tushunchalari tarixiy shaxs Zardushtning nomi bilan bog'liq. Uning ismiga nisbatan din ham shunday nom bilan ya'vsh zardushtiylik deb ataladi.

Manbalarda yozilishicha, Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570- yillarda tug'ilgan va etmisht etti yoshida ibodat qilayotgan chog'ida dushman qohinlaridan biri tomonidan orqasidan xanjar sanchib o'ldirilgan.

Zardushtga qadar ajdodlarimiz har xil diniy tasavvurlarga e'tiqod qilib yashaganlar. Diniy e'tiqodlarning turli-tumanligi ibtidoiy munosabatlar o'mini sinfiy jamiyat, qadimgi quldorchilik jamiyati ola boshlagan paytda barcha qabilalarning yagona mafkura asosida uyushishlariga allaqachonoq to'g'onoq bo'lib qolgan edi. O'lkaning turli qabilalarini birlashtirish, ularni ilk buyuk

davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zaruriyati tug'ilib qolgan edi. Ana shunday zaruriyatni tushunib etgan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht tarix sahnasida paydo bo'ldi. Zardusht ko'p xudolilik tasavvurlari, tabiat hodisalariga sig'inishga qarshi chiqib, yakka xudolik g'oyasini targ'ib qildi. Uni odamlar payg'ambar sifatida qabul qilishgan. Zardushtiylik juda qadimiy dinlardan bo'lib, ibtidoiy tuzumdan quldarlikka o'tila boshlagan paytlarda O'rta Osiyoda paydo bo'lган va alohida diniy dunyoqarash sifatida shakllangan.

Zardusht dini o'zi hayot chog'ida ba'zi o'lkalarga yoyilgan bo'lsa, uning vafotidan keyin yanada kengroq tarqaldi. O'rta Osiyoda, jumladan, Xorazm va Sug'diyonada shakllangan Zardushtiylik keyinchalik Ozarbayjonda asosiy diniy e'tiqodlardan biri sifatida keng tarqagan, eron saltanatining rasmiy diniga aylangan. O'tmishtin dinlarining eng kuchlilaridan hisoblangan zardushtiylikka Iskandar Zulqarnayn va arablar bosqinchiligi davrida katta putur etkazilgan.

Zardushtiylik dinining qonun-qoidalari «Avesto» da bayon etilgan. «Avesto» kitobi miloddan bir necha asrlar ilgari yuzaga kelgan. Manbalarning ko'rsatishicha, «Avesto» o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan ekan.

Abu Rayhon Beruniyning «O'tmishtin xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida bu haqda shunday deyilgan: «Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. SHuning uchun Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz nasq (qism) edi. Majusiyalar qo'lida o'n ikki nasq chamasi qoldi.»

IX— XV asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy, falsafiy ta'lilotlari rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'ldi. Bu madaniy jonlanish va yuksalish jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi, ma'naviy hayotni qamrab oldi. Ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, etakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. Markaziy Osyonining jahon madaniyati taraqqiyotining yirik o'choqlaridai biriga aylanishi xuddi shu paytlarga to'g'ri keladi.

IX asrning ikkinchi yarmidan ravnaq topa boshlagan, X — XII asrlarga kelib esa mislsiz natijalar bergen, buyuk madaniy yuksalish va taraqqiyotning shart-sharoitlari, asosiy sabablari, manbalari, hal qiluvchi qattr omillari bor ediki, ularning nimadan iborat ekanligini bilish juda muhim.

Madaniyat va ma'naviyatning jadal sur'atlar bilan taraqqiy etib borishini hayotiy earuriyatga aylantirgan eng asosiy sabablardan biri — Markaziy Osiyo xalqlarining erk, Adolat, Haqiqat, Mustaqillik uchun arab va mo'g'ul bosqichilari zulmiga qarshi olib borgan hayot-mamot janglaridir. Ma'lumki, VIII asr boshlarida Markaziy Osyonining arablar tomonidan bosib olinishi o'lkamiz xalqlarining iqtisodii, siyosiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga kuchli zarba berdi. Arab istilochilari juda ko'plab shahar va hishloqlarni vayron qildilar, minglab odamlarni, olimu fuzolalarni, kosibu hunarmandlarni qilichdan o'tkazdilar. Turon o'lkasiga talon-taroj qilish va boylik orttirish manbai deb qaradilar. O'z hukmronliklarini mustahkamlash, xalqni mustamlakachilik iskanjasida ushlab turish, maqsadida asrlar davomida yaratilgan madaniy boyliklarni emirib tashladilar, mahalliy yozuvlarni yo'q qila boshladilar, qanchadan-qancha avlodlar aql-zakovati, iste'dodi bilan yaratilgan noyob yodgorliklarni, qadimgi diniy va dunyoviy qadriyatlarni, milliy urf-odatlarni er bilan yakson qildilar, Istilochilar davlat ishlarida va fanda arab tili va yozuvini majburan qo'llay boshladilar, islam dinini zo'rlik bilan joriy etdilar. Abu Rayhon Beruniy «Htmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarida Qutayba Xorazm yozuvini bilgan, Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ularning orasida bo'lgan olimlarning hammasini turli yo'llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo'q qilib yubordi», — deb yozgan edi.

Arab bosqinchilarining uzoq davom etgan mustamlakachilik zulmi xalqning sabr-kosasini to'ldirdi. Xalifalik hukmronligiga qarshi VIII—IX arslarda, Quran, Devoshti, Bobak, Abu Muslim, Muqanna, Rafe' ibn Lays rahbarligida qariyb yuz yil mobaynida olib borilgan xalq kurashlari Turon va Xurosonda arab bosqinchilari xukmronligining tanazzulga yuz tutishi bilan tugadi. Markaziy Osiyoda IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab xalifaligi tugatildi, uning o'rniga bu erda mustaqil feodal davlati paydo bo'ldi.

SHunday qilib, Markaziy Osiyoda chet el bosqinchilari hukmronligining tugatilishi X—XII asrlarda juda ko'plab mustaqil feodal davlatlarning vujudga kelishi natijasida feodal ishlab chiqarish munosabatlarining, ichki va tashqi savdoning, hunarmandchilikning rivojlanishi, ilm-fan va madaniyatning, falsafaning ravnaq topishi milliy qadriyatlarning tiklanishi va takomillashib

borishiga keng sharoit yaratildi. Bu davrda mamlakat ichidagi o'zaro urushlar kamaydi. Buxrro, Urganch, Marv, Toshkent va boshqa joylarda hunarmandchilik, kosibchilik ancha rivojlandi. Bularning hammasi madaniyat hamda fanning rivojlanishiga sababchi bo'lди.

So'z yuritilayotgan davrlardagi ilmiy-falsafiy tafakkur tarixi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi bilan ham uzviy bog'liqdir. Arablar va mo'g'ullar tajovuzidan qutilib mustaqil bo'lgan Markaziy Osiyoda kanallar, qal'alar, saroylar. qurish faqat amaliy tajribanigina emas, balki joyni rejalashtirish, murakkab hisoblash va o'Tchashlarni, matematika, geodeziya, tabiatshunoslik fanlarini, uzoq mamlakatlarga cho'llar orqali safar qilish esa, yulduzlarga qarab yo'l topishni, ya'ni astronomiya ilmining rivoj topishini taqozo etdi.

IX asrning ikkinchi yarmida Markazii Osiyoda mustaqil davlatlarning xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining o'sishi nafaqat tabiiy balki ijtimoiy-gumanitar fanlaming yanada kuchliroq rivojlanishi va taraqqiy etishiga sabab bo'lgan edi. Arab xalifaligi hukmronligi barbod bo'lganidan so'ng SHarq va G'arb mamlakatlari, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ancha mustahkam iqtisodiy, madaniy alaqalar vujudga keldi. Turon zaminning YUnion, Rim, Hindiston, eron, Arab mamlakatlari, shuningdek, Kavkazning qadimiy madaniyati bilan yaqinlashuvi fan, adabiyot, ijtimoiy-falsafiy fikming yanada kengroq taraqqiy topishiga imkoniyat tug'diradi. Markaziy Osiyoda SHarq va G'arb ilmiy aloqalarn ko'p asrlik ilmiy hamkorlik an'analari asosida bir-birini boyitish, o'zaro ta'sir asosida sodir bo'ldi. Markaziy Osiyodagi ko'pgina hukmdtsrlarning o'z saroylarida faylasuflar, tarixchilar, shoir va yozuvchilarni, olimu fozillarni diniy arboblar va huquqshunoslarni, xullas, barcha ahli donishii to'plab, ularga homiylik qilganliklari o'sha davr fani va madaniyati taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Hukmdorlar orasida Qobus ibn Vashmgir, Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun, Amir Temur, SHofuh Mirzo, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muxammad Bobur singari ko'plab fan va madaniyatning himoyachilari bo'lgan. Ulaming o'zлari ayni paytda buyuk donishmandlar ham bo'lib, turli sohalarda nodir asarlar yozishgan, o'z davri fan va madaniyat taraqqiyotiga yordam berishgan.

Amir Temurdek buyuk sohibqiron ham atrofiga ilm va dinning mashhur kishilarini to'plab, olimlarning fikr va mulohazalariga, Maslahatlariga hamma vaqt e'tibor bilan qaragan. Uning fan, madaniyat arboblari, shayxlar, diniy ulamolarga, umuman ahli donishlarga ko'rsatgan hurmati, yordami hammaga ma lum.

Jamiyat taraqqiyoti o'rta qo'ygan talablar hamda mavjud shart-sharoit tufayli IX—XV asrlarda Markaziy Osiyoda, YAqin va Hrta SHarq mamlakatlarda ilm-fan va madaniyat chinakamiga gurkirab rivojlandi, gullab-yashnadi.

Ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari orasidan o'zining aql-idroki va tafakkuri, qomusiy bilimi bilan insoniyatni lol qoldirgan fan va madaniyatning so'nmas yulduzlarini etishdilar.

Buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodni etishib chiqqan, jahonni ilm, ma'rifat va ma'naviyat nuri bilan yoritgan ana shu davr SHarq tarixida oltin asr yoki uyg'onish davri deb ataladi.

Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining qomusiyligi — bir paytning o'zida ham faylasuf, ham musiqashunos, ham mantiqshunos, sotsiolog va filolog, ham tarixchi, shoir, matematik, xullas, ilmning hamma sohasida etukliklari bilan ajralib turadilar. Bu siymolaming kishini lol qoldiradigan jihatlaridan yana biri sifatida ularning bir necha tilda bemalol gaplasha olgashshklari, ijod qila organliklari, ilmiy manbalar, asarlar dan bekamu ko'st foydalana organliklarini ham aytib o'tish lozim. Ular ilmning qaysi masalasi bilan shug'ullanishgan bo'Isa, o'sha sohada buyuk kashfiyotlar qilishdi, o'tmishdoshlaridan hech bir alloma zabit eta olmagan fanning nurafshon cho'qqilarini zabit eta olishdi. Bundan tashqari ularning ko'pchiligi fanda yangicha yo'nalishlami, yangicha tafakkur uslubini ixtiro qilishdi, tamomila yangi taTimotlami yaratishdi va ilmiy asoslab berishdi. Buiok mutaffakkirlar tomonidan chuqur ilmiy asoslangan g'oya va ta'limotlar faqat ular yashagan davr uchungina emas, balki kelajakni oldindan bashorat qilish, tabiiy, ijtimoiy voqeа va jarayonlarni oldindan aytib berish nuqtai nazaridan ham bebahodir. Donishmand bobolarimizning ilmiy-falsafiy taTimotlari tor milliy qobiqda o'ralib qolgan emas, balki xam milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan taTimotlardir. YAna shu narsa e'tiborga sazovorki, SHarq mutafakkirlarining deyarli hammasi o'z davrining qaynoq hayoti markazida bo'lishdi, amaliy ishlarda faol ishtirok etishdi, elim, xalqim, yurtim deya yashashdi, xalq hayotidan ayro tushmadilar. Bu ularning haqiqiy barkamol inson, otashin vatanparvar, xalqparvar va buyuk alloma ekanliklarining belgisidir. Usha buyuk zotlar, qomusiy aql egalari yashagan va ijod qilgan davrlardan boshlab SHarqda, Markaziy Osiyoda ilm-fan

va madaniyat, falsafa katta qadamlar bilan olg'a tomon rivojiana boshladi. Bu tarqqiyot uzoq davom etdi, bir necha yuz yillarni o'z ichiga qamrab oldi,

XORAZMIY

Turonning jahonga mashhur olimlaridan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo'lib, u taxminan 783 yilda tug'ilgan va 850 yilda Bog'dodda vafot etgam.

Xorazmiy ilm-fan va madaniyatning qadimiylaridan beshiklaridan hisoblangan Xorazmda qomusiy olim sifatida shakllandi, voyaga etdi va shu arning o'zida uning nomi dunyoga ma'lum bo'ldi. Muso Xorazmiy ilmiy-ijodiy faoliyatining juda katta davri arab xalifaligining poytaxti Bog'dod .bilan uzviy bog'liqdir. Xorazmiy xalifa Ma'mun rahnamoligida islam SHarqining Fanlar akademiyasi—«Bayt ul-hikma» (*«Donishmandlar uyi»*)da ishladi. Bu ilm dargohida u juda ko'plab-asgronomik kuzatishlar olib boradi, matematik va astronomlarning katta bir jamoasiga ustozlik qiladi hamda o'zining (*Ko'pgina shoh asarlarini yozadi*). Xorazmiyning Bordodda yashab ijod etgan zamondoshlari orasida Ahmad Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaviy kabi Markaziy Osiyolik olimlar bo'lib, ular o'rta asr ilmu-fani rivoji va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Muhammad Muso Xorazmiyning ko'p qirrali ilmiy qiziqishlari matematika, nazariy va amaliy astronomiya, geografiya, tarix va boshqa ko'plab fanlarga oiddir. Uning nomini tarixda abadiy qoldirgan asarlaridan biri — «Al-jabr va muqobala»dir. Bu asar G'arb va SHarq olimlariga algebra fani bo'yicha dasturiy amal bo'lib xizmat qildi, «Algoritm» va «Algebra» degan atamalar Xorazmiy nomi bilan bog'liqdir.

Allomaning algebra, arifmetika, matematika, geometriyaga oid asarlari asrlar davomida taqsimlashda, vasiyatnomalar tuzishda, mol-mulkini o'zaro bo'lib olishda, sud ishlarida, savdo-sotiq muomolalarida, shuningdek, erlami o'lchashda, kanallar qazishda, bino qurishda katta xizmat qildi.

Xorazmiy aytib o'tilgan asarlaridan tashqari «Kitob surat al arz» (*«Er surati»*) degan risola ham yozdi. Asarda u Ptolomeyning «Geografiya» nomli kitobini butunlay qayta ishlab chiqdi. SHarq mamlakatlari to'g'risida ko'pgina qimmatli ma'lumotlar berdi. Unda mamlakatlar, shaharlar, ularning nomlari, hajmi ko'rsatilgan va bir necha izohlar berilgan xaritalar mavjud. Bu kitobda Orol dengizining tasviri xam berilgan. Asarda bundan tashqari 637 ta muhim joylar, 209 ta tog'ning geografik tafsiloti, daryolar, dengizlar va okeanlar havzasining shakli, ularda joylashgan orollarning muxim kordinatalari bayon etilgan. Olimning bu kitobi SHarq mamlakatlarida geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

«Astronomik jadvallar», «Quyosh soati to'g'risida risola», «Hind hisobi haqida risola», «Usturlab olati haqida risola», «Zij» (*«Astronomik jadval»*), «Musiqa bo'yicha risola», «Tarix bo'yicha risola» va boshqa ko'plab nodir asarlar ham Muso Xorazmiy qalamiga mansubdir. Ana shu asarlar nomining o'ziyoq Xorazmiyning ilmiy tafakkuri benihoya kengligi, qomusiy alloma ekanligini, nafaqat o'z davrining balki hamma zamonlarning eng buyuk matematik va tabiatshunos olimi ekanligini ko'rsatadi.

Xorazmiy o'zining matematika, geografiya, tarix, musiqa, astronomiya va boshqa fanlarga bevosita taalluqli bo'lган asarlar bilan jahon fani taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi, o'rta asrlarda odamlar xayollariga ham keltirmagan eng murakkab masalalarini ilmiy ravishda hal etdi.

Muhammad Muso Xorazmiyi bugungi avlod hozirgi zamon matematika, astronomiya, geografiya va tarix fanlarining asoschisi sifatida e'zozlaydi. Jahon ilm ahlining 1983 yili Muhammad Muso Xorazmiyiing 1200 yilligini zo'r tantana bilan nishonlaganligi buyuk vatandoshimizga ko'rsatilgan cheksiz xurmat va ehtiromdir.

Muhammad Muso Xorazmiy nafaqat buyuk matematik, tabiatshunos alloma, balki mashhur faylasuf sifatida ham ma lum va mashhurdir.

Xorazmiy maxsus falsafiy asar yozgan bo'lmasa-da lekin uning matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix va musiqa ilmiga oid barcha kitoblarida ilgari surilgan va ilmiy isbotlangan falsafiy fikr-mulohazalar, falsafiy g'oya, nazariya va ta'limotlar son-sanoqsizdir. Uningcha, Olloh tomonidan yaratilgan dunyoda, materiyada o'z holatini doimiy ravishda o'zgartirmay saqlab turadigan hech qanday narsa va hodisa yo'q va bo'lmaydi. Materiya tinimsiz o'tish, o'zgarish va rivojlanishdadir. Unda nimadir yangidan paydo bo'ladi, ma lum vaqt mobaynida yashaydi, keyinchalik borib esa u ham eskira boshlaydi va pirovard-oqibatda o'z o'rnini boshqa narsaga qonuniy ravishda bo'shatib beradi. eski narsa o'rnini yangisi, o'layotgan narsa o'rnini

tug'ilayotgan narsa egallashi, Xorazmiy falsafiy ta'limotida qayd etilishicha, tabiiy-qonuniy jarayondir. Bu jarayon cheksiz va chegarasizdir.

Xorazmiyning dunyoning asosini, moddiy negizini nima tashkil etadi, degan masala bo'yicha bayon etgan fikrlari ham e'tiborga sazovordir. Buyuk mutafakkir materiyani olamdag'i barcha narsa va hodisalarning asosi deb hisoblaydi. Uning tushuntirishicha dunyo to'rt unsur-tuproq, suv havo va olovdan tashkil topgan. Dunyodagi barcha narsa va hodisalar ana shu unsurlarning birikishi, o'zaro ta'siri ostida hosil bo'ladi va yashaydi. Suv va havo-haqidagi ta'limot Xorazmiy falsafiy dunyoqarashining o'zagidir. Orol dengizining Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, o'simliklar va hayvonot dunyoei uchun naqadar muhimligi haqida buyuk vatandoshimizning bundan ming yil iltari qilgan bashoratlari bunga misol bo'ladi.

Alloma o'zining bilish nazariyasidagi moddiy olam, inson, uning sezgisi, aql- idrokidan oldin paydo bo'lgan, inson va uning aqli esa moddiy olam rivojining mahsulidir, deydi. Ayni paytda u inson bilish sub'ekti, tabiat, jamiyat, umuman moddiy olam esa uning ob'ekti deb biladi. Xorazmiy hissiy va aqliy bilishiing o'ziga xos hususiyatlarining mohiyatini, o'zaro aloqadorligini alohida ta'kidlaydi. Uning aytishicha aqliy bilish hissiy 'bilishsiz vujudga kelmaydi. Hissiy bilish borliqning tashqi tomonlari haqida bilim berish manbaidir. Aqliy bilish yordamida esa inson narsa va hodisalarning murakkab ichki tuzilishini, mohiyatini, qonuniyatini bilib oladi. Aqliy bilish inson bilish rivojining yuqori bosqichidir. Bunda biz Xorazmiyning aqliy bilish masalalariga alohida e'tibor bergenligini ko'rib turibmiz. Bilishda inson aqlining va amaliyotning ahamiyatini ko'rsatganligi buyuk vatandoshimizning ajoyib xizmatlaridan hisoblanadi.

Muso Xorazmiy dunyoqarashida ijtimoiy-falsafiy masalalar, xususan jamiyat va uning istiqboli haqidagi fikr mulohazalar alohida o'r'in egallaydi. Jamiyat taraqqiyotida ilm-fan va madaniyatning, odob-axloqning, islom dini, shariat qonunlarining katta o'r'in tutishi haqida alloma tomonidan bayon etilgan fikrlar hozirgi davr uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning aqlini peshlash, iymon-e'tiqodini mustahkamlash, ruhan poklash va kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlarni mustahkamlashda fan va madaniyatning, diniy qadriyatlarning muhimligi xususidagi fikrlari tahsinga sazovordir.

Buyuk vatandoshimiz Muhammad Muso Xorazmiyning nodir asarlari, yaratgan ta'limoti, ijtimoiy-falsafiy qarashlari, hozirgi avlod uchun bitmas-tuganmas xazina, mustaqilligimiz uchun xizmat qiladigan bebaxo ma'naviy boylikdir.

FOROBİY

Abu Nasr Forobi (873—950) nafaqat Markaziy Osiyo va SHarqning, balkya butun dunyoning asrlar osha e'tirof etilib, benihoya katta hurmatga sazovor bo'lib kelayotgan buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, mashhur faylasufidir.

Hrta asr fan va madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan, SHarq Uyg'onish davrining ulug' namoyandasi xisoblangan Forobi milodiy 873 yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyladigan joydagi Farob qishlog'ida tug'ilgan.

U dastlabki bilimini Farobda olgan. Uning fikr doirasiga, ilm-fanga bo'lgan kuchli qiziqish va intilishiga o'zi tug'ilib, o'sgan yurtida olgan bilim kifoya qilmagan. Toshkent, Samarqand va Buxoroda, Markaziy Osnyoning boshqa o'lkalarida olgan tahsili uning ilm-ma'rifikatga bo'lgan tashnaligini qondira olmagan. Ilmga katta hayotiy extiyoj sezgan Forobi yahon ilm markazlaridan biri — Bog'dodda qo'nim topadi. Bu erda u tinmay o'qib- o'rganadi, arab tili va adabiyotini mukammal bilib oladi. Keyinchalik Forobi SHom, Misr o'lkalariga borib mutolaa va mudarrislik qilib yirik faylasuf sifatida taniladi, shogirdlar orttiradi.

Forobi yihoyatda sermahsul olimdir. U ilmning barcha sohalarida ijod qildi, buyuk asarlar yozdi. XII—XIII asrlaming yirik olimi Zaxiriddin al-Bayhaqiy fikricha, islom o'lkalari olimlari orasida unga teng keladigaya odam dunyoga kelgan emas.

Forobi yirik faylasuf, tilshunos, mantiqchi, riyoziyotchigina emas, shu bilan birga sotsiolog, filolog, tibbiyotchi, psixolog, musiqa ilmining nazariyotchisi va amaliyotchisi hamdir. Forobi «Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak?», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Mantiqqa kirish», «SHer san'ati», «SHoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida», «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida», «Musiqa haqida so'z», «Ohanglar tasnifi haqida kitob», «Masalalar bulog'i», «Aql to'g'risida», «Inson a'zolari xaqida risola», «Fozil shahar odamlari qarashlari», «Davlat haqida» kabi 160 dan ortiq qimmatli asarlar yozdi.

Forobiy shug'ullangan har bir soha, u yozgan har bir asar o'rta asr, yangi davr va hozirgi zamon olimlari tafsini va e'tiboriga sazovor bo'lган. Forobiy yozgan asarlar o'rta asr ilmining qariyb barcha soxalarini qamrab olgan.

Qadimgi yunon falsafasini, xususan Aristotel asarlarini chuqur va mukammal bilish, tarjima qilish, ilmiy sharhlar yozish, targ'ib-tashviqot etishda Forobiya tenglashadigan va uning oldiga tushadigan donishmand bo'lган emas. Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari va tabiatshunoslari qalamiga mansub ko'plab asarlarning umumiy mazmuni va yo'naliishini ilmiy tahlil qilgan. Aristotelbning «Metafizika», «Ritorika», «Poetika», «Kategoriyalar», «Analitika», «Etika» va boshqa ko'plab asarlarini tarjima qildi.

Forobiy o'rta asr falsafasi rivojiga katta hissa qo'shdi, birinchi bo'lib o'z davridagi ilmlarning tasnifini berdi. Hzining ona tili — turkiydan tashqari -fors, yunon, arab va yana bir necha tillarni mukammal bilgan. SHarqning mashhur tarixchi olimi Ibn Xalliqon (1211 —1282) fikricha, til bilishda hech kim Forubyiy erishgan darajaga erisholmagan: u etmishdan ortiq tilni bilgan.

Aristoteldan keyin falsafa fani olamida, xususan, SHarqda Farobiya tenglasha oladigan olim maydonga chiqmadi. Forobiy o'z bilimi, ma'rifati, fikr doirasining kengligi, qomusiyligi, jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan beba ho hissasi bilan shu darajada katta shuhratga erishdiki, uni hayotiyligidayoq, Aristoteldan keyingi yirik mutafakkir «Muallim — as-soniy» — Ikkinch muallim», «SHark Aristoteli» iomlari bilan ulug'lashdi.

Uyg'onish davrining mashhur faylasufi bo'lган Forobiy fikricha, borliq olti bosqichdan iborat bo'lib, bu bosqichlar butun mavjud narsalarning asosidir. Farobi yudoni «birinchi sabab», «birinchi mohiyat» deb izohlaydi. Farobi bir qancha bosqichlar orqali sabab oqibat munosabatlari yordamida bu birinchi sababni materiya bilan bog'laydi. Materiya o'z sababiga, ya'ni xudoga xos bo'lган barcha xususiyatlarga egadir. Materiyasiz, ya'ni oqibatsiz xudo — sabab ham bo'lishi mumkin zmas. Dunyo, tabiat xudo tomonidan qisqa-muddat ichida yaratilgan emas, deydi olim. Dunyo xudodan boshqa mohiyatga ega bo'lган bog'liq bo'lmasdan, xudoning emanatsiyasidir, deb ta'kidlaydi. Tabiatning bu holga kelishiga qadar bir qancha vaqtolar, jarayonlar o'tgan. SHunday qilib Farobi barcha mavjudodni, olamni, materiyani birinchi sabab-xudodan keltirib chiqaradi. Forobiy materiya, uning abadiyligi va cheksizligi haqidagi falsafiy ta'limotni ishlab chiqdi. Uning ta'kidlashicha, materiya olamdag'i narsa va hodisalarning asosidir. Dunyoning moddiy asosi yoki materiya tuproq, suv, xavo, olov va osmondan ibirat bo'lib, Forobiy ta'limoticha, osmon jismlari ham, erdag'i jismlar ham ana shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Forobiy hamma narsaning umumiy jinsi olamdir, olamdan tashqari hech nima yo'qdir, deydi.

IBN SINO

Insoniyat Abu Ali ibn Sino (980—1037) ni jahon fanining ulurg' arbobi, uyg'onish davri madaniyatining yirik namoyandalaridan biri sifatida biladi va e'zozlaydi.

Buyuk alloma bor-yo'g'i ellik etti yil umr ko'rdi, bu umrdan o'n sakkiz yili ilm tafsili ga sarf bo'ldi. U umri davomida uch yuzdan ortiq asarlar yozdi. Uning yozgan asarlarini ilm-fanning barcha sohalariga oiddir, limning falsafa, tibbiyot, astronomiya, tabiatshunoslik, matematika, musiqa, huquq, axloq, din, adabiyot, tarix singari sohalari Ibn Sino tomonidan qamrab olingan. Qomusiy olim asarlarini ilmlar tarmog'i bo'yicha taqsimlaganda, o'rta asrda ma lum bo'ltan barcha fanlarni sanab chiqishga to'g'ri keladi.

Ibn Sino o'z asarlarini bilan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. SHuning uchun ham uning «SHayxur rais» - «Olimlar olimi» deb atalishi bejiz emas. Olimning asosiy falsafiy asarlarini «Kitob ash-shifo» («Davolash kitobi»), «Donishnoma», «Najot», «Qitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitob al-qonun fit tib» («Tib qonunlari kitobi») dan iborat.

Ibn Sino o'tmishdoshlari va zamondoshlari singari xudoni z'tirof etadi, uni borliqning birinchi manbai deb tushunadi. Ibn Sino aytishicha, borliq abadiydir, u shaklini o'zgartirishi, bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tishi mumkin, lekin uning o'zi, materiya yo'qolmaydi. Materiya doim vujudga kelishi mumkin bo'lган narsalardan oldin mavjud bo'lib, bu narsalar ularni tashkil etuvchi materiyaga muhtojdir, deb ko'rsatdi.

Ibn Sino hamma narsaning mohiyatini materiya tashkil etadi, materiya turli- tuman shakllarda namoyon bo'ladi, degan falsafiy qarashni rivojlantiradi. Jism shakli materiyasiz bo'limganidek, materiya ham shaksiz bo'lmaydi. Demak, jism va uning shakli bir-biridan ajralmas bo'lganidek,

materiya va shakl ham o'zaro aj-ralmyasdir. Materiya harakat, fazo, zamon bilan bog'liqdir. Abu Ali ibn Sino aqlning har tomonlama rivojlanishiga, tabiat sirlari va xaqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishongan edi. SHuning uchun ham ohm odamlarni bir-biri bilan do'st, inoq bo'lib yashashga chorladi. Odamlar sofdil, samimiy do'st bo'lib yashasa, bir yoqadan bosh chiqarishsa xar qanday mushkul oson bo'lishiga qattiq ishondi.

Ibn Sino odamlarga qarata «Risolatut tayr» («Qush risolasi») asarida shunday degan edi: «Ey birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiy do'st bo'lib, haqiqatni. ochinglar. Har bir kishi o'z birodari uchun ko'nglidagi samimiylikdan (to'sqishshk) pardasini ochib tashlasin. SHunday qilinglarki, birodarlaringiz sizlardan (o'zi bilmagan) ba'zi narsalarni o'rgansin va boshqalari (bo'lqa) ba'zi narsalarni o'rganib, o'zini kamolotga etkazsin».

Buyuk mutafakkir eslatib o'tilgan «Qush risolasi»-da, baxt o'z do'stleriig yoningda yashagan, sen har kuni ko'rishib turadigan, birga ishlaydigan va o'z vaktingni xushchaqchaq o'tkazib turadigan do'stlering bilan birga yashaydigan joydadir, deb ta'kidlaydi.

BERUNIY

Xorazmlik buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973— 1048) jahon fani va madaniyati tarixida yorqin siyolardan hisoblanadi. Beruniy o'z zamonasining buyuk mutafakkiri, olimlar peshvosi bo'libgina qolmay, balki hamma zamonlarning eng ulug' allomasidir.

Beruniy bilan G'aznada yashagan mashhur tarixchi Abul Fayz Bayhaqiy (1077 yilda vafot etgan) olimga baho berib, bu odam ilmi adabda, narsalaming mohiyaini aniqlashda, handasa va falsafada shu qadar bilimdon ediki, uning zamona unga tenglashadigan hech kim yo'q edi. XIII asrda yashagan yirik olim YOqut Hamaviy ta'biri bilan aytganda, zamona ilm va aqlda unga teng keladigan boshqa odamni ko'rmadi.

Beruniy butun kuchi, hayoti, aql-idroki va tafakkurini ilmu fan asoslarini o'rganishga sarfladi. U o'zini qiziqtirgan masalalarni sinchiklab o'rganib mohiyatini bilib olishda hech erinmagan, hafsalasi nihoyatda zo'r bo'lgan. SHuning uchun ham SHarqda Beruniy haqida osoyishtalikni mashaqqatdan, kechani kunduzdan ajratmagan, kuni qalam ushlashdan, miyasi fikrlashdan, tili bayon etishdan hech qachon to'xtamagan, o'z taxesili va kamoloti uchun yilning hamma kunlarini bergen, degan gap tarqalgan.

Beruniy nihoyatda sermahsul, ilmiy faoliyati ko'p qirrali va boy komusiy olimdir. Akademik I. YU. Krachkovskiy so'zi bilan aytganda, u qiziqqan sohalarini sanab chiqishdan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir.

Beruniy 160 ga yaqin asar yozgan. Uning asarlari astronomiya, matematika, geografiya, geodeziya, kartografiyaga, ob-havo masalalariga, mineralogiya, fizika, dorishunoslik, tarix va etnografiyaga, falsafaga, denga, ritorika va musiqaga, adabiyotga, xullasi kalom, ilmning hamma sohalariga bag'ishlangan. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Minerologiya», «Geodeziya», «Qonuni Mas'udiy» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy qaysi bir fan bilan shug'ullangan bo'lqa, o'sha sohada insoniyat o'chun g'oyat katta, axamiyatga ega bo'lgan eng muhim ilmiy g'oyalarni o'rta ga tashlagan, ham SHarqdagi, ham G'arbdagi o'zidan keyingi olimu mutafakkirlarga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro'y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar xususida muhim ilmiy-falsafiy g'oyalarni ilgari suradi va isbotlab beradi. Olamda bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning, pay do bo'lish va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy-ilmiy va falsafiy mulohazalarini may donga tashlaydi. Tabiiy jarayonlarda bo'ladijan imkoniyat va voqelik, moxiyat va hodisa, sabab va oqibat, shuningdek, irlsiyat va o'zgaruvchanlik masalalariga katta e'tibor beradi. Odamlarning rang, su'rat, tabiat va ahloqda

turlicha bo'Tishlarining asosiy sababi, olimning ta'kidlashicha, faqat nasl- nasablarining turlichaligida emas, balki tabiiy-iqlimi muhitlarning — tuproq, suv, havo va joylaming turlichaligi hamdir.

Borliqning abadiyligi, uning doimiy ravishda o'zgarib turishi haqida ham Beruniy o'z fikrini mukammal bayon etadi. «Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar» asarida, «01am azaliy falak cheksiz bo'shliqqa joylashgan», — deydi. Allomaning fikricha, er, tabiat azaldan hozirgi holatida bo'lqa emas, bundan keyin ham shunday holatda qolmaydi. Uzoq yillar mobaynida evolyutsion o'zgarishlar tufayli erimizning tashqi qiyofasi, relbefi, faunasi, nabobati, ob-havosi, iqlimi bir necha bor o'zgardi, daryolarning oqish yo'Hari oldingidan boshqacha bo'lib koldi, quruqlikda bir vaqtlar

bo'limgan ko'llar, dengizlar hosil bo'ldi, ba'zilari esa yo'q bo'lib ketdi, tog'lar emirildi. Ava shu tabiiy sabablar tufayli o'sha joydag'i sharoitlar o'zgarib ketdi.

Beruniy erdag'i iqlimning, mavsumlaming o'zgarib turishi quyoshning harakatiga bog'liq ekanligiga ham e'tibor bergan. «Astronomiya kaliti» asarida Beruniy arning aylanmasligi haqidagi eskicha tasavvurlarni rad etadi va er aylanadi, uning harakati qonuniy ravishda va astronomik hodisalarga muvofigdir, deydi. Mutafakkiming «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida nur va zamon, nuring harakati va tovush harakati, nur va issiqlik, nur va qorong'ulik, oy nuri va quyosh nuri singari masalalar ham bayon etilgan.

Beruniy materiya doim o'zgarib, xarakat qilib, yangilanib, turli shaklga kirib turishi, moddiy narsalar va ularning xarakati abadiy ekanligini alohida qayd qiladi. Uning fikricha, olamda narsalar rivojlanib turadi, narsalarning nihojasiz ravishda yashirinlikdan yuzaga chiqishi rivojlanishga dalildir.

Beruniy koinotda Erdan, bizning hayotimizdan tashqari yana boshqa dunyolar mavjudligi, harakat ziddiyatga asoslanishi haqidagi ilmiy fikrlarni ham ilgari suradi. Uningcha; tabiatda ma lum, qonuniyat. bor, tabiatdigi hodisalarni o'sha qonuniyatlarg'a, tabiatning o'ziga asoslanib izox etish, tushunish kerak. Tabiatda o'z-o'zidan maydonga kelib chiqadigan g'ayriqonuniy, tartibsiz narsa yo'q. YUzaki qaraganda tartibsizlikka o'xshagan hodisalar ham aslida ma lum qonuniyat asosida maydonga keladi.

Beruniy Er Quyosh atrofida aylanadi, degan xulosaga kelib, olamning gelotsentrik nazariyasini yoqlashga intildi. Beruniyning dunyo oldidagi eng katta xizmatlaridan biri shundan iboratki, u Galileydan bir necha asr oldin Erning dumaloq shaklda ekanligi va Quyosh atrofida aylanishi haqidagi farazni o'rta ga tashladi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika va jo'g'rofiya sohasidagi ratsionalistik fikrlari bilan Kopernik, Leonardo da Vinci va boshqa olimlarning kashfiyotlarini ko'p iihatdan oldindan payqagan zdi.

ZAMAXSHARIY

Buyuk mutafakkir Abul Qosim Mahdum ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy 1075 yilning 19 martida Xorazmnинг katta qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud tottgan. U tibshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz, jo'g'rofiya, safsir, hadis, fiqh va qiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan bo'lib, ularning aksariyati bizgacha etib-kelgan.

Az-Zamaxshariy arab tili va adabiyotini o'zining chuqur tahlil va ilmiy mazmunga ega asarlar bilan boyitdi. Uning asarlari ilm-fanning ko'pgina sohalarini qamrab olgan bo'lib, mazmuniga ko'ra asosan quyidagi guruhlarga bo'linishi munikin: a) diniy ilmlar va ulamolar haqida; b) lug'atshunoslik; v) grammatika (nahv); g) aruz; d) adabiyot; e) mantiq.

Tilshunoslik va grammatikaning turli jihatlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid «A1-mufassal» (1121 yil) nomli asari arab tili nahvu sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Mashriqu Mag'ribdan shuhrat topgan. Hatto SHom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim az-Zamaxshariyning ushbu asarini yozib olsa unga besh ming kumush tanga pul va sarupo qilishga va'da bergan. Yana bir asari «Muqaddimat ul adab» to'g'risida «Hzbek tili uchun bu asar, butun dunyoning xazinasi bilan barobardir, — degan edi Sadriddin Ayniy Olimning «Notiqlik asoslari» asari lug'atshunoslik sohasiga, «Ezgulik bahori va yaxshilar» asari esa pan-du nasihat, hikmatlarga bag'ishlangan bo'lib, insonning komilligiga xizmat qiladi.

Olimning «Tog'lar, joylar va suvlar xaqida»gi asari o'zining umr bo'yini gosh izlab, sayyoxlik qilib yurgan paytlaridagi taassurotlari majmuidan iboratdir.

Az-Zamaxshariy chuqur bilimi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlar yaratganligi sababli hali hayot vaqtidayoq butun musulmon SHarqida uni xurmat va mehr bilan «Ustoz ut-dunyo («Butun dunyoning ustozи») «Ustoz ul Arab va al-Ajam», ya'ni «Arablar va G'ayri Arablar ustozи», «Faxru Xorazm», «Xorazm faxri» kabi nomlar bilan ataganlar.

ULUGBEK

Nomi SHarq musulmon olamidagina emas, G'arbdagi xristian dunyosida ham bir necha asrlar mobaynida yod etilib va e'zozlanib kelinayotgan buyuk zotlardan biri sohibqiron Amir Temuming suyukli nabirasi, SHohruh Mirzoning o'g'li — Muhammad Tarag'ay — Mirzo Ulug'bek hazratlari (1394—1449 yillardir).

Xazrat Alisher Navoiy ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, Amir Temur naslidan chiqqan

Ulug'bekdek sultonni, olam xali ko'rgan emas.

Mirzo Ulug'bek—sultonlar o'rtasida donishmand, donishmandlar tepeasida esa sulton sifatida tarixda ma lum va mashhurdir.

Jahonda Ulug'bek nomi bilan shuhrat qozongan Muxammad Tarag'ay 1394 yil 22 martda turildi. Bobosi Amir Temuming katta xotini Saroymulk—Bibixonim tarbiyasini olib ulg'aydi. Amir Temur unga alohida e'tibor bilan qaragan. Saroyda bo'ladijan maslahatlar, olimlar bilan bo'ladijan uchrashuvlar va suhbatlarda, chet ellardan kelganlami qabul qilishlar, shuningdek, harbiy mashqlar va yurishlarida Ulug'bekni ishtirok ettingan. Amir Temur o'z nabirasi Ulug'bekni qilichboz sarkarda zmas, balki buyuk olim bo Tib etishishini orzu qilgan va shu yo'lda unga homiylik qilgan.

Mirzo Ulug'bek yoshlik paytlaridanoq qaerda bo'Tmasin, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, ulamolar, shayxlar, dunyoga taniqli allomalar davrasida bo'lgan, ilmiy bahslardan ma'naviy bahra olgan, ilhomlangan, ulardan ko'p narsa o'rgangan, asta-sekin ko'zi pishib, aqli teranlashib, fikran boyib, dunyoqarashi kengayib va chuqurlashib borgan.

Buyuk bobosi Amir Temur vafot etgan paytda 15 yoshda, Movarounnahmi boshqarishdek og'ir, murakkab vazifa topshirilganda Mirzo Ulug'bek endigina 39 yoshga to'lgan edi. Ammo uning podshohligi temuriylar saltanatining saodatli davri sanaladi.

Hta murakkab, alg'ov-dalg'ovli va ziddiyatli bir sharoitda yashagan va shakllangan Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy xayotini boshqarish bilan bir katorda ilmiy ishlar bilan shug'ullangan, olimlarga rahnamolik qilgan, o'z ustida tinimsiz ishlab, o'tmish ilmiy bilim xazinalarini tinmay o'rganish, mutolaa qilish, ilmiy-falsafiy tafakkurini mutassil kengaytirish va chuqurlashtirish bilan mashg'ul bo'lgan. Ulug'bek Ahmad Farroni, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari o'tmishdoshlarining falsafa, mantiq, tarix, matematika, astranomiya, tabiatshunoslik va fiqxga oid asarlarini katta qizihish bilan o'rgandi. YUNon olimlaridan Platon, Aristotelb, Ptolomeyning klaesik asarlari bilan tanishdi. Ilm-fan va madaniyatning, tarix ilmi va falsafaning Ulug'bek e'tiboridan chetda qolgan biron-bir sohasi bo'lgan emas.

O'tmish ajdodlardan, xususai, Markaziy Osiyo qomusiy aql egalaridan qolgan madaniy meros, umuminsoniy mazmundagi ma'naviy qadriyatlar Ulug'bek ilmiy- falsafiy dunyoqarashi rivojida manba bo'lib xizmat qildi. Ulug'bekning bshgami va tafakkuri zamondoshlaridan bir necha bor o'zib ketgan edi.

Ulug'bek boshqa ko'pgina hukmdorlardan farqli, o'laroq, ham davlat arbobi, ham asl olim sifatida faoliyat ko'rsatdi, olimlikni arboblik, arboblikni olimlik bilan qo'shib olib bordi, ilmu amal yo'lini o'z faoliyatida birlashtirdi.

Davlat arbobi sifatida qurilish ishlarini haddan tashqari rivojlantirdi, poytaxtni me'morchilik san'ati bilan bezadi, ulkan binolar bilan obod qildi, o'zigacha boshlangan qurilishlami nixoyasiga etkazdi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida adabiyot, san'at, tarix, falsafa, tibbiyot bilan bir qatorda matematika, astranomiya ham tez rivojlagadi.

O'zi allomai jahon hisoblangan Mirzo Ulug'bek fan va madaniyat taraqqiyotiga alohida ahamiyat berib, atrofiga o'z zamonasining eng buyuk olimlari— atoqli astronomolrar va matematiklarni to'plab, ular bilan yaqin ilmiy muloqotda bo'lib, ilmiy yo'nalish va yo'l-yo'riqlar berib turdi.

Mirzo Ulug'bek hayoti, amaliy faoliyati ilm-fan taraqqiyotiga bag'ishlangan edi. U ilm yordamida keljakni oldindan ko'rди. Ulug'bekning astronomiya va boshka fanlar sohasidagi kashfiyotlari va ilmiy ta'limotlari insoniyatning keyingi ilmiy tafakkuri rivojiga favqulodda muhim zamin tayyorlab berdi.

Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda (1994 yil 15 oktyabr) so'zlagan nutqida Birinchi Prezidentimiz aytganidek, «Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bonyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi. O'zining cheksiz aql-idroki; azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori bo Tib, xalqlarning azaliy orzusi — tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida mislsiz shijoat va matonat ko'rsatdi». Uning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan xissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kukda ham hayotimizda ulkan ahamiyat

kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda.

NAVOIY

Jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlar orasida Alisher Navoiy (1441 —1501 yillar) faxrli o'rin egallaydi. Navoiy o'zining ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy, badiiy, ilmiy-falsafiy faoliyati bilan ma'naviyatimizning porloq yulduziga aylandi.

Ulug' o'zbek shoiri, olimi va mutafakkiri Alisher Navoiyning ilmiy dunyoqarashi, falsafiy ta'limoti u yashagan va ijod etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy muhit va sharoitlar ta'sirida shakllandi va rivojlandi.

Navoiy mavjud barcha ilmiy bilimlar, .ijtimoiy-falsafiy tafakkur, madaniy- ma'naviy boyliklarni bolaligidanoq tinmay o'rgandi, ularga katta xurmat bilan qaradi. U bashariyatning buyuk mutafakkiriari yaratib ketgan ilmiy durdonalarni izladi, topdi, o'qidi. Alisher uch yosh bilan to'rt yoshning orasida she'rlar yod oladi va hurmatli kishilar orasida ularni o'qib, davradagilarning hayrati va olqishlariga sazovor bo'ladi. Bolalik chog'ida, hali maktab o'quvchisi ekanligidayoq Fariduddin Attorning mashhur falsafiy, asari «Mantiqu-tayr»ni boshdan oyoq yodlab oladi, uning ta' siriga butunlay berilib ketadi, sehrlanib qoladi. Bu xaqda u o'zining «Lisonut-tayr» («Qush tili») kitobida shunday deydi: «SHu axvolda ko'p vaqt u bilan mashg'ul bo'lib, bu daftarga e'tiqodim tobora ortar edi. SHundan so'ng, men kishilar bilan ulfat bo'lishdan qochdim. Bu kitob hilvatdagi eng qadrdon sirdoshim bo'lib qoldi.. Natijada kishilarning yashash tarzlari va harakatlari ta'bimga malol kela boshladи. Oqibat bu kitobga bo'lgan ishqim meni shu xil shaydolik sari etakladi. Bu savdo meni devona bir xolga solib, men, uzlat eshigini ochay va bu olamning bema'ni elidan qochay, dedim». Ota-onasi uning bu holatidan vahimaga tushib, jinni bo'lib qolmasin deb qo'rqishib, u kitobni Alisherning qo'lidan tortib olishadi, uni o'qishni butunlay ta'qiqlashadi. Lekin bu asar Alisherga allaqachon yod bo'lib qolgan, ko'ngli qush tili bilan sirdosh bo'lib, undan boshqa so'zga mayli qolmagan edi.

Alisher yigitlik chog'laridayoq ellik ming bayt she'rni yod olgan, 12 yoshidan boshlab g'azal bilgan, 20— 25 yoshlaridayoq turkiy zlga, nafaqat turkiy balki forsiy zlga ham ardoqli bo'lgan, dovrug' taratgan.

Navoiy ijodi va ilmiy dunyoqarashida SHarq mamlakatlari va qadimgi YUnionistonning madaniyati va falsafasi o'zining chuqur ilmiy ifodasini topgan. Bu uning «Farhod va SHirin», «Saddi Iskandariy» nomli asarlari, ko'pchilik she'riy kitoblari, devonlarida ochiq-oydin ko'rinib turibdi.

Navoiyning badiiy ijodi va ilmiy tafakkuri, ajtimoiy-falsafiy qarashlari, SHarq Uyg'onish davri tarbiyalab etishtirgan Axmad Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, YUsuf Xos Hojib singari qomusiy aql egalari, tafakkur titanlari falsafiy talimotlarining qonuniy davomi va ijodiy takomilining yangi bosqichi sifatida yuzaga keldi.

Alisher Navoiy Rudakiy, Firdavsiy, Sa'diy, Nizomiy Ganjaviy, Durbek, Atoiy, Sakkokiyl, Lutfiy, Ahmad YAssaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa mutafakkirlarning ta'limotlari, an'analari, asarlaridan chuqur ta'sirlangan, bahramand bo'lgan.

Abdurahmon Jomiy «Sibhatul-abror» asarida kishilarni bekordan-bekorga nizolashmaslikka, do'stlikda hayot kechirishga chaqirgan edi. Insonning vazifasi bir-biriga elkadosh, suyanchiq, bir-birining og'irini engil qilish, dardiga darmon bo'lish ekanligini aytgandi. Har qanday mushkul ishni ham urush-janjalsiz, sulh va tinchlik bilan hal etish mumkinligini qayta-qayta uqtirib, «hammaga omonlik istaguvchi bo'l, shunda adovatga qolmagay hech yo'l», degan edi.

Fors-tojik adabiyoti, san'ati, madaniyati, falsafasi asoschilarining olamni bilish mumkinligi xususida bayon etgan fikr-mulohazalari juda katta ilmiy-amaliy qimmatga egadir. Ularning aytishlaricha, olam inson sezgisi va bilimining manbaidir. Inson dunyonи taxminlarga asoslanib emas, balki ilmiy bilim va tafakkur asosida biladi, uning mohiyatini sekin-asta ' anglay boshlaydi. Rudakiy «odamlar qalbining chirog'i bilim, balodan saqlanish yarog'i bilim», deb aytgan, aql-idrokni hammadan yuqori qo'ygan, ilm-donishga intilishga odamlarni da'vat etgan. Rudakiy ijodida falsafiy erkin fikrlilik, hayotdan olingan bilim va tajribaning qadriga etish, narsalarning tashqi ko'rinishidan ichki mohiyatini ajrata bilish masalalariga alovida e'tibor berilganini ko'ramiz. eng katta muallim hayotning o'zi ekanligi boshqa mutafakkirlar tomonidan ham qayta-qayta ta'kidlangan. «Hayot—eng katta ustod» degan qoida ulug' Firdavsiyning «SHohnoma»sida ham ilgari surilgan.

IMOM AL-BUXORIY

IX—XV asrlarda Turon zaminida Ahmad Farg'oniy, Muso Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr

Forobiy, Abu Ali ibn Syno, Abu Rayhon Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy va boshqa jahonga mashxur qomusiy olimlar bilan bir qatorda islom ta’limoti rivojiga ulkan hissa qo’shgan ulug’ ustozlar va ulamoi kiromlar ham dunyoga keldi. Islo m olamida eng etuk va mashhur olimlardan hisoblangan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ibn Hibbon as-Samarqandiy, Jamoliddin an-Nasafiy, Imom at-Termizyy, Xo’ja Ahmad YAssaviy, Abdulholiq G’ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Xo’ja Ahror Vali singari buyuk zotlar shular jumlasidandir. Bu oltin asrda vatandoshlarimizdan shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o’rganish, Qur’oni Qarim oyat va suralarini ilmiy sharhlab bayon etish, tafsirlash, payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning Hadisi SHariflarini to’plab, tartibga solish, fikh fani—islom xuquqshunosligi, odob-axloqi, shariat qonun- qoidalarini bayon etish va ilmiy asoslab, islom dini va falsafasini dunyo bo’ylab yoyishda shuhrat taratg’an buyuk olimlar birin-ketin yotishdilar.

Aziz vatandoshimiz Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810—870) yoshligidayoq aql-idrokli, o’tkir zehnli bo’lib, barcha ilohiy va dunyoviy bilimlarni chuqur o’rganishga kirishadi. U buyuk zot o’zining asosiy z’tiborini hadis ilmini zo’r ishtiyoq va xafsala bilan o’rganishga qaratadi. Ma'lumki, payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlik chog’larida aytgan so’zlari, qilgan ishlari, yo’l-yo’riqlari va ko’rsatmalari, pandu o’gitlari ul zotning hadislari yoki sunnatlari hisoblanib, islom ta’limotida Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. CHunki Muhammad alayhissalomning o’zлари hadislaridan birida: «Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur’oni Karim bilan o’zimning sunnatim—yo’l-yo’riqlarimni qoldirdim. Sizlar shu ikkalasini qattiq tutib, ularga amal qilsalaringiz to’g’ri yo’ldan aslo adashmaysizlar»,—deb bashorat qilgan edilar.

Payg’ambarimiz hadislarii birinchi manbalarga asoslanib, qiyomiga etkazib to’plash, ilmiy tartibga solysh, ularni sharhlash va targ’ib qshgash ishlari bilan juda ko’p olimlar shug’ullanganlar. Islom olamida ulardan sanoqlilarigina musahhih, ya’ni eng ishonzhli hadis to’plovchi ohm, deb tan olingan. Ana shulaming oldingi safida Imom Buxoriy xazratlari turganlar. Imom, Buxoriy hadis ilmining, peshvosi, sahih yo’nalishining asoschisi, islom olamida eng etuk va mashhur muhaddisdir.

O’rta asrlar musulmon SHarqida, birinchi navbatda, Markaziy Osiyoda tasawuf nomi bilan ataladigan diniy falsafiy ta’limotni yaratish, ilmiy asoslab berish, targ’ib-tashviq etish va olam uzra yoyishda donishmand bobolarimiz buyuk xizmatlarini xalqimiz, millatimiz, Vatanimiz hech qachon unutmaydi. Tasawuf — insonning kamolotga etish, ilohiy hislatlarga yaqinlashish yo’lidir. Tasawufning boshlanishi — ilm, o’rtasi — ish, oxiri — Allohning bergenidir.

AT-TERMIZIY

Abu Iso Muhammad at-Termizi milodiy 824 yilda Termiz yakinidagi Bug’ qishlog’ida uncha badavlat bo’lmanan oilada tavallud topib, 892 yili shu qishloqda vafot etgan. O’rta asrlarda Termiz, Urganch, Buxoro, Samarqand ilm-fan va madaniyati rivojlangan shaharlardan biri bo’lgan. Mana shunday qulay madaniy muxitda o’sgan at-Termizi yoshligidan turli ilmlami egallashga intilgan.

Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, xadis ilmini alohida qiziqish bilan egallagan va bu boradagi o’z bilimlarini mutassil oshirish uchun ko’pgina SHarq mamlakatlarida, jumladan, Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. U imom al Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Davud, Qutayba, Ishoq ibn Muso va boshqa mashhur muhaddislardan tahsil olgan. O’z davrining etuk muxaddis olimi sifatida tanilgan at-Termizi ko’pdan-ko’p shogirdlarga ustozlik qylgan.

At-Termizi ko’zi ojiz bo’lib qolishiga qaramay, bir qancha asarlar yozib, bizga meros qoldirgan. Ularning aksariyat qismi islom ta’limotida Qur’ondan keyin turadigan muhim manbalar hisoblangan hadislarga bag’ishlangan. «Al-jomi’» («Jamlovchi»), «Ash-shamoil, an-nasaviy» («Payg’ambaming alohida fazilatlari»), «Al-ilm fi-l-xadiys» («Hadislardagi og’i-shishlar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqidagi risola»), «Kitob ul-asmo-va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob») kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

At-Termiziyning asarlari nafaqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo’lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga xam oid ma’lumotlarga boyadir.

G’AZZOLIY

O’lkamizda tasawufning pay do bo’lishi va yoyilishi juda ham uzoqdan boshlanadi. «Hujjatul islom» («Islomning hujjati») laqabini olgan musulmon kalom falsafasining eng yirik namoyondalaridan biri, tengi kam iloxiyotchi alloma, tasawufda alohida martabdga erishgan Abu

Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy (1058—1116) o'z asarlarida tasavvufni targ'ib qildi. Imom G'azzoliyning asarlari mana, to'qkiz asrdirki, qo'ldan tushmay, qayta-qayta o'qilmoqda. Islom olamida bu ulug' zotga munosib baxo berilgan: «G'azzoliyga vahiy kelmagan, xalos. Vahiy kelganida edi, u payg'ambar bo'lardi. Boshqa sifatlari etarli!» Utsyng shoh asarlaridan biri «Diniy ilmlarni tiril-tirish» haqida ham o'z vaqtida yuksak baho berilgan. Uning diniy falsafiy g'oyalari SHarq mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi.

Olimlarning aytishlaricha, tasawuf oqimi Mavarounnahrda XII asming yirik olimlaridan biri YUsuf Hamadoniy maktabidan boshlangan. YUsuf Hamadoniy etikdo'z bo'lgan. Buxoro va Samarqandni dushman hujumidan himoya qilishda qatnashgan. Uning maktabidan turli tariqatlar paydo bo'lgan. YUsuf Hamadoniy o'z izdoshlarini mehnatga, kasb-hunar egallashga undagan. Uning ta'limoti kishining har bir nafasida ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamida diqkat e'tibor sezmog'i, o'z vatani ishqini bilan band bo'lmog'i, ya'ni uni bilmog'i, xalq bilan alokada bo'lib, birga hayot kechirmog'i kerak, degan g'oyadan iboratdir.

Tasawuf falsafasida insonning ruhiy, ma'naviy, ahloqiy kamolotiga yordam beruvchi g'oyalar ustunlik qiladi. Bu bejiz emas, albatta. CHunki inson ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go'zal hamda xulq-atvorli, fazilatli qilib etishtirish mumkin.

Tasawuf futuwat bilan uzviy bog'liq. Futuwat tasawuf bosqichlaridan birini tashkil etadigan tariqatning bir bo'lagidir. CHunki futuwat asoslari bilan tasawuf, tariqat g'oyalari o'zaro muvofiq, xamohangdir.

Tasawuf singari futuwat ham Husayn Voiz Koshifiyning «Futuwatnama sultoniyasi» asarida aytilishicha, inson axloqini poklash, mehru shafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni, bor narsasini hech kimdan kizg'anmaslikni, qalbni kibru xavo, gina-kudrat, qasd-g'azab dan pokiza tutishni, hamma vaqt xalq xizmatida bo'lishni, barchaga insof-muruwat ko'rsatish va zvaziga hech narsa talab qilmaslikni tarrib etadi. Tasawuf ham, futuwat ham yaxshilik yo'lida jordan kechishga tayyor, fidoyi qalb egasi bo'lishga, do'stlarga naf etkazishga, do'stligi dushman zararidan himoya etishga da'vat ztadi. Ularning muxim talablari qatoriga yana yolg'on, bo'hton va behuda so'zlardan tilni tiyish, nojo'ya, nomaqbul so'zlardan, g'iybatdan quloqni berkitish, ko'rish nojoiz hisoblangan narsalardan ko'zni yumish, xarom narsalardan ko'lni tortish ham kiradi. Man etilgan joylarga borish, haqorat va gunohga sabab bo'ladigan ishlarni qilish, xarom ovqatlami eyish, zinoga yo'l qo'yish, oqibatini o'yamasdan ish tutish, boshqalardan o'zini ustun deb hisoblash, kamtarlikni unutib manmanlik yo'liga kirib ketish, tasawuf singari, futuwatda xam qoralanadi.

Tasawuf va futuwatning aytib o'tilgan ustunlari va shartlaridan tashqari man etadigan, ta'qiqlaydigan narsalari ham bor. Bular yaxshilarning orqasidan gapirish, birovlarni mazax kilish, gap tashish, ko'p kulish, va'daga xilof ish qilish, xasad qilish, zulm o'tkazish, aldash, odamlardan ayb qidirish, betga choperlik, yolg'on qasam ichish, ta'magirlik, xiyonat qilish, noto'g'ri guvohlik berishdan iboratdir.

Ma'lumki, tasavvufda Olloh raxmatiga etishning, inson ma'naviy kamolot yo'lining to'rt bosqichi mavjudligi bayon etiladi. Bular shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdir.

SHariat — diniy qonun-qoidalar va marosimlarni, «Qur'on» va Hadislardagi axloqiy ilohiy ko'rsatmalarni puxta o'zlashtirish, ularni aniq, izchil suratda bajarish, xudoga ibodat qilishdir. SHariat xudoni idrok bilan tanishni ko'zda tutadi. SHariat talablari, qoidalarini bajarmasdan tariqatga o'tish mumkin emas. Tariqat — er yuzidagi lazzatlardan voz kechib, nafshi tiyib, xilvatda yashab, faqat xudo haqida o'ylash, xayol surish, eslash, uni qalbdan sevishdir. Ma'rifat — hamma narsaning, butun borliqning asosi xudo ekanini bilish, aniqlash va shu tariqa xudoga etish demakdir. Ma'rifatda olam, yulduzlar, oy, quyosh, odamlar, hayvonlar, kushlar, kapalaklar, boshqa jamiki narsalar xudoning zuhurotidan iborat, odam Olloh quyoshining zarrasi deyiladi. Haqiqat — o'zini xudoning dargoxiga erishgan, vasliga etgan, xatto u bilan qo'shilib ketgan, deb bilishdir.

Tasavvufning oqimlari, asosiy yo'shalishlari nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lib, turli davrlarda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida uning har xil yo'nalishlari paydo bo'lgan va yoyilgan. Bizning yurtimiz — Turon zaminda va musulmon SHarqida tasavvufning bir necha buyuk tariqati — ta'limotlari, paydo bo'ldi. Bular XII asrda Turkistonda maydonga kelgan yassaviya va suhrovardiya, XII asr oxirida Xorazmda vujudga kelgan kubroviya, XIV asrda Buxoroda yuzaga kelgan naqshbandiya va boshqa tariqatlardir.

Tasavvuf falsafiy ta'limotining tarkibiy qismlari bo'lmish yassaviya, kubroviya, nakshbandiya

va boshqa tariqatlarda umumiy jihatlar bilan birga, ularni bir-biridan farqlab turuvchi tomonlar ham ko'p. Lekin bu tafovutlar ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga birini yaxshi, birini yomon deb baholashga olib kelmasligi kerak. Tasavvuf ta'limotkning har bir shakli, asosiy oqimi o'z davrining mahsuli, muayyan sharoitlardagi talab-ehtiyoj, imkoniyatlarning ifodasıdir. Tasavvuf tariqatining har bir shakli ahamiyati o'z davridagi talab va ehtiyojga javob bera olgani, kelajakdagi ma'naviy kamolotga qanchalik ta'sir ko'rsatgani bilan belgilanadi. Kezi kelganda tasavvufning Turkiston zaminida vujudga kelgan asosiy yo'nalishlari o'zaro bir-birlarini inkor qilgan tarzda emas, balki yangi tarixiy sharoitlarda bir-birini to'ldirgan, o'zaro boyitgan, yangi bosqichga ko'targan, bir-birlarining qonuniy davomi va takomillashishi sifatida yuzaga kelganini aytib o'tish joyiz.

YASSAVIY

Ahmad YAssaviy 1041 yilda tug'ilgan. Ilmiy adabiyotlarda vafoti 1165—1367 yillar deb ko'rsatilgan.

YAssaviy tariqatining birinchi va asosiy fazilati uning xalqchilligidir. Unda ham Olloh, ham inson madh etiladi. YAssaviy o'zining «Hikmat»larida insonni qadrlaydi, uniadolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga chaqiradi. Bu haqda u «qayda ko'rsang ko'ngli sinuq mahram bo'lgil, andog' mazlum yo'lda qolsa, hamdam bo'lgil», deydi.

Buyuk mutafakkirning asosiy maqsadi odamlarni Olloxni tanishga, uning yaqini bo'lishga da'vat etish, odamni xudoning eng aziz bandasi sifatida e'zozlash,adolatsizlikni qoralash, bu dunyoning dog'larini insonga yuqtirmaslikdan iboratdir.

Ahmad YAssaviy inson o'z azaliy pokligini saqlashi, gunoh orttirmasligi uchun nima ish qilishi kerak, degan savolga ham o'zicha javob beradi. Yassaviy inson o'zining azaliy pokligini saqlashi uchun bu dunyodan yuz o'girishi, umrini odamlardan uzoqda, yolg'izlikda, uzlatda toat-ibodat bilan o'tkazishi lozim, deb hisoblaydi. Buni u Ollohga yaqin bo'lishning, o'ziga u dunyoda saodat ta'min etishning shartlaridan biri deb biladi.

YAssaviy fikricha insonning xudo vasliga etishi uchun shariat, tariqat, ma'rifat, xaqiqat kabi bosqichlarni birma-bir bosib o'tishi, dunyodan, o'zligidan voz kechishi, o'zini xilvatga tortib, ham fikrini, xam zikrini xudoga berishi kerak. Agar odam jonini qiy nab bo'lsada, ibodat qilsa, nafsi ni o'ldirib, qanoat qilishga odatlansa, xo'rplash va malomatlarg'a bardosh bersa, o'shanda xudoning diydoriga etadi, deydi. YAssaviy tariqati va falsafiy ta'limotining asosiy jihatlari ana shulardan iborat.

ABDUHOLIQ G'IJDUVONIY

Abduholiq G'ijduvoniy (1220 yilda vafot etgan) YAssaviya tariqatining ko'zga ko'ringan vakillaridan birdir. U ustodi Xoja Yusuf Hamadoniy va birgalikda ta'lim olgan zamondoshi shayx Ahmad YAssaviyning ishini davom ettiribgina qolmay, ular yaratgan tariqatni mustaqil, yangi, yuqori bosqichga ham ko'tardi. Buni uning farzandi uchun maxsus yozylgan «Vasiyatnoma»sida bayon etilgan falsafiy g'oyalardan ko'rish munikin. «Vasiyatnoma»ning mazmuni, mohiyati odob-axlrq masalalariga qaratilgandir. Tariqat ahlining bosh vazifasini YAssaviy Ollohga yaqinlashish uchun jamiyatdan uzoqlashishni, uning tashvishlaridan yuz o'girish, uzlatga ketish, tarki dunyo qilish deb tayinlagan bo'lsa, Abduholiq G'ijduvoniy «Vasiyatnoma»sida jamoatga mulozim bo'lish, jamiyatga xizmat etishni muqaddas vazifa — Ollohga yaqinlashishning muhim yo'li deb hisoblaydi, SHu bilan birga u odamlami xonaqohda hadeb o'Ttiravermasdan, Ollohga toat-ibodatni haddan tashqari oshirib yubormasdan mehnat qilish va halol yashashga da'vat etadi. Halol egil va shubhadan parhez etgil, ya'ni halolligi shubhali ovqatdan qo'l tortgil, deydi. Bu dunyoda odamlar hayotida faol ishtirok etish, ulami himoya qilish Abduholik G'ijduvoniy tomonidan ta'kidlanganidek, Olloxga yaqinlashishning asosiy yo'lidir.

KUBRO

Tasawuf falsafasining yirik siymolaridan yana biri xorazmlik Najmaddin Kubro (1145—1221) edi. Tasavvufdag'i maxsus kubraviya tariqati uning nomi bilan bog'liq. SHayx Najmaddin Kubro o'z zamonasining yirik olimlaridan hisoblangan. «Favoix al-jamol va favotix al-jalol» («Jamolining muattarlari va kamolotining egalari»), «Al-usul al-ashara» («O'nta qoonun va qoidalari») nomli asar va risolalar yozgan.

Alisher Navoiy «Lisonut tayr» dostonida Najmaddin Kubro haqida maxsus bir hikoyat keltiradi. Unda aytishicha, «Agar u biron kishiga o'z nazaridan bahra etkazib qarasa, ko'zi valilik nuri bilan yorishib ketar va shu ondayoq o'zligidan ayrilar edi.» Najmaddin Kubro nomi bilan

ataladigan tariqat buyuk Xorazm davlati asta- sekin inqirozga yuz tutayotgan davrda yuzaga keldi. Odamlarni ruxiy poklanishg'a, hayotga ishonch bilan ixlos qo'yishga, dunyoviy muhabbatni ulug'lashga chaqirishda kubraviya tariqati katta o'rın tutdi. Unda tarkidunyochilik emas, balki mehnat asosida bu dunyo noz-ne'matlardan baxramand bo'lish asosida Alloh vasliga etish g'oyalari ilgari suriladi.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Burilish davri, erk, adolat, haqiqat, mustaqillik, oltin davri, Uyg'onish davri, Bayt ul-hikma, Zij, qomusiy olim, najot, aruz, safsir, hadis, fiqh, tasawuf, futuwat, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat. riyoziyat, ilmi nujum, Ramayona, "Veda", Rigveda, Samaveda, YAjurveda, Atxarvaveda, Upanishada, Lakayati, CHarvaka, Daosizm, Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm, Kirapol, "Avesto" Mitra, To'maris, SHiroq, Alpomish, Go'ro'g'li, Bexistun, Zardusht, Vendidat, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy tiklanishi, SHarq tsivilizatsiyasi.

Mavzuga doir nazarot savollarri:

1. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jahon ilmu-faniga qo'shgan ulkan xissalari haqida so'zlab bering?
2. Sharq uyg'onish davri qaysi asrlarga to'g'ri kelali?
3. Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan kimlami bilasiz?
4. Xorazmiyning xayoti va yozib qoldirgan asarlarini sanab bering?
5. Farobiy asarlari va qarashlari haqida gapirib bering?
6. Ibn Sino hyoti va uning jimiyat taraqqiyotiga qo'shgan xissasi nimalardan iborat?
7. Beruniy nechta asar yozgan va uning falsafiy qarashlari?
8. Ulug'bek hayati va uning asarlarini haqida nimalarni bilasiz?
9. Navoiy hayoti va uning fanga qo'ngan buyuk xizmatlari haqida gapirib bering? Tasavvuf qanday talimot?
10. Tasavvufning inson ma'naviy kamolotga etishishining bosqichlari qaysilar?
11. Shariat so'zining ma'nosi nima?
12. Tariqat qanday ma'noni anglatadi?
13. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosi fandagi fangilanish va taraqqiyotning manbai bo'la oladimi?
14. Markaziy Osiyo mutafakkirlari jahon fani va madaniyati rivojiga qanday xissa qo'shganlar?
15. Markaziy Osiyo mutafakkirlari madaniy tiklanish va rivojlanishida ajdodlarimiz boy merosining o'rni va ahamiyati qay darajada baholanadi?
16. Nima uchun Sharq tsivilizatsiyasi ilk madaniy-ma'naviy qadriyatlar beshigi sanaladi?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostinosada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.

10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro-e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
 11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbati // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.
 12. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.
 13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.
 14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
- 15. Qo'shimcha adabiyotlar.**
16. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.
 17. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
 18. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'nnaviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.
 19. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1994.
 20. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.
 21. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
 22. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
 23. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'FMJ, 2004
 24. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

3-MAVZU: Qadriyatshunoslikning G'arbdagi rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.

Reja:

1. Antik dunyo va g'arbda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlaming takomil bosqichlari.
2. Suqrot, Platon, Aristotel, Gomer, Gesiod va boshqalaming qadriyatlar haqidagi g'oyalari va ularning ahamiyati.
3. Qadimgi Rimda siyosiy va ma'rifiy ta'limotlarning o'ziga xosligi.
4. Evropada Renesans davri qadriyatları.
5. 15-17 asrlardagi ijtimoy-siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon qadriyatlarining shakillanishi.
6. 18-19 asrda qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar, Nemis klassik falsafasi, fransus inqilobi.
7. Hozirgi davr g'arb aksiologiyasi.

Qadimgi Gretsiyada eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida davlatlar paydo bo'ladi. Mustaqil polislar shahar davlatlar yon atrofidagi qishloqlarni ham o'z ichiga oladi. Ibtidoiy tuzumdan ilk sinfiy tuzumga o'tganda jamiyatni siyosiy jihatdan tashkillashga katta e'tibor beriladi, bu ishlar axolini sotsial tabaqlashtirishni kuchaytirib yuboradi va ular o'rtasida ziddiyatlar avj ola boshlaydi. Bu sharoitda polislar ichida ham, tashqarisida ham hokimiyat uchun kurash keskinlashadi.

Davlatlarni boshqarishning turli shakllari kelib chiqadi. eramizgacha IV- Vasrlarda Afinada, Abdirda demokratiya qaror topadi, Fiva, Megerada Oligarxiya, Spartada aristokratiya shakllari davlatchilikning turli yo'sindagi boshqarish shakllarini keltirib chiqaradi. qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan va asta-sekin rivojlanib borgan siyosiy va ma'rifiy ta'limotlar tarixini uch davrga bo'lish mumkin Ilk davr (eramizgacha IX-V asrlar) qadimgi grek davlatlarining paydo bo'lish davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda siyosiy va huquqiy tasawurlarning mifologiyadan ozod bo'la boshlashini, ratsionallashuvini kuzatish mumkin. Bu jarayon Gomer, Gesiod va mashxur "etti donishmandlar" ijodida o'z ifodasini topgandi. SHu davrda davlat va huquq muammolariga falsafiy yondashish ham shakllana boshlaydi (Pifagor va uning izdoshlari, Geraklit).

Ikkinci davr (eramizgacha Vva IV asming birinchi yarmi. Bu davr qadimgi grek falsafiy siyosiy va huquqiy ta'limotlarning gullagan davri. Bu davrda Demokrit, Suqrot, Ploton, Arastularning

falsafiy, siyosiy va huquqiy ta'limoti shakllandi va rivojlandi.

Uchinchi davr (IV asrning ikkinchi yarmi va II asrgacha). Bu davr tarixda ellinizm davri bo'lib. Bu davming muxim belgisi grek davlatchiligining tanazzulga YUz tutgan davri. Grek polislari dastlab Makedoniya, so'ngra rim tasarrufiga o'ta boshlaydi. Bu davrdagi siyosiy va huquqiy qarashlar epikur, stoiklar va Polibiy ijodida o'z aksini topdi.

qadimgi YUnionistonda paydo bo'lgan va rivojlangan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlar tarixini Gomer va Gesiod dostonlarini taxlil qilishdan boshlaymiz. Bu buYUk shaxslar yaratgan dostonlarda jamiyatda paydo bo'lgan ijtimoiy muammolar xudolar obrazlari orqali izchil ta' svirlagandir.

Adolat, qonunchilik va polis hayotiga oid boshqa tushunchalarning moxiyati, yo'nalishlari va shakllanishi eng awlo Zevsning faoliyati bilan bog'lanadi. Bosh Xudo Zevs barcha xudolarni iskanjaga olib, adolat o'matishni talab qilgan. Gomer poemalarida Zevs xuddi mana shu tartibda, ya'ni qattiqqo'l adolatli Bosh Xudo obrazida ifodalangan. Bunda adolat tushunchasi erdag'i voqealar bilan bog'langan holda izohlanadi. erdag'i oddiy qonun-qoida asoslari odamlarni birlashtiruvchi bir kuch, umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Gesiod (eramizgacha Vllasr) asarlarida adolat, huquq-tartibot tushunchalari yanada yorqinroq ifodalangan. Uning «Teogoniya», «Mexnat va kunlar» nomli asarlarida turli tamoyillarga ega bo'lgan axloqiy-x,uquqiy normalar ta'riflanadi va himoya qilinadi.

Masalan, uning «Teogoniya» asarida Zevs va abadiy tabiiy tartibning timsoli Femida nikohidan ikki qiz Dike adolat xudosi va Evnomiya qonunchilik xudosi tug'ildi. Dike adolatni himoya qiladi, uni buzuvchilarni qattiq jazolaydi. evnomiya esa qonunchilik, tartib-intizom ilohiyat tomonidan o'rnatilgan odamlar orasida bo'lishi shart bo'lgan qonun deb hisoblab uni himoya qiladi. Dike ham, evnomiya ham barcha ishlami bosh xudo-otalari Zevs buyrug'i bilan bajaradilar. Demak, adolat ham, qonunchilik ham ilohiy manbaga ega. U Bosh xudo va boshqa xudolar tomonidan boshqarib boriladi.

Gesiod «Mehnat va kunlar» poemasida patriarxal tuzim ideallarini himoya qilar ekan, odamlar hayotida beshta biri-biri bilan olmashib turadigan bosqichlarini o'ziga xos tomonlarini ifodalab beradi. «Oltin asr», «kumush asri», «mis asri», «yarim xudo-qaxramonlar asri» va nihoyat o'zi yashab turgan asrni «temir asri» deb baholaydi. «Oltin asr» odamlari baxtli edilar, g'am-tashvishsiz umr kechirdilar. «Kumush asrining» qaysar, xudolarga itoat qilmagan odamlarini Zevs qirib tashladi.

«Mis asri» ning odamlari o'zaro raqobatda va chiqishmovchiliklar tufayli o'zlari biri- birini yanchib tashlashdi. To'rtinchi «Temir asrining» qonli urushlarda yarim xudo qahramonlari ham xalok bo'ldilar. Gesiod «Temir asrini» qora bo'yolalar bilan g'amgin tasvirlaydi. Mehnat og'ir, kun ko'rish qiyin, xaqiqat toptalgan, odamlar o'rtasidan insof, diyonat ko'tarilgan.

Gomer va Gesiod ijodiga xos bo'lgan axloqiy, huquqiy tartib-intizomning insonlar o'rtasida qaror toptirish va ularga aql nurini bag'ishlashga qaratilgan intilishlar keyinchalik etti donishmand faoliyatida davom ettirildi. Bu etti donishmand Fales, Pittak, Permandr, Biant, Solon, Kleobul va Xilon. Bu donishmandlar jamiyat adolat tantana qilishi uchun kurash olib bordilar. Ularning ayrimlari hokim yoki qonun chiqaruvchilar sifatida o'z g'oyalarini amalga oshirishga harakat qildilar. Masalan, Solon xususiy va davlat qarzlarini bekor qildi, qarz berishni adolatli asosga qo'ydi. Solon tomonidan tashkil etilgan polis demokratiyasi demos bilan zadognlarni, boylar bilan kambag' allami murosaga keltirish uchun ishlab chiqilgan qoidalarga asoslanar edi. Solon bir tomonning ikkinchi tomon manfaatlarini erga urish asosida ustunlikka erishishlarini ochiq qoralaydi.

Ijtimoiy, siyosiy-huquqiy tartiblarning falsafiy g'oyalar asosida qayta o'zgartirish fikrlarini ilgari surgan Pifagor (eramizgacha 580-500 yillar) va uning izdoshlari (Arxit, Lizis, Dgigolay va boshqalar), hamda qadimgi dunyoning atoqli faylasufi Geraklit (eramizgacha 530-470) demokratiyani tanqid qilib aristokratik boshqaruv usulini, aqlan va axloqiy etuk odamlar hokimiyatini yoqlab chiqdilar.

Pifagor va uning hamfikrlari dunyoqarashlari bir qadar mistik bo'lsada, ammo ular olamning asosini moddiylik belgisi sonlar tashkil etadi deb hisoblashdi. Xamma narsaning mohiyati oxir oqibatda sonlarga borib taqaladi. Axloqiy va siyosiy-huquqiy voqealaming ham moxiyatini sonlar xarakteristikasidan izlash kerak, masalan, adolat tushunchasi tenglarga tenglik bilan javob qaytarish demakdir.

Pifagorchilar ideali polis edi. Ammo polisda adolatli qonunlar mavjud bo'lishi kerak. Pifagoming ko'rsatishicha, xudodan so'ng, ota-onani va qonunni hurmat qilish kerak, xudo, ota-ona

va qonun. Pifagorchilar tartibsizlik, anarxiyadan qattiq nafratlanar, insoniy munosabatlar anarxiya zulmidan ozod etilib huqiqiy tartib va garmoniyaga ega bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdilar.

Aflatun va Arastuning siyosi va huquqiy ta'limotlari.

Aflatunning ideal davlat va jamiyat haqidagi ta'limoti uning keyingi dialoglarida («Davlat», «qonunlar» va boshqalar) rivojlantirildi. Uning ideyalar haqidagi qarashlarining mohiyati quyidagicha: haqiqiy borliq bu moddiylikdan tashqari, aql bilan idrok etiladigan ideyadir. Bizning qo'zimizga ko'rinish, hissiyotimizga ta'sir qilib turgan narsalar borliqqa aloqador emas, shuning uchun ham haqiqiy bilish bu borliqni bilishdan iborat, ya'ni ideyalarni bilishdan iborat. Borliqni hamma ham bilavermaydi, faqat faylasuflargina bunga qodir.

U o'zining «Davlat» nomli asarida adolatli ideal davlatni ta'riflar ekan, davlat polisdagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan koinotning birikuvidan hosil bo'ladi, deydi. Aflatunning ta'limotiga ko ra adolat deganda birichi navbatda har bir odam o'z ishi bilan shug'ullansin, boshqalarning ishlariga aralashmasin, polis turli ehtiyoj laming umumlashgan ifodasidir degan g'oyani ilgari suradi. Bu turli-tuman ehtiyojlarni qondirish uchun davlatda odamlar o'tasida mexnat taqsimoti qaror topgan bo'lishi kerak Ideal davlatda ayollar erkaklar bilan baravar huquqqa ega. Aflatun ideal davlatida uch tabaqa faylasuflar, harbiylar va dehqon, hunarmandlarni bo'lishini e'tirof etgan.

Aflatun o'zining «qonunlar» nomli asarida davlatning moxiyati va qurilishi xaqida bat afsil to'xtalib o'tadi. Aflatun ideal davlatning eng muhim belgilari quyidagilardan iborat. Uning 5040 fuqarosi chek tashlash orqali er maydoni va uy-joy oladilar, ammo bu er va uy ularning xususiy mulki hisoblanmaydi. Barcha erlar davlatning mulki bo'lib odamlaming farzandlaridan biriga meros bo'lib o'tishi mumkin. Mavjud mulkning ko'p va ozligiga qarab, odamlar to'rt toifaga bo'linadilar:

Boyliking ham, kambag' allikning ham ma lum chegarasi bo'lib, bu qonun tomonidan belgilab qo'yiladi. qullar va chet ellardan kelgan dehqon, hunarmand, savdogarlar YUqorida aytilgan 5040 fuqaro tarkibiga kirmaydi. Birinchi davlatda ham, ikkinchi davlatda ham hamma ish o'zaro kelishuv va muomila asosida olib boriladi. YOshlar erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lsalarda, ammo ular oliy rahbarlikka ko'tarila olmaydilar. Aflatun davlatining boshida bosqichma-bosqich saylovlardan o'tgan 37 hukmdor turadi. Hukmdorlarning yoshi 50 dan 70 yoshgacha bo'ladi. 360 kishidan iborat bo'lgan saylov kengashi katta huquqlarga ega.

Aflatunning ideal davlatida qonunchilikka e'tibor qaratgan. qonun chiqaruvchilarga Aflatun maslahat berib qonunlar juda qattiq bo'lmasin, qonunga itoat etish bilan birga hukmdorlar jamiyatni erkin boshqara olsinlar, qonunlarni ishlab chiqqanda geografik muhit, iqlim, tuproq va boshqa omillar e'tiborga olinishi zarur. Aflatun qonunlarga rioxha etmaslikni qattiq qoralaydi. Har xil shoirlar, olimlar turli- tuman yangiliklar yaratib, qonunlarni buzishavermasin.

Aflatun o'z qarashlarida mafkuraviy masalalarga katta e'tibor berdi. Davlat va qonunlarning ilohiy va muqarrar qudratini odamlarga etkazish, ularning ongiga singdirish kerak. qonun-qoidalarni buzish qattiq jazolanishi kerak. Aflatun tomonidan ikki yarim ming yil oldin aytilgan "qonun ustivorligi", "qonun hukumronligi" g'oyalari bizning kunimiz uchun shubhasiz juda foydali.

Arastu Aflatundan keyin eng ulug' mutafakkir sifatida maydonga chiqdi. (Eramizdan oldingi 384-322 yillar). O'zining «Politiya», «Afina siyosati», «Etika» nomli asarlarida siyosiy, huquqiy qarashlarini bayon etadi. Arastu siyosat fanini har tomonlama ishlab chiqishga, siyosatni axloq doirasida qarashga harakat qildi. Axloq siyosatning boshlang'ich nuqtasi, uning muqaddimasidir, deydi u. Arastu adolatning ikki xilini farqlab ko'rsatadi. Muvozanatga soluvchi adolat misoli arifmetik tenglik, ya'ni mana shu tamoyilni jamiyat taraqqiyotiga tadbiq etish. Belgilovchi adolat xuddi geometrik tenglikka o'xshaydi. ya'ni barcha haq-huquqlar, ne'matlar odamlar o'tasida har kimning o'ziga yarasha taqsimlanishi kerak.

Arastuning etika sohasidagi izlanishlarining mohiyati shundaki, siyosiy adolat odamlar o'tasidagi tenglik, erkinlikka asoslangan bo'lib, har bir odamning o'z ehtiyojlarini qondirishi bilan belgilanadi. Arastu tasawurida davlat ko'plab tarkibiy qismlarning o'zaro uyg'unligidan tashkil topadi. Davlat o'ziga xos bir tashkilot bo'lib, fuqarolaming uYUshishidan tashkil topdi. Davlatning har bir turida o'ziga xos inson xuquqlari ishlab chiqilgan bo'ladi.

Arastu davlatning siyosiy tashkilot ekanini ta'kidlab, davlat bu oliy hokimiyatga ega bo'lgan siyosiy tizimdir, deb uqdiradi. Davlatning to'g'ri va noto'g'ri boshqarish shakllarini ajratadi. Davlatning to'g'ri boshqarish shaklida xalqqa manfaat keltiradi. Noto'g'ri boshqarish shaklida faqat tor doiradagi odamlarga foyda keltiradi xolos.

Davlat boshqarishining uchta to'g'ri shakli monarxiya, aristokratiya, politiya. Davlat boshqarishning noto'g'ri shakli tiraniya, oligarxiya, demokratiyadir.

Arastu davlat boshqarish shakllarining turli xillarini xam tekshirib chiqadi. Uning fikricha, eng to'g'ri boshqarish shakli bu politiyadir. Boshqa davlat formalari politiyadan ozmi-ko'pmi chekinishlarga asoslanadi. Davlatni noto'g'ri boshqarish shaklidan eng yomoni bu tiraniyadir. Politiya oligarxiya va demokratianing eng yaxshi tomonlarini birlashtiradi, ammo ulaming yomon tomonlaridan butunlay xoli davlat shaklidir. Arastu ishlab chiqqan ideal davlatning loyihasini oddiy bir fakt ni tajribada sinab ko'rishdek aniq bir belgilarni xarakterlab bo'lmaydi, deb ko'rsatadi. Ideal davlatning aholisi etarli darajada bo'lib, aniq ko'zga tashlanib turishi kerak. Uning xududida quriqlik va dengizga yaxshi yo'naltirilgan bo'lmos'hish zarur.

Qonun siyosatga mos bo'lismi uchun avvlo qonunlar adolat asosida shakllanishi zarur. Arastu qadimgi dunyoning eng mashhur, genial tafakkur egasi edi. Uning asarlari asrlar osha o'z kuchini yo'qotmay qolmoqda. U voqealami chuqur, ilmiy taxlil etishda o'z ustozni Aflatundan ancha o'zib ketgan edi.

Qadimgi Rimda siyosiy va ma'rifiy ta'limotlarning o'ziga xosligi.

Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi ming yillami o'z ichiga oladi va shu davr ichida qadimgi Rimda o'zgarib turgan sotsial iqtisodiy, siyosiy-huquqiy qarashlarni voqealami aks ettiradi. qadimgi Rim tarixi uch bosqichdan iborat. Podsholik (eramizgacha 754-510 y.), respublika boshqarish usuli (504-28 y), imperatorlik (27 eramizgacha va 475 y). yagona Rim imperiyasi eramizning 395 yili batamom bo'linib ketdi. g'arbiy (markaz Rim), SHarqiy (markazi Konstantinopol') Vizantiya imperiyasi-bular 1453 yilgacha yashab keldi.

qadimgi Rimdagagi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qarashlar uzoq vaqt davomida turli qarama-qarshi kuchlar patritsiylar va plebeylar o'rtasidagi, to'xtovsiz kurashlar ichida shakllanib boradi va shu kuchlar nisbatini, manfaatlarini o'zida aks ettirdi.

qadimgi Rimdagagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar qadimgi YUnionistonda shakllangan ijtimoiy-siyosiy qarashlar ta'sirida edi. eramizgacha 2 asr o'rtalarida plebeylar yozma ravishdagi qonunlar tayyorlanishini talab qilib chiqdilar va YUnionistonga odamlar YUborib, ulardag'i qonunchilik, davlatchilik asoslarni o'rganib kelish, xususan Solon davrida yaratilgan qonunlarga katta e'tibor berishni topshirdilar. Bu tajribalar puxta o'rganilib, nihoyat XII jadvaldan iborat bo'lgan qadimgi rim huquq normalarini ishlab chiqishga asos bo'ldi. qadimgi YUnionistonning atoqli faylasuflari Sokrat, Aflatun, Arastu, epikur, stoiklar, Polibiy va boshqalar qadimgi rim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarning shakllanishiga kuchli ta'sir qildi.

qadimgi Rimda huquqshunoslik fanining rivojlanishi katta voqealami edi. Rim hukukshunoslari huquqning umumiy nazariyasi muammolarini yoritib berdilar. Ayrim huquqshunoslik sohalari (davlat va huquq nazariyasi va ma'muriy xuquq, jinoyat huquqi, xalqaro huquq) mustaqil tarzda ishlab chiqildi. Rim huquqshunoslari jamiyat hayotida ro'y berayotgan yangiliklaming nazariy asoslarni ishlab chiqdilar. Rim YUrilstari tomonidan kashf qilingan huquqshunoslikka oid atamalar, fanlar bugun bizda ham o'rganilmoqda.

Rim imperiyasida eramiz boshida xristianlik paydo bo'ladi. Ilk xristian ta'limotlari barcha erkinlik haqidagi qonunlarni, mavjud bo'lgan ko'plab tabiiy huquq g'oyalarini yangi din o'z nomidan, ilohiy ruh, xudoning ifodasi deb talqin qila boshaydi. Barcha odamlarning tengligi, uni odamlar o'rtasida qaror topishi zarurligi haqidagi g'oya muxim axamiyatga ega edi. Xristianlikning paydo bo'lismi va Jahon dini sifatida kengayib, mustahkamlanib borishi insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlariga kuchli ta'sir qildi. eramizning II asrida xristian jamoalarida axvol bir muncha o'zgaradi. Jamoa boshliqlarining hukmronligi mustahkamlanadi, ular o'rtasida aloqa kuchayadi, ruhoniylar paydo bo'ladi. CHerkov ierarxiyasining paydo bo'lismi, diniy dogmatning kuchaytirib YUbordi. Ilk xristianlik ta'limotlarida qulchilikni yo'qotishga, xususiy mulkchilikni bekor qilishga, odamlar o'rtasidagi noteng'llki bartaraf etishga qaratilgan g'oyalar mavjud edi. Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixida Mark Tualliy Sitseron (10643 eramizdan oldingi yillar) aloxida o'ren egallaydi. Mashhur arator, davlat arbobi va mutafakkir Sitseronning davlat va x, uquq muammolariga bag'ishlangan "Davlat haqida", "qonunlar haqida", "Burchlar haqida" va boshqa asarlarida siyosiy va huquqiy qarashlari o'z aksini topgan. Davlatning paydo bo'lishining sababi odamlarning birga yashashga intilishidadir. Sitseron ijodida haqiqiy davlat arbobi va ideal fuqaroga xos fazilatlar katta o'ren olgan. Sitseronning ijodiy merosi insoniyat madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Rim huquqshunoslaring siyosiy va ma'rifiy qarashlari

Eramizgacha II asr boshlarida huquqshunoslik, hususan fuqarolar xuquqi borasida M. Maniliy, P. Mutsiy Stsevola va M. YUniy Brut samarali faoliyat ko'rsatdilar. Huquqiy masalalar quyidagi soxalarni qamrab olardi:

- Odamlarning YUridik savollariga javoblar;

- Bitimlar tuzishda tavsiya qilish va yordam berish;

- Sudda ishlarni hal qilish uchun formulalar ishlab chiqish;

- Rim huquqshunosligi respublikaning oxirgi damlarida, xususan, imperiyaning dastlabki ikki yarim asrida o'zining eng YUqori rivojlanish darajasiga etdi. III asming ikkinchi yarmidan boshlab, imperatoming qonuniy hokimiyatga ega bo'lishidan so'ng rim huquqshunosligining rivojlanishi pasaya boshladi. TO'g'ri, klasik davrda YUrilstarning axvoli hurmat e'tibori yangi davrda ham saqlanib turdi. Xuddi mana shu klassik davrda yashagan mashhur huquqshunoslardan Gay, Panminak, Pavel, Ul'pian, Modestinlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

IV asrning oxiri va VI asrning ikkinchi yarmi oraligida Rim imperiyasining qulashi bilan birga antik davr ham tugadi, o'rta asrlar boshlandi. Ming yildan ko'proqvaqtning o'z ichiga olgan bu davr feodalizmning paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga uchrashi davridir.

Feodal jamiyatning iqtisodiy asosini erga bo'lgan feodal mulkchiligi tashkil qiladi. qirog eng katta er egasi hisoblanar edi. U o'z vassalariga er taqdim etardi, vassalar bunga javoban qirogga harbiy ko'mak ko'rsatishi va soliqto'lashlari shart edi. Feodallar o'z navbatida dehqonlarni ishlatish bilan bir qatorda, hosilini ham bir qismini o'ziga olardilar. X asrdan boshlab davlat hokimiyat kuchaya boshlaydi. qirogning vassalar ustidan hukumronligi dam kuchayib, dam susayib bordi. O'rta asrlarning oxirlarida markazlashgan davlatlar yuzaga keldi. Rasmiy hokimiyat absolyut monarx qo'liga o'tdi.

Davlat hokimiyatining kuchaytirish maqsadida qirog tomonidan tashkil qilingan hukumat va uning amaldorlari davlatni boshqarishdagi ishtiroti tufayli ma lum hokimiyatni qo'lga kiritdilar. Natijada qirog va davlat aristokratiyasi o'rtasida keskinlik paydo bo'ldi.

Bu keskinlikni bartaraf qilish yo'lida qirog pay do bo'la boshlagan uchinchi tabaqadan tayach izlardi. Taxminan 17-asrning oxirgacha uchinchi tabaqa asosan absolyutizmni qo'llab-quvvatlab keldi. Davlat bilan bir paytda cherkov ham rivojlanib bordi. O rta asrning ilk davridan boshlab xayotiy muammolar bilan qiziqishlar doirasi asosan ma'naviy masalalar bilan cheklandi. Odamlar o'z hayotidagi o'ta og'ir muammolar echimini dindan izladilar.

Siyosiy huquqsizlik, moddiy nochorlik va jismoniy azob-uqubatlar, yovuzlik va iroda zaiflashishiga qaramay har bir kishi umid bilan yashardi. Xristianlik har bir kishiga murojaat qilardi va umid berardi. erdag'i hayot, deb uqtirardi xristianlik, drammatik tarixiy jarayonning bir qismidir xolos. Uning oxirida har bir kishini bu hayotdagi nohakliklar va azob-uqubatlar uchun odil mukofat kutadi.

Bulardan yuqorida Tangri-Xudo, yaratuvchi mehribon va odil rux turadi. erdag'i barcha mavjudod Xudo tomonidan odamlarning makoni sifatida panox topishi uchun yaratilgan. Barcha uchun umumiy qonun Xudoning amri mavjuddir. Barcha odamlar teng, zotan ularni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgandir.

Bunday tushunish tabiiy huquq, umuminsoniy birdamlik va tenglik g'oyalari uchun zamin bo'lish imkoniyatini yaratar edi. yangi xristianlik goyalari siyosiy va ma'rifiy ta'limotlarda ham o'z aksini topdi. Xristianlik hukumron dinga aylangan vaqtidan boshlab O rta asrlar siyosiy hayoti va siyosiy tafakkuriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Jamiyatda davlatdan tashqari cherkov instituti yuzaga keldi. Bu institut rivojlanib bordi va 4 asrdan boshlab O rta asrlar oxirgacha davlat va cherkov o'rtasidagi munosabatlar o'zaro raqobatda o'tdi.

Amalagi qonunlami asoslash uchun tabiiy huquqqa murojat qilinardi. ya'ni tabiiy huquqqa tayangan va uning ifodasi deb talqin qilingan qonunlargina maqsadga muvofiq hisoblanardi. SHuning uchun ham tabiiy huquqning rasmiy vakolatga ega bo'lgan talqinchisi kim ekanligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etdi. CCherkov davlatning ahloqiy va diniy masalalari bo'yicha rasmiy talqinchisi mavqeyini Ko'lga kiritganidan keyin dunyoviy hukmdorlarning tanqid qilish uchun ma lum asoslar paydo bo'ldi. Bu evropada ozodlik g'oyalaring rivojlanishida muhim ahamiyat kabs etdi.

CCherkov dunyoviy hukmdorlarga itoat qilishni targ'ib qilardi. Zotan cherkov dunyoviy hukmdorlar etik va diniy talablarga rioya qilmayapti deb topgan taqdirda, o'zining bu chaqirig'idan

voz kechishi ham mumkin edm. Nazariy jihatdan davlat bilan cherkov o'zaro hamkorlik qilishlari kerak edi. Ammo ular nisbatan mustaqil institutlar bo'lgani tufayli, ko'pincha ham papa, ham imperatomi ulug'lash kerak bo'lardi. Dunyoviy xokimiyat va cherkov hokimiyati o'rtasidagi munosabatlар ko'plab qarama-qarshilik va nizolar bilan xarakterlanadi. Targ'ib qilish qobiliyatiga ega bo'lish uchun cherkov etarli iqtisodiy asosga, ya'ni ma lum darajada dunyoviy hokimiyatga ega bo'lishi kerak edi. Hukmdorlar esa ma'lum diniy obro'ga ega bo'lishlari lozim edi. Bu ikki xokimiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni keskin tus olishga sabab bo'lardi.

Avgustin va Foma Akvinskiyning siyosiy va ma'rifiy qarashlari.

Mana shu ikki hokimiyatlar o'rtasidagi munosabatlarga o'zicha izoh bergan, antik davrni xristianlik davri bilan bog'lagan dastlabki buyuk teologlardan biri Avgustin edi (354-430). U lotin tilida juda ko'p asarlar yaratdi. O'zining "Xudo shahri haqida" asarida Avgustin tarix haqidagi tasawurini va ikki shahar ("Podsholik") Zamin shahri va Xudo shahri haqidagi ta'limotini ishlab chiqdi. Avgustin fikricha inson Xudo yaratgan eng ulug' mavjudoddir, barcha narsalar inson uchun yaratilgandir. Inson esa panoh izlaydi. Insonning ichki dunyosi turli- his tuyg'ular, iroda, istaklarning kurash maydonidir, panoh topishga bo'lgan istak sohasidir. Biroqinson o'zining ichki dunyosini boshqarishga qodir emas. U marhamatga, ilohiy yordamiga muhtojdir. Inson erkin irodaga ega bo'lsada, Xudoning panoh topish rejasining bir bo'lagidir xolos.

CHerkov ma lum ma'noda Xudo "podsholigi"ni, Imperiya esa zamin "podsholigi" ni o'zida ifoda etadi, deb hisoblaydi Avgustin. Avgustin zamin podsholigini bo'lishi shart va zurur deb biladi. Insonning tabiatini gunox qilish oqibatida buzilgani bois, kuchli er podsholigi yovuzlikni jilovlash uchun zarur deb hisoblaydi. Xatto gunox bo'limgan taqdirda ham jamiyatda ma lum tartib va boshqaruv shakli bo'lishi kerak.

Er podsholigi hukumdorlari Xudo tomonidan tartib saqlash uchun tayinlanadi. Xalq, Xudoning irodasiga bo'y sunishi shart bo'lgani bois, bu hukumdorlarga xam bo'y sunishga majburdir. Dunyoviy podsholik odamlardagi yovuzlikni Xudo podshoxligisiz (cherkovsiz) bartaraf qila olmaydi. Xristianlik davlatining barcha a'zolari bir vaqtning o'zida ham papaning, ham imperatorning fuqarolaridirlar, deydi Avgustin.

Davlat va cherkov hokimiyatlarining ikkisi ham Xudodan va binobarin, ular bir xilda qonuniydir, degan ta'limotni ilgari surib 5 asrda Papa Gelasiy I maydonga chiqdi. 800-900 yillar mobaynida bu ta'limotni cherkov ham, davlat ham qabul qildi. Ammo ular o'rtasidagi kelishuv ko'prok og'izdagina bo'lib qoldi.

XIII asrga kelib g'arbiy evropada, asosan cherkov doiralarida, intelektual faollik ro'y berdi. Arablar orqali Arastu qayta kashf qilindi. Falsafa sohasida Foma Akvinskiy xristianlik va Arastuizm sintezini amalga oshirdi. Bu sintez shu qadar muhim ahamiyat kasb etdiki, keyinchalik Rim-katolik cherkovi Foma Akvinskiy ta'limotiga o'zining rasmiy falsafasi sifatida qaray boshladi.

Foma Akvinskiy (1226-1274) o'rta asr diniy skolastikasining ko'zga ko'ringan namoyondasi. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari "Teologiya majmui", "Hukmdorlarning boshqaruvi haqida", hamda Arastuning "Siyosat", "Axloq" asarlariga yozilgan izohlarida bayon qilingan.

Xuquq va qonun muammolarini Foma Akvinskiy xristian dinining inson va uning hayot mazmuni haqidagi tasawurlariga tayangan holda yoritadi. U qadimgi dunyo mutafakkirlarining tabiiy huquqvaadolat g'oyalariga, ayniqsa Arastuning siyosat va inson "siyosiy maxluq" ta'limotiga diniy nuqtai nazardan yondoshib murojaat qiladi. Foma Akvinskiy ta'limotiga ko ra olam va undagi tartibning ijodkori Xudodir. Inson hayoti va harakatlarining ildizi Xudodadir.

SHu bilan birga inson aql va erkin irodaga ega mavjudotdir. Xar qanday erkinlikning ildizini aql-idrok (intelektual qobiliyat) tashkil qiladi, Insonning erkin irodasini yaxshilikka undovchi barcha harakat Xudo amriga, aql-idrok,adolat va yaxshilikka qaratilgan bo'lishi kerak.

Foma Akvinskiy bu fikrini o'zining qonun va huquqhaqidagi ta'limotida konkretlashtiradi. Qonun, - deydi u, harakatning ma lum qoidasi va o'lchovidir. Uning mohiyati inson hayoti va faoliyatini tartibga solishdan iboratdir. qonun jamiyat a'zolarining umumiy foydasini ifoda qilishi zarur. U bevosita jamiyat tomonidan, yoki uning ishonchiga ega bo'lgan vakillari tomonidan joriy qilinadi. qonun e'lon qilinishi shart.

Foma Akvinskiy qonunlarni quyidagi turkumlarga ajratadi: abadiy qonun, tabiiy qonun, inson yaratgan qonun, ilohiyat qonuni. Abadiy qonun ilohiy aql- zakovatning ifoda etuvchi koinotning umumiy qonunidir. Bu qonun olamning mutloqqoidasi va tamoyili sifatida tabiiy va ijtimoiy

jarayonlarning barchasini idora qiladi va ularni aqlga muvofiqrivojlanishini ta'minlaydi. Abadiy qonun umumiy bo'lganligi uchun ham barcha boshqa qonunlaming manba'idir. Bu qonun bevosita tabiiy qonunda namoyon bo'ladi. Tabiiy qonunga muvofiq Xudo yaratgan barcha narsalar, jumladan inson xam, o'zining tabiiy xossalari ko'ra o'z qonunlariga ega va shu qonunlarga binoan rivoj topadi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra yaxshilik va yomonlikning ajratish qobiliyatiga ega, ezgulikka intiladi, yaxshilik talabiga mos harakat qilishga moyildir. ya'nini inson o'zining amaliy faoliyatida yaxshilik qilish va yomonlikdan qochish talabiga amal qiladi. Boshqa odamlar bilan bo'ladigan munosabatlarda inson tabiiy tug'ma intilish, instinct va ishtiyoqlari bilan belgilanadigan qoida va talabalarga riosa qiladi. Bular o'z jonini saqlashga tirishish, oila qurish va farzand ko'rish, boshqa odamlar bilan muloqatda bo'lish, Xudoga intilish va hakozolar. Tabiiy qonun talablariga riosa qilish inson uchun aql-idrokka muvofiq xarakat qilish demakdir. Odamlarning jismoniy, emotsiyonal va intellektual tabiiy hususiyatlari, hayot sharoitlari bir xil bo'haganligi sababli ular tabiiy qonun talablarini har xil tushunadilar va tadbiqkiladilar. Oqibatda barcha uchun bir xil majburiy bo'lgan tabiiy qonun talablariga zid harakatlar ham paydo bo'ladi.

Inson qonuning paydo bo'lishi ildizi mana shundadir. Inson qonuni tabiiy qonun talablariga asoslangandagina odamlarning muxofaza qila olishi, inson hayotining turli sharoitlariga mos holda qo'Hanishi mumkin bo'ladi. Inson qonuni majbur qilish sanktsiyasi bilan ta'minlangan ijobjiy qonundir, deydi Foma Akvinskiy. yaxshi fazilatga ega odamlar busiz ham yashashlari mumkin, ular uchun tabiiy qonunning o'zi kifoya, lekin nasixatga qulqosolmaydigan, e'tiqodsiz odamlarni zararsizlantirish uchun jazo va majbur qilish kerak. Buni borligidan odamlar qo'rqliki kerak. SHu tufayli odamlarda axloqiy fazilatlar rivoj topadi, aqlga muvofiq, yaxshilikka amal qilish odatlari shakllanadi.

Uyg'onish davri XIV- asrdan XVII- asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr qirollik hokimiyatini absolyut monarxiyaga aylanishi va mustahkamlanishi, ilk kapitalizimning vujudga kela boshlashi, feodal jamiyatining barham topishi bilan xarakterlanadi. Feodalizmdan sekin-asta kapitalizmga o'tish ro'y bera boshlaydi.

Yangi davr markazlashtirilgan hokimiyatning kuchayishi bilan bir vaqtida feodal tarqoqligini tugatish talablari kuchayib bordi. Sanoat ishlab chiqarish, kemasozlik, harbiy ishni rivojlantirish ehtiyojlari yangi ilmiy tadqiqot metodlarini, o'rta asr chillikkada xos sxolastikadan voz kechishni taqazo qilar edi.

Paydo bo'la boshlagan burjua mafkurasi nomoyondalari diniy aqidalarga nisabatan tanqidiy munosabatda bo'ladilar, mustaqil ilmiy tadqiqotga intilish kuchaydi. Insoniy ehtiyojlar birinchi o'ringa chiqdi. Olimlar insonning ijodiy imkoniyatlari, uning aql-idrok qudratini ulug'ladilar. Antik madaniyatning qayta tiklanishi, diniy Reformatsiya, tabiatshunoslik fanlarining vujudga kela boshlashi uyg'onish davrining asosiy xususiyatidir.

Bu o'zgarishlar siyosiy fikr sohasida ham o'z aksini topdi. yangi siyosiy ta'limotlarda cherkovga bog'lik; bo'limgan, markazlashgan dunyoviy davlat tuzish talablari yuzaga kela boshladi. Bu yangi g'oyalarning himoyachisi va targ'ibotchilari Italiyada Makiavelli, Frantsiyada Boden hisoblanadi.

Nikollo Makiavelli va Jan Bodenning siyosiy va ma'rifiy qarashlari.

Nikollo Makiavelli (1469-1527) siyosiy fikr tarixiga o'zining bir qancha ijobjiy asarlari bilan kmrib keldi. Bu asarlar ichida uning "Xukmdor" ("Gosudar") asari alohida o'ren egallaydi. Makiavelli birinchilardan bo'lib diniy aqidalardan holi bo'lgan siyosiy ta'limot yaratishga harakat qildi. Uning ta'limoti siyosiy amaliyotning kuzatish, tarix va inson psixikasini o'rganish asosiga qurilgan.

Makiavellining fikricha u odamlarning xatti-harakatlarini bir-xil xirs va intilishlar belgilaydi. Inson tabiatining zaminida amalparastlik, g'arazgo'ylik yotadi. Odamlar, deydi u, subitsiz, noshukur, qo'rqoq, munofiq, ichi qora, boshqalarni ko'ra olamaydigan xossalarga egadirlar. qobiliyati cheklangan bo'lsa ham, hohishlari cheklangan. Ular doim hozirgi kundan norozi, o'tmishni maqtaydilar, taqlid qilishni sevadilar, lekin yaxshi narsalarga nisbatan yomon odatlami tezroqo'zlashtiradilar. Inson-o'zining dunyoga kelishini batamom asosli ravishda katta yig'i bilan olqishlovchi eng ojiz va sho'rpeshana maxluqdir".

Makiavelli davlatning monarxiya va respublika shakllarini ajratadi. U respublikanining afzalliklari haqida gapirsa ham markazlashgan va qudratli davlat yaratish uchun monarxiya

qulayroqdeydi. qudratli davlatni yaratish yo'lida hukumdar hech narsadan toymasligi kerak, ahloqnormalariga ham rioya qilishi shart emas. U hukumdorga berahm va ayyor bo'lishni, fuqarolarga qo'rquv orqali ta'sir qilishni maslahat beradi.

Hukmdor she'rdan jassurroq, tulkidan ayyorroqbo'lishi kerak, negaki, "tuzoqni ko'rish uchun tulki, bo'rili ami jazosini berish uchun she'r bo'lmos'i darkor". Siyosiy ta'limotlar tarixida "makiavellizm" nomini olgan tushuncha Makiavellining fikriga mos siyosatni anglatadi.

Jan Boden (1530-1596) frantsuz siyosiy mutafakkiri, huquqshunos, advokat, prokuror lavozimlarida ishlagan. Uning asosiy asari "Davlat haqida olti kitob» deb nomlanadi. Bu asarda u siyosiy fikr tarixida birinchi bo'lib davlatning muxim belgisi suverenitetga izoh beradi.

Davlat bu oilalar majmuidir, deb ta'rif beradi. Boden shu bilan birga davlatning oiladan jiddiy farqqilishini ham ta'kidlaydi. Bu farqdavlat hokimiyatining oliy suveren xarakterligidadir. Suveren hokimiyat davlatning muhim va zaruriy xossasidir. Davlat hokimiyati xech kimga qaram bo'lman oliy hokimiyatdir. Boden suveren hokimiyatning belgilarini ko'rsatadi. Suverenitet yagona va bo'linmas: u qirol va xalqo'rtasida bo'linmaydi. Suverenitet xokimiyatning muntazamligini bildiradi. Uni vaqtincha yoki ma lum shart bilan boshqaga topshirish mumkin emas.

Suverenitet yagona va bo'linmas bo'lganligi uchun doim bir shaxs yoki bir majlis qo'lida bo'ladi. Suverenitet yo qirol, yo aristokratiya, yo xalqo'lida bo'lishi mumkin. U bir necha turli organlar o'tasida tahsimlanmaydi, yoki navbat bilan undan foydalanilmaydi.

Bodenning suverenitet haqidagi ta'limoti feodal tarqoqligiga qarshi qaratilgan bo'lib, Frantsiyada markazlashgan davlat vujudga kela boshlagan vaqtida paydo bo'ldi. U cherkovning dunyoviy hokimiyatga ega bo'lish uchun qilgan harakatlariga qarshi qaratilgan edi. Boden davlat shakllari ichida monarxiyani afzal ko'radi. Demokratiyani mutloqrad qiladi. Uning aytishicha, xalqgo'yo to'g'ri qarorga kelishiga qodir emas, demokratiya anarxiyaga olib keladi.

Boden monarxiyani eng yaxshi davlat shakli deb biladi. Monarxiyadagina bir butun va bo'linmas davlat hokimiyati mavjud. Birlik bo'lman joyda oliy xokimiyat ham yo'q. Davlat hokimiyatining birligini ta'minlovchi birdan-bir davlat shakli monarxiyadir. Davlat hokimiyatini ustida turgan monarch qarama-qarshi davo va intilishlaming bir-biriga kelishtiradi va qarama-qarshi elementlaming uyg'unlashgan birligini yaratadi. qonuniy monarxga bo'y sunishni targ'ib qilish bilan birga, Boden tiraniyaga qarshilagini bildiradi. Zo'ravonlik yo'li bilan hokimiyatga kelgan kishi tirandir. Unga qarshilik ko'rsatish, uni og'darish, xatto o'ldirib tashlash xam man qilinmaydi, deydi Boden.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar.

Uyg'onish davri, reformatsiya, burjuaziya, burjua mafkurasi, Makiavellining siyosiy va ma'rifiy qarashlari, Jan Bodenning siyosiy va ma'rifiy qarashlari, monarxiya, respublika, demokratiya, suverenitet, aristokratiya, monarch.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. G'arbiy evropada uyg'onish davri qaysi davrlami o'z ichiga oladi?
2. G'arbiy evropada uyg'onish davrida qanday siyosiy va ma'rifiy ta'limotlar rivojlandi?
3. SHakllangan siyosiy va ma'rifiy ta'limotlarda qanday g'oyalari va qarashlar olg'a surildi?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostososada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini

shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.

8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.

9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.

10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro- e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.

11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbati // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.

12. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.

13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.

14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.

15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.

16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.

18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.

19. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.

20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.

21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent:O'FMJ, 2004

23. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

4-MAVZU: Aksiologik ong va qadrlash tuyg'usi Reja:

O'zbekistonning mustaqilika erishishi, totalitar buyruqbozlik tuzumining mafkuraviy hukmronligiga barham berilishi diniy qadriyatlarga nisbatan yangicha yondashishga imkon berdi. Ko'pgina diniy marosimlar tiklandi. Qurbon hayiti, ramazon hayiti kabi marosimlar hamma erda ommaviy bayramlarga aylandi. Bunday qadriyatlar yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usini shakllantirishda, insonparvarlik, halollik, ahloqiy poklik fazilatlarini kamol toptirishda katta ahamiyatga ega.

Qadriyatlarning amal qilish doirasiga ko'ra turlari.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy xodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasawuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruxiyati, xozirgi xolati va hususiyatini, xis qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa u o'zining qaysi millatga mansub ekanligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashi tasawur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy

qadiriyatlaridan mahrum qilish tarih va insoniyat oldididagi eng katta jinoyatdir. Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr-qimmatini saqlash, o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. Har bir millatda ham huddi shu holatni ko'ramiz. Millatlaming o'z-o'zini anglash jarayoni takomilllashgan sari milliy manfatlar ham milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi. Milliy qadriyatlamining e'zozlanishi va kuchayib berishi zinhor milliy mahdudlikka, milliy xudbinlikka, manmanlikka olib kelmasligi kerak. SHuning uchun ham bu masalada xushyorlik, nazokat, insof, diyonat, bag'rikenglik, sahovat talab qilinadi.

Milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilovchi assosiy mezonlardan biridir. Millatning ruhiyati, tarixiy an'analari, ma'naviy extiyojiga mos kelmaydigan begona qadriyatlamini unga zo'r lab singdirish mumkin emas. Ayniqsa, boy tarixiy merosga ega bo'lgan xalqlar ma'naviy hayot borasidagi zo'ravonlikni ruhan qabul qilmaydilar. Xalqlarga yangi ma'naviy qadriyatlamini singdirish uchun awal ularga nisbatan extiyoj tug'dirmoqda.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy xodisalar majmuasini tashkil etadi. Mintaqaviy qadriyatlarga misol sifatida O'rta Osiyo xududida istiqomat qiluvchi xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlamini keltirish mumkin. Bir zaminda unib o'sgan xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odati va an'analalarida juda ko'p umumiylilik mavjud. Ular hamisha bir-birlariga og'a-ini, quda-anda bo'llib kelganlar. Qadimdan bir man'naviy-ruhiy iqlimdan nafas olib kelgan xalqlarimiz bugungi mas'uliyatli davrda aql, zakovat, shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab etadigan bir pallada yana ham yaqinroq, yana ham mehr-oqibatliroq bo'lishlari lozimligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Mintaqaviy qadriyatlar turkumiga O'rta Osiyoda yagona iqtisodiy xudud tashkil qilish. Orol muammolarini xal qilish, ekologik xavfsizlikni ta'miniash, mintaqqa xalqlarini tibbiy va ijtimoiy jihatdan himoyalash, boy tarixiy, ma'naviy merosimizni avaylab asrash kabilar kiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va ma'naviy qadriyatlardan mazmuni jihatidan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar va xalqlarning maqsadi va intilishlariga muvofiq keladi. Ta'kidlash joizki, jahondagi birorta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatlardan, umuman jahon tsivilizatsiyasidan mutlaqo ajralgan emas. Millatlar boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlanma olmaydilar. SHU sababli barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanishi, tarixi bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat tsivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiylari er yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollarning poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'miniash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta'miniash, koinotni va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi.

Qadriyatlamining jahon taraqqiyoti, inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazaridan progressiv va reaktsion qadriyatlarga ajratilishini ham esdan chiqarmaslik kerak. Jamiyatimizning iqtisodiyoti, madaniyati va ma'naviyatining ilgari qarab rivojlanishiga, ahloq-odob, milliy urf-odatlar negizlarida komil insonni tarbiyalashga, mustaqil respublikamizdan har tomonlama ravna-toptirib, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shishga astoydil xizmat qiladigan qadriyatlar - bu progressiv qadriyatlarni tashkil etadi. Aksincha, mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy muammolarni xal etishga to'sqinlik qiladigan xolislar reaktsion qadriyatlarga kiradi. Progressiv qadriyatlamining barchasi insonning farovon xayot kechirishini, erkin yashashi, ma'naviy ahloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vosita hisoblanadi. SHuning uchun ham ularni avaylab asrash, yuksaltirish inson shaxsiy hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Inson va uning xayoti. moddiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, ahloqiy va huquqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlar, qadriyatlamining tarbiyaviy ahamiyati, Bashariyat, burch, qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, madaniy-ma'naviy qadriyatlar, ahloqiy qadriyatlar, bugungi kundagi qadriyatlamining ahvoli, barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik.

Mavzuga doir nazarot savollorii:

1. Qadriyatlar mohiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Nima uchun inson eng oliy qadriyat xisoblanadi?
2. Moddiy qadriyatlarga nimalar kiradi? Madaniy-ma'naviy qadriyatlar nimalardan tashkil topadi? Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar deganda nimalami nazarda tutmoq kerak? Ahloqiy va huquqiy qadriyatlar nimalardan iborat?
3. Diniy qadriyatlamining tarbiyaviy ahamiyati nimalarda ko'rindi? Amal qilish doirasiga ko'ra qadriyatlamining necha turi mavjud? Milliy qadriyatlarga nimalar kiradi?
4. Mintaqaviy qadriyatlamining milliy qadriyatlardan farqi nimada? Umuminsoniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'niy qadriyatlarimizni jahon hamjamiyatida tutgan o'mi qanday?
6. Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik kabi qadriyatlar o'zida nimani aks ettiradi? Qadriyatlamining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday?
7. Qadriyatlarni etuk, barkamol insonni tarbiyalashdagi vazifalari qanday?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostinosada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro'e'tiborini yanada oshirish yo'tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbati // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.
12. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.
13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.
14. 31.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.
15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.
16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.

18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1994.
19. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.
20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'FMJ, 2004
23. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

5-MAVZU: Qadrlash va qadrsizlanish muammolari.

Reja:

1. Qadrlashning aksiologik mohiyati va mazmuni.
2. Qadrlash mezonlari va me'yorlari, ular buzilishining salbiy oqibatlari.
3. Qadrlashning shaxsiy, milliy, umuminsoniy va boshqa darajalari.
4. Qadrlash va qadrsizlanish qarama-qarshi hodisalar sifatida.
5. Mustabid tuzumda mamlakatimiz fuqarolari va ularning hayoti havf ostida qolganligi.

Qatag'onlik yillari va uning qurbanlari. 1970-1980yillarda "O'zbeklar ishi", "Paxta ishi" siyosati va uning asl mohiyati

Cheklangan demokratiya sharoitida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlaming ahvoli, shaxsga sig'inish siyosati, uning milliy qadriyatlarga salbiy ta'siri, diniy va milliy urf-odatlarimizning toptalganligi.

O'zbekiston tabiiy resurslarga nihoyat darajada boy, nisbatan yuqori iqtisodiy va ishlab chiqarish qudratiga ega mamlakatlardir. Respublikamiz bag'rida foydali qazilmalar mo'l. U tabiiy iqlim sharoitiga ko'ra, qishloq xo'jaligi madaniyatini yuksaltirish imkoniyati baland, mahsulotlar etishtirish uchun eng qulay mintaqalardan biridir.

O'l kamiz azaldan ilm-fan va madaniyatning qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka olimlari, etuk mutafakkirlari jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va o'lmas ilmiy asarlari bilan boyitdilar. Insoniyat tafakkuri taraqqiyotiga juda katta xissa qo'shdilar. Ana shundan o'lkan, uning boyliklarini qo'lga kiritish chorizm tashqi siyosatining maqsadi bo'lib, bu siyosat Pyotr I tomonidan asoslab berilgan edi. Ana shu niyatni amalga oshirish natijasida Pyotr I O'rta Osiyoda Aleksandr Bekovich CHerkasskiy, YULomo Benevi kabi jousularini shu o'lkan har tomonlama yaxshilab o'rganish uchun yuborgan edi.

Rossiyaning keyingi xukmdorlari ham mazkur siyosatni amalga oshirish uchun ko'plab ekspeditsiya uyuشتirdilar. 1839-1940 yillarda Rossiya Xivani bosib olish uchun Perovskiy boshchiligidagi katta harbiy ekspeditsiya uyuشتirdi. Ammo bosqinchilaming bu harakati zoe ketdi. 1864-1875 yillarda chorizm Turkistonni zabit etgach, o'lkan o'zining mustamlakasiga, metropoliyaning xom ashyo bazasiga aylantirdi. Bu esa Turkiston jamiyatining butun turmushini ag'dar-to'ntar qilib yubordi, undagi xalqlaming milliy qadriyatları, urf-odat, an'analari zo'ravonlik bilan barbob etildi. CHorizm tomonidan Turkistonda o'tkazilgan mana shu siyosat, afsuski, O'zbekistonda ham, Ulug' oktyabrb revolyutsiyasidan keyingi davrda o'ziga xos tarzda davom etdi. Sobir SSSR markaziy organlari og'zida milliy respublikalarini har tomonlama rivojlantirish xaqida gapirib, amalda esa ularning haqiqiy extiyojlarini va manfaatlarini oyoq osti qildilar.

Zo'ravonlikka asoslangan ma'muriy buyruqbozlik tizimi, totalitar markaz o'z qo'lidagi cheksiz hokimiyatni ishga solib, respublikalaming mustaqilligini, fuqarolarning moddiy haq-huquqlarini ham kamsitib keldi. O'zbekiston ekonomikasi esa faqat horn ashyo etkazib berishga yo'naltirilgan edi. Paxta yakka hokimligi o'n yillar davom etaverdi. Sug'oriladigan erlarga muttasil paxta ekib kelishdi. Erimiz zaxri qotil butifosning qo'llanilishi natijasida zaxarlandi, suv va xavo bulg'andi. Minglab kishilar oshqozon-ichak, sariq kasalliklariga mubtalo bo'lди, yosh bolalar, xotin-qizlar o'rtaida o'lim ko'paydi. Paxta yakka hokimligi oqibatida suvdan foydalananiz izdan chiqib ketganligi tufayli Orol va uning sifati yomonlashganligi tuproq va o'simlik qatlaming tanazzulga, o'simlik va xayvonot dunyosining o'zgarishiga, baliqni qayta ishslash sohasining yo'qolib ketishiga, shuningdek sug'oriladigan ernen samaradorligining pasayishiga olib keldi.

Ekologik vaziyatning yomonlashuvi Orol dengizi xavzasidagi 35 mln aholining turmush

sharoitiga, ularning salmog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, xo'jalik faoliyatini buzib yubordi. Bularning barchasi mintaqadagi migrantsion jarayonlaming ko'payishiga olib keldi. O'zbekiston xalqi mamlakat va sobiq sotsialistik lager mamlakatlari to'qimachilik olibagi o'z baynalminal burchini vijdonan bajardi, ammo o'rnnini qoplab bo'lmaydigan talofatlarga uchradi.

SHunday qilib mustamlakachilik tufayli noyob boyliklarga va imkoniyatlarga ega iste'dodli va melmatsevar xalq ajoyib an'analari va boy madaniyati bo'lgan ulug' zotlarni voyaga etkazgan diyorimiz doimo xom asliyo manbaiga aylantirilib qo'yilgan edi. Paxtacliilik yalpi maxsulotni ko'paytirisli ketidan quvish butun aliolining, ayniqsa, deliqonlaming xayotiy manfaatlariga katta ziyon etkazdi. Mustamlakacliilik yillari «er-deliqonniki», «er umumxalq mulki» deb zo'r berib gapirib kelishdi-yu, ammo liayotda deliqon erlar, er esa dehqondanjudo bo'ldi.

Mustabid tuzum oliy qadriyat liisoblanuvclii inson va uning liayotiga ham jiddiy xavf solgandi. CHorizm va bolbsievizm mustamlakachilar mahalliy xalqning millatparvar ziyyolilarini, atoqli davlat arboblarini, etuk qadriyatlarni birma bir qatag'on qilislidan mustamlakacliilik tartiblarini saqlab turishning eng makkaron, tarix sinovlaridan o'tgan nozik yo'llaridan biri sifatida foydalandi. Qatag'onlik - milliy karlami qiyratisliga, xalqni qo'rqtib olisliga, milliy ongi va g'ururining o'sisliiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan davlat siyosati edi.

XX asrning 20-yillardan boslilab qatag'on qilisli hamma joyga yoyildi. Kimda kirn shubha ostiga olingen bo'lsa, aybi bonni-yo'qmi, haqmi-nohaqmi, so'rab- surishtirib o'tinnay yo'q qilinaverdi. O'sha mash'um yillarda hech kirn o'zini xavfdan yiroqman, deya olmagan, uyida tinch o'xlolmagan kisliilar noliaqdan «xalq duslimani», «millatclii», «josus», «yot unsur» degan ayblar bilan jazo olgan. Odam odamdan qo'rqqan. Bir biriga islionmagan. Hamma ruhiy iztirob va dahshat ichida yasliagan. Ayg'oqcliilar istagan odamdan xolilagan paytlarida istaganlariclia «ayb» va «jinoyat» topib yo'q aybini bor qilib, begunoh odamlaming taqdirlini lial qilganlar. Qamoqxonalarda odamlar cliidab bo'lmas sliaroitlarda qilmagan islilarini qildim, deb tazyib ostida qalbaki xujjatlarga imzo chekishga majbur bo'lganlar.

1937-1939 yillarda O'zSSR Icli Islilar Xalq Komissariyatining «troika»si prokuror, raykom sekretari va Icli Islilar Komissari islitirokidagi «uclilik»lar tomonidan 41 ming kislii sudlangan, shundan etti mingi otib taslilangan. Bunday bedodlik 50-yillarga qadar davom etdi. 1939-1953 yillarda O'zbekistondan 62 ming kislii qamaldi. Sotsializm bayrog'iga «liamma narsa inson uchun, insonning baxt- saodati uchun» degan so'zlar yozib qo'yilgan edi. Amalda esa bu shior oddiy insonlar uchun emas, balki rahbarlaming manfaati uchun xizmat qilib keldi.

So'zda sotsializm chinakam jamiyat, unda odamlarning hamma huquq va erkinliklarini himoya qilisli kafolotlanadi, ular fikr, mafkuraviy e'tiqodlarini ifodalash hamda uni tarqatish huquqiga egadir, deb kelindi, amalda esa kishilarni bundan ham mahrum qilingandilar. Ba'zi bir millat va elatlaming haq-huquqlari cheklab qo'yildi. Butun-butun xalqlar qatag'on qilindi. 1941-1945 yillarda SHimoliy Kavkaz va Qrim aholisi, qalmoqlar, chechenlar, ingushlar, qarachoylar, qirim tatarlar, mesxeti turklari zo'ravonlik bilan o'z yurtlaridan SHarqqa ko'chirildi. Ko'chirilganlaming umumiyo soni 3 million kislii edi. «Jazolangan» xalq vakillarining 1 millionga yaqini ko'chirish chog'ida vafot etdilar. Majbuliy ravishda o'z erlaridan badarg'a qilingan xalqlarga nisbatan asossiz ravishda cheklovlar joriy qilindi, ularning haq-huquqlari va erkinliklari kamshitildi.

Turg'unlik davri deb atalgan 70-yillar va 80-yillarning boshlarida, keyinchalik qayta qurish yillarida ham sodir bo'lgan qatag'onlik o'zining mohiyati va ko'lami jihatidan millatimiz boshidan kechirgan jabr va jafolarining dahshatlisi edi. «O'zbek mafiyasi», «O'zbeklar ishi», «Paxta ishi», «Buxoro ishi» singari atamalar paydo bo'lganligini, o'zbek xalqining peshonasiga o'g'ri, poraxo'r, tekintomoq, boqimanda degan tamg'alar yopishtirishga harakat qilganligini aytmay bo'lmaydi.

Milliy o'zligimizni anglab olishimizga yo'l bermaslik maqsadida mustamlakachilar olib borilgan zo'ravonlik siyosati natijasida milliy g'ururimiz, urf- odatlarimiz, insoniy qadriyatlarimiz rga o'rnedi.

Soxta boynalmachilik shovqinlari ostida xalqimiz haq-huquqi, erki, izzat-nafsi, tili, tarixi, madaniyati tazyiq ostiga olindi. Oshkora zo'ravonlik, ur-yiqit, ta'qib va tazyiqqa, milliy xo'rash va kmsitishga asoslangan mustabid siyosatning mash'um oqibatlari sifatida ba'zi odamlarda bora-bora itoatkorlik, karashtlik, to'porilik, laqmalik ildiz ota boshladi. Milliy ruhga zarba berilaverdi. Ana shunday og'ir va murkkab bir sharoitda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilindi. U 100 yildan ko'proq vaqt davomida ezilgan, kmsitilgan, sha'ni va g'ururi erga toptalgan xalqimiz

ezgu niyatini ro'yobga chiqarish uchun kng imkoniyat va sharoit yaratib berdi.

CHorizm mustamlakachilari Turkiston xalqlarining ma'naviy jihatdan Rossiyaga nisbatan ustun turishini yaxshi anglagan hold, ularni savodsizlik, bilimsizlik holatida ushba turishga intildilar. CHunki g'aflat o'yusida bo'lgan, fan-texnika va madaniyat yutuqlaridan behabar qolgan, milliy ongi past bo'lgan xalqni talash ancha osondir. Bu xaqda general Kaufman ochiqdan-ochiq shunday deb yozgan edi: «Bu xalqqa iloji boricha ko'proq paxta ektirish, ko'proq ishlashga majbur jtish kerakki, toki bir zum ham o'ylashga, kundalik voqealarni anglashga urinishga vaqt ham, xohishi ham qolmasin. Mabodo bularda darud xasratlarini to'kib solishga moyillik tug'ilsa, faqat dindan najot topsin».

CHor xukumati mustamlakachilikning hamma davrlarida o'lkamizda fanning, madaniyatning, ma'naviyatning rivojlanishiga yo'l bermaslikka jon-jahdi bilan kurashib kelganlar. Bosib olingen xalqlarni oxir-oqibati olomonga aylantrish, ular qalbidagi ozodlik va erkinlik alangalarini butkul so'ndirish barcha mustamlakachilaming oliy maqsadi bo'lgan. Bundan sho'ro xukumati ham istisno emas edi.

SHaxsga sig'inish va totalitarizm avjiga chiqqan yillarda O'zbekistonda milliy qadriyatlar rivojiga sun'iy to'siqlar yaratildi. Tilimiz, madaniyatimiz, me'rosimiz qoralandi va kamsitildi. Bir necha ming yillik madaniy me'rosimizga e'tibor berilmadi. O'zbekistonda 2 marta alifbo o'zgardi. Arab alifbosidan voz kechish xalqni 13 asrlik ona tarixidan uzoqlashtirildi. Arab alifbosida o'qish-yozishni biladigan ziyoralar ta'qib ostiga olindi, o'sha yillarda yozilgan kitoblar, nodir qo'lyozmalar yoqib tashlandi.

Natijada butun bir ma'naviy xazinadan mahrum bo'lindi 30-yillardan boshlab masjid va madrasalar denga qarshi niqobi ostida buzib tashlandi.

Xalqimizning mehnati va aql-idroki bilan dunyoga kelgan tarixiy obidalar o'ylamay-netmay yakson qilindi. Ziyorat qilib kelinadigan muqaddas joylar, aziz- avliyolar maqbaralari atayin buzib tashlandi.

Milliy qadriyatlarga, madaniyat va ma'naviy merosimizga, dinimizga humatsizlik shu darajaga borib etdiki, bahor va mehnat bayrami bo'lgan Navro'z ta'qiplandi, ko'klamda sumalak qilish qoralandi, ruhoniyalar, diniy tashkilotlarning faoliyatları cheklandi. Milliy kiyimlarni kiyishdan voz kechish targ'ib qilindi, to'n va do'ppi kiyib yurish millatchilik va madaniy qoloqlikning ko'rinishi deb talqin qilindi. Diniy urf-odat va marosimlarga qatnashganlar jazolandilar.

Bebaho milliy qadriyat hisoblangan qadimiy qo'lyozmalarni o'rganib nashr etish, ommaga etkazish imkoniyatiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarning o'sib kamol topishi, etuk olim-mutahassis bo'lib shakllanishga imkoniyat ochib berilmadi, ularga nisbatan cheklashlar davom eta ver di. Har qanday milliy qadriyatlarni hurmat qilishga millatchilik va mahalliy chilikdeb baho beildi.

Mahalliy taraqqiyarvar kuchlardan o'ch olish va vaqt-i-vaqt bilan yo'q qilish, milliy madaniy merosimizni qoraladi, tilimiz va tariximizni kamsitishlar bulaming hammasi qatag'onlik siyosatining ijrosi edi.

Har qanday milliy qadriyatlarni hurmat qilishga, millatparvarlikka qaratilgan har qanday fikmi burjua millatchiligi, feodal o'tmishni qo'msash deb baholandi. Xalqimiz milliy ongi, milliy madaniyati va milliy ona tilisini cheklab qo'yish natijasida ba'zi ziyoralar o'z ona tillarini unutib qo'ydilar, milliy urf-odatlarni mensimay qo'ydilar, evropacha ahloq-odobni tarbiyaning bosh mezoni deb bildilar va ular asta-sekin o'z ona tilini bilmaydigan, urf-odat, an ana va qadriyatlarni mensimaydigan «o'ta zamonaviy» kishilarga, mashqurtlarga aylana boshladilar. Istiqlol bo'limganda bu hoi haddan ziyod kuchayib, manqurtlashish avj olgan bo'lar edi.

Boshqaruv usullarining haddan tashqari markazlashtirilganligi oqibatida milliy respublikalarining markazga tobe, vassal bo'lib qolganligi jamiyatimiz taraqqiyotiga g'ov bo'ldi. SHaxsga sig'inish avjga chiqqan, qatag'on kuchayib ketgan paytlarda respublikalar huquqlari oyoq osti qilindi. Garchi konstitutsiyada respublikachilar mustaqil deb belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ularning barcha inon-ixtiyorlari, vakolatlari markaz xukumatining qo'lida mustahkam ushlab turilardi. YUqoridan qabul qilingan qaror va qonunlar respublikalar uchun to'g'ri kelmasa ham so'zsiz bajarilishi shart edi. Er va er osti boyliklariga egalik qilish, ichki va tashqi siyosat masalalarini hal qilish, kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta'miniash, fan, madaniyat va boshqa sohalami qay darajada rivojlantirish kabi eng muhim hayotiy muammolami echish huquqi respublikalarining tasarrufidan olinib, yuqoridan belgilanadigan bo'lib qolgan edi.

Sobiq SSSRning turli milliy respublikalarda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tangliklar, milliy mojarolar olib borilgan noto'g'ri siyosatning oqibatidir desak, to'g'ri bo'ladi. O'tmishda xalqimizning boshiga tushgan ko'p kulfatlaming yana bir sababi shundaki, mamlakatda hamma vaqt bitta Kommunistik Partiya va uning oliv organi - Siyosiy byuro hukmronlik qilib kelganidadir.

Hokimiyatni o'z qo'lida ushlab turgan KPSS davlatning ichidagi davlat bo'lgan edi. Undan yuqori turadigan hokimiyat yo'q edi. Uni tanqid qilib, xatolarini fosh etadigan, kamchiliklarini ro'yi-rost ko'rsatadigan boshqa siyosiy partiya bo'lgan emas. SHu sababli KPSS yo'l qo'ygan xato-kamchiliklar ham to'g'ri deb tasdiqlanib kelingandi.

Pirovard natijada yanada chuqurlashib, batamom inqirozga olib keldi. O'n yillar davomida hukm surib kelgan kommunistik mafkuraning ta'siri istida «xalqimiz demokratik jamiyatda yashab kelayotir», deb jar sonishdi, aslida esa biz totalitar tuzumdag'i jilovlangan demokratiya sharoitida yashadik.

Siyosiy hayot to'la-to'kis KPSSning ixtiyorida edi. Saylovlar KPSSning nazorati ostida o'tar edi. Saylovga qo'yiladigan nomzodlar, ularning soni, tarkibi va barchasi partiya qo'mitalari tomonidan oldindan belgilab qo'yildi. Hattoki saylov komissiyalarining a'zolari ham partkom byurosi tasdiqlanib qo'yildi. Saylov byulletenida bitta o'ringa kitta nomzod kiritilardi. Aslida bu-saylov emas, balki KPSS tomonidan ko'rsatilgan nomzod uchun ovoz berish edi. Lekin saylovlami eng demokratik saylov deb ovoza qilinardi.

Kapitalistik mamlakatlarda inson ha-huquqlari va erkinliklari oyoq osti bo'linganligi haqida gapirildi, o'zimizdagi yutuqlarni esa mutloqlashtirdik, afsuski bizda o'sha kezlarda, sovet jamiyatida insonning qadr-qimmati istalgancha oyoq osti qilinayotgan edi. Aybsiz kishilar aybdor bo'lib qolshdi, huquq tartibot, qonun- qoidalar suiste'mol qilingan edi. Amalga oshmagan da'vatlar va va'dalar shu qadar ko'p bo'lardiki, oqibatda ularga hech kim ishonmay qo'ydi. Sotsialistik tuzumning insonparvarlik mohiyati yo'qqa chiqarila boshlandi.

Ma'lumki, har bir insonda, uning oila a'zaolari, ota-onasi, aka-uka, opa-singlik, tog'a-jiyan hayoti, xotiralari bilan bog'liq bo'lgan har xil qadriyatlar mavjud. Mazkur qadriyatlar ulardan qolgan noyob dgorliklar, buyumlar, kiyim-kechaklar, qimmatbaho bezaklar, kitoblar, rasm-suratlar, xatlar-maktablar kiradi.

Ulami avaylab asrash, qadrlash katta tarbiyaviy, ma'naviy ahamiyatga ega. O'z avlodining shajarasini, tarixini, hayotini yaxshi bilish oila a'zolarida milliy g'urur tuyg'usini qo'zg'atadi, avlodlar o'rtasida vorislikni saqlab qolish, tug'ilgan zaminga, vatanga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlami shakllantirishda katta vosita bo'lib xizmat qiladi.

Afsuski, mustabid xokimiyat tomonidan olib borilgan zo'ravonlik va g'ayrinsoniy siyosat tufayli xalqimiz ana shu qadriyatlardan etildi. Xalq dushmani, boy, quloq deb otib o'ldirilgan, qatag'on qilingan zotlarning oila a'zolari o'zlarining kim ekanliklarini yashirib kelishga majbur bo'ladilar. Ko'plab kishilar esa ota-onalari xoki yotgan zaminni tark etib, boshqa yurtlarga chiqib ketishga majbur bo'ladilar. Bor bisotidan butunlay mahrum etilgan kishilar jonlarini omon saqlab qolish maqsadida dunyoning turli tomonlariga qarab bosh olib chiqib ketadilar, tarki Vatan qildilar. Qachandan-qacha turkistonliklar boshiga g'ariblik kulfati, musofirlik tashvishi tushdi. Muhojirlikda yashagan qarindosh-urug'lari bilan aloqa qilib turushi ham taqiqlangan edi.

Mustabit tuzum o'tmishida keng tarqalgan, kishilar ongida saqlanib qolgan «eskilik goldiqlariga qarshimurosasiz kurash olib borish» degan sohta g'oyalardan kelib chiqib, xalqimizni ahloqiy qadriyatlar, urf-odat va an'analaridan judo qilishga intilib keldi.

Ma'lumki, milliy urf-odat, an'analar va udumlar ming yillar davomida yaratilgan va xalqning turmush tarziga, kundalik ehtiyojiga aylanib ketgan. Xalq unga amal qilgan, uni buzmagan, o'z millatini, tilini, milliy birligini saqlab qolgan. Udumlar millatning hayot tomiri, mustahkam ildizlaridir. G'animlar millatni yo'qtish uchun ana shu mustahkam ildizni yo'q qilishga harakat qilishgan.

Xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan udum an'analarini, turli bayram-marosimlami, xattoki, do'ppi, sumalak, beshikni cheklab qo'yishu chun turli xil bahonalami o'yab topdilar. «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Gul sayli» gap-gashtaklar, ko'pkari, «Dorboz» xalq tomoshalar, mushoiralar, aksiyabozliklar

sun'iy ravishda o'ylab chiqilgan boshqa bayram va marosimlar bilan zo'r lab almashtirildi. Diniy bayram deb ayblangan «Navro'z» yo'qotildi. «Navro'z» bilan birga Qurbon va Amazon hayatlari ham ta'qiqlab qo'yilgan edi. «Qur'on» qoralanib kelindi, islom dini Xalq uchun afyun deb kelindi.

O'zimizni butun dunyoga dahriylar mamlakati deb e'lon qildik. Diniy adabiyotlarni chop etish man etildi. «Diniy g'oyalar bilan sug'orilganligi» bahonasida Naqshbandiy, Buxoriy, YAssaviy, Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi musulmon olamida mashhur bo'lgan olimlaming asarlari ta'qibga uchradi.

Masjid va madrasalarning bo'lib tashlanganligi dinga sadoqatli bo'lgan kishilarning nozik his-tuyg'ularining oyoq osti qilinishiga sabab bo'ldi. O'tmishni qoralab xadeb yomonlaverib, badnom qilib, oxir-oqibatda kattani hurmat, kichikni izzat qilishni unutdik. Odamlardan imon-e'tiqod ko'tarila boshladi. Boyligi va mansabiga qarab odamlami hurmat qilish odat bo'ldi.

Ota-bobolarimizning «Suvga tupurma, tabitni bulg'ama, daraxtni sindirma, jonivorlami bejon qilma, ularga ozod etkazma, nonni uvol qilma» degan o'g'it- nasixatlari unutilgan, ariqlar va anhorlarga mag'zava to'kishdan, o'ralarni ahlatga to'ldirishdan chiqindilarni daryoga oqizishdan, tabiyatni zaharlab bulg'ashdan tap tortmay digan bo'ldik.

Jamiyatimizda ro'y bergen va ildiz otib ketgan yaramas illatlar odob-ahloq, ta'lim-tarbiya masalalarida yo'q qo'yilgan kamchiliklar bilan bog'liqdir, desak to'g'ri bo'lar.

Mustamlakachilik siyosati odamlarning qalbiga va ongiga ta'sir o'tkazish yo'lidan borib, adabiyot va sna'at asarlariga o'ziga xos yondashuvni vujudga keltirdi. Ma'lumki, abadiy va estetik qadriyatlar kishilarni obrazlar vositasida tarbiyalashga, ularga ma'naviy madad berishga da'vat etilgandir.

Agar bu qadriyatlar biror maqsad sari qat'iy yo'naltirilsa, avlodlarning ongida, tarbiyasida, ulaming dunyoqarshi va turmush tarzidi jiddiy o'zgarishlar yasashi mumkin. CHorizm va bolbshevizsning g'oyaviy rahnamolari buni juda yaxshi bilihardi. Ulaming abadiy-estetik qadriyatlarimizga nisbatan tajovuzida 2 xil usul yaqqol ko'zgga tashlanadi, ya'ni chor mustamlakachilari xalqimiz qo'lidagi noyob qo'lyozmalarni turli yo'llar bilan egallab olib, ulardan mamlakatimizning bahramand bo'lish imkoniyatini yo'qqa chiqargan bo'lsa, qizil mustamlakachilar adabiy javoxirlami xalq ko'zidan pana qilish, ulami boshqacha talqin qilish yo'lidan bordilar.

Adabiyot tarixiga boylar adabiyoti (saroy feodal-klerikal adabiyoti) va yo'qsillar adabiyoti pozitsiyasidan baho berish natijasida millatimiz mulki bo'lgan ulkan adabiy xazina la'natlanib, xalq nazaridan soqit qilib kelindi. Saroy adabiy muhitida kim ijod qilgan bo'lsa, uning asarlariga g'oyaviy dushmanlik yorlig'i osilaverdi. Oqibbatda Xusayniy, Amiriy, Fazliy, Namangoniy kabi shoirlarning me'rosi qora ko'zoynak ostida tadqiq qilindi. Ta'qilangan adabiy merosimizning yana bir qatlami sufiyona ruhda yozilgan edi.

Xususan, Ahmad YAssaviyning ko mil insonni tarbiyalashga qaratilgan, kishini poklashga xizmat qiladigan she'rлari, hikmatlari, So'fi Olloyoming asarlari o'ta jiddiy ta'qiq ostiga olindi. Adabiyot ishi umumproletar ishining bir qismi deb e'lon qilingach, sotsialistik ralizm deb nom olgan ijodiy metod va adabiy oqim umumproletar ishni amalga oshirishnnig vositachisi bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotning partlyaviy qoliplarga sig'magan asarlari tanqid qilindi, mualliflari tazyiq ostiga olindi. YAratilgan asarlar go'zallik manbai emas, balki g'oyalar yig'indisiga aylanib qoldi. Bir-biriga o'xshash obrazlar bolalab ketdi, insoniy xis- tuyg'ulardan yiroq «qizil» adabiyot maydonga keldi. Har qanday she'riy, nasriy to'plam Lenin va partiya madxi bilan boshlanadigan bo'ldi. SHo'rolar davrida haqiqiy badiiy asarlar qadr topmadni, aksincha ular yo'qotildi, madaniyatimiz tarixidan izini o'chirishga harakat qilindi.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Mustamlakachilarning mafkuraviy tazyiqi, sotsialistik inqilob, qishloq xo'jaligini kollktivlashtirish, sotsialzm qurilishi, mustamlakachilarning qadriyatlarimizga tajovuzi, inson hayotiga taxdid, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning iskanjaga olinishi, milliy madaniyatimiz, urf-odat va an'analarimizga bepisand munosabatda bo'lish, soxta baynalminalchilik siyosati, ozodlik va erkinlikka berilgan zarba, diniy urf-odat va marosimlaming ta' qilqanishi, milliy ong va madaniyatimizning cheklanishi, shaxsiy va oilaviy hamda abadiy - estetik qadriyatlarimizning toptalishi.

Mavzuga doir nazarot savollarii:

1. Chor Rossiyasi qanday qilib O'rta Osiyoni istilo qilgan?
2. Nima sababdan mustamlakachilar aynan qadriyatlarimizga tajovuz qilganlar?
3. Mustabid tuzum davrida oliv qadriyat sanalgan inson hayotiga qanday taxdidlar solingan?
4. Mustamlakachilar tomonidan madaniy-ma'naviy qadriyatlarimiz qay yo'sinda iskanjaa olingan edi?
5. Mustamlakachilarining milliy madaniyatimizga, urf-odat va an'analarimizga hamda tariximizga bepisand munosabatda bo'lishlari qanday oqibatlarga olib keladi?
6. Totalitar sovet tuzumi davrida SSSRning O'rta Osiyoda yuritgan siyosatini chorizm mustamlakachilik siyosatining davomi deyish uchun qanday asoslar bor?
7. Nima uchun mustamlakachilar milliy o'zligimizni anglab olishimizga yo'l bermaydilar?
8. Soxta baynalminalchilik siyosati xalqimiz hayotida qanday oqibatlar keltirib chiqardi?
9. O'zbek xalqining milliy ruhiga zarba berilishi qanday oqibatlarga olib keldi?
10. Nima uchun mustamlakachilar aynan xalqimiz qalbidagi ozodlik va erkinlikka bo'lgan intilishlariga zarba berdilar?
11. Dinga qarshi kursha niqobdi ostida xalqimiz yaratgan qanday bunyodkorlik ishlari vayron qilindi?
12. Diniy urf-odat va marosimlar hamda dindorlaming faoliyati nega ta' qiqlandi?
13. Milliy ong va madaniyat, ona tilida ish yuritish cheklansh nimalarga olib keladi?
14. Xalqimizning siyosati hayoti to'la-to'kis kimning ixtiyorida edi?
15. SHaxsiy va oilaviy qadriyatlar qay darajada toptaldi? Adabiy-estetik qadriyatlarimizning qay darajada edi?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonusada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro-e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbati // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.
12. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini

rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi farmoni // Xalq so‘zi, 2013 yil 19 aprel.

13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.

14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.

15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.

16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.

18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.

19. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.

20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.

21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'FMJ, 2004

23. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

7-MAVZU: Inson, uning hayoti va erkinligi qadriyat sifatida.

Reja:

1. Falsafada inson muammosining qo'yilishi. Insonning bioijtimoiy mohiyati.

2. Inson tabiatning oliy mahsuli, uning egasi ekanligi. Insonning hayoti (umri) va o'limi masalasi. Hayot - inson uchun oliy qadriyatdir.

3. SHaxs va uning erkinligi muammosi. erkinlik qadriyat sifatida. Falsafada inson yashashi (hayotining) ma'nosi masalasiga turlicha yondashuvlar.

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining, moddiy va ma'naviy boyliklar rivojining yakuni, inson kamolotining kelajak uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy maxsulidir.

Insonning ob'ektiv olamiga nisbatan aktiv faoliyati, moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi vorislik asosida sodir bo'lib, yangi- yangi qadriyatlamining shakllanishiga, o'tmishdan meros bo'lib o'tganlari esa davr ruxi, yangi ijtimoiy extiyoj talablari asosida rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, manaviy taraqqiyotning imkoniyatlari xam kengayadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakillangan xar qanday xodisa o'tmishda ijobiy axamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli xam qadiriyat deb ataladi.

Qadiriyatlar olamni bilish va uning amaliy o'zgartirishning muxim omilidir. Xar bir qadriyatning moxiyati taraqqiyot, jamiyat va ruxiy olam xodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyot ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Qadiriyatlamining ko'pligi, mavzuni, ularni aniqlash va ularga e'tiqod qilish insoning bilish qobiliyati va amaliy imkoniyatlaritakomilashib, chukirlashib, kengayib borayotganini ifodalaydi. Yangi qadiriyatlarning yuzaga kelishi insoning ob'ektiv olam, ma'naviyatborasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir.

Qadiriyatlar inson ma'naviy kamolatining muxim omili xamdir. Xar bir millat rivojlanishdagi tarixiy voqealar, unga ijobiy xisa qo'shgan shaxslar xam milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi. qadiriyatlarda ular yuzaga kelgan davirning ruxi, imkoniyatlari, talab va extiyojlari o'zining yaqqol ifodasini topadi. Xar bir kadriyat ma'lum kankret davr, sharoit va extiyojlaming maxsuligina emas, balki uning ko'zgusi xamdir. qadiriyatlarga baxo berishdan oldin ular yuzaga kelgan konkret tarixiy sharoitlar, usha davirlarga xos bo'lgan imkoniyat va extiyojlarni xam bilmoq kerak. Kechagi voqealarни bugungi talab bilan o'lchash mumkin bo'limgani dek, xar bir qdriyatning ishtimoiy axamiyatini bilishda muayan tarixiy sharoitlami xisobga olib yondoshmoq kerak.

Qadriyatlamining shakilanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muxit, tabiy sharoitlar, ishonch usuli, kasb malakalari yoki turmush tarzi bilan xam bog'liqdir. Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqiyoti jarayonida shakillangan va rivojlangan, utmishida, xozirgi kunda va kelajakda xam ijtimoiy taraqiyotiga ijobiy tasir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy axamiyat kasb etadigan modiy va manaviy boylikdir.

Qadriyatlamaing ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud. Qadriyatlar kishilaming modiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakilanadi va rivojlanadi. Bu qadriyatlamaing ob'ektiv zaminidir. Qadriyatlar ijtimoiy, modiy, manaviy, xodisa bo'Isa xam, ularning axamiyati va moxiyati kishilaming ularga nisbatan bo'lgan munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchani uzi xam qadr-qimmat degan manoni bildiradi. Xar bir ijtimoiy xodisaga kishilar o'z duny qarashi, taraqiyot va istiqbol muamolarining xisobga olib yondashadilar va baxo beradilar.

Qadriyatlamaing baxolash turli xildagi manfatlar bilan xam bog'liqdir. Muayan qadriyatlarga amal qilishiga, ulami baholashga shaxsiy, gumhiy, miliy va umuminsoniy manfatlar ham bevosita tasir etishi shubxasizdir. Bular qadriyatlarga baxo berishning subektiv omili xisoblanadi.

Qadiriyatlarga baxo berishda jamiyat azolarining umumiy manaviy kamoloti ijtimoiy, miliy ongingin etugligi xam kata axamiyatga ega. Ma'naviy jixatdan etuk shaxs, jamiyat miliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni va moxiyatini tug'ri baxolash imkoniyatiga egadir. Qadriyatlar va meros tushunchalari uzaro yaqin bo'Isa xam u bir xil manoni bildirmaydi. Qadriyat va meros bir-biriga uzviy bog'liq bo'lishiga qaramay, xar qanday meros qadriyat bo'la olmaydi. Meros tushunchasining moxiyati qadriyatga nisbatan kengdir bundan tashqari, qadriyat faqat o'tmishdan qolgan merosgina emas. Xozirgi kun talablari, yangi sharoit va imkoniyatlar asosida shakilanayotgan ijtimoiy, ma'naviy siyosiy xodisalar xam qadriyat xisoblanadi. Xozir O'zbekistonda miliy istiqbol mafkurasining rivojlantirishi uchun kata ishlar olib borilmoqda. Taroqiyotning xozirgi vazifalari va milat manfatlariga mos keluvchi bunday mafkura yaratilmoqda. Bu mafkuraning yaratishda utmish merosidan unumli foydalanilsa xam u yangi davirda shakilangan qadiriyat sifatida yuzaga kelmoqda. Meros o'tgan avlodlar tamonidan yaratilgan, bizgayaa etib kelgan ijtimoiy - ma'naviy xodisalar madaniy boyliklar, urf odatlar, marosimlar, axloq normalaridir. Meros taraqiyot uchun xam zarur omil bo'lgandagina qadriyat darajasiga kutarila oladi. Meros xozirgi kun uchun xam bo'lgan axamiyatini bilish- uni qadriyatlar jumlasiga kiritishdir. Ijtimoiy taraqqiyot-doim yangilanib, takomilashib turadigan uzlusiz jarayon ekan, buning negizida muayyan qadirylami baxolash mezonlari xam o'zgarib boradi. Qadriyatlarning baxolashda taraqqiyotning muayyan bosqichida maydonga chiqqan ijtimoiy kuchlamining manfatlari xam ma lum axamiyat kasb etadi. Qadriyatlarga tor siyosiy guruxlaming manfatlari asosida yondashish ularning axamiyati va imkoniyatlarini notug'ri tushunishga olib keladi.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linidai. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmati xaqida so'zlash bema'nilikdir. SHuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini o'stirish, sog'lig'ini saqlash xayotini himoya qilish davltimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Muayyan jamiyatdagi har bir millatning ongi ma'naviy qiyofasi o'shha jamiyatning tabiiy, tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Millatning ruhiy, ma'naviy qiyofasi mavjud ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ongning an'anaviy shakllari har bir millat kishilarning ruhiy, ma'naviy qiyofasi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Mana shu regressiv bilishi mumkin. Bunday tarzda ijtimoiy ong shakllarining o'zgarishlari o'z navbatida ko'p millatli jarayonga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suversi O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni har bir fuqaro shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy xayotdagi barcha o'zgarishlar ayni mana shu oliy maqsadga erishishga - har bir kishining hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy jihatdan bayroq qilishga bo'ysundirilgan». Istiqlol tufayli jumhuriyatimizda keyingi yillarda shaxsiy haq-huquqlari, erkinliklari va qadriyatlarni muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Imzosiz xatlar yozish, tuhmat uyuştirish yo'li bilan kishlarni nohaq bezovta qilish, ularning qadr-qimmati va or-nomusiga tajovuz qilishlar mamlakatimizda qonun yo'li bilan taqiqlangan. Asosli, adolatli tanqid uchun o'ch olishga harakat qiladigan shaxslar, kimligidan qat'iy nazar, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Vazifani suiste'mol qilgan mansabdorlar g'ayriqonuniy hatti-harakatlari uchun qonun qonun oldida

javob beradi.

Nogironlar, ruhiy kasal kishilar, mehnat qobiliyatini yo'qotgan, boquvchisidan mahrum bo'lib qolganlar, yolg'iz ayollar, qariyalarning haq-huquqlari davlat yo'li bilan muhofaza qilinadi, ularga moddiy, ma'naviy yordam ko'rsatiladi. Bizda odamlaming shaxsiy hayotlari, uy-joyining dahlsizligi, telefon so'zlashuvlari, yozishmalar pochta va telegraf orqali jo'natilgan narsalarning sir saqlanishi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari fuqarolar or-nomusi, qadr-qimmatini saqlash va muhofaza etishga muhim vazifalardan biri sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga muvofiq fuqarolar o'z hayotlari va sog'liqlari, mulklariga va shaxsiy erkinliklariga, or-nomuslari va qadr-qimmatlariga tajovuzlardan sud orqali himoya qilish huquqiga egadirlar.

Kishilaming turmush farovonligini oshirish, ularning talab-extiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish masalasida ham O'zbekistonda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Inson farovonligini yaxshilashning eng asosiy masalalaridan biri ulami uy-joy, ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi, radio va telefidenie bilan ta'minlashdir. O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan bu borada dastlabki jiddiy qadamlar qo'yildi. Qishloq aholisiga shaxsiy xo'jaliklarini kengaytirish va uy-joy qurish uchun er va mablag'lar ajratildi. Qurilish materiallari bilan yordam berildi. Jumhuriyatimizda yaqin-yaqinlardan boshlab paxta terimiga qo'shimcha haq to'lashning joriy etilganligi paxta va boshqa qishloq xo'jaligi maxsulotlarining xarid narxini oshirish ustida ish olib borilayotganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bepul ovqat, homilador, bemor ayollarni qo'shimcha yuqori sifatlari oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'miniash yo'lga qo'yilganligi, veteranlaming nafaqasini oshirish, nogiron, yolg'iz qolgan qariyalar va uy-internatlarining sharoitlarini yaxshilash uchun qo'shimcha mablag' sarf etilayotganligi anashularning hammasi insonga bo'lgan munosabatlar yaxshilanayotganligining amaliy isbotidir.

Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy qadriyatlarga er va er osti boyliklari, suv, xavo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. Markaziy Osiyo, hususan, O'zbekiston zamini hilma-xil qazilmalarga boy. Er yuzasiga yaqin yotgan qazilmalaming aksariyati ochilgan va ular xalq xo'jaligi fan va texnika taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda. SHu bilan birga hali ochilgan, ro'yodga chiqmagan konlar ham ko'p. Bu krlaming juda oz qismi bevosita er yuziga chiqqan bo'lsa, aksariyati er ostida yashirinib yotibdi. Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy xom ashyo buyumlari -«foydale qazilmalar» O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, uning asosiy qadiriyatlaridandir. O'zbekiston behisob tabiiy boyliklarga, qulay geografik muhitga ega. Tabiat tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar, ya'ni yonilg'i, har hil metallar, rudalar, havo, suv, o'simliklar dunyosi bo'lmasa, insoniyat yashay olmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarining bosh manbai sifatida ham, sog'lik, shodlik, turmushga mexr muxabbatning va har bir kishidagi ma'naviy boyliklaming bitmas-tuganmas omili sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Ona-er kishilar usun moddiy ne'matlar manbai, dastlabki mehnat vositalarining hazinasidir, insoniyat taraqqiyotining beshidigidir. Erdan inson o'zi uchun zarur narsalarni undiradi. Er insonni boqadi. Taniqli ingliz iqtisodchi olimi Vilazm Netti aytganidek, mehnat boylikning otasi bo'lsa, er uning onasidir. Insonning kundalik hayoti va sevinchlari ham er tufaylidir. SHunday ekan, inson uchun g'oyat darajada muhim va zarur bo'lgan hayot manbayi-erni qadirlamaslik, e'zozlamaslik mumkin emas!

Milliy ong ijtimoiy ong shakllari singari ma'lum davrlarda o'zining nisbiy mustaqilligi tufayli jamiyat asosini tashkil etuvchi bazis va ustqurmaning mohiyatini tubdan o'zgartirib borishga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga misol tariqasida hozirgi kunlarda sobiq Ittifoqdagi respublikalar hududida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar jarayonini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ularning hayotida shiddat bilan ro'y berayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlar qanchalik inqirozli tus olmasin, xalq ommasi ongingin, ayniqsa, milliy ongning yangicha shakllanishi anchagina ijobjiy tus olmoqda..

Milliy ong va uning shakllanishi, eng awalo, milliy uyg'onish zamirida boshlanishi tabiiydir. Hozirgi uyg'onish davr taqozosiga ko'ra, taraqqiyotning ob'ektiv ijtimoiy voqeligiga aylanmoqda.

CHunki kishilaming dunyoqarashi, hayotiy xulosalar, bir-birlariga munosabatlar, iroda va xohishlar, milliy turmush tarzları, milliy rasm-rusumlar, odat va an'analar tufayli shakllanadi va rivojlanadi. SHunday ekan, milliy turmush tarzi va madaniyat ijtimoiy voqelikning tabiiy ifodalashni

shaklidir. Milliylikni tan olish - millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini tan olish demakdir. Milliylikda insoniy va umuminsoniy qadriyatlar muayyan qiyofa va shakl kasb etgan bo'ladi. Milliylikda milliy mansublik ruhi mavjud. Milliy ruhimizdagi milliy tuyg'ularimiz majmui milliy tasawurlarimiz, kayfiyatlarimizda sodda ong sifatida ifodalanadi. Agar milliy mansublik va uning barcha tomonlari kishilar tasawurida ilmiy asoslangan bo'lsa, uni biz milliy o'z-o'zini anglash deb tushunamiz. Milliy o'zligini anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'Hanma darajasiga ko'tarilsa, biz uni milliy mafkura deb ataymiz.

Milliy onglilikning mohiyati to'g'ri tushunilmasligi oqibatida, ba'zi hollarda bunday munosabatlar millatchilik illatlariga mubtalo etmoqla. Millatchilik g'ayriinsoniy illat bo'lib, awalo o'zga millatlarga, qolaversa o'z millatiga ham xudbinlarcha qaramsh fojiasidir. Bu o'z millatini va uning manfaatlarini xudbinlik zaminida mutlaqlashtirish yo'lida boshqa millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaydigan, ularni kansitib, tazyiq etib, ijtimoiyadolatsizliklar tug'diradigan illatdir.

Demak, milliy g'urumi millatchilik bilan almashtirib bo'lmaydi. Milliy g'urur har bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarni ximoya qilib, ularning kelajak hayotini yuksaltirishiga qaratilgan tabiiy intilishdir. Millatchilik esa bittagina millatning muddaosini himoya etib, bogshqa millatlarning ehtiyojlarini pisand qilmasdan ulaming huquq va erkinliklarini chegaralab qo'yishga qaratilgan harakatdir. «Milliy tuyg'u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola ota-onasiga butun dunyoga aytgan birinchi so'zida ifodalanadi».

Ma'lumki, milliy tuyg'u tabiiy tuyg'ulardandir. Ayni paytda milliy ma'naviy hayotning juda nozik elementlaridir. Milliy tuyg'ular esa milliy iftixor, milliy harakterning, demakki, milliy-psixologiyaning belgilaridan biri, uning ajralmas qismidir.

Milliy his-tuyg'u, milliy iftixor manfaatlari va xalqparvarlik bilan bog'liqdir. U o'z millatining tarixini, hozirgi ahvoli, milliy psixologiyasi va harakterini ruhiy tushunish, emohional shaklda idrok etishdir. Biroq his-tuyg'ular, emotsiyalar millatlarning tub manfaatlarini bevosita ifoda qilmaydi. SHuning uchun ham milliy tuyg'u ham milliy tuyg'u milliy ongdan farqlanadi.

Milliy tuyg'u va kayfiyat millatning jinslashuvi va irodasi namoyon bo'lishida kata rolb o'ynaydi. Millatning birikishida, ularning milliy qiziqishlari umumiyligi, tarixiy hodisalar, o'tmish madaniyatiga muhabbat, milliy iftixor tuyg'ulari sifatida namoyon bo'ladi.

O'z xalqining ko'p asrlik boy tarixi, ajoyib ma'naviy merosi bilan xaqli ravishda faxrlanishi tuyg'usi, o'tmishni qo'msash emas, balki qadimiy tarixni, xalq yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklami kengroq o'rganish va ochib berish, ulami yangi avlodlar tomonidan ajdodlar merosi sifatida o'zlashtirishni ta'minlashdan iboratdir.

Milliy tuyg'ularning qanchalik qarama-qarshi bo'lib qolishiga qarab milliy qadr-qimmatga bo'lgan e'tiborsizlik shunchalik xavfli tus olib boradi.

Bundan xulosa chiqarib aytish mumkinki, milliy his-tuyg'ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ahloqiy omillarga suyanib milliy mafkura asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqidir. Ma'lumki, milliy qadr-qimmat millatlararo munosabatlarning eng (muhim tomonlaridan biri bo'lib hisoblanadi). SHuning uchun ham mutafakkirlar millatning qadr-qimmatini oddiy so'z bilan kansitish hech mumkin emasligini qayt-qayta ta'kidlagan edilar. O'zini ko'rsatib turadigan milliy manmanlik, maxdudlik, milliy maqtanchoqlik bilan boshqa millat his-tuyg'ularini kansitiga olib kelishi mumkin. Bir millatni boshqa millatga maqtash, uning tarixi, madaniyatini ideallashtirish, til va urf-odatlarini haddan tashqari targ'ib etish, albatta, ikkinchi millatning tuyg'ulariga aylanib ketishga olib kelishi mumkin. SHovinistik qarashlarning asosi ham mana shu milliy tuyg'ularning kansitilishidan yuzaga keladi. SHovinistik kayfiyatning shakllanishi asosan milliy tubanlik, o'z millati manfaatlarini avdolatsiz ravishda ortiqcha o'ringa qo'yishdan, boshqa millatlar va jumxuriyatlarning manfaatlarini hisobga olmaslik, o'z millatini ko'klarga ko'tarish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Milliy psixologiyadagi shovinistik hislar oddiy insonlar ongini milliy mahdudlik kabi salbiy tushunchalar bilan zaharlashga, ularning behuda bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Milliy iftixor ham milliy o'z-o'zini anglashning ko'rinishidir. Milliy o'z-o'zini anglashning rivojlanishi bilan milliy iftixor, milliy xis-tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Milliy xis-tuyg'alarga ojo'ya yondashish, uni nazar-pisand qilmaslik oqibatida ulaming millatchilik tuyg'ulariga aylanib ketishga sabab bo'lishi mumkin. SHuning uchun ham hozirgi milliy tuyg'u masalalariga ko'proq e'tibor berilayotgannligi tasodifiy emas.

Insoniy his-tuyg'ular hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan o'zgaradi. Boshqacha aytganda, u ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'ularga asir bo'lib qolish qanchalik xavfli bo'Isa, ayni zamonda, ulaming e'tiboridan chetda qoldirish ham juda katta xatodir. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ahloqiy omillarga suyanib umuminsoniy tarbiyaviy ishlar keng ko'lamda amalgam shirilayotgan hozirgi sharoitda milliy his-tuyg'ular o'zaro hamfikrlikka, halqlar va xalqlarning ayrim namoyandalari do'stlikning mustahkamlani shiga yordam beradi.

Istiqlol yo'li, demokratiya vaoshkoraliq ilgari keng xalq ommasining ijtimoiy siyosiy, siyosiy faoliyati rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan barcha g'oyalarni birin-ketin bartaraf etib, uning ijtimoiy, siyosiy madaniy, ma'naviy hayotining hamma sohalarida faol ishtirok etishi, o'zini ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Hozirgi paytda ommaning ijtimoiy-siyosiy ongi faoliyati o'sib borayapti. YOzuvchilar, olimlar, inson va dehqonlar, yoshlar, xotin-qizlar, dindorlar, faxriylar, xullas, jamiyatni soqlomlashtirish uchun kurashayotgan kuchlaming harakatga kelganligi Mustaqillik davriga, demokratiya va oshkoraliq davriga xos bo'lgan eng noyob hodisadir. Milliy o'zligini yangilashning keng tus olayotganligi, respublikamizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy mustaqilligini amalda ta'miniash uchun astoydil kurash olib borayotganligi va bu sohada erishgan ilk muvaffaqiyatlar milliy uyg'onishdan davlolatdir. Hozir bizda qaror topayotgan ijtimoiy sharoitlar har bir millat va elat uchun ona tabiat va tarix tuyassar etgan miqqoslarda o'z kuch-qudratini namoyish etish imkoniyatini yaratmoqda.

Milliy ong va o'zligini anglash yoki bu millatga mansublikni xis qilish, uning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analarini har taraflama chuqr bilish bilangina chegaralanmaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash millatning hozirgi ahvoli, uning oldida echimini ko'tarib turgan muammolarini bilish va ulami hal qilishda faol harakat etishni talab qiladi. Buning uchun yuksak madaniyat, uzoqni ko'ra bilish va donolik, g'oyaviy etuklik va noplaklik, yangicha fikrlash imkoniyatlaridan, jamiyat taraqqiyotini jadallashtirib, ahvolining farovon hayot kuchirishi uchun zamin yaratish yo'lida foydalanish bilish kerak.

SHuningdek, milliy o'z-o'zini anglash millatning kelajak istiqbolini ham ko'ra bilishni talab qiladi. Bu ham kishalarning milliy ongi o'sishi, tafakkurlash madaniyati daroji bilan uzviy bog'liqdir. Ma'rifatli, yuksak madaniyatli inson bugungi kun extiyojlarini qondirish uchungina yashamaydi, u albatta ertangi kunni ham o'yab yashaydi. Kelakjakni ko'ra bilish, fahmlash - milliy o'z-o'zini anglashning zaruriy qismini tashkil etadi.

Milliy ongning o'sishi Mustaqillik tufayli jumxuriyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, islohotlarni, Birinchi Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatni yakdillik bilan qo'llab-quwatlashda, mustaqil respublikamizga bo'lgan mehr-muhabbatning kundan-kunga oshib borayotganida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzları Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasi azizdir. Biz ular bilan faxrlanamiz, ulami e'zozlaymiz. Ular ma'naviyatning eng muhim timsollari sifatida ona Vatan - O'zbekiston Respublikasiga iftixon va cheksiz hurmat tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Birinchi Prezidentimiz aytganidek, Vatan tuyg'usi vatan tushunchasi biz uchun sajdahohday muqaddas, sajdahohday pok va ulug' bo'lsog'i kerak. «Biz ona O'zbekiston istiqlolini, uning sha'ni shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olamiz va uning ximoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor.

Ulug' ajodolarimizdan muqaddas meros bo'lib kelayotgan vatanga muhabbat tuyg'usi, farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam etiqodga, chinakam aqidaga aylansin.

Milliy g'urur, milliy iftihori baland millatni egib bo'lmaydi»!.

Sobiq SSSR davrida SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalarida O'zbekiston suveren respublika deb yozib qo'yilgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda O'zbekistondek kelajagi buyuk, ko'hna tarihi boy tabiiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy merosga ega qudratli davlat bor ekanligini jahon mamlakatlarining aksariyati bilmas edi chunki O'zbekiston shu pay tlarda mustaqil siyosat va faoliyat yurgizib, chet elga chiqish xuquqidan mahrum etilgan edi. endilikda Istiqlol sharofati bilan bizning dovrug'imiz olamga yoyildi. Hozirning o'zida O'zbekistonni dunyodagi 160 tadan ortiq davlat tan oldi. Ulardan 120 tasi billan diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. O'zbekiston poytahtida 35 dan ortiq mamlakatning, shu jumladan, buyukligi etirof etilgan AQSH, Yaponiya, Germaniya,

Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy kabi davlatlarning elchi-xonalari ishlab turibdi. O'z navbatida dunyoning 20 ortiq davlatida AQSH, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Rossiya va boshqalarda) respublikamizning diplomatiya elchixonalari ish boshladi»!

O'zbekiston bayrog'i Birlashgan Millatlar Tashkilotida hilpirab turibdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-, 50

sessiyalarida buyuk minbardan turib jahon xalqlariga o'zbeklarning kim ekanligini namoyon etdi. Axir bu xalqimiz hayotida katta tarixiy voqeа-ku! Bundan faxrlanmaslik aslo mumkin emas! Milliy ongimizning rivojlanib borishini yana bir ko'rinishi shundan iboratki, jamiyatimizning zahmatkash fuqarolari eski andozalar va suxtalashgan g'oyalardan voz kechib bozor munosabatlariga mos ravishda yangicha fikrlashga, tafakkurlashga qodir bo'lmoqdalar. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini ijodiy o'rganib, o'z imkoniyatlardan samarali foydalangan holda ilg'or texnologiya, fan va texnika yutuqlari, zamонави iqtisodiy moliyaviy bank va kredit sistemasini, boshqaruв usullarini hayotga tatbiq etib, kelajagi buyuk davlatimiz poydevorini mustahkamlash uchun astoydil mehnat qilib kelmoqda. Respublikamiz mehnatkashlari yuksak madaniyatiga, ma'naviyatga ega isteedodli ishbilarmon, zahmatkash kishilar ekanini, xorijdan kelgan mutaxassislarning o'zi tan olmoqdalar.

Xorijiy mamlakatlar bilan yangicha tashqi iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy, ma'naviy munosabatlami shakllantirish va rivojlantirishda ham o'zbek xalqi o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyatini namoyish etmoqda. Bunga respublikamizda muntazam ravishda yuksak darajada o'tkazilayotgan dolzarb mavzular va muammolarga bag'ishlangan ilmiy va amaliy anjumnalar, seminarlar, kongresslar va boshqa tadbirlar misol bo'la oladi.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Istiqlol, milliy ong, milliy g'urur, ijtimoiy ong, etnik ong, dunyoqarash, ibridoiy ong, mistik tasawur, ilohiy kuch, sinfiy formatsiya, g'oya, qarash, mistika, sinfiy jamiyat, ijtimoiy ruhiyat, milliy xis-tuyg'u, milliy o'z-o'zini anglash, e'tiqad, aqida, ostetik ong, badiiy ong, o'zlikni english milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor tuyg'usi, milliy-ma'naviy qadriyatlar.

Mavzuga doir nazarot savollorii:

1. Milliy o'zlikni anglash deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy iftixor tuyg'usi ozod va erkin bo'limgan xalqda bo'lishi mumkinmi?
3. Milliy ong deganda nimani tushunasiz?
4. Milliy g'urur nima?
5. Etnik ongga ta'rif bering?
6. Dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?
7. Mastik tasawurlar deganda nimani tushunasiz?
8. Ijtimoiy ruhiyat nima?
9. Milliy his-tuygu nima?
10. E'tiqod nima?
11. Mafkura tushunchasini izohlab bering

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostososada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezondir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.

8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.

9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.

10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro-e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.

11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbat // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.

12. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.

13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.

14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.

15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.

16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.

18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.

19. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.

20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.

21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'FMJ, 2004

23. Achildiyev A.S. Milliy g'oja va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

8-MAVZU: Moddiy - iqtisodiy qadriyatlar, inson hayoti va ul arni jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.

Reja:

1. Moddiy-iqtisodiy qadriyatlar tizimi.
2. Geografik muhit tushinchasi. Geografik muhit inson va jamiyat mavjudligining zaruriy sharti sifatida.
3. Tabiiy resurslar va ulaming jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Ikkinci tabiat (sun'iy tabiat) - moddiy qadriyat sifatida.
4. Mustaqillik va moddiy-iqtisodiy qadriyatlar.
5. Mulk - iqtisodiy qadriyatlar negizi ekanligi. Davlat mulki va xususiy mulkning uyg'unligi masalasi.

Ma'lumki, jahon xo'jaligiga kirishda bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish muxim omil bo Tib hisoblanadi. SHunday ekan, hozirgi vaqtida bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera oladigan davlatlararo iqtisodiy munosabatlami yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mustaqillik e'lon qilingandan kyoyin ilgor davlatlarning tajribasini, shuningdek Respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini, halqimizning aql-zakovati, urf-odat, an'analarini, turmush tarzini hisobga olgan holda millatimizga xos iqtisodiy islohotlar yo'li belgilab olindi.

«Biz tanlab olgan yo'l, — deydi I. Karimov,—ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Aynan shunday yo'l o'zbekistonliklaming munosib turmush kechirishi uchun kafolat bo'la oladi, milliy an'analar va madaniyatining rivojlanishini, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarining qayta tiklanishini ta'minlaydi»

Ushbu yo'lni amalga oshirishda Birinchi Prezidentimiz I.Karimov asarlarida atroflicha ilmiy

ishlab chiqilgan beshta muhim va mashhur tamoyil asos qilib olindi. Davlat 1) iqtisodiyotni mafkuradan batamom holi qilish; 2) murakkab qilish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur; 3) butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur; 4) fuqarolarni ximoyalashga qaratilgan kuchli chora- tadbirlarni amalga oshirish; 5) bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan izchil tub iqtisodiy o'zgarishlar biz tanlab olgan yo'limizning tug'ri ekanligidan dalolat beradi. Respublikamiz bozor munosabatlarni qaror toptirgan holda iqtisodiy islohotlar yo'lidan dadil qadam tashlamoqda.

Islohotlar natijasida iqtisodiyotimizda ko'zga ko'rinarli ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'moqda. Ayni kunda dastlabki yillarda yuzaga kelgan ishlab chiqarish sur'atlari pasayishining oldini olish bilan bir

qatorda, ayrim sohalarda o'sish, yuksalish boshlandi. 2005 yilga kelib, iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi. YA'ni, yalpi ichki mahsulot 7,7 %ga o'sdi. Jumladan: sanoat ishlab chiqarish hajmi -9,4 %, ist'emol mollari ishlab chiqarish - 13,4%ga, sanoat tovarlari ishlab chiqarish- 18,6%ga o'sdi.

Iqtisodiy islohotlami amalga oshirishda o'rta kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muxim ahamiyat kasb etadi. 2005 yilda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq ko'lami hamda hajmi salmoqli darajada o'sdi. Kichik biznes korxonalari soni o'tgan yilda 14 %ga ko'paydi.

O'zbekiston tabiiy resurslarga nihoyat darajada boy, nisbatan yuqori iqtisodiy va ishlab chiqarish-texnika qudratiga ega. Mamlakatimiz korxonalarida, ilmiy hamda ilmiy-ishlab chiqarish, loyiha konstrukturlik va boshqa tashkilotlarda asosan yuqori malakali, bilimdon mutaxassislar mehnat qiladi.

Mana shunday qudratga ega bo'lgan mehnatkash xalqimiz o'tmishda ancha nochor kun kechirib keldi. Buning sababi shundaki, Respublika iqtisodiyoti sobiq SSSR yagona iqtisodiy tarmog'inining ajralmas qismi deb xisoblanib faqat xom-ashyo etkazib beradigan o'lkaga aylanib qolgan edi. Xalqimiz ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan iste'mol mollari boshqa respublikalardan keltirib berilardi. Natijada respublikamiz Markazga to'liq qaram bo'lib qolgan edi.

Hayot shuni ko'rsatdiki, faqat xom-ashyo etishtiruvchi va sotuvchining kosasi oqarmaydi, u surunkali nochorlik ka giriftor bo'ladi. SHuni hisobga olgan holda, respublikamiz o'ziniig barcha imkoniyatlari va rezervlarini to'g'ri hisobga olib chiqib, O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini ta'miniash imkonini beruvchi tuzilmani vujudga keltirishni, o'zimizning mustaqil iqtisodiy sistemamizni yaratishni asosiy maqsad kilib quydi.

Endilikda tabiiy qadriyatlardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muxitga ziyon etkazilishiga yo'l qo'ymaslik O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama— xom- asheviv yunalishiga qat'iy bardam berish Respublika ichki siyosatining eng muqim strategiyasi hisoblanadn.

«Xalq xo'jaligining xom-ashyoviy yo'nalishini bartaraf etish, — deydi I. Karimov, — Respublikamiz iqtisodiyotining barqaror va jo'shqin rivojlantishini ta'miniash imkonini beradi, ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchlarini ishlab chiqarishga jalb etishga, kadrlarning kasb-korlik savodini oshirishga, maqsulotlami keltirish va chetga chiqarishni mutanosiblashtirishga ko'maklashadi, eng asosiysi— O'zbekistonning mustaqilligi, uning xalqi turmush darajasining o'sishi uchun ishonchli kafolatlar yaratadi»⁴.

Mazkur siyosatni amalga oshirish niyatida hozirgi kunda xukumatimiz Respublikaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, import xajmlarini kamaytirish va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga qaratilgai siyosatni muntazam ravishda amalga oshirmoqda. endilikda biz xorijdan keladigan sarmoyalarga qaram bulib o'tirmasdan o'z ichki imkoniyatlarimizni ishga solib iqtisodiyotni rivojlantirishimiz darkor.

SHuningdek, hozir ustuvorlik tarmoqlarini, ya'ni neft' va gaz sanoati, elektnergetika, mashinasozlik va kimyo sanoatini tezkorlik bsh:an rivojlantirilib, tarmoqlar va mintaqalararo nomutanosiblikni qisqartirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Tabiiy, moddiy kadriyatlardan unumli foydalanishda mulkiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish katta ahamiyat kasb etadi. SHuni e'tiborga olgan holda Respublikamizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, uni haqiqiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l

ochib berish va mulkdorda mulk egasi xissiyotini tarbiyalashga qaratilgan ishlar rivoj topmoqda. Bunda o'rta- kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish qo'l kelayotir. «Xususiy tadbirkorlik va tashabbusni qo'llab-quwatlash haqida»gi qonunning qabul qilinishi, «Biznes fond» amaliy aloqalar markazi, «Madad» sug'urta jamiyatining to'zilishi kichik tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy islohotlami amalga oshirishda tayyor maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, uning sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga etkazish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tarkibiy strukturaviy o'zgarishlar qo'l kelmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloqda tub islohotlar o'tkazish, qishloq xo'jaligini taraqiy qildirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu soxada ham keyingi vaqtda ancha ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Birinchidan, xukumatimiz qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchlarini boshqa sohalarga jalb etishga harakat kilayotgan bo'lsa, ikkinchidan, qishloq joylariga sanoatni olib borish va keng joriy etish, kichik va o'rtacha korxonalami kurish, yangi ish joylarini yaratish ishlari avj olib bormokda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish tarmog'ini keng rivojlantirish, kichik biznesga, xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish — iqtisodiy islohotlami muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy garovi bo'lib turibdi.

SHuningdek, «bugungi kunda makroiqtisodietni barqarorlashtirish bilan bir qatorda milliy valyutani mustahkamlash, uning joriy va to'liq almashadigan bo'lismiga erishish... bizning asosiy vazifamizdir» Bu borada, birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondiradigan va xorijdan keltirilayottan mollar bilan raqobat qila oladigan o'z maxsulotlarimizni ishlab chiqarishimiz kerak bo'lsa, ikkinchidan, eksport qilinadigan mollarni ko'paytirib, valyuta zahiralarini to'ldirishga, uchinchidan, yonilg'i energiya manbalarini, ko'pgina uskuna va oziq-ovqat maxsulotlarini chetdan sotib olishni kamaytirish, ularni o'zimizda ishlab chiqarishni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilmog'i lozim.

YUqorida aytilgan va boshg'a qilayotgan ishlar iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan yangilab, uning samaradorligini oshirib, xalqimiz turmush tarzini yanada yuksaltirishga keng imkoniyat ochib beradi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Tuzilmalarni qaytadan yangilamasdan turib, o'z iqtisodiyotimiz va ishlab chiqarish kuchlarimizga suyanmasdan turib, biz iqtisodiy mustaqillikka erisha olmaymiz, mehnatning xalqaro taqsimotidagi o'z munosib o'rnimizga, binobarin, xalqimizning munosib turmushi uchun zarur shart-sharoitga ega bo'la olmaymiz»

SHunga ham alohida e'tibor berish kerakki, yangi iqtisodiy to'zilmalarni joriy etishda tijorat banklari tizimi, sug'o'ra kompaniyalari, auditorlik xizmatlari, zamonaviy kommunikatsiyalarning zarur tizimlarinijadallik bilan shakllantirish muxim o'r'in tutadi. Mazkur masalalarni xal qilishda ham davlatimizning o'zi bosh-qosh bulmoqda.

Mintaqaviy va jahon iqtisodiyotiga qushilishda davlatlararo munosabatlami, jumladan, Markaziy Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bilan iqtisodiy aloqalami mustahkamlash, tabiiy, moddiy qadriyatlarimizni birga baham ko'rish katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo' stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlami rivojlantirish — O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yunalishlaridan biridir. (Uzbekistan Hamdo'stlik g'oyasini qo'llab-quvvatlashadi, uning tashkilotchilar tarkibiga kirdi, barcha qatnashchilarning teng huquqliligi asosida uni mustahkamlash va rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

SHuni aloxdda qayd etish joizki, (Uzbekistan MDHdagi sheriklari bilan o'z munosabatlarini ko'p tomonlama davlatlararo va xukumatlararo shartnomalar hamda bitimlar doirasida ham, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri ikki tomonlama muloqotlar, o'zaro manfaatli savdo iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va madaniy aloqalami o'matish tarafdiridir.

Ana shunga kat'iy amal kilib, Respublikamiz o'zimizga qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalami yanada rivojlantirish sohasida ko'p ishlarni amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo Respublikalarining tarixi, madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihatlari bir-biriga nihoyatda o'xshash. Ulaming hozirgi kundagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik muammolari ko'p jihatdan bir xildir. Mazkur Respublikalarining iktisodiyoti bir-biri bilan tutashib ketgan va ular bir-biriga o'zining ta'sirini o'tkazib turibdi.

Hozirgi kunda yuqorida ko'rsatilgan Markaziy Osiyo davlatlari urtasida yagona iqtisodiy makon to'g'risidagi shartnomalar ham o'z samarasini bera boshladi. Almati shahrida mazkur bitimda

qatnashuvchi mamlakatlarning vakillaridan iborat. Davlatlararo ijroiya qumitasi to'zildi. Toshkentda mintaqa bank Markazi o'z ishini boshlab yubordi. Uch davlatning iqtisodiyotida uyunlashtirishga qaratilgan dasturlar ishlab chikildi. Ayni paytda, kommunikatsiyalarni qurish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kirishildi. O'zbekiston — Qozog'iston — Kirg'iziston iqtisodiy hamkorligi qo'shma loyihasi ochiq va muntazam ravishda aniq g'oyalar bilan to'lib bormoqda.

1995 yilning dekabrida Jambul uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda integratsiya jarayonlarining borishini tartibga soladigan umumiy Markaziy Osiyo organlarini — jumladan, Bosh vazirlar kengashi, kabi — barpo etish to'g'risida qat'iy kelishib olindi. SHuningdek Qozog'iston, Qирг'изистон va O'zbekiston BMTning zahira kuchlari sifatida umumiy tinchlikni saqlovchi batal'oni to'zish to'g'risidagi bitimga imzo chekdilar. Jambul uchrashuvi Markaziy Osipyodagi uch Respublikaning davlatlararo munosabatlari hamjihatligini yanada kuchaytirdi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, madaniy- ma'naviy aloqalar qanchalik chuqur va tez mustaqamlansa mazkur mamlakatlarda islohotlar shunchalik tez amalga oshadi, halqlarimizning farovon yashashiga keng imkoniyatlar ochiladi. Markaziy Osiyo Respublikalari yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmokugari, suv va gaz ta'minoti tizimidan birgalikda foydalanish imkoniyatiga ega. SHuningdeq ular mineral xom-ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi maxsulotini qayta ishslash sohasida mintaqaviy kooperatsiyani yo'lga qo'yishdan, Orol bo'yidagi ekologiya faloqati oqibatlarini bartaraf etish, Orol dengizini qutqarish kabi tadbirlarni birgalikda amalga oshirishdan manfaatlidirlar.

Markaziy Osiyo Respublikalari behisob tabiiy boylikka ega. Biz bu boylikni birgalikda o'zlashtirishimiz, iqtisodiy, ma'naviy va insoniy salohiyatlarimizni yanayam jipslashirish yo'lidan borishimiz maqsadga muvofikdir. «Eng awalo, iqtisodiy mustakilligimizni ta'minlaydigan sanoatning butun negizini rivojlantirish, boy xom-ashyo, moddiy resurslarimiz asosida tayyor maxsulot olishga qaratilgan yuksak texnologik loyihalarni, kishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish — mamlakatlarimiz oldida turgan muxim vazifadir»⁷.

Markaziy O rta Osiyo mustaqil davlatlarining samarali hamkorligi chegaradosh mamlakatlar, awalo musulmon SHarqi mamlakatlari — Turkiya, eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni chuqurlashtirishga qulay zamin yaratilmoqda.

Ashgabat uchrashuvida Markaziy Osiyo Respublikalari bilan eron, Pokiston, Turkiya davlatlari Transosiyo temir yo'l magistralini birgalikda qurish to'g'risida axdashib oldilar. Bu loyihani amalga oshirish O'zbekistonning jahon okeaniga, xalqaro savdo markazlariga chiqish yo'lini ochadi, tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalnshlarini tanlashda harakat erkinligini ancha oshiradi.

O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi doirasida Rossiya, Ukraina, Belarus', Moldova va boshqa mamlakatlar bilan, jumladan Boltikbo'yi Respublikalari bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo iqtisodiy, fan va texnika sohalariga oid shartnomalar va bitimlarni imzoladi va ularni izchil ravishda bajarib kelmoqda.

MDX mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarning tarkibi va shakli tubdan o'zgarib bormoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo' stligidagi ko'pgina mamlakatlar bilan savdo to'lov sohasida O'zbekiston ijobjiy sal'doga egadir.

O'zbekiston MDXdagi davlatlar, awalo Rossiya bilan o'zaro manfaatli siyosatni izchil amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning tuzilganligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi munosabatlarni yanada rivojlantirishda kudratli omil bo'lib xizmat qiladi, har ikkala mustaqil davlat xalqlarining tub manfaatlariga mos keladi.

Jahon xo'jaligiga ko'shilishda tabiiy moddiy qadriyatlarimizning vositachilik roli Jahon hamjamiyatiga qo'shilishda milliy va umuminsoniy qadriyatrimnzni bir- biriga yaqinlashtirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish katta o'rinn tutadi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, biz turli mamlakatlar iqtisodiyotini o'ziga xos taraqqiyotini katta diqqat e'tibor bilan o'rganamiz, jahon amaliyoti va jahon taraqqiyotida to'plangan eng yaxshi tajribalarni o'zimizda qo'hanishni or bilmaymiz, aksincha, bunday yo'nalishni har jihatdan rag'batlantiramiz».

SHu ma'noda, o'zimiz tanlagen yo'lning eng awaldayoq AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya kabi iqtisodiy jihtdan rivoj topgan mamlakatlar tajribasiga murojaat etganmiz, boshqa davlatlar tajribasini ham o'zlashtiranimiz bejiz emas.

Ayni shu mamlakatlar tajribasidan foydalanib biz davlatchiligidan qaddini tikiash va iqtisodiy

islohotlami amalga oshirish imkonini beradigan yo'lni topdik.

Biz bundan keyin ham xorijiy mamlakatlarda davlatchilik siyosat va iqtisodiyot sohalarida ro'y berayotgan yangi ijobjiy o'zgarishlarni qunt bilan o'rganamiz va bundan o'zimizga kerakli xulosalar chiqaramiz.

Respublikamizda yangi muassasalami barpo etish borasida xorijiy sarmoyalami jalg etish uchun zarur bo'lgan tashkilot va muassasalar tuzish bo'yicha bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. SHuningdek, xorijiy sarmoyalalar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan.

O'zbekiston investitsiyalarni o'zaro ximoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Finlandiya, Korey a, AQSH, Frantsiya bilan bitimlar imzoladi, boshqa bir qancha mamlakatlar bilan ham shunday bitimlar to' zishga hozirlik ko'rilmoxqda.

O'zbekiston xukumati Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Gollandiya, SHvetsariyaning banklari va firmalar bilan 1,5 milliard AQSH dollariga yaqin summada hukumatlararo 40 tadan ortiq yirik kredit bitimlari tuzildi va hozir bu bitimlarga amal qilinmokda.

1994 yildan boshlab respublikaga 640 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar amal qila boshladi, shundan salkam 300 million dollar aniq ob'ektlami kreditlashga rasmiylashtirildi. CHunonchi, Toshkentda Xalqaro savdo ko'rgazma kompleksi, Xorazm viloyatnda shakar zavodi qurila boshladi. Amerikaning «N'umont Mayning» kompaniyasi bilan birgalikda qurilayotgan oltin kazib oladigan qo'shma korxona inshootlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy hamkorlik ishtiroki bilan Respublikamizda «O'zdeuavto» va «O'zdeulektroniks» (Koreya Respublikasi), «O'zitalmotor» (Italiya), «O'zBAT» (Buyuk Britaniya) xissadorlik birlashmalari, Xorazm xissadorlik ishlab chiqarish birlashmasi (Germaniyaning «Mersedes Bens» firmasi bilan birgalikda), to'qimachilik korxonalar va boshqa qo'shma ishlab chiqarish inshootlarini barpo etishga oid loyihamaliga amalga oshirila boshladi. Germaniya va Koreya Respublikalarining firmalari ishtirokida respublikaning telefon tarmog'ini zamonaliv usulda yangilashga kirishildi.

YUqorida aytilgan ishlarning hammasi mamlakatimizimizda ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirib, jahon iqtisodiy hamkorligiga qo'shilishda katta ahamiyat kasb etishi shak-shubhasizdir.

Biz belgilab olgan va o'tkazayotgan islohotlar yo'lli etakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, jahon jamoatchiligi, jahondagi iqtisodiy rivojlangan eng yirik mamlakatlar tomonidan keng qo'llab quwatlanmoqda. Bu tanlagan yo'limiz to'g'rilingiga bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos modelini amalga oshirishimizdagi muvaffaqiyatga ishonch uyg'otmoqda»

O'zbekiston Konstitutsiyasida mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning mustaqil sub'ekti tarzida tashqi siyosatni o'z manfaatlarini ko'zlab belgilashi, xalqaro tashkilotlarga, yalpi xavfsizlik tizimlariga, davlatlararo tuzilmalarga kirish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab quyilgan. SHunga amal qilib, hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatiga qatnashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotning iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, (XVF) Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi va boshqa obro'-e'tiborli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga azo bo'lib kirdi ham da u, faol siyosat o'tkaza boshladi.

O'z navbatida, ko'pgina halqaro tashkilotlar — BMT, XVF, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Evropa Ittifoqi Komissiyasi va boshqa tashkilotlar respublikamizda o'zlarining mintaqaviy vakolatxonalarini ochdi va o'zbekistonlik sheriklar faol hamkorlik qilmokda.

Masalan, Halqaro Valyuta Fondi mutaxassislari ishtirokida O'zbekiston iqtisodiyotini chuqr isloh qilish maqsadida muntazam o'zgarishlar dasturi ishlab chiqildi va uni amalga oshirish uchun 74 million AQSH dollari miqdorida dastlabki mablaq ajratildi.

SHuningdek, Jahon banki bilan birgalikda O'zbekistonga milliy valyutamizni mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va to'lov balansi qo'llab- quwatlash, iqtisodiyotning tarkibini o'zgartirish va korxonalar darajasida islohotlami amalga oshirish, davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarini va yangi vujudga kelgan nodavlat tuzilmalami xususiyashtirishdan keyingi davrda qo'llab-quwatlash hamda ularga ko'maklashish uchun 160 million AQSH dollari miqdorida tiklanish qarzi berish to'g'risidagi masala puxta ishlab chiqildi va bitim imzolandi.

XVF Jahon banki, Xadqaro moliya korporatsiyasi ishtirokida ishlab chiqilgan respublikada kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashuvchi bir qancha loyihamaliga, shuningdek

iqtisodiyotning eng manfaatli sohalaridagi loyihalami moliyaviy jihatdan ta'miniash dasturi amalga oshirilmokda. Bularning hammasi O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti tizimiga qo'shilishiga iqtisodiy zamin yaratmoqda.

Jumxuriyatimizga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish uchun jamiyatimizda maqbul xukuqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib qo'yilgan. Hoziming o'zidayoq xorijiy kapital ishtirokida avtomobil, rangli metallar, neft' maxsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yirik korxonalar buniyod qilinmoqda, kommunikatsiya va aloqa tizimlari qayta kurilmoqda, yangidan barpo etilmoqda. «Bu mablag'lар iqtisodiyotimiz tuzilmasida ijobjiy o'zgarishlar yuz berishiga ko'maklashadi. erishilgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, iqtisodiy islohotlamning muvaffaqiyatlari amalga oshirilayotgani hamda respublikamizning kelajagini yuksak baholagan xorijiy sarmoyalari va sarmoya ajratadigan davlatlar hoziming o'zidayoq iqtisodiyotimizga har yili taxminan bir yarim milliard dollardan ortiq sarmoya sarflash istagini bildirishmoqda.

Tashqi aloqalarni kengaytirish maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalarni isloh qilish, boshqarish tizmini o'zgartirish, tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy negizlarini barpo qilish sohalarida ham katta ishlar amalga oshirildi. Natijada 2006 yilda xorijiy mamlakatlarga maxsulot eksporti ko'paydi, ularning anchagina qismi Turkiya, Bel'giya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Gollandiya, Pol'sha, Koreya Respublikasi, Indeneziya, Malayziya kabi mamlakatlarga yuborilmokda. Respublikamizda xorijiy sannoynalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar tobora ko'paymokda hozirgi vaqtida ularning soni 1450 tadan oshdi, nuqul xorijiy sarmoya bilan ishlovchi korxonalar 110 taga etdi. 1995 yilning boshida O'zbekistonda dunyoning 25 mamlakatiga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniyalarining 116 ta vakolatxonasi ishlab turibdi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki dunyoning |30 | yirik bankida vakillik hisobini ochgan.

Ma'lumki, 1991 yili dekabrida Markaziy Osiyo davlatlarining Aslig'abat uchrashuvida Tajan—Saraxs temir yo'lini birgalikda qurish xaqida qapop qabul ilingan edi. Ana shu qaror asosida o'zbekistonlik yo'lsozlar ham bu muxim qurilishga o'zlarining munosib xissalarini qo'shdilar. 1996 yili mayida mazkur Jm| |o'l| isliga tushdi, Turkmaniston va eron temir yo'l (uzunligi 300 km,) Saraxs sliahrida bir-biri bilan tutashdi. MDH mamlakatlari, Markaziy Osiyo respublikalari temir yo'l vositasida Fors ko'rfazi bilan bog'landilar. Ayni paytda Trans Osiyo— Pekin—Stambul yo'nalislii paydo bo'ldi. U Urumchi, Do'stlik Almati, Toshkent, CHorjo'y, Saraxs, Mashxad va Tehron shaharlaridan o'tadi.

YAngi yo'lning ochilishi eng awalo Markaziy Osiyo Respublikalari uchun muxim ahamiyatiga ega. Bu mamlakatlarda kechayotgan iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlarining shakllanishi keng savdo aloqalarini taqozo etadi. Dastlabki paytda yiliga bir million tonna yukni o'tkazadigan xalqaro Saraxs stantsiyasi keyinchalik 5 million tonna yukni jo'natish imkoniyatiga ega bo'ladi.

SHuningdek Mashhad—Saraxs—Tajan yo'lining ochilishi tantanalari bo'lib o'tgan uchrashuvlarda O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Gruziya o'rtasida temir yo' 1 faoliyatini muvofiqlashtirish haqida shartnoma hamda tranzit yuk tashishni tartibga solish sohasida hamkorlik bo'yicha bitim imzolandi. endilikda O'zbekistan Qora dengiz portlari orqali xorijiy savdo miqyosii yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

1996 yil 14 may kuni Ashg abat sliahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a zo davlatlar boshliqlarining IV-chi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ma'lumki, eKO, Turkiya, eron va Pokiston tomonidan 1985 yilda ta'sis etilgan. Undan maqsad mintaqalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish, iqtisodiy aloqalar sohasidagi qiyinchiliklami bartaraf etish, birinchi navbatda, yo'llar barpo etish edi. 1992 yilda bu tashkilotga boshqa Markaziy Osiyo davlatlari qatori O'zbekiston ham a zo bo'ldi.

EKO 1995 yilda mintaqalari o'rtasida transport aloqasini rivojlantirish o n yilligini e'lon qilgan edi. Ana shu reja asosida eKO a zo mamlakatlarni bir-biri bilan bog'laydigan o'nlab yo'llar loyixalashtirilmokda. O'zbekiston bu loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi. Natijada O'zbekiston Afg'oniston va Pokiston hududidan o'tadigan yaqin yo'l orqali ochsh dengizga chiqish va savdo-sotiq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1996 yilning iyun' oyida Latviya Respublikasi bilan imzolangan bitimga binoan O'zbekiston o'z yuklarini Boltiq dengizi orqali Evropa mamlakatlariga chiqarish imkoniyatlarini qo'lga kiritdi. Birinchi Prezidentimizning Gruziya, Ozarbayjon, Ruminiyaga qilgan tashrifi jarayonida imzolangan hujjatlar ham O'zbekiston iqtisodiyoti jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhil bo'lib xizmat qilishi

shak- shubhasizdir.

1996 yilning 20—23 iyunida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentimizi Italiyaga tashrif buyurib, Evropa bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimga imzo chekdi.

Evropa hamjamiyati komissiyasi Birinchi Prezidentimizi Jak Santer mazkur bitimni imzolash marosimida so'zlagan nutqida, bitim Markaziy Osiyoda muxim barqarorlikni qo'llab-quwatlashga qaratilgan birgalikdagi harakatlaming yangi miqyoslarini belgilab berishi, siyosiy muloqatlar, har tomonlama fikr almashishlarni faollashtirishga imkon yaratishi, bugungi kunda ancha past darajada turgan savdoni rivojlantirish va sarmoya xajmini oshirish uchun maqbul huquqiy asosni barpo etishi xususida to'xtalib, ta'kidlagan ediki, «bitim iqtisodiyotning turli sohalaridagi aloqalarimizni rivojlantirishga ko'maklashadigan hamkorlik uchun keng istiqbollar ochib beradi. Bu biz uchun hamkorligimizni kengaytirish va uning turli-tuman shakllarini topish borasida birgalikda amalga oshiradigan ishlarimizning muhim yo'nalishi hisoblanadi».

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga, uniig iqtisodiy xo'jaliklariga qo'shilishida Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning 1996 yil 23—28 iyunida AQSHga qilgan amaliy tashrifi, AQSH Birinchi Prezidentimizi Bill Clinton bilan uchrashuvi, AQSHning ishbilarmonlari, kompaniya va firmalari bilan tuzgan shartnomalar katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 200 ga yaqin AQSH kompaniya va firmalari faoliyat ko'rsatayapti. Ular orasida «Kargil interprazes», «Interkonsepts», «Baytmal injinering», «Aig trayding grupp», «FMS korporateyshn», «Ji ey Vi», «Proktr end gembl», «Agrotek», «N'yumont mayning» kabi firma va kompaniyalar bor.

Tashrif chorida AQSH ishbilarmonlari bilan bir qancha xujjatlar imzolandi. Jumladan, «O'zbekneft' gaz» milliy korporatsiyasi, OPIK «Inron oyl end gaz kompani» o'rtasida Buxoro viloyatida gaz konlarini o'zlashtirish bo'yicha sug'urta kafolatlari xaqida imzolangan protokol Amerika xususiy sarmoyalarni qo'llab- quwatlash korporatsiyasining bu maqsadlar uchun 400 million dollar ajratishini ko'zdatutadi. «O'zbekneftgaz», OPIK va «Teksako» kompaniyasi o'rtasida imzolangan xujjat esa Farg'onada moylash materiallari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona tuzish, uni sug' urtalash xususidadir.

AQSH savdo va taraqqiyot agentligi (ASTA) direktori Jozef Grandmeyson O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida birgalikda aviatexnika ishlab chiqarish loyihasining texnik iqtisodiy asoslarini tayyorlash uchun 1 million dollar grant beg'araz mablag' ajratish xaqidagi xujjatga hamda ASTA bilan O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi o'rtasida o'zaro foydali sarmoya imkoniyatlari xaqidagi anglashmalar memorandumiga imzo chekdi.

SHuningdek «Keys» kompaniyasi bilan O'zbekiston banklari assotsiyasi o'rtasida «O'zkeysagrolizing» qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing xizmati ko'rsatish bo'yicha qo'shma korxona tuzish xaqidagi protokol, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki bilan «Bank of Amerika» o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum ham imzolandi.

Tennissi shtati gubernatori bilan uchrashuv chog'ida O'zbekiston, Amerika texnika instituti va janubiy shtatlar energetika kengashi o'rtasida anglashmalar protokoli imzolandi. Bu xujjat O'zbekiston davlat avtomobilari siqilgan gazda ishlashga moslashtiradigan «Gazmotors» qo'shma korxonasini, mamlakatimiz hududida 400 ga yaqn gaz quyish stantsiyalari tarmog'ini yaratadigan «Gazkompressor» qo'shma korxonasini tuzishni ko'zda tutadi. Mana shu ikki loyiha bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyotiga 102 million dollar sarmoya kiritilishi rejalashtirilgan. Bu o'z navbatida mamlakatimizda energetika resurslaridan oqilona foydalanishga, atrof-muxit tozaligini ta'minlashga imkon yaratadi.

X'yustonlik ishbilarmonlar bilan «O'zbekneftgaz» milliy korporatsiyasi va «Teksako» kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxona ta'sis etish haqidagi shartnoma, shuningdek «O'zbekneft'gaz» bilan «Inron oyl end gaz» korporatsiyasi o'rtasida gaz konlarini qidirib topish va qazib olish bo'yicha qo'shma korxona tuzish shartlari xaqidagi shartnoma imzolandi.

O'zbekiston geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi bilan «N'yumont mayning» korporatsiyasi o'rtasida mamlakatimiz sharqida oltin konlarini qidirish va tadqiq etish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etish xaqidagi hamda O'zbekiston geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi «N'yumont mayning» korporatsiyasi va «Mitsui» korporatsiyasi o'rtasida «Qizilol masoy»

va «Kuchbulq» konlarini birgalikda qazish to'g'risidagi bitim imzolandi.

SHuni g'yyp bilan aytish mumkinki, jumxuriyatimizda (izchil ravishda) islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda erishilgan dastlabki muvaffaqiyatlar mamlakatimiz bilan jahondagi turli davlatlar, jumladan Amerika Qo'shma SHatlari o'rtasidagi munosabatlarning yanada rivojlanishida muxim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

YUqorida aytilganlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, davlatimizning boy tabiiy, iqtisodiy qadriyatları jahon hamjamiyatiga qo'shilishining muxim vositasidir. Tabiiy boyliklarimizni avaylab asrash, ulardan oqilona foydalanish — milliy istiqbolimiz va istiqbolimizning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Iqtisodiyot va siyosatning o'zaro aloqadorligi

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlaming muxim xususiyati iqtisodiyotning mafkuradan batamom holi ravishda rivojlanishidir. «Iqtisodiyot,— deb yozadi I.A.Karimov, — siyosatdan ustun turmog'i, uning ichki mazmunini tashkil qilmog'i lozim. Aynan iqtisodiyot, uni yanada rivojlantirish muammolarini hozirgi siyosatimizning asosiy mazmunidir»

Mazkur tamoyil ikdisodiyotni tubdan isloh qilishning nazariy asosi sifatida bejiz e'tirof qilingani yuq. Ma'lumki, eski ma'muriy buyruqbozlik tuzumi xukmronlik qilib turgan vaqtarda, KPSS mafkurasining bevosita ta'siri ostida jamiyatimizda «siyosat iqtisodiyotga nisbatan ustivor rol' o'ynaydi, chunki uning mavjudligi, rivojlanishini istiqboli siyosiy xokimiyat tomonidan belgilanadi», degan soxta g'oya keng ildiz otib kelgan edi. Natijada jamiyatda vujud a kelgan barcha iqtisodiy muammolar, ularning katta kichikligidan qat'iy nazar, KPSS MKning siyosiy byurosi, s'ezd va plenumlar tomonidan berilgan ko'rsatmalarga muvofiq xal qilinardi. Iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektiv qonunlarini nazar pisand qilmasdan, faqatgina siyosiy ehtiyojlar, qiziqishlardan kelib chiqib qabul qilingan KPSS xukjatlariga muvofiq xalqimiz milliy daromadining salmoqli qismi chet-ellardagi siyosiy partiylar, milliy harakatlar, sotsialistik mamlakatlarga baynalmilal yordam sifatida ajratilib berilardi. Natijada qanchadan qancha mablag'larimiz shamoldek ko'kka uchib ketardi.

Ichki siyosat yuritishda ham mana shunday axvol ko'zga tashlanardi. Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, ularning rivojlanishi, xom-ashyolar bilan ta'minlanishi, ishlab chiqilgan mahsulotlarni qasrda, kim va qancha iste'mol qilishi, ularning narx-navolari ham siyosiy ko'rsatmalar asosida qat'iy ravishda belgilab qo'yildi. Xo'jalik ishlarini mana shunday usulda olib borish iqtisodiy jihatdan foydalimi yoki zararlimi—buning siyosat yurituvchi raxbarlar uchun ahamiyati yuq edi.

Iqtisodiyot qonunlari bilan xisoblashmay yurgizilan siyosat oqibatida ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirib jamiyatda iqtisodiy va siyosiy inqiroz vujudga keldi.

Mana shunday axvol sobiq SSSRning barcha respublikalarida sodir bo'lganidek bizning jumxuriyatimizni ham chetlab o'tmadi. Jamiyatimiz iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlanib, respublikamiz asosan xom-ashyo etkazib beradigan o'lkaga aylanib qolgani hammamizga ma lum, eng achinarlisi shundaki, zaxmatkash halqimizning mehnat va ko'p mashaqqatlar bilan etishtirilgan xom-ashyolari Rossiya va boshqa respublikalarga arzon narx bilan olib ketildi, u erda qayta ishlov berilib tayyor iste'mol mollari ishlab chiqilardi va ularning muayyan qismi qimmatbahoda Respublikamizga solildi. Bunga paxta xom-ashyosidan Rossiya, Boltiqbuyi Respublikalarida qayta ishlab chiqilgan kiyim-kechak paxta yog i, shrot va boshqa iste'mol mollari misol bo'la oladi.

Xuddi shuningdek, qishloq xo'jaligining boshqa mahsulotlari, jumladan, poliz va sabzavot, uzum, mevalar ham arzon narxda markazning ko'rsatmasi bilan Moskva, Sibir' va boshqa joylarga olib ketildi. Mahalliy aholining mazkur maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojlar zsa Vengriya, Bolgariya va boshqa chet-mamlakatlardan olib kelingan konservalar, vino, meva hisobidan qondirilardi.

Respublikada chiqariladigan gaz, qimmatbaxo qazilmalar, uran rudalari ham Rossiyaga xom-ashyo tarzida olib ketildi. O'z navbatida Respublikamizning issiqlik energiyasi, yokilg'i va boshqa narsalarga bo'lgan ehtiyojlar Sibir' va boshqa joylardan qimmatbahoda keltirilgan ko'mir hisobidan ta'minlanardi. Respublikamiz xom-ashyosi talon-toroj qilinib, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar hisobidan olingen sof daromad boshqalaming hamyoniga tushardi.

Mazkur iste'mol mollarini respublikamizning o'zida ishlab chiqsa bo'lardi, bunga barcha imkoniyatlar mavjud edi. Zero, mamlakatimizboy xom ashysiga ega, malakali va zahmatkash ishchilarimiz bor. Nega shunday qilinmad? Gap shundaki, markazdagi siyosatchilarni O'zbekiston xalqining faro von yashashi qiziktirmas edi, ular jamiyatimiz iqtisodiyotini o'z qo'lida jilovlab, o'lkamizning boyligidan istagancha foydalanib, xalqimizni batamom markazga qaram qilib

qo'yishdan manfaatdor edi. Bunga xukmron siyosiy tuzum va siyosatchilar astoydil xizmat qilib kelishdi.

Istiqlol sharofati bilan bundayadolatsizlikka chek qo'yildi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatimiz bundan buyon siyosat va siyosatchilarning ikdisodiyotga qo'pol ravishda aralashishiga yo'l qo'ymaydi. «Ichki iqtisodiy strategiya, - deydi I.Karimov, - har qanday siyosiy mafkura ta'siridan butunlay holi bulishi kerak. O'tgan yillar iqtisodiyoti o'ta siyosiylashtirib yuborilgan edi. Iqtisodiy maqbullikdan siyosiy kon'yunkuraviy manfaatlarning ustun kelishi sobiq Ittifoq xalq xo'jaligini parokandalik yoqasiga, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlaming jiddiy buzilishiga, ishlab chiqarishniig texnika jihatdan qoloqligiga olib keldi. Iqtisodiyot faqat unga xos bo'lgan ichki qonuniyatlar asosida rivojlanmogi darkor. Bizning vazifamiz ularni yaxshi tushunib etishdan va o'z xalqimiz manfaatlari yo'lida moxirona qo'llashdan iboratdir»

Nafaqat siyosat, balki davlatning ham xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish — bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning xususiyatidir. Buni biz qancha tez anglab etsak islohotlar shuncha tez amalga oshadi.

Zamonaviy iqtisodiyot ishlarini yuritish buyruqbozlik bilan o'z xukmini o'tkazish, tazyiq qilish kabi usullarga tamomila ziddir. Iqtisodiyot o'z ichki qonuniyatlariga ega, ana shu qonuniyatlarini chuqur bilib olib, o'z xatti- harakatlarimizni shularga mos ravishda qilsakkina oldimizga qo'yan maqsadlarga erishishimiz mumkin. Aks holda iqtisodiyot sohasida ijobjiy o'zgarishlaming yuzaga kelishi amrimaholdir.

Bozor iqtisodiyotiga xos qonuniyatlarni o'rganishda iqtisodiy o'quvni ta'sis etish, marketing, audit, bank moliya ishlarini yuritish muammolariga bag'ishlangan har xil seminarlar, simpozium, kengashlar o'tkazish muvofiqidir. Keyingi yillarda mana shu masalalarga Respublikamiz raxbariyati katta ahamiyat beryapti. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda mazkur yo'naliш bo'yicha turli xil ishlar qilinib, mulk egalarining iqtisodiy saviyalari kundan kunga ortib bormoqda. By esa o'z navbatida iqtisodiyo timizning yuksalishiga ijobjiy hissa qo'shmaqda.

Iqtisodiyot bilan siyosatning aloqadorligi ustida gap ketganda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, siyosat qo'pqirrali tushuncha bo'lib, u iqtisodiyot bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Iqtisodiyot bilan bevosita bog'langan siyosatning ichki mazmuni to'la to'kis iqtisodiyot talablari, ehtiyojlari, qonuniyatlari bilan belgilanadi. Respublikamizda shiddat bilan ro'y berayotgan iqtisodiy islohotlar, ko'p ukladli iqtisodiyotga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib uni xaqikiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ohib berish, kichik va o'rta korxonalami rivojlantirish, ularga imkoniyat va imtiyozlar yaratib berish, kichik texnologiyani joriy etish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, uning sifati hamda raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga etkazish maksadida iqtisodiyotda tarkibiy strukturaviy o'zgarishlami amalga oshirish, qishloqda tub islohotlar o'tkazish, qishlok xo'jaligini taraqqiy qildirish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish, shu bilan bir qatorda milliy valyutani mustaqkamlash, uning joriy to'la almashadigan bo'lishiga erishish, bank moliya, kredit tizimlarini takomillashtirish, ularni jahon talablar darajasiga ko'tarish, to'loviami tartibga solish, ustuvor tarmoqlami tezkorlik bilan rivojlantirish, import xajmlarini kamaytirish va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirish kabilar hozirgi kunda xukumatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo'naliшlarini tashkil etadi.

Bundan yaqqol ko'rinish turibdiki, iqtisodiyot siyosatning mazmunini belgilaydi va unga nisbatan ustuvor turadi. Mana shu ma'noda iqtisodiyot mafkuradan batamom holi bo'lishi kerak degan g'oyaning hozirgi kunda keng ildiz otgani bejiz emas. Lekin siyosat iqtisodiyot bilan chegaralanib qolmaydi, u davlat, siyosiy partiylar, siyosiy tashkilotlarning ko'pqirrali faoliyatining majmui, yigindisidan iborat bo'lgan xatti- harakatdir. SHunday ekan, siyosat iqtisodiyotga oid masalalar bilan cheklanmaydi. Masalan, inson huquqi va erkinliklarini ximoya qilish, jamiyatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, milliy va millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, ta'lim-tarbiya masalalari, milliy merosimiz, tariximiz, urf-odat va an'analarimizni, ma'naviyat va xaloliylikni tikiash, o'zbek tilining davlat tili maqomini izchil va tulik ruyobga chiqarish, Respublika xududida yashovchi barcha xalqlarning madaniyati va tillarini hurmatlash, xurfikrlik vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish, ijtimoiy adolatni ta'miniash, onalik va bolalikni muxofaza qilish, yangi demokratik ta'lim kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, ijodning barcha turlarini rivojlantirish, fuqarolar tinchligi va huquq tartibotini qaror toptirish qabilar davlatimizning ijtimoiy,

ma'naviy soxadagi ichki siyosatini tashkil etadi.

SHuningdek o'zining milliy davlat manfaatlarini har tomonlama hisobga olish, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolami tinch yo'l bilan xal etish, yadroviy quroq mintaqasi bo'lib qolish, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik inson huquqlari to'g'risidagi, birinchi bo'lib xujum qilmaslik xaqidagi, nizoli masalalarni xal etishda kuch ishlashidan voz kechish to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va ularga rioya qilish, Respublikaning tashqi siyosatini teng xuquku va fuqaro manfaatdorlik boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalami o'matish, xalqaro huquq me'yorlari ustuvorligini tan olish kabilalar esa — O'zbekistonning tashqi siyosatini amalga oshirishda assosiy negiz qilib olingan.

Demak, mafkura va uning shakli bo'l mish siyosat jamiyatning ustqurmasi sifatida bazis — iqtisodiyot bilan ham bevosita, ham bilvosita bog'langandir.

Jamiyatimizning iqtisodiy taraqqiyotiga tegishli muammolar siyosat bilan bevosita bog'liq bo'lsa, uning boshqa sohalariga (ijtimoiy, ma'naviy va xokazolar) oid bo'lgan siyosat iqtisodiyot bilan bilvosita bog'liqdir. Iqtisodiyotni mafkuradan batamom holi qilish kerak degan g'oya, iqtisodietga bevosita taalluqli bo'lgan siyosatgagina daxllidir. Iqtisodiyotdan boshqa sohalarga tegishli bo'lgan siyosat mafkuraning ifodasi sifatida nisbiy mustaqillikka ega. SHuning uchun ham uni bevosita iqtisodiyotga bog'lab tavsiflash noto'gridir. Aks holda iqtisodiy determinenzmga, ya'ni ijtimoiy hodisalarning asosini birdan bir iqtisodiyot tashkil etadi, deb jamiyat taraqqiyotini bir tomonlama tushuntirishga olib keladigan xatolarga yo'l ochilishi hech gap emas.

Tayanch iboralar:

Qadriyatlar - fazilatlar majmun, Moddiy va ma'naviy muxit, Mulk - iqtisodiy qadriyatlar negizidir, Iqtisodiyot va siyosatning o'zaro aloqadorligi.

Mavzuga doir nazarot savollarrii:

1. Qadriyatlar deganda nimalar tushiniladi?
2. Nima uchun mulk - iqtisodiy qadriyatlar negizi xisoblanadi? Nima uchun tabiiy

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostinosada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro-e'tiborini yanada oshirish yo'tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbati // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.

12. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Ikkinchи jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.
13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.
14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.
24. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.
25. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
26. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.
27. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.
28. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.
29. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
30. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
31. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent:O'FMJ, 2004
32. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

9-MAVZU: Madaniy - ma'naviy qadriyatlar, ularni inson va jamiyat hayotidagi o'rni.

Reja:

1. Ilm-fan yutuqlari qadriyat sifatida.
2. Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan xissasi.
3. O'zbekistondagi Arxitektura, Madaniy obida va yodgorliklar, ularni jamiyatimiz ma'naviy rivojidagi roli.
4. Adabiyot va san'at asarlari, xalq hunarmandchiligi - ma'naviy qadriyat sifatida.
5. O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy va intellektual salohiyati - uni ilg'or mamlakatga aylanishining zamini.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek, «Mustaqilimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan kup asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaxo manaviy va ma daniy merosning tikiash davlat siyosati darajasiga kutarilgani nixoyatda muxim vazifa bo'lib qoldi».

Natijada xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning soxibiga aylandi.

Istiqlol diyorimizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini faxru iftixor bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ulaming asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini ta'minlashga qulay imkoniyatlami yuzaga keltirdi.

SHuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum xukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga, biryoqlama yondoshishdek ijtimoiy illatdan ongimizni xoli etdi.

Mustaqillik bizning milliy ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquwat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi.

«Biz, - deydi I.A.Karimov, - boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu-fan barq urub yashnagan, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu-mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi!»

Mazkur asarning oldingi saxifalarida keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'lkamiz olimlari nafaqat tibbiy ilmlar mantiq, huquqshunoslik, san'atshunoslik, tarix va xokazolar ham o'zlarining ilmiy maktablarini yaratib, jahon madaniyatini rivojlantirishga salmoqli xissa qo'shib kelganlar.

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lgan sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamiko'st foydalanishimiz lozim.

«Bizning kelajagi buyuk davlatimiz, - deydi I.A.Karimov, - ana shu falsafaga uyg'un xolda, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Baxouddiy Naqshban, Imom Al Buxoriy, Imom At-Termizi, Amir Temur, Mizo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un xolda shakllanishi lozim».

Darhaqiqat, islom ta'limoti ming yillar mobaynida xalqimiz yaratgan boy madaniy va mafkuraviy merosdir, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ijobiy rolini aslo inkor etib bo'lmaydi. Akademik Izzat Sulton ta'kidlaganidek, «Diniy e'tiqodlarga keng yo'l ochilgan, din bizning madaniy atimizning ajralmas qismi bo Tib qolgan bugungi kunda bizga diniy e'tiqod bilan sug'orilgan Olojni tanishga asoslangan ahloq zarur. Xalqimizning butun tarixi mobaynida ishlangan, asrdan asrga boyitib va mukammallashtirib borilgan ahloq bugungi va kelajagimizdagи ahloqiy qoidalarimizga asos bo'la oladi».

Mustaqillik bizga ma'naviy mulkimizni, tariximizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etishni imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqlol tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Bugungi kunda ulug' bobolarimiz Imom Al-Buxoriy, Imom At- Trmizi, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Baxouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubroning insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi diniy, ahloqiy va huquqiy xikmatlari qaytadan jaranglay boshladi.

Avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning kechmishi, tarixi va xayotini aks ettirgan asarlarning o'z ona tilimizda nashr etilayotganligi quvonchlarimizga quvonch qo'shamoqda.

Endilikda o'tmishimizning ko'pgina saxifalari xujjatlar, qo'lyozma materiallari birinchi manbaalar asosida yoritilmoqda. Tarixiy xaqiqatlar asl manbaalarga tayanib tiklanyapti.

Bularning hammasi tarixiy adolatning buyuk g'alabasi, tantanasidir.

Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'mi benihoyat kattadir.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma'naviy-ahloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun mohiyati jihatidan chuqur bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. SHularning ichida markaziy o'rnini dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniy at va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan insonning dunyoqarashini shakllanitirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash bu kishilaming olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi xaqidagi, ilmiy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy va xokazo qarashlari va tasawurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olam xaqidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak atrofdagi narsa va xodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga, bilimga ega bo'lsalar ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. SHundan ko'rinish turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izoxlangan va baholangan bilimlar majmuasidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilishi va baholashiga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu-umidlari, ular faoliyatiga ma lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Mifologiya, diniy, falsafiy dunyoqarash - ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy

davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Inson faoliyatida ilmiy falsafiy dunyoqarash asosiy rolb o'ynaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlarini xaqida yaxlit ma'lumot beradi. SHu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamni bilish mumkinligini materianing doimo harakatda va rivojlanishidaligini ta'kidlaydi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar ob'ektiv olamdag'i hamma narsa va xodisalar jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini chuqur anglab oladilar.

Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi xaqida tasawurlar xosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy, falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasi xisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanishni xozirgi vaqtida mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifasidir.

Falsafiy dunyoqarash narsa va xodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ulami ma'naviy kamol toptirishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lган rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarni, ahloqiy normalar va qoidalarni mujassamlashtiradi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdiringning mushtarakligi, turli-tuman xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi xaqida ishonch xosil qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fikricha, barcha insonlarga xos bo'lган olijanob fazilatlar eng awalo faylasuflarda o'z aksini topmog'i lozim.

«Faylasufning xulq-atvori, ahloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak. SHuningdek, o'z xalqini ra'yini va o'z xalqida bo'lган eng yaxshi urf-odatlarini qattiq tutgan bo'lishi kerak.

Faylasuf bo'lmoqchi bo'lган odam o'z ahloqi va xislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyn u faylasuf bilimini o'rganishiga va uni boshqalarga o'rgatishga kirishuvni mumkin», - deb yozadi Farobi.

Inson ma'naviy kamolotining eng muxim ko'rinishi va zarur shartlaridan biri siyosiy madaniyatning o'sib borishidir. Agar har bir millat vakilida, har bir insonda yuksak siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyraklik bo'lmasa Mustaqillik barqaror bo'la olmaydi.

Siyosiy madaniyat o'zida xalollik va poklikni, ishchanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlaming g'oyaviy-siyosiy etukligi, nazariy bilimlami istiqbirlni yorqin tasawur etgan xolda amalda qo'llay bilish, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarini keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat, aytilganlardan tashqari, insondagi faollig va tashabbuskorlikni, yuksak ahloqiylik, qat'iy irodalik, xushmuomulalik, ziyraklik, uzoqni ko'ra bilishni o'z ichiga oladi.

SHarq mutafakkirlari jamiyatni ilmiy asosda boshqarish masalalariga katta e'tibor berib kelganlar. Jumladan, Farobi, Beruniy YUsuf Xos Hojib, Amir Teiur, Ulug'bek, Navoiy va boshqalarning asarlarida davlatning tuzilishi, uning ichki va tashqi siyosatning asosiy tamoyillari, davlat rahbarlarining hususiyatlari bo'yicha muhim malumotlar berilgan. ularni sinchiklab o'rganib, xayotga ijobjiy tadbiq etish mustaqil davlatimizning siyosiy asosini yanada baquwat qilishda katta zamin bo'lishi shak-shubxasizdir.

Mustaqilligimiz olidida turgan muammolami, milliy istiqlolimizning nazariy masalalarini yuzaki bilishni, ularning tub mohiyatiga tushmaslik va so'zda shunchaki qayd etishni siyosiy onglilikham, siyosiy madaniyat ham deb bo'lmaydi. Nazariy bilimlar mustaqillikning amaliy masalalari bilan bog'langan, har bir insonning iyomon-e'tiqodiga aylangandagina faoliyatning asosi yuzaga chiqadi.

YUksak siyosiy bilim va madaniyatga, iyomon-e'tiqodga ega bo'lган inson jamiyatimiz, davlatimiz, xalqimiz va millatimizning eng katta boyligi hisoblanadi.

Ma'naviy barkamollik huquqiy ongni ham o'z ichiga oladi. Inson muayyan jamiyatda yashar ekan, uning ahloq-odobi shakllanishi mavjud huquqiy mezonlar bilan bog'lanmog'i kerak. Insondagi faollik u xohlagan ishni qila berishdan iborat emas. Faollik jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalalar chegarasida bo'lmosh'i zaruryu

Jamiyat qabul qilgan qonunlami hurmat qilish, unga asoslanib ish ko'rish, huquqiy qoidalalar va

mezonlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy kamolot, ahloqiy nopolik belgisidir.

Inson huquqiy madaniyatining darajasi uning huquqiy bilimi va saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki o'sha qonunlarning barcha sohalarda to'la ijro etilishi bilan belgilanadi.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlanganidek, «Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U - odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani - turli mojarolami hal qilishda qonunga xi洛f kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir».

Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi.

Ta'lim-tarbiya olidida turgan asosiy maqsad yosh avlodga ajdodlarimizning dono tajribalarini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni xis qilishg o'rgatish, qonunlarga rioya etish xislatini qaror toptirishdan iboratdir. Bu borada ham SHarq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanmog'imiz lozim, chunki ajdodlarimiz tomonidan qonunga rioya qilish, unga bo'ysunish kabi masalalar chiqur va atroficha ishlab chiqilgan. Bunga islom ta'limotining durdonasi hisoblangan «SHariat» va «Xidoya», Amir Temur «Tuzuklari» va boshqa manbalar, huquq masalasiga oid fikr- mulohazalar misol bo'la oladi.

Madaniyatning inson ma'naviy-ahloqiy kamolotidagi ahamiyati aytib o'tilganlardangina iborat emas. O'z erkini qo'lga kiritgan mamlakatda milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usini qaror toptirish juda muhim. Mustaqillik, davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari bo'lgani xolda etuk milliy ong bo'lmasa erkinlik, hurriyat qo'lida ushlab turish behad mushkullashadi.

Ma'naviy barkamol inson o'ziga loyiq ko'rmagan biron-bir nojo'ya kishi o'zgalarga ham ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga jabr-zulumni xohlamaydi, jonzotga ozor bermaydi. Vatanga va millatga sodiqlik ham madaniyatilik, ma'naviy barkamollik, ahloqiy nopolikning belgilaridan hisobalandi.

Jismoniy baquwat, ma'naviy-ahloqiy jihatdan bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom aloddan tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishni tashkil etadi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida aytilganicha, «badanning salomat va quwatli bo'lmos'i insonga eng kerakli narsadurki... Maishatimizni rohatda bo'lmos'i jasadimizning sog'lom bo'lmos'iga bog'liqdir. Biz sihatimizni saqlamoq ila amr bo'Tinganimiz, shuning uchun vujudimizni har sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmoqdan saqlanmog'imiz lozimdir».

Jismoniy sog'lom, baquwat, lekin ma'naviy qashshoq kishilar insoniyat uchun foydadan ko'ra zarar keltiradilar.

Xalqimizda, «sog'lom tanda sog' aql» degan dono naqil bor. Sog'lom ijtimoiy muxit shaxsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga xam yordami bordur,-deydi Abdulla avloniy eslatib o'tilgan asarida. - Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon huquqlardan saqlanmasa choponning ustini qo'yib, astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustiga kir chiqadur».

Allomalarimiz asarlarida ta'kidlanganidek, insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining, shuningdek, ahloqiy, ruhiy diniy tarbiyaning ham ahamiyati shak-shubxasizdir.

«Qadimgi ajdodlarimiz komil inson xaqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaqiy tilda aysak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar nopolikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz, isyon bo'lishi kerak»!, -deydi I.A.Karimov.

Insof vaadolat tuyg'usi, imon va halollik, xushmuomalalilik va xushxulqlik- bular inson ma'naviy barkamolligining namoyon bo Tish shakllaridir.

Biz xozir milliy tiklanish davrida yashamoqdamiz. Har qanday milliy tiklanish milliy uyg'onish zaminidagina muvaffaqiyatli amalga oshadi. Milliy uyg'onish asosan ma'naviyat sohasida, milliy ong, insonning ma'naviy, ahloqiy kamolotida yuz beradi. Ma'naviy kamolot faqat o'tmishni to'la tushunib olishgina emas, balki kelajakka intilishdan ham iboratdir. « Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan etuk odamlar halm qiladi. Tehnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallah qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va

ruxiy-ma'naviy salohiyat -ma'rifatli insonning ikki qanotidir.»

Ajdodlarimizning ma'naviy merosi asosida xalqimiz ma'naviy barkamolligini shakillantirish xususida gap ketganda bu borada olimlarimiz oldida turgan masalalami ham chetlab o'tib bo'lmaydi, albatta. Fikrimizcha, Markaziy Osiyo mutafakkirlaming asarlarini sinchiklab o'rganibchiqib, ularin ona tilimizda chopr etib,xalqimizga etkazib berish, respublika olimlarining oldida turgan birinchi vazifa bo'lsa, SHarq falsafasi va islom ta'limotidagi milliy qadriyatlarimizga asoslangan yangi, zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratib, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yish ikkinchi vazifa deb, bilmog'imiz kerak.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi.

«Qadriyat» tushunchasi - juda keng tushuncha bo'lib, uning bir qismi - ma'naviy qadriyatlardir. Milliy-ma'naviy qadriyatlar - «milliylik», «Ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi. «Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir.

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, frantsuzlar Parijdagagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlaming o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ulaming urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol' o'ynaydi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. YOsh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasawurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy g'oyani ob'ektiv anglashda qadriyatlar va ma'naviyat olamini bilish va uni amaliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Qadriyat turlari:

- Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.
- An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.
- Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalar, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
- Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
- Kishilaming yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'lik bo'lgan qadriyatlar.
- Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o'rganish mumkin:
- Umuminsoniy qadriyatlar.
- Mintaqaviy qadriyatlar.
- Milliy qadriyatlar.
- Diniy qadriyatlar.

Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlamning uzviy bog'liqligi. Milliy ma'naviy qadriyatlar - ijobiy axloqiy sifatlarni takomil-lashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlamni bartaraf etish omilidir. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi.

Milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho

beradi, ijobjiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezoni bo'lib maydonga chiqadi.

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. SHaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydogan chiqadi. Demak, qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma'naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohalari bo'yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar haqiqiy qadriyatlaming namoyon bo'lism vosita-laridir (masalan, hayotda kerak bo'ladigan turli buyumlar). Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab-quwatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Milliy g'oyaga asoslangan qadriyat-lar va qadriyat mezonlari kishilarga, ulaming xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarish-ning samaradorligi kishilarimizning milliy g'oya bilan bog'liq qadriyatlar olamini bilishga bog'liq.

Hozirgi zamonda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, islohotlaming mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Odamlar ongida milliy g'oyaga asoslangan mustaqillik, ma'naviy va axloqiy qadriyatlamini rivojlantirish, xalqning milliy ruhini uyg'otish va tikiash jamiyat barqaror rivojlanishining muhim sharti va kafolatidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida milliy g'oya bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi xususida batafsil ma'lumotlar bergen.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq yillar davomida totalitar tuzumga qaramay o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, an'analari saqlanib qolindi.

Mustaqillikning dastlabki yillardanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan bebafo ma'naviy, madaniy merosimiz davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi, milliy o'zlikni anglashi murakkab sharoitda - eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Dastlabki paytlarda bir asrdan ziyod totalitar tuzumga qaramay milliy g'oyaga asoslangan ma'naviyat «Inkorni - inkor» sifatida kechdi. Awalgi tuzum qadriyatlarni inkor etishning o'zi siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirardi. SHuningdek, orqaga betartib qaytish jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin. Ana shu inkor etish jarayonida ekstremistik ruhdagi muxolifat vujudga keladi. U ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin.

Jangari millatchilik, diniy murosasizlik va «o'zimniki» bo'limgan hamma narsaga nafrat bilan qaraydi. SHu boisdan bulami har tomonlama hisobga olgan holda ma'naviy tiklanishning ijobjiy, bunyodkorlik, bir - birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar ishlab chiqish, amalga oshirishni zarur qilib qo'ydi.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlami o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasawur etishdan boshlanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlар ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bulaming paydo bo'lishi juda qadim zamonalarga borib taqalishini ko'rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan awal ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, hottotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlар ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib

boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasawur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'rayadi. Bu ta'sir, bir tomongan, milliy madaniyatlaming boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomongan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asarida xalqning madaniy qadriyatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma'naviy kuch bo'lganligiga alohida e'tibor berdi.

Bunda 1) sobiq mafkura tazyiqini; 2) ma'naviy va madaniy merosni tikiash O'zbekiston davlati siyosatida muhim vazifa sifatida belgilab olinganligini chuqur o'rganish, yoshlarni unga e'tiborini jalb etish muhim.

Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklashga milliy g'oya jarayoni sifatida qarashda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

Xalqimiz istiqbol tufayli siyosiy mustaqillikni qo'lga kirit-ganligi.

O'z taqdirini o'zi belgilashning chinakam egasi bo'lganligi.

O'zining ma'naviy-tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyati yuzaga kelganligi, ammo uning juda murakkab jarayonlarda amalga oshirilayot-ganligi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda «siyosiy, madaniy ekstremizm xavfi» tug'ilishi mumkinligining hisobga olinganligi respublikada mustaqillikni saqlab qolishda, barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq, atroflicha, aniq misollar yordamida yoritish o'zining amaliy ahamiyatiga ega.

1994 yil 23 aprelda O'zbekiston Birinchi Prezidentimizining «Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risi-da»gi Farmoni, 1996 yil 9 sentyabrdan esa «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va uning samarador-ligini oshirish to'g'risida»gi Farmoni va boshqa manbalarda quyidagi qadriyatlar haqida gapiriladi:

Vatan - eng oliv makon, u menikidir.

Eng oliv qadriyat - inson.

Mulkning eng oliv shakli - intellektual mulk va inson faoliyati-ning eng oliv turi - intellektual mehnat.

Vaqt eng oliv boylik.

Umuminsoniy qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar.

Milliy qadriyatlar.

Tabiiy qadriyatlar.

Iqtisodiy qadriyatlar.

Ijtimoiy - siyosiy qadriyatlar.

Ma'naviy qadriyatlar.

Axloqiy qadriyatlar.

Diniy qadriyatlar.

Oilaviy qadriyatlar.

Demokratik qadriyatlar va h.k.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'tgan 15 yil mobaynida o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy negizlarini asoslab berdi:

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

Xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash, rivojlantirish.

Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi.

Vatanparvarlik. O'zbekiston tanlagan ustuvor qadriyatlar: 1 .Demokratik qadriyatlar

Erkin bozor iqtisodiyotini barpo etish

3.SHaxsning huquq va erkinliklarini ta'miniash

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlaming tarkibi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

Tarixiy meros va tarixiy xotira.

Madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar.

Ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari.

San'at va milliy adabiyot.

Axloqiy fazilatlar.

Diniy qadriyatlar.

Urf-odat, an'ana va marosimlar.

Ma'rifat, ta'lif-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko'renishi muhim ahamiyatga ega. Bularning har birini misollar tariqasida chuqur tushuntirib berish mumkin.

Demak, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari quyidagilardan iborat:

Insonparvarlik tamoyili.

Vijdon erkinligi.

Fikrlar rang-barangligini qaror toptirish - demokratik jamiyat barpo etishning asosiy sharti.

Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyili.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik.

SHaxs qadriyatları, inson ma'naviy olami bilan bog'liqligi.

Oila - jamiyatning muqaddas uyi, eng asosiy tarbiya maskani.

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlash-tirish.

Hayotni erkinlashtirish.

SHaxs erkinligiga tayanadi.

Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy tiklanishga imkoniyat yuzaga keldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "ma'naviy o'nglanishni amalga oshirmsandan iqtisodiy o'nglanish mumkin emas"ligini aytib, "ma'naviyat xalqni, millatni millat qiladigan kuch-qudratdir" degandi. SHu sabab mustaqillik yillarda johon tsivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allamalarning merosini yangidan ijodiy o'zlashtirish o'ayotiy ehtiyojga aylandi. Imom Buxoriy, at. Termizi, B.Naqshband, Ahmad YAssaviy, al-Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk zotlar merosini o'rganio' demokratik jamiyatning milliy ma'naviy negizlarini tashkil qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1992 yilda yozgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy- ahloqiy negizlarini ko'rsatib bergen edi:

umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik,

xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish,

insonning o'z imkoniyatlarin erkin namoyon qilish,

vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog' liq bo' lib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda muhim vazifa va manba hisoblanadi. 2002 yil 29 avgusta Oliy Majlis 9-sessiyasida Birinchi Prezidentimiz islom Karimov "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlash-tirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" ma'rzasida jamiyatni ma'naviy yangilash lozimligi tushunchasini mohiyatan olib bergen. "Barcha islohotlarning bosh yo'nalishi va samaradorligi pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir" deb bu masalaga alohida e'tibor qaratgan edi. Inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqali demokratik jamiyatni barpo etish mumkin. Birinchi Prezidentimiz bu masalaga diqqat berib, "Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz, tilimizga qaytdik, milliy urf- odatlarimiz va an'analarimiz, xullas inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlamoqda". M.Gandining fikricha, "Insoniyat - bu yagona, bo'linmas oila, uning har bir a'zosi sodir qilgan jinoyat uchun har birimiz javobgarmiz" degan edi. Ma'naviyat mavhum tushuncha emas. U millat bilan, milliy tafakkur bilan, millatning tarixi, asrlar davomida to'plangan bilim va tajribasi, tushunchalari, tasawurlari bilan bog'liq. Mamlaka-timizda kechayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyat ma'naviy yangilashiga bog'liqligini faqat o'zbek millati ma'naviyati bilan bog'lash, baholash adolatdan emas.

Barkamol shaxs - demokratik jamiyat tushunchasidir. Ma'naviy barkamol inson haqadagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kecha paydo bo'lgan emas. Uning tarixiy ildizlari

SHarq mutafakkirlari ijodiy, falsafiy ta'limotlariga borib taqaladi. SHu sabab "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonga ta'rif berib, ongi yuksak, mustaqil fikrli, xulq-atovori bilan ibratli, bilimli, ma'rifatli kishini tushunishini bay on etdiyu shu boisdan ham jamiyatning ma'naviy yangilanishi demokratik jamiyat barpo etish omildir. Milliy-ma' naviy negizlarni bilish uchun tarixni, milliy o'zlikni anglash ham zarur, chunki, xalq ma'naviyatning asosidir.

A.Karimov milliy istiqlol mafkurasi kontseptsiyasining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan 2000 yil 6 apreldagi uchrushuvda so'zladi. Nutq jamiyatimiz hayotidagi eng muhim masalalardan biri milliy mafkura xususida bo'ldi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy hayotimizda, balki, ongu tafakkurimizda ham yangilanish o'zgarish jarayoni kechmoqda. Pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod, erkin va farovon hayot qurishdagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma' naviy kuch-quwat manbai, ilmiy asos - bu milliy g'oya, milliy mafkuradir. Fikr bor joyda baxs bo'ladi, baxs bor joyda haqiqat yuzaga keladi. Milliy g'oya, milliy mafkura ma'no-mohiyati, biz uchun juda zarur va kerakligini quyidagi holatlар bilan izohlash mumkin:

O'z kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur. Davlat tizimi, uni boshqarishdagi siyosat aniq mafkura asosiga qurilmog'i lozim. Oldin g'oya paydo bo'ladi. Odamlarimizni olijanob maqsad atrofida birlashtirishimiz zarur. Ongni, tafakkumi o'zgartirmsidan turib, biz ko'zlagan oliv maqsadga erishib bo'lmaydi.

Biz totalitar tuzumdan erkin va ozod tuzumga o'tish sharoitida yashamoqdamiz. SHu davrda maqsadimiz aniq bo'lishi kerak. Maqsadga puxta ishlangan mafkura asosida etishish mumkin.

Yoshlarimizni qanday g'oya negizida tarbiyalaymiz, qanday mafkura va tafakkur ular uchun qurol bo'lib xizmat qiladi?

Hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. eng ta'sirchan kurash awalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Lekin hali suyagi qotmagan yoshlarimiz soxta g' oyalar orqasidan ergashib ketmoqda.

Milliy g'oya millatning o'zligini anglashga, qadriyatlarni tiklashga xizmat qilmog'i kerak

Milliy mafkuramiz: a) milliy qadriyatlarga va b) umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi zarur.

Milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi kerak.

"Foyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, olishish mumkin." Ozod bo'lsang ozod bo'l, erkin bo'lsang erkin bo'l, mustaqil bo'lsang mustaqil bo'l. O'zbek millati oqko'ngil millat. Milliy mafkura o'zlikni anglashga xizmat qiladi. O'zlikni anglash o'z tarixini bilishdir. Tarixini bilish nasl-nasabini anglashdir. Milliy g'oya birlashtiruvchi kuch, qanot bo'lishi shart.

Milliy g'oya ma'naviy negizida umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi.

Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi - barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatiga mos keluvchi moddiy va madaniy hodisalar, mezonlar, qadrli jihatlaming ustuvor bo'lishiga tayangan g'oyalar asosidagi faoliyat qadriyatlardir. Har bir odam jinsi, irqi, millati, yoshi, kasbi, e'tiqodidan qat'iy nazar awalambor bashar farzandi, insondir. SHu umumiy mohiyat barcha odamlar, millatlar uchun birday ahamiyatli va qadrli bo'lgan predmet, hodisa, jarayon, munosabatlarni farqlashga imkon beradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixinining yaxlitligini ifoda-laydi, u davrlar o'tishi va ijtimoiy hayotning o'zgarishi bilan bir qatorda takomillashib, rivojlanib, tobora ko'proq xalqlarni, millatlami, inson-lami yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi va kamol toptiruvchi kuchga aylanib boradi.

Insonparvarlik va ijtimoiyadolat, erkinlik va ozodlik, barqa-rorlik va farovonlik, ezunglik va taraqqiyotga bo'lgan intilish umuminsoniy qadritlarning muhim jihatlaridir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar uzviy bog'liq va ta'sirlashuvda o'zaro boyib boradi. Umuminsoniy ahamiyat kasb etgan milliy qadriyatlar barcha xalqlar uchun muhim qadriyatga aylanadi. SHu jihatdan, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmunan kengdir, kelib chiqishi bo'yicha barcha odamzodga tegishlidir. Hech bir millatning boshqa xalqlardan ajral-gan holda rivojlna olmasligi, ayniqsa, hozirgi davrda biror xalqning yakka o'zi jahon tsivilizatsiyasidan alohida holda taraqqiy etmasligi ma lum.

Umuminsoniylik milliy va shaxsiy qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi. Umuminsoniylikning

ustuvorligi - bu, har bir inson baxtli-saodatli, ozod va erkin bo'lishi, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha ishlar, o'zgarish va islohotlar inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim, degan qarashga asoslanadi. Ana shu sababdan ham, inson erkinligi, uning haq-huquqlarini ta'miniash, qonun ustuvorligi, demokratiya, fikrlar rang-barangligi va ijtimoiy plyuraizmga erishish umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga amal qilish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda jahon davlatlarning ichki va tashqi siyosatida ana shu tamoyillarga amal qilinishi - umuminsoniylikning ustuvorligi g'oyasiga tayanish, bu g'oyani amalga oshirish sifatida baholanmoqda.

Har bir millatning mavqeい uning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlamni qarama-qarshi qo'yish milliy hudbinlik yoki xalqaro nizolarga olib kelishi, natijada, butun insoniyat tsivilizatsiyasi rivojiga to'siq bo'lishi mumkin. SHuning uchun, umuminsoniy ahamiyat kasb etgan qadriyatlamni qaerda va qachon shakllangan, qanday millat vakillari yaratganidan qat'iy nazar ehtirom bilan tan olish hamda qabul etish taraqqiyotga xizmat qiladi. Mustaqil respublikamizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga, xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanish yo'lidan borishiga alohida e'tibor berilayotgani ham shundan.

Demak, milliy istiqlol g'oyasi quyidagi umuminsoniy qadriyatlamni e'tirof etadi va o'ziga singdirib oladi:

Qonun ustuvorligi.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'miniash.

Turli millat vakillarini, ulaming madaniyatini va qadriyatlarini hurmat qilish, ular bilan hamkorlik qilish, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik.

Dinlararo bag'rikenglik.

Dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik.

Turli xalqlaming ilg'or tajribasini, insoniyat madaniyati yutuqlarini o'rganish va egallab olish.

Inson - eng oliy qadriyat.

Vatan - eng oliy qadriyat va h.k.

Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shakllidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlar bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlamikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHU sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mayjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlamning eng etuklari va milliy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umummiliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlamni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlamning eng yaxshilarini voyaga etkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Milliy qadriyatlar - milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir. Turli xalqlaming milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarixdan ma'lumki, o'tkinchi manfaat va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlami taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat:

Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.

Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr - do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.

Oila, mahalla, el - yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish.

Ota-on, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat - e'tibor, butun jamiyatni hurmat qilish.

Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat, uni sevish.

Kattalarga - hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat, hurmat, degan e'tiqodga amal qilish.

Ayol zotiga ehtirom ya'n, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash.

Sabr-toqat, va mehnatsevarlik.

Halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Bu tamoyil va qadriyatlar O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarni asrab - avaylashi, keljak avlodlarga etkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlami hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf- odatlari, an'analarini hurmat qilishni ta'miniash milliy istiqlol mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi.

Demak, o'zbek xalqining milliy xususiyatlarda:

Oila - muqaddas tushuncha. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. YOshlarni tarbiyalashda, kamolga etkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir....

Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon.

Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. «YOn qo'shnik - jon qo'shnik», «Xovli olma - qo' shni ol», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo' shni afzal» va h.k.

Keksalarga hurmat - inson hayotiy tajribasi davomida shakl-langan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasi qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalami e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruwat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz. «Keksani qopda saqla, o'ligini hafta saqla»....

Ayol zotiga ehtirom - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin- qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Demokratiyaning eng muhim yutug'i - har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir....

Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat - eng oliy qadriyatdir. SHuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda ona nomi qo'shiladi. Milliy istiqlol g'oyasi onalar uchun, jamiyatdagি barcha ayollar uchun faro von hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlaming erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab etishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan.

Demak, milliy qadriyatlar insonning inson sifatida o'zini anglashi, o'z-o'zini himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnomalaridir.

Milliy an'analar - milliy qadriyatlarning bir bo'lagi bo'lib, u millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilari, xususiyatlari, faoliyat turlari, odatlar va islohotlarning avloddan - avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish tarzi. Mustaqillik yillarida an'analarga aylanib borayotgan bayramlar ham mavjud:

1 yanvar' - YAngi yil.

mart - Xalqaro xotin - qizlar kuni.

21 mart - Navro'z bayrami.

may - Xotira va qadrlash kuni.

31 avgust - Qatag'on qurbanlari shahidlari kuni.

1 sentyabr' - Mustaqillik kuni.

1 oktyabr' - O'qituvchilar va murabbiylar kuni.

8 dekabr' - Konstitutsiya kuni. «Ramazon hayat»i (IYD al-fitr). «Qurban hayat»i (IYD al-ADHA).

O rta Osiyo xalqlari tarixi bilan bog'liq milliy bayramlar ham bor: Mustaqillik bayrami, Navro'z, Mehrjon, Boychechak, Gul sayli va boshqalarni nishonlash an'anaga aylanib bormoqda.

Milliy ma'naviy qadriyatlarni boyitislida milliy g'oyaning ahamiyati. Milliy g'oya ma'naviyatga tayanishi, undan hayot va ozuqa olishi bilan birga, ma'naviy-ruhiy hayotga ham ijobiylashtirish o'tkazadi. Milliy g'oya qadriyatlarni yanada yuksaltirish, ularni odamlaming ongi va qalbiga singdirish, istiqlol va istiqbolga xizmat qilmaydigan jihatlarini bartaraf etish vazifalarini ham amalgalashadi. Ma'naviy hayotdagi behisob hodisalani, qadriyat va ne'matlarni xalq manfaatlari va e'tiqodi nuqtai nazaridan baholash - milliy g'oya mezonlari bilan o'lchanadi.

Milliy g'oya dastawal, har bir inson uchun eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlari - ota-onasi va farzandlar, aka-uka va opa-singil, qarindosh-urug'lar orasidagi aloqalami yuksak ma'naviy qadriyatlar asosiga qurishni taqozo etadi. Betakror va buyuk qadriyat - mahallaning hurmati va e'tiborini, uning o'z-o'zini boshqarishdagi rolini oshirish ham milliy g'oyaning muhim vazifasidir. Milliy g'oyaga sadoqat - yuksak vatanparvarlikda, mustaqillikni mustahkamlash va Vatan ravnaqini ta'minlashga shaxsiy hissa qo'shish istagida namoyon bo'ladi. Dunyodagi hamma xalqlarda ham mehmonnawozlik miqyosi va me'yori mavjud, lekin u har bir xalqda turli xarakterga ega.

Marosimlar, urf-odat va an' analari har bir xalqning betakror boyligi, merosidir. Insonning hayoti, u tug'ilganidan boshlab, vafot etgunga qadar turli marosimlar doirasida o'tadi. Marosimchilik millatning o'ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va an'analarni kelajakka etkazish vositasidir.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, tarix sinovlariga dosh berib necha-necha avlodlardan o'tib kelayotgan ma'naviy boylik ekanligi, shubhasiz. Lekin bu boyliklar o'z-o'zidan va osonlikcha qadriyatga aylanmaydi. Tom ma'nodagi qadriyat maqomini olish uchun bular odamlar va ijtimoiy guruhlarning ichki dunyosi va turmush tarziga singishi, faoliyatini yo'lga solish va baholash mezoniga aylanishi kerak.

Umuman, milliy ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma'naviy borlig'imizning muhim va serqirra sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi ta'lim va tarbiyani talab qiladi.

Milliy g'oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi.

Bozor iqtisodiyoti ko'pchilik xalqlarga manzur bo'lgan va ular kelajagini ta'minlovchi iqtisodiyot hisoblanadi. U hozirgi davrga xos umuminsoniy iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatida erkinlikka, xo'jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

O'zbekistonning sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, demokratik tuzumga o'tish yo'li - jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning asosiy mazmuni jamiatni inqilobiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda isloholishni nazarda tutadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1992-1993 yillarda «O'zbekistonning o'z istiqlol vataraqqiyot yo'li», «O'zbekiston - bozor munosabatlari o'tishning o'z yo'li» asarlarida demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi tahlil qilindi. O'zbekistonda demokratik, ijtimoiy adolatli jamiyat qurishning keng qamrovli yo'naliшини, o'zbek modelini asoslab va belgilab berdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston ana shu demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ana shu siyosat negizida o'zbek modeli yoki boshqacha aytganda Islom Karimov yo'li yotibdi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning islohot yo'lini tanlab olar ekan uning asosida ichki siyosat olib borishning beshta asosiy tamoyilini ishlab chiqdi. Ular quyidagilardan iborat:

Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi yoki iqtisodiyotning mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilmasligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosatdan ortda qolmasligi zarur, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi aslo mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlari mafkuradan holi bo'lishi lozim. Bozor mexanizmlarini ishga solish uchun awalo:

1) Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish siyosatini o'tkazish; 2) bahoni, narh-navoni bosqichma-bosqich erkinlashti-rish; 3) bozor infratuzilmasini shakllantirish; 4) aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati olib borilmoqda.

Davlat - bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'naliishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalgalashadi. Bozor iqtisodiyotini davlat yo'li bilan tartibga solish, iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni boshqarish hamda ijtimoiy muammolami hal etish yo'li bilan bevosita, huquqiy va iqtisodiy vositalar yordamida bilvosita amalgalashadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ulami og'ishmay amalga oshirish lozim. Huquqiy davlatning elementlari: a) qonun ustuvorligi; b) qonun oldida hammaning tengligi; v) hamma o'z ish faoliyatini qonun doirasida bajarishi; g) hokimiyat organlarining bo'linish kabi printsiplariga amal qiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritib kelinmoqda. Bozor munosabat-larini joriy etish bilan bir vaqtida, aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan chorlar ko'riliishi lozim. Bunda 1) daromad (pul) siyosati yani pul-kredit siyosati, pul daromadi siyosati o'tkazilib kelinmoqda. 2) Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy kafolatlar, kam ta'minlanganlami ijtimoiy qo'llab-quwatlash. 4) Aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish. 5) Xalqning moddiy turmush sharoitlarini yaxshilash kabilar amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich o'tishi - tadrijiy yo'li. Bozor iqtisodiyotiga ob'ektiv qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Bu yo'l Evropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlar qo'llayotgan «SHoka terapeya» yo'lidan tubdan farq qilib (ular birdaniga), bozor iqtisodiyotiga iqtiso-diyotda, siyosatda, ma'nnaviy hayotda, ijtimoiy jarayonlarda bosqichma-bosqich o'tilmoqda.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ulaming amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi,

bozor munosabatlarni izchil joriy etishni ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Xalq farovonligi g'oyasi, uning mohiyati va yo'nalishlari. Tarix va taraqqiyotning bosh maqsadlaridan biri - bu xalq farovonligiga erishishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi - xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. YA'ni islohot - islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiya-tida ana shu maqsad mujassamdir. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab etishga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish zarur. buning uchun esa ulaming dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, erga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki farovon turmush asosi -erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskor-likdir. Biz bulaming har bir haqida qisqacha to'xtalishni lozim topdik:

Erkinlik - farovon turmush asosi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidentimizi Islom Karimov o'zining qator asar va chiqishlarida bu masalaga alohida e'tibor berib kelmoqda. Xususan, «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida mamlakatimiz uchun XXI asr boshlaridagi asosiy ustuvor yo'nalish-laridan birini ham ana shu masala bosh vazifa qilib qo'yildi. "Birinchi ustuvor yo'nalish - mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish".

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayon-larini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu bora-dagi asosiy vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolaming o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ulaming haq-huquqlarini va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi yig'ilishida bu masalaga alohida e'tibor berib shunday degan edi: «Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat». SHuningdek, Birinchi Prezidentimiz «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili haqida to'xtalib, o'zini-o'zi boshqarish organlari - mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim»ligi bayon etildi.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish maqsadi - birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'ekt-laming iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlaming mavqeい va huquq-larini mustahkamlash demakdir.

Tadbirkorlik - farovon turmush asosi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1994 yil 16 dekabrda Birinchi Prezidentimiz huzuridagi Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalalar bo'yicha idoralararo Kengashning navbat-dagi majlisida "Tadbirkorlik - iqtisodiyot kelajagi" mavzuida mazkur masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etgan edi. Unda bozor muno-sabatlariga o'tishning keyingi bosqichida quyidagi 3 ta ustuvor yo'nalishni belgilab berdi:

"Birinchi asosiy masala" - mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish borasidagi ishlami oxiriga etkazishdan iborat. Islohot-ning asosiy ma'nosi va kerak bo'lsa, negizi bu - mulkni haqiqiy egasiga topshirish, tadbirkorlikka keng imkoniyat ochib berishdir.

Ikkinchi muammo va ustun yo'nalish - iqtisodimiz tarkibini keskin o'zgartirish, ya'ni xom ashyo emas, tayyor mahsulot chiqarishga, uning sifati va raqobatbardoshligini dunyo bozori talablariga javob beradigan holga etkazish...

Uchinchi muhim vazifa - milliy pulimiz nufuzini yanada mustah-kamlash, uning Amerika dollari, nemis markasi, yapon ieni kabi dunyodagi obro'li valyutalar bilan erkin almashuviga erishmoqdir.

"Har bir odam boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi, har oila obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi".

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu fikrlarini davom ettirib, 1999 yil 27 iyulda Vazirlar Mahakamasining birinchi yarmida iqtisodiy islo-hotlar yakuniga bag'ishlangan yig'ilishida "Tadbirkorlik - yuksalish garovi" mavzuida ma'ruza qildi Ushbu ma'ruzadagi ba'zi, muhim tomonlarini keltirib o'tamiz:

«Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - tanlab olingan islohotlar va yangilanish yo'limizdan orqaga qaytmaslik. Oliy Majlisning XIV sessiya-sidagi «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» ma'ruzasida bayon qilingan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishdir».

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - xalq turmushini yaxshilashdir, toki diyorimizda yashayotgan har bir inson o'zi va oilasi misolida o'z farovonligi ortib borayotganini his qila olsin.

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro obro'sini oshirish. Xonadonimiz-dagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va totuvlikka nisbatan bo'layotgan har turli tahdid va xavf - xatarlarga nisbatan ogoh va hushyor turishdir».

Umuman, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi (1995) qonunda ta'kidlangani-dek, «Tadbirkorlik - mulkchilik sub'ektlarining harakatdagi qonunchilik doirasida tovar ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga hamda daromad va foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyat»dir.

Tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

shaxsiy (xususiy) faoliyat;

yollanma mehnatni jalb qilib amalga oshiriladigan tadbirkorlik;

v) fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

Tashabbuskorlik - farovon turmush asosi. Islom Karimov mustaqillik yillarida kadrlarning ishbilarmonlik faoliyatini 3 toifaga ajratib ko'rsatgan edi: 1) bu hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'ami, tashvishidan begona kishilar. 2) Befarq, loqayd odamlar bo'lib, ular hech kimga qarshi gapirishni, dushman orttirishni xohlamaydigan kishilar. 3) YOsh, tashab-buskor, kuch-g'ayratga to'la, Vatan ravnaqi uchun fidoyilik bilan xizmat qiluvchi kadrlar.

Umuman, bugungi tashabbuskor xodimlar oldiga puxta bilim, xorijiy mamlakatlar tajribasi va chet tilini egallash, iste'dodli, iymonli, adolatli, mas'uliyatni his qilish kabi bir talay talablar qo'yilmoqda.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy - ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berishda quyidagilarga diqqat qaratmoq kerak:

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari asosida an'anaviy madaniyatga qaytadan baho berish lozim.

Dunyoviy mezonlardan kelib chiqish zarur. Bunda:
mantiq talablari va qoidalariqa mos yondashuv darkor.

tajriba (eksperiment) sinovidan o'tgan bilimlarga asoslangan mezonlarga tayanish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlar insonlar-ning ijtimoiy manfaatlariga bo'yshundiriladi. Gelvitsiy: «Tabiat tabiiy qonunlar orqali boshqarilsa, jamiyat ijtimoiy manfaatlar qonuniyatlari asosida boshqariladi», degan edi.

An'anaviy madaniyat va «milliy-ma'naviy qadriyatlar»ni eskicha inkor etishning milliy g'oyaga zidligi.

«An'ana» - o'tmishning keajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladijan moddiy va ma'naviy qadriyat. «Madaniyat» (arab. «madina» va «kiyat» - shaharga oid ta'lim- tarbiya ko'rghanlik) - turlichal talqin etiladigan, murakkab va ko'p ma'noli tushuncha. An'anaviy madaniyat manbai abadiy emas, ijtimoiy muhitlar, jarayonlar, siyosatlar natijasida o'zgarib boradi. An'anaviy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'mini belgilab olishda tarixiy taraqqiyot bosqichi ta'sirida o'zgarib borgan an'ana, urf-odat, moddiy va ma'naviy boyliklarga yangicha mezonlar orqali yondashmoq kerak. Xalqimiz tarixida ana shunday «an'anaviy madaniyat»ni saralash bosqichlari 3 ta tarixiy davrni bosib o'tgan.

«An'anaviy madaniyat»ning birinchi saralash davri ibridoiy mifo-logik ta'sirlar ostida shakllangan an'nalar, qadriyatlarga yangicha mezon orqali baho berish davri.

Islom qadriyatlari mezonining qaror topishi bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy madaniyat.

Dunyoviy fanlar ta'siri ostida shakllangan hozirgi zamona an'ana-viy madaniyatlari.

Bu bosqichlarning har bir davri haqida qisqacha to'xtalamiz.

/.. «An'anaviy madaniyat»ning birinchi saralash davri eramizdan oldingi ikki ming yillikning so'nggi choragi va birinchi ming yillik boshlariga to'g'ri keladi. Bu davr jamiyat barcha tomonlarining o'sishi va o'zgarishiga asos bo'lgan yangicha ijtimoiy munosabat, mezonlaming qaror topishi bilan bog'liq. Bu davr ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga mos keladigan, an'anaviy qadriyatlar mezonini hisoblangan «Avesto» yozma yodgorligi bilan uzviy bog'liq. Bu davrda nisbatan tor doiradagi hududlar, urug' va qabilalar manfaatlariga mos kelgan qadriyatlar mezonini o'rniga keng doiradagi hududlar va elatlar mushtarak manfaatlarining izchil ifodasi bo'lib, ibridoiy ko'p xudolik (poleteistik) tasawurlar o'rniga yakka xudolik (monoteistik) tasawurlaming qaror topa boshlaganligini ko'ramiz. Mazkur jarayonning ilk bosqichlarida nisbatan kengroq hududlarda istiqomat qiluv-chi urug' va qabilalarning umumiy manfaatlarini ifoda etuvchi obrazlarning yaratilishiga kuchli ehtiyoj sezilgan.

Qabilalar o'rtasida umume'tirof etilgan dastlabki obraz «Hamma narsani ko'rib turuvchi, hamma narsadan xabardor, ming ko'zli va ming qulog'i bor, qabilalar o'rtasidagi kelishilgan shartnoma talablarining bajarili-shimi qattiq nazorat qiluvchi adolat tarozisini qo'lida tutgan quyosh timsolidagi «mitra» bo'lib shakllandi.

Umuman, o'sha davr uchun o'ta muhim bo'lgan narsa qabilalar o'rtasidagi umumiy an'anaviy axloqiy normalarni qaror toptirish va unga izchil amal qilish zaruriy ehtiyojga alanadi. CHunki Irtish-Urol hududlaridagi yuzlab qabilalar o'rtasida umumiy kelishuv (shartnoma)lar tuzilib, unga qat'iy rioya qilmasdan turib, tabiatning injiqqliklariga birgalikda (hamjihat-likda) kurash olib borish, boshqa hudud qabilalaridan o'z hududlarini himoya qilishning imkoniy yo'q edi.

«Avesto» ta'limotidagi an'anaviy qadriyatlar mezonini to'la sof diniy-mifologik mazmun bilan cheklanib qolmasdan, balki shu bilan birga ijtimoiy muhit talablarini ham, tabiiy hodisalarini o'rganish asnosida vujudga kelgan bilimlarga ham suyanadigan dunyoviy harakterga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, yovuz dev Axrimon odamlarga dahshat urug'ini sochish uchun o'n ming turdag'i kasalliklami yuboradi. Unga qarshi ezgulik tangrisi Axura Mazda 9999 ta kasallikning davosini tabiatdagi narsa-hodisalar (jonsiz, tirik va o'simliklar) dunyosining xossalari, sifatlari ko'rinishda odamlar uchun yaratadi. Odamlar tabiatni chuqr o'rganishlari orqali mazkur shifobaxsh xossa va sifatlami ajratib olib, o'z dardlariga shifo topgan-lar. eng muhimi, tabiatni o'rganish orqali ortirilgan bilimlar qadriyat darajasiga ko'tarilgan. SHundan bo'lsa kerak, Otashparastlar qadimda, hatto o'rta asrlarda ham 3 ta narsa bilan mashhur bo'lganlar: 1) sehrgarlik; 2) tabobat ilmid; 3) vinochilik bilan shuhrat qozonganlar. Bu fazilat-larning uchalasi asosida ham tabiatni chuqr o'rganish yotganligini ko'ramiz.

2. An'anaviy qadriyatlarni saralashning ikkinchi davri Islom dinining tarqalishi bilan bog'liq. Har qanday g'oyalar tizimi o'z davri jamiyatining ijtimoiy talablari asosida vujudga kelib ijtimoiy

taraq-qiyotning keyingi davr ijtimoiy muhit talablariga javob berolmay qolishi bu hech mubolag'asiz ijtimoiy qonuniyatdir. Insoniyatga va uning keyingi taraqqiyotini yangi-yangi mezonlar bilan ta'minlagan yozma yodgorligidagi zalvorli g'oyalari jamiyatning to'laqonli keyingi taraqqiyoti uchun yagona mezon bo'la olmay qoldi.

Islom dini SHarq ma'naviyatining keyingi takomillashuvi uchun o'ta qat'iy belgilangan talablar va uning muvaffaqiyatlari echimi uchun yangi-yangi mezonlari bilan dunyo sahnasiga ko'tarildi. Bu davrga kelib, mavjud ijtimoiy tizimning o'zgarishi bilan bog'liq holda o'tmish an'anaviy qadriyatlariga yangicha mezonlar orqali baho berish va saralash davri boshlandi. Masalan, Otashparastlikdagi o'lgan murdaning suyagini etidan tozalash jarayoni bilan bog'liq dahshatli manzaralar, nikoh, oila va mulkiy vorislik va boshqa ko'plagan jihatlar bilan bog'liq an'analarni qayta ko rib chiqish tarixiy ehtiyojga aylangan edi. Huddi ana shu va shunga o'xshash tarixiy ehtiyojlarni qoniqtira oladigan mafkura bo'lib Islom g'oyalari tarix sahnasiga ko'tarildi.

SHarq xalqlari tafakkuri Islom g'oyalari tomonidan egallanishi dunyoni anglashning alohida jarayonini vujudga keltirdi. Islom ideallari va kategoriyalari hamda ularning mazmuni diniy xarakterga ega bo'lib, o'zidan oldingi diniy- mifologik qarashlarga nisbatan ham o'ta g'ayri tabiiyligi hamda bir tomonlamaligi bilan ajralib turadi. O'zida mintaqaviy va jahon dinlari tajribasini o'zlashtirib olgan bu din jamiyatning barcha tomonlari va musulmonlarning ichki dunyosini ham egallab olib, ularga o'z e'tiqod talablarini tiqishtirar edi.

Musulmonlar uchun islom ideallari asosida yaratilgan obrazlar orqali dunyoni idrok etishdan boshqa har qanday o'zgacha qarashlarga yon bermasligi bilan ham bu din farqlanadi. Islom rivojlangan o'rta asr jamiyatlarining talablariga moslashgan va har qanday muammolaming echimini topa olgan g'oyalari tizimi bo'lib qaror topdi. Lekin Islom ideallari va mezonlari yangi davr jamiyatlarining talablariga javob berolmay qoldi. CHunki jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi harakatlan-tiruvchi kuchlar o'zgardi.

YAngicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi qaror topa bosh-ladi. Bunday sharoitlarda o'rta asrchilikka mos qoliplar, an'anaviy andozalami yangi sharoitga moslab o'zgartirishning uddasidan chiqishning o'zi bo'lmas edi. Bunday moslashish asrlar mobaynida haqiqatning yagona manbasi deb ishontirilib kelingan mezonlaming o'zgarishi islomiy tasawurlar tizimini tutib turgan asoslamning to'g'riligiga shubha uyg'otar edi.

3. Huddi ana shu paytda yangi davr ruhini o'zida mujassam-lashtirgan, ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob tariqasida qaror topgan dunyoviy tamoyillar, tushuncha va kategoriyalar yuzaga keldi. Bu g'oyaviy ta'lilotga ko ra ular islom diniy mazmundagi javoblarni tayyorlab, go'yo hozirgi taraqqiyot islom uchun asli yangilik bo'lmasdan, balki unutilgan eskilikdan o'zga narsa emasdир deb chiqди.

Ular yangi davrga xos muammolar echimini islom tamoyillari va andozalaridan kelib chiqqan holda topishga harakat qildilar. SHuning uchun ham dunyoviy taraqqiyot keltirib chiqargan va dunyoviy mazmunga ega bo'lgan tushuncha va kategoriyalarga islomiy mazmun bera boshladи. «Islom demok- ratiyasi», «Islom sotsializmi», «Islom taraqqiyot yo'li» va shunga o'xshash boshqa ko'plagan tushunchalaming vujudga kelishi bu islom dunyoqarashining beqiyos imkoniyatlaridan emas, balki islom yangi dunyo talablariga moslasha olmayotganligidan darak beradi. Boshqacha qilib aytganda islom yangi dunyo muammolariga hozirgi zamon taraqqiyoti darajasiga mos keladigan javob topolmay ojiz qolganligini ko'rsatadi.

To'g'ri, islomda dunyoviy ilmlami targ'ib qiluvchi, aqlni haqiqat mezoni deb hisoblovchi Mo'tazaliylar oqimi mavjud bo'lgan. Hatto bunday mafkura milodning 813-850 yillar orasida arab xalifaligining rasmiy davlat mafkurasi deb ham e'lон qilingan.

Islom uchun yot hisoblangan falsafa va boshqa dunyoviy ilmlar islom dinining nazariy asoslarini mantiq talablari va qoidalari muvofiq mustahkamlanishiga yordam berdi. Lekin mantiq qonunlari va qoidalari e'tiqod talablari hamda ehtiyojlarini qondirishgagina qaratilib cheklangan, bir tomonlama harakterga ega edi. Islomning dunyoviylik tomoni bo'lgan takomillashuvi shu bilan barham topdi.

Dunyoviy mazmundagi «An'anaviy qadriyatlar» mezoni deb ataluvchi 3- saralash bosqichi XVIII asr Evropa (birinchi navbatda Frantsuz) ma'rifat-parvarlari tomonidan shakllantirildi. XVI-XVII asr frantsuzlar Renessans deb ataladigan uyg'onish davri aslida IX-XII asrlarda musulmon sharqida, xususan Xurosan, Movaraunnahr va Xorazmda birinchi navbatda Mo'tazaliylar ta'siri ostida

vujudga kelgan. Bizda SHarq renessans deb ataluvchi jamiyatni tashkil etuvchi barcha sohalardagi ijtimoiy-madaniy munosabat-larda yuz bergen keskin yuksalish davrining uzviy davomi deb ham baho berish mumkin. CHunki o'sha davrlarda YAqin va O rta SHarq musulmonlarining hayot tarzi, yashash madaniyatlari dunyoning boshqa mintaqalari, shu jumladan Evropa xristian madaniyatidan ham yuksak rivojlanganligi bilan mutlaqo ajralib turdi.

XI asrning oxirlaridan boshlangan Saib yurishlari Evropaliklar uchun SHarq madaniyatiga taqlid qilish, uni qiziqib o'rganish davrining boshlanishi deb ham qarash mumkin. Evropaliklar SHarqona muammo madaniyati, qadimgi YUnion va Rim madaniyatlarining tarkibiy qismi bo'lgan, hozirda esa Evropada unutilgan yuvinish, tozalik gigiena madaniyati bilan turk hammomlari orqali tanisha boshladi. Farb dastlab ilk bor yal-yal yonib turgan gilamlar bilan, so'ngra shaxmat o'yini bilan bevosita SHarq madaniyati orqali yaqindan tanisha boshladi.

Evropaliklar uchun har tomonlama ibrat namunasiga aylangan musulmon sharq madaniyatiga tarkibi bir vaqtar YUnion va Rim madaniyatiga xos bo'lgan elementlarni g'arb yana qaytadan o'zlashtirib olishga kirishdi. Musulmon zadoganlari oilalaridagi o'ta nozik munosabatlar va islom dinidagi kibor oilalarda ayollarga berilgan huquq va erkinliklarni katolik cherkoviga qaram xristianlar hatto orzu ham qila olmaganlar.

Biroq bir narsaga alohida urg'u berish lozim, u ham bo'Isa Evropa SHarq xalqlari madaniyati va ma'naviyatiga faqat havas qilish bilan cheklanib qolmadi. U endi SHarq ma'naviyati yutuqlarini o'zlashtirib olish bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Evropaliklar musulmon sharq madaniyatidan ancha orqada qolib ketganligini ilk bora anglab etgan edilar.

Suqrot, Aflatun va Arastulardan boshlangan dunyoni bilishda ratsional aqlning hal qiluvchi roli to'g'risidagi ratsionalizm Forobiy, Ibn Sino va Ibn Ro'sht ijodlari orqali Evropaga keng tarqalishi natijasi o'laroq evropaliklarda oldin an'ana tusiga kirgan dunyoni Injil dogmalarini orqali idrok etishlariga barham berdi. endilikda tevarak-atrofdagi narsa-hodisalarga mantiq talablari va qoidalari orqali qarashga bo'lgan intilishning kuchayishiga sabab bo'lgan edi.

XVIII asr Frantsuz ma'rifatparvarlari esa tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o'rganishda diniy dunyoqarashdan foydalanishni butunlay man qilish va hatto cherkovni davlat siyosatidan, umuman maorif va tarbiya masalalaridan ajratish zarur deb chiqdilar. Xuddi o'sha davrlarda jamiyat va davlat, umuman ijtimoiy hayotning dunyoviy taraqqiyot yo'li to'g'risidagi ta'limotlar etilib kela boshladi. O'sha davrning yirik ma'rifatparvar mutafakkirlaridan Volter, J.J.Russo, D.Didro va boshqalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Ular Evropa madaniyati asosida xristianlik dunyoqarashi, marosim va urf- odatlari, axloq normalari va h.k.lar yotishini bilar edilar. Lekin xristianlik dunyoqarashi jamiyatning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir bo'lmay qolgan, aksincha taraqqiyot to'siq kuchga aylanganligini fosh qilib xristianlik insoniyat (Evropa)ning keyingi taraqqiyoti oldida jahillikdan o'zga narsa emas, deb chiqdilar.

Mazkur mutafakkirlar tomonidan gumanizm g'oyalarining ishlab chiqilishi «Butunjahon inson huquqlari dekloratsiyasi»ning moddalari uchun asos bo'lib xizmat qildi. J.J.Russo tomonidan «Ijtimoiy shartnomalar» kitobi (ta'limotijning yaratilishi Evropada xristian qadriyatlari orqali-gina ijtimoiy hodisalarga baho berib, odatlangan jamoatchilik uchun inqilobiy dunyoqarash bo'lib xizmat qildi.

Dunyoviy taraqqiyot yo'li o'z ichiga asosan: 1) dunyoviy fan yutuqlari; 2) gumanizm tamoyillariga; 3) ijtimoiy talablar asosida shakllangan an'anaviy axloq normalariga rioya qilishni va hokazolarni qamrab oladi.

An'anaviy madaniyat qadriyatlarning 3 ta shakli mavjud:

Elitar madaniyat

Xalq madaniyati

Ommaviy madaniyati

elitar madaniyat - (Frantsuz, eng sara) - har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat, fanni rivojlantirish funktsiyalarini amalga oshiruvchi oliy imtiyozli qatlam madaniyatidir. elita haqidagi nazariyalar dastavall Platon, Nitsshe g'oyaviy qarashlarida bay on qilingan bo'lib tizimli bir ko'rinishga XX asr boshlarida V.Peretto, G.Moska, Mixel's ta'limoti tufayli yuzaga keldi.

Hozirgi Farb sotsiologiyasida elita turli xil ko'rinishlarga ko'ra olib qaraladi. Bunda elita hokimiyatga yo'nalgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar (Moska), jamiyatda eng ko'p obro', maqom, boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va axloqiy ustunlikka ega odamlar (X.Ortega-I.Gasset), jamiyatning noijodiy ko'pchiligidan farq qiluvchi qismi (Toinb), eng malakali mutaxassislar, menejerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilar (texnologik determinizm) kabi izohlanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasi elita nazariyasi Mills, Rismen, Bell qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Kiborlar (elita) madaniyati bilan bog'liq bo'Gan qadriyatlar esa - jamiyatning imtiyozli tabaqalari uchun shakllantiriladigan, «san'at san'at uchun» qoidasiga asoslangan madaniyat (masalan, nafis san'at, mumtoz musiqa, faqat kiborlargina mutolaa qiladigan badiiy adabiyot). Odatda kiborlar madaniyati namunalari oddiy odamlar uchun murakkab bo'ladi va ulami ko'proq maqomga ega bo'lgan toifa vakillari iste'mol qiladilar.

Xalq madaniyati - maxsus tayyorgarligi bo'limgan shaxslar tomoni-dan bunyod bo'lgan madaniyat qadriyatlaridir. Xalq ijodining mualliflari, odatda nomalumdir. Jumladan, afsonalar, ertaklar, dostonlar («Go'ro'g'li», «Alpomish» va h.k.), xalq o'yinlari, kuy-ko'shiqlari (laparlar) va boshqa. Ijrosiga ko'ra xalq madaniyati elementlari yakka (masalan, baxshilar), guruhiy (qo'shiq yoki o'yin ijrosi) yoki ommaviy (masalan, sayillar, xalq bayramlari) ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Ommaviy madaniyat - XX asr o'talarida ommaviy muloqot va axborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi va barcha ijtimoiy guruhlar uchun etarli bo'lishi natijasida shakllangan va mohiyatan barcha yoshdag'i aholi uchun tushunarli bo'lgan madaniyat namunalari (ommaviy estrada musiqasi, tsirk va h.k.) qadriyatlaridir.

Ommaviy madaniyat odatda kiborlar yoki xalq madaniyat qadriyatlariga nisbatan kamroq badiiy qadrga ega va u ommaviy iste'molga mo'ljallab madaniy qadriyatami ishlab chiqishni ifodalaydi hamda u industrial jamiyatlarga xosdir. Ommaviy madaniyat barcha odamlarga qaratilgan bo'lib, muttasil ravishda kundalik hayot uchun ishlab chiqiladi va ommaviy muomala vositalari faoliyatida yorqin namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari madaniy qadriyatlarning 2 xili mavjud: 1. Submada-niyat. 2. Kontrmadaniyat.

Submadaniyat - (lot. atrofida, ostida va madaniyat) - har bir ijtimoiy guruh va avlodga xos bo'lgan, jamiyatdagi hukmron madaniyatdan farqlanuvchi madaniyat olami (masalan, yoshlar submadaniyati, milliy guruhlar, qariyalar, jinoiy guruhlar submadaniyatlari va h.k.). Submadaniyat hukmron madaniyatdan tili, kiyinishi, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. YOlg'iz odamlar, sport bilan shug'ullanuvchilar, tilanchilar, o'g'rilar, kar-soqovlar va boshqa o'z madaniyatiga egadirlar. Turli ijtimoiy tabaqa vakillari farzandlari ham o'zaro farqlanadilar - ular turli mакtabga qatnaydilar, turli kitoblar o'qishadi va h.k.

Kontrmadaniyat - qarama-qarshilik asosida rivojlanadigan va unga javob tariqasida yuzaga keladigan madaniyat qadriyatlaridir.

Madaniyat dinamikasida a) makondagi madaniyat; b) zamondagi mada-niyatlar ham mavjud.

Makoniy munosabatlar: a) mavjud voqealaming tartibini; b) moddiy ob'ektlaming ko'lamini ifodalaydi.

Zamoniy munosabatlar: a) almashtiruvchi voqealarning tartibidan; b) ulaming uzunligidan iboratdir.

Materialistlar: makon va zamonni ongdan tashqarida, ongga bog'liq-mass, olamda sodir bo'ladijan protsesslar makon va zamonda yuz beradi deb hisoblovchilar.

Idealistlar: makoniy- zamoniy munosabatlar ongga, absoyut ideyaga, olamdan ustun turuvchi ongga bog'liq, deb tushuntiradi.

XX asr tasawuriga ko'ra makon: 3 o'lchovli kontinuumni tashkil qiladi: zamon: 1 o'lchovga ega. Ular birgalikda yagona 4 o'lchovli kontinuumni tashkil qiladi.

SHu boisdan ham bugungi kunda an'anaviy madaniyat va milliy-ma'naviy qadriyatlarga faqat eskilik sarqiti deb qaramaslik lozim. Bularni to'g'ri anglamaslik, yoki milliy-ma'naviy qadriyatlarga eskicha yondashish birinchidan, milliy qadriyatami to'g'ri anglashda xudbinlik (sinfiy egoizm) hodisasini keltirib chiqarishi mumkin. Ikkinchidan, Bertran Rassel tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy munosabatlarda eng awalo umuminsoniy manfaatlar ustuvorligini e'tirof etish ham milliy nigelizm (ya'ni, millat haq-huquqlarining poymol qilinishiga olib keluvchi siyosiy yo'nalish) hodisasini keltirib chiqarishi mumkin.

Milliy qadriyatami inkor etishning milliy g'oyaga zidligi. Milliy qadriyatlar ba'zilari o'tmish

mustabid tuzum sharoitida tazyiq va tahqirga uchragan, ularga «eskilik sarqiti», «o'tmishning qodig'i» degan tamg'alar bosilgan edi. Xatto, bolani beshikka belash, isiriq tutatish, maxsi-kavush kiyish, oyoqni sandalda issiq tutish kabi beg'ubor odatlar ham shu tahqirdan chetda qolmagan.

Mustamlakachilik siyosati sohta qadriyatlar, begona taomillami zo'r lab kiritishga urindi. Xalqimizning ruhi va tabiatiga zid bo'lgan - ichkilikbozlik va giyohvandlik, behayolik va andishasizlik illatlari ildiz ota boshlagan edi. Milliy ma'naviy qadriyatlamini himoya qilish millat-chilik deb baholandi.

O'zbekiston mustaqilligi ma'naviy qadriyatlamini yuksaltirish uchun mustahkam poydevor yarattdi. Milliy istiqlol g'oyasi bu qadriyatlamini tiklashni yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Ota-bobolarimizdan qolgan ezgu udumga muvofiq, keksalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishdek noyob insoniy qadriyatlamini yangi mazmun va amaliy ishlar bilan boyitish va mustahkamlash surur», deb ta'kidlagan edi. SHu boisdan ham «An'anaviy qadriyatlar»ni yo'q qilib taraqqiyotga erishish mumkin degan g' oya xavflidir.

«Nur borki - soya bor» deganlaridek, o'z farzandlik yoki ota-onalik burchlarini unutayotgan, muqaddas milliy qadriyatlarimizni oyoq osti qilayotgan ayrim kimsalar ba'zan uchrab turibdi. O'zlarini dunyoga keltirgan otalari yo voldilarini «Qariyalar uyi»ga joylaydigan, farzandlarini «tirik etim» qilib, «Mehribonlik uyi»ga tashlab ketadigan kimsalar nafaqat milliy or-nomus, oddiy insof va vijdon, umuman, odamgarchilik yo'qligi milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan achinarli hoi.

Milliy g'oya ruhiga yot bo'lgan salbiy xislatlardan biri - boqiman-dalik, loqaydlik illatlari kishilaming g'ayratini, tashabbusini bo'g'ib kelgan salbiy odatlar o'tmish tuzumdan meros bo'lib o'tdi va hozir ham ayrim kishilaming faoliyatiga salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Mustabid tuzimda munofiqlikka asoslangan, yakka hukmronlikni da'vo qilgan rasmiy mafkura real hayotni, odamlaming his-tuyg'ulari va orzu-intilishlarini aks ettirmay qo'ygan edi. Ijtimoiy ongdagi bu tuzilish natijasida odamlarda ichki norozilik ortdi. Ayrimlar esa bu soxta g'oyaga ishonar edi.

Milliy mafkuraning muhim vazifasi - kelajakka komil ishonch, erkin va farovon hayotga umid hissini tarbiyalashdir. Xalqimiz azaldan

noumidlikni, ruhiy tushkunlikni qoralablikni, ruhiy tushkunlikni qoralabbo'lgani kabi, milliy marosimchilikni hozirgi zamon ruhiga mos ravishda tahlil va tahrir qilish zarurati, milliy g'oyaga muvofiq tarzda rivojlantirish mas'uliyati vujudga keldi. Masalan, to'y va marakalardagi ortiqcha isrofgarchilikka, kim o'zarlikka chek qo'yish, bu marosimlarni ma'naviyatga xizmat qiladigan darajada fayzli, farovon-likni ta'minlaydigan darajada kamxarj qilib o'tkazish, uning milliy qadriyatlarimizga mos bo'lishi lozimligi O'zbekiston Birinchi Prezidentimizining Farmonida (1998) ham alohida ta'kidlab o'tilgan edi.

Umumbashariy qadriyatlar - mohiyat e'tibori bilan aksariyat xalqlar e'tiqod va hurmat qiladigan, ammo genezisi (kelib chiqishiga ko'ra bir yoki bir qancha millatlar hayotidan olingan, umume'tirof etilgan tamoyillar ekanligi, shubhasiz.

Muayyan milliy muhitda amal qilganligi uchun ham umumbashariy qadriyatlarda ma lum darajada milliylik libosi saqlanib qoladi. Masalan, qonun ustuvorligi milliy istiqlol g'oyasining umuminsoniy tamoyili deb e'tirof etilgan. Huquqiy demokratik jamiyat barpo etayotgan O'zbekiston uchun bu tamoyilni ijtimoiy hayotning barcha sohalari va aholining barcha qatlamlari ongi va faoliyatiga ta'sirli mafkuraviy vositalar orqali singdirish hozirgi davming eng dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqqa xos bo'lgan milliy qadriyat - bag'rikenglik, o'zaro ahillik, madaniy-ma'rifiy yaqinlik-dir. Xalqimiz shovinizm va agressiv millatchilikning, mutaassiblik, jaholat va aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlarini qat'ian inkor etadi, bularning taraqqiyot va barqarorlik, ma'naviyat va ma'rifat uchun xavfini chuqur anglaydi.

Ma'naviyatni yuksaltirishda milliy g'oyaning ahamiyati. Milliy g'oya xalqning ko'nglidagi orzu-umidlami, maqsad va intilishlarini nazariy tarzda ifoda etadi. Milliy g'oya mavzusi baland-parvoz mavhum orzular emas. U har bir inson, jamiyat oldida turgan maqsadlar ifodasidir.

Millatning tub manfaatlari, uning o'z o'tmishiga bergen bahosi va kelajakka ishonchi milliy g'oyada o'z aksini topadi. YUksak ma'naviyatga, pokiza axloqqa, demokratiya tamoyillariga tayangan milliy g'oyalar jamiyatni rivojlanishga etaklaydi. Milliy g'oya mustaqillikni

mustahkamlash, qadriyatlarni yuksaltirish omili va mezonidir.

Mehnatsevarlik - ham shaxsiy, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatga aylangan. Milliy istiqlol g'oyasi bu qadriyatga alohida baho beradi, uni buyuk keljakning ishonchli garovi deb e'tirof etadi. Demak quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Mehnat - inson faoliyatining eng muhim turi. farovon hayot kechirishning asosiy shartidir.

Ta'lif inson tarbiyasida muhim o'ringa ega.

Sabr - o'zbek xalqiga xos azaliy qadriyatlardan biri.

Savob, muruwat, sahovat, andisha kabi tushunchalarda insoniy mohiyat mujassamlashgan. 2004 yil «Mehr va muruwat yili», 2005 yilning «Sihat- salomatlik» yili deb nomlanishi, bozor munosabatlari rivojlanan-yotgan hozirgi davrda bu axloqiy qadriyatlarning ahamiyati oshib bormoqda.

Halollik - insoniyat yaratgan eng oljanob axloqiy fazilatlardan biri.

Odillik va haqiqatparvarlik, rostlik va to'g'riso'zlik, jamiyatda «butun hayotimiz va faoliyatimizning bosh g'oyasi» bo'lgan adolat va haqiqat-ning namoyon bo'lishidir.

Demak, asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy ma'naviy qadriyatlar milliy g'oyaga ma'naviy zamin, negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Unga xalq, millat, jamiyat amal qilish uchun kuchli, qudratli, ta'sirli milliy mafkura kerak.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy tiklanishi, ajdodlariimizning boy merosi, sharq tsivilizatsiyasi, madaniy jonlanish va ma'naviy poklanish, oltin asr, Uyg'onish davri, taraqqiyot manbai, jahon fani va madaniyati, qomusiy bilimlar va mutafakkirlar.

Mavzuga doir nazarot savollorii:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosi fandagi fangilanish va taraqqiyotning manbai bo'la oladimi?
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlari jahon fani va madaniyati rivojiga qanday xissa qo'shganlar?
3. Markaziy Osiyo mutafakkirlari madaniy tiklanish va rivojlanishida ajdodlarimiz boy merosining o'rni va ahamiyati qay darajada baholanadi?
4. Nima uchun SHarq tsivilizatsiyasi ilk madaniy-ma'naviy qadriyatlar beshigi sanaladi?
5. Milliy-madaniy qadriyatlar - jamiyatimiz ma'naviy noplakligining zamini bo'la oladimi?

Mavzu yuzasidan foydalanimagan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostinosada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro-e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.

11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Prezident Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbat // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.

12. Prezident I.A. Karimovning «Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.

13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Prezident I.A. Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.

14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. Qo'shimcha adabiyotlar.

33. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.

34. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

35. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'nnaviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.

36. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.

37. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.

38. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.

39. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.

40. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'FMJ, 2004

41. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

10-MAVZU: Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar demokratik printsiplarni joriy qildirish asoslari.

Reja:

1. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar tizimi.

2. Demokratiya - siyosiy qadriyatlar sifatida. O'zbekistonda demokratik prinsiplami joriy qilinishi va muammolari.

3. Huquq va erkinlik shaxs qadriyatları sifatida.

4. Totalitar tuzum sharoitida mahalliy aholi erkinliklari va huquqlarini poymol qilinishi.

5. Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik - jahon hamjamiyatiga yo'l ochuvchi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ekanligi

6. «Fuqarolik jamiyat» tushunchasi va uni o'rnatish masalalari.

Jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar alohida o'rinni tutadi.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlab, qadrlangan. Insonning erkinligi, uning shon-shuxrati va qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatlaridir. O'zbekistonda boshqa millat va xalqqa nisbatan do'stlik, birodarlik munosabatida bo'lish - bu o'zbek xalqi va milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir.

Mamlakatimizda demokratik institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirish uzoq muddatli jarayondir. Demokratik g'oyalami shunchaki bayon qilib, yuqorida joriy va tatbiq etish bilan odamlar ongida tub o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir».

SHu boisdan ham demokratiyani ustuvor qadriyat sifatida o'rganish, ijtimoiy hayotga joriy etish, bir tomondan jahon xalqlari demokratiya an'analarini puxta o'rganish va o'zlashtirishni, ikkinchi tomondan ajdod-larimizningadolatli jamiyat barpo etish borasidagi qarashlarini bugungi kunga joriy etishni taqozo etadi.

Har bir jamiyat, davlat o'zi uchun mos demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaydi. O'zbekiston ham o'zi uchun maqbul demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bugungi kunda SHarqning ham o'ziga xos davlatchilik an'analarini, boshqaruv tizimi, idora usullari, hokimiyat tarmoqlari bo'lgani, bu borada

u Farbdan sira ham kam emasligi barchaga ayon bo'lib qoldi. Xususan, SHarq demokratiyasining bir qator ustuvor jihatlari mayjud: 1) Foyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlik (ajdodlari-mizning bu boradagi boy ma'naviy merosi) negizida siyosiy madaniyat shakllangan. 2) SHarq falsafasining muhim jihatlaridan biri - «me'yor» tushunchasi aslida demokratik me'yorga asoslangan siyosiy madaniyatdir. 3) SHarqda odamlarning hokimiyatga va siyosiy munosabatlarga: saylov tizimi, davlatchilik, siyosiy harakatlar, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari - bularning barchasi SHarqda o'z xususiyatlari ega. SHarqda jamoatchilik fikri ham keng rivojlangan.

Umuman, demokratiya qadimdan dunyoning turli mintaqalarida turlicha yo'nalishda rivojlanib borgan. Demokratiyaning shakllari:

SHarqona demokratiya (o'zida milliy umumbashariy, mahalliy xususiyatlarni birlashtirgan, o'ziga xos ko'rinish).

Siyosiy demokratiya (jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlash-tirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish).

Ijtimoiy demokratiya (bugungi davr demokratik islohotlar jarayo-niga e'tibor) ko'rinishlari mayjud bo'lib kelgan.

Demokratiya (yunon - xalq xokimiyyati) - xalq hokimiyatchiligi, siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson xuquqlari singari konstitutsiyaviy printsiplami e'tirof etishga asoslangandavlat tuzilishi shakli.

Demokratiya va uning mezonlari. Umumiylar tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuni-ladi. Batafsil tahlil qilinganda esa demokratiya - xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolaming o'z-o'zini bosh-qarish shakli ham ekanligi bo'ladi.

Demokratiyanı belgilovchi uch mezon:

Xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi.

Hukumat qarorları xalq tomonidan nazorat qilinishi

Oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishi.

SHuningdek demokratiya vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiyaga bo'linadi.

1. Vakillik demokratiyasi - demokratiyaning bir shakli bo'lib davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida fuqarolaming vakillari orqali ishtirok etishidir. Vakillik demokratiyasining yorqin ifodasi xalq deputatlari bo'lib, ular saylovchilarining vakilidir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimizi ham xalq vakilidir. Vakillik demokratiyasi amal qilishi natijasida fuqarolaming aksariyat ko'pchiligi davlat va jamiyatni boshqarishda, ularning faoliyatida keng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Bevosita demokratiya - demokratiyaning bir shakli bo'lib, u har bir fuqarolaming davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita - ya'ni shaxsan ishtirok etishidir. Bevosita demokratiyaning ko'rinishlariga saylovda ovoz berish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, qonun loyixalari va boshqa tadbirlaming muxokamasi, referendum (umumxalq ovozi), fuqarolar yig' ini ishlarida hamda davlat organlariga takliflar kiritishda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

Demokratiya - faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun mhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari hamdir. Demokratiya g'oyalarini bayon qilish mumkin. Siyosatda demokratiyanı yuqorida «tushirish» mumkin. Lekin bu bilan demokratiya sizu bizning amaliy hayotimizga singmaydi. Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir. Ba'zi davlatlarda bunga erishguncha ko'plab avlodlar o'tgan. Demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo hamjamiyati e'tirof etgan qoidalari bor. Bular: 1) fuqaroning o x hoxish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, 2) ozchilikning ko'pchilikka bo'yosunishi, 3) barcha fuqarolaming millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquqligi, 4) davlat va jamiyat boshqamvida qonun ustivorligi, 5) saylov va saylanish huquqi va boshqalardir. Bular qaryib barcha mamlakatlar Konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan tartib-qoidalardir. Biroq demokratiyanı joriy etishda bularning o'zi kifoya qilmaydi. Faqat shuning o'zi aholi barcha ehtiyojlarini,

ma'naviy-ruhiyolamini qamrab ololmaydi. CHunki har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, xayotga munosabati va boshqa jihatlari bor. Demak, demokratiyaga yondashish usuli bor. Demokratiya hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni xurmat qilish, boshqalaming haq-huquqini ximoya qilishdir. O'zbekiston respublika Konstitutsiyasi mamlakat demokratik taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini, insonning siyosiy huquqlarini xalqaro andozalar yo'nalishlarini, insonning siyosiy huquqlarini miqyosida belgilab beradi, xalqaro huquq ustunligini, hokimiyatlar taqsimlanishini, davlatning asosiy muassasalari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralarining saylanishini, ko'ppartiyaviylikni, mafkuraviy pluralizmni o'zida aks ettiradi.

Umuman, milliy g'oya, erkin fuqaro va demokratiya - yuqori darajada rivojlangan kishilar jamiyati, insoniyat erishgan buyuk ne'mat, ko'pchilikka ma'qul yashash tarzi. Ammo uning amalga oshishi barcha mamlakatlarda bir xil emas. Har bir mamlakat demokratiyaning umumiy qadriyat va tamoyil-larini o'z milliy qadriyatlari zaminida, o'z xalqining uzoq tarixi davomida shakllangan an'analari bilan qo'shib qabul qilganini bilamiz. Masalan, AQSH yoki Angliya, Frantsiya (boshqa Evropa mamlakatlari ham) demokratik davlatlar bo'lalar-da, lekin har biri o'z milliy ruhi, an'analarni ham saqlagan. SHu kabi Yaponiya, Koreya, Malayziya kabi mamlakatlarda ham demokratik tuzum milliy va diniy e'tiqod udumlar negizida amal qilmoqda.

SHubhasiz, O'zbekistonda ham biz ana shunday bo'lishi uchun intil- moqdamiz. Birinchi Prezidentimizning barcha asarlarida bunga alohida e'tibor qilinib, milliy qadriyatlamni tikiash, milliy axloq-odobni mustahkamlash uchun sa'y-xarakatlar qilinmoqda. Biz demokratiya yo'lini, dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanladik, hamda rivojlanayotgan davlatlar erishgan darajaga etish uchun bosqichma-bosqich qadam tashlamoqdamiz.

SHunday qilib, milliy g' oya hayotiy va istiqbolli g' oyadir. U taraqqiyotga va mamlakat fuqarolarini chinakam hamjihatlikka, ma'rifatga olib boradigan insonparvar va taraqqiyotparvar g' oyadir.

SHunga ko ra milliy g'oya har qanday «izmlar» (kommunizm, panis-lomizm, panturkizm kabi) zararli va umrini o'tab bo'lgan fikrlarni rad etadi. Vatanga, xalqiga muhabbatli odamgina etuk ma'naviyatli, ma'rifat-lidir. Ma'rifatli odam o'z erkini boshqalar erki bilan birga deb biladi, o'zgalarning yashash tarzi, e'tiqodi huquqini hurmat qiladi. Bizning ulug' ajdodlarimiz Forobi, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy ana shunday etuk, komil inson bo'lish uchun kurashganlar. «Naqshband uchun shohu gado barobar edi, u qul saqlamas va o'zi ham hech kimga qul emasligidan faxrlanardi», deb yozadi Navoiy. Hazrat Navoiy asarlarida kuylangan g' oyalar bugun ham bizga ibrat va saboq bo' lib kelmoqda.

Mustaqillik, demokratiya va taraqqiyot o'zaro uyg'un va bir biri bilan bog'liq tushunchalar. CHunki agar milliy mustaqillik bo'lmasa, erkinlik ham, erkin rivojlanish ham bo'lmaydi. SHaxs erkinligi millat erkinligidan ayri tushuncha emas. SHu bois, O'zbekiston XX asr 90-yillarda istiqlolni qo'fga kiritganda bir - biri bilan bog'liq bo'lgan ikki vazifa kun tartibida turardi: biri - mustaqillikni mustahkamlash bo'Isa, ikkinchisi - bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish.

Hozirgi paytda O'zbekistonda bu ikki jarayon muvaffaqiyat bilan davom etmoqda va mamlakatimiz tobora iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar safiga kirib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksalish bilan uzviy aloqada kechishi lozim. Boshqacha aytganda, iqtisodiy taraqqiyotni O'zbekiston xalqining o'zi amalga oshiradi. YA'ni xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, bilim va malakasi, salohiyati, umummadaniy darjasasi qanchalik baland bo'Isa, iqtisodiy taraqqiyot ham shuncha tezlashib, «erkin, farovon hancha tezlashib, «erkin, farovon hatiladi».

Aholining har bir qatlami, har bir fuqaro buni yaxshi angab etib, shunga qarab faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. Ammo bu sohada muammolarimiz ko'p. Zero, demokratiya - erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, o'z irodasini ifodalash, haq-huquqlaridan bermalol foydalanish va jamiyat ishlariga faol qatnashishni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bunga to'la kafolat beradi va har bir fuqaroning huquqini himoya qiladi. Biroq, ayni vaqtida, demokratiya yuksak ma'naviyat egasi bo'lish, mas'uliyat va jamiyat oldidagi burchni his qilishni talab etadi. Qonun, huquq imkoniyatlar bersa, axloq, burch, o'zgalar manfaati bilan hisoblashish, insoniylik udumlari, vijdon esa mas'uliyat yuklaydi, har bir individual shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati chambarchas bog'liq

ekanini har soatda bizga bildirib turadi. SHu bois huquq va burch, erkinlik va mas'uliyat hamma vaqt birga, uzviy aloqada amal qiladigan tushunchalardir. Zero, yaxlit bir tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak. O'zaro raqobat, aqlu zakovat kurashi va tadbirkorlik, ishbilarmonlik xislatlari ham shu zaminda adolat o'zaniga tushadi, kishining kishi tomonidan nohaq ezilishi, zo'ravonlik qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Barqarorlik tinchlik millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini tashkil etadi. Fuqarolar o'rtasidagi tinchlik millatlararo totuvlik va do'stlik ularni avaylab saqlash va mustahkamlashga intilish azaldan halqimizning o'ziga xos fazilati bo'lib kelgan va hozirgi vaqtida ham shunday bo'lib kelmoqda. Halqlar o'rtasida tinchlik totuvlik do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'matish millatimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan.

(U zbekistan jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda tarakqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlagan. SHuning uchun ham uning jahon hamjamiyatidagi obro' va e'tibori tobora ortib bormoqda. Davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash va havfsizlikni ta'minlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti katta rol' o'ynaydi. O'zbekiston 1992 yilning 2 martidan boshlab BMTning teng hyqqiali a'zosidir. Mazkur xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda mintaqamizda tinchlik barqarorlik millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan ko'pgina savobli ishlar qilinmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimizi Islom Karimov 1993 yili BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik sohasida BMTniig doimiy seminari tashkil qilish to'g'risida taklif kiritgan edi. O'zbekiston Birinchi Prezidentimizining bu tashabbusi xalqaro miqyosda katta kiziqish uyg'otdi. Amerika Qo'shma SHatlari seminar yig'ilishi o'tkazish g'oyasini qo'llab-quwatlatdi va ushbu anjumanda yuksak diplomatik darajadagi vakili ishtirok etishi istagini bildirdi. Bunday organi tashkil qilish g'oyasi davlatlararo o'tkazilgan seminar va konferentsiya hamda MDH hujjatlarida ham qayd qilingan. Seminar yig'ilishning maqsadi o'zaro fikr almashish, ishonchli mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratish yo'llarini muxokama etish, tinchlik va barkarorlikni saqlash, nizolarning oldini olish, iqtisoddagi o'zaro jipslashish jarayoniga, insonparvarlik va madaniy sohadagi hamjhatliklarga ko'maklashishdan iborat. SHuningdek seminar yig'ilish mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik muammolarini qal etish, tahlil qilish, BMT, alohida davlatlar bir guruh davlatlarga ta'sirchan bo'lgan bosqichma bosqich diplomatiya uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini o'z oldiga qo'ygandi.

1995 yil 15—16 sentyabrda mazkur seminar kengashning O'zbekiston poytaxti Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik na hamkorlik masalalariga bag'ishlangan majlisi bo'lib utdi. Seminar kengashda BMT, EXHK, Islom Konferetsiyasi tashkiloti delegatsiyalari, BMT xavfsizlik kengashiga a'zo mamlakatlar, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari, shuningdek, mintaqaga tutash davlatlar delegatsiyalari —jami 31 davlat, 6 xalqaro tashkilot ishtirok etdi.

O'zbekiston tashabbusi bilan o'tkazilayotgan ushbu anjuman 50 milliondan ortiq aholi istiqomat qilayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'miniash yo'lida muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlandi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov nutqida shunday dedi: «Biz mazkur seminami mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik tizimini o'rnatish va uni amalga siljitish yo'lida, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari va halqlari uchungina emas, balki bu mintaqaga chegaradosh ulkan hudud uchun ham juda zarur bo'lgan hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asosni shakllantirishda turli fikr va yondashuvlami yuzaga chiqarish va ulami bir-biriga yaqinlashtirishda manfaatdor bo'lgan anjuman deb baholaymiz».

Mintaqamizda barqarorlik tinchlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar ichida 1995 yili sentyabr' oyida BMT tomonidan Nukus shahrida o'tkazilgan Orol havzasi mintaqasining barqaror rivojlanishiga bag'ishlangan konferentsiya va unda qabul qilingan deklaratsiya, ham muhim o'ren tutishini aytib o'tish joizdir.

1995 yilning oktyabr' oyida N'yu-Yorkda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining ellinginchi yubiley sessiyasida so'zlagan nutqida I.Karimov jahon davlatlari rahbarlari va keng jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan muammolarga qaratib, yalpi xavfsizlikka mintaqalarda xavfsizlikni ta'miniash orqaligina erishish mumkin ekanligini uqtirib o'tdi. SHuningdek BMTning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar munosabatlarini faollashtirish, tangliklaming oldini olish yo' lida uning mintaqaviy tizimlarini

yanada rivojlantirish lozimligi to'g'risidagi takliflarni ilgari surdi.

O'zbekiston mintaqamizda, jumladan Tojikistonda tinchlik va barqarorlikni ta'miniash yo'lida ham faol harakat qilmoqda. 1995 yil 3 aprelda O'zbekiston tomonidan muholif kuchlar rahbariyati bilan uchrashuv chog'ida Tojikiston halqlari kongressini chaqirish xaqida taklif kiritildi. Bu taklif qabul qilindi va Tojikistondagi muholif kuchlar o'zaro muzokaralarga kirishdilar.

O'zbekiston Afg'onistonda ham tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlashing tarafdiridir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov hozirgi kunda mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash muammolari xususida so'z yuritganda bugungi kunda Afg' onistonadagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tikiash borasida davom etayotgan ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda, mintaqadagi strategik mavxumlikni tugatish nihoyatda dolzarb masala ekanligini ta'kidladi.

Hayot shundan dalolat beradiki, bugungi kunda notinch va fojiali mintaqalarda joylashgan davlatlaming bir-birini o'zaro anglash va bирgalashib harakat qilishini ta'minlabgina butun dunyoda tinchlik va barqarorlikka erishish yo'llarini belgilab olish mumkin. SHuning uchun ham biz uchun barcha tinchliksevar mamlakatlar bilan o'zaro foydali teng huquqli munosabatlami yo'lga qo'yib, jahon hamjamiatiga qo'shilish o'ta dolzarb vazifadir.

Barqarorlik, tinchlik, totuvlik bular davlatimizning yangi binosini barpo qiladigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigai to'g'ri yo'ldir. «Tinchlik va barqarorlik,- deb yozadi I.Karimov, - bular xalqaro hamjamiat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik yaxshilik sofdillik singari umuminsoniy kadriyatami qabul qilgan va bирgalikda baham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon hamjamiatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqi, o'zaro manfaatli munosabatlar o'matilishi mumkin».

Ma'lumki, umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan, muayyan mintaqadagi konkret davlatlarning hamjihatligi va bирgalidagi harakatidan boshlanadigan jarayondir. SHuni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston rahbariyati BMT ishlab chiqqan qarorlarga muvofiq Afg'onistondagi mojarolami bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish zarurligini qayd etib kelmoqda. Bular: mojaroni bosqichma-bosqich bartaraf qilish, muzokara jarayonida barcha manfaatdor tomonlaming ishtirot etishi; o'zaro yon berish va oqilona o'zaro kelishuv asosida nuqtai nazarlami bir-biriga yaqinlashtirish; bu jarayonda BMT, Evropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Islom konferentsiyasi tashkiloti va boshqa halqaro tashkilotlarning xomiyligi va faol ishtirot etishi; mamlakat hududiy yaxlitligining saqlanishi; qanday shaklda bo'lmasin, tashqaridan tazyiq yoki aralashuvga yo'l qo'yib bo'lmasligi; Afg'onistonga qurol-yarog' etkazib berishni qat'iy taqiqlab qo'yish zarurligi.

Bugun Afg'onistonda giyohvand moddalar ishlab chiqish ortib borayotgani dunyo hamjamiatida katta havotir uyg'otmoqda. Birok, bu illatga qarshi faqat giyohvand moddalar ishlab chiqarilayotgan xudud atrofida "xavfsizlik zonasasi"ni tashkil etish, jazolash va ma'muriy chora-talbirlarni kuchaytirish bilangina kurashishning kifoya qilmaydi. Ushbu muammoni xal qilish uchun, birinchi navbatda, Afg'oniston iqtisodiyotini chuqur trkibiy o'zgartirish, aholini tinch va bunyodkorlik mehnati bilan band etish orqlai hal qilish mumkin va lozim.

Hozirgi o'ta murakkab va ziddiyatli jarayonda hukumatimiz tomonidan uzoqni ko'zlab olib borilayotgan insonparvarlik siyosati tufayli jamiyatimizda osoyishtalik tinchlik va totuvlik fuqarolarning kundalik turmush tarziga aylanib ketgan. Buni biz millatlararo munosabatlarni takkomillashtirish sohasida qilinayotgan harakatlardan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, nnsionning baxt-saodati, keljak hayoti millatlararo munosabatlar bilan o'zviy bog'liq. Bu ayniqsa, ko'p millatli davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Hozir mamlakatimizda yuzdan ziyod millat va elat vakillari yashaydi.

Millat kishilaming tarixan tashkil topganligi bo'lib, u xo'jalik til, madaniyat, milliy ruhiyat xususiyatlarining yagonaligi bilan ajralib turadi. Til, hudud, iqtisodiy turmush, madaniyatdagi umumiylig, bular millatning eng muhim belgilaridir.

Millatning til, hudud, iqtisodiy turmush va madaniyat jihatidan birligi undan oldin vujudga kelgan urug', qabila va elatlarning birligidan tubdan farq qiladi. Millatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashishi elatlarning og'zaki ijodi va yozma adabiy tilning rivojlanishi asosida yagona milliy tilning paydo bulishiga olib keladi. Millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, uning iqtisodiy tuzumi, odat an'analari, yashash muhiti uning ma'nnaviy qiyofasi ta'sir etadi. U yoki bu millatga

mansub bo'lgan kishilarning o'ziga xos milliy xususiyati va psihologiyasi milliy tili va madaniyati bo'ladi. Til millatning eng muhim belgilaridan biridir.

Dunyoning turli mamlakatlarida hozir o'zining turmush tarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, pivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan qariyb ikki ming turli halqlar va millatlar yashamoqda. Ularning qariyb 1600 tasi Osiyo va Afrika mamlakatlarida, qariyb 100 tasi rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda, qariyb 250 tasi sobiq sotsialistik mamlakatlarda yashaydi, Mustaqil davlatlar soni hozir qariyb 190 tani tashkil etadi. Er yuzida 101 milliondan ortiq kishidan tashkil topgan millatlar ham shuningdek ming va xatto yuz kishidan iborat bo'lgan qabilalar va etnik guruuhlar ham borligini aytmasdan o'tib bo'lmaydi.

Hozirgi davrda sobiq Ittifoq hududida ijtimoiy, milliy va millatlararo munosabatlar masalasida ilgari aslo kutilmagan salbiy hodisalar, juda ham o'tkir va qaltis muammolar, kuchli to'qnashuv va mojarolar tez-tez ro'y berib turganligi ham hech kimga sir emas.

Milliy va millatlararo munosabatlar masalasida bo'lib turgan keskinliklar va ziddiyatlar oddiy bir anglashilmovchilik natijasi emas. Uning muayyan sabablari bor, albatta. Milliy va millatlararo munosabatlar masalasi sohasida mavjud bo'lgan muammolami xal qilish omili ularni keltirib chiqqangan, chuqurlashtirib yuborgan sabablarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini belgilashdan, ularni yangicha siyosiy va falsafiy tafakkur asosida nazariy. jihatdan idrok etishdan iboratdir.

Milliy va millatlararo munosabatlarga oid shunday muammolar va vazifalar borki, ularni ilgari qo'llanilgan eski vositalar, usullar bilan hal etib bo'lmaydi. Hayot milliy masalaga yangicha yondashishni, siyqa usullardan qat'ian voz kechishni kun tartibiga qo'yemoqda.

Milliy masalaning hozirgi davr talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, ijodiy boyitilgan eng muhim nazariy qoida va xulosalari hayotga qanday tatbiq etilayotganligini o'rganish, ularni ilmiy tahlil etish katta amaliy siyosiy va ma'rifiy tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

Milliy qadriyatlarni tikiash va ulardan samarali foydalanish milliy manfaatlar va milliy qiziqishlar bilan uzviy bog'liqdir. Milliy manfaaat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotni har tomonlama, teran qamrab oladi. Boshqacha aytganda, xaqqoniy milliy manfaatlar—bu muayyan millat vakillarining talab va ehtiyojlari yig'indisidan iboratdir. Ammo milliy manfaatlar va ishlar boshqa mintaqqa vakillarining manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak Asl manfaatlar bir guruh milliy ekstremistlar, millatchilik shovinistik buyuk davlatchilik dardiga mubtalo bo'lgan kimsalar emas, balki mehnatkashlar ommasi ifoda etadi.

Millatlar va milliy manfaatlar, milliy xis-tuyg'ular mavjud ekan, milliy munosabatlar ham kun sayin e'tibor berishni talab qiladigan masaladir, u umumiylik munosabatlarini hisobga olgan holda o'z vaqtida va ijobjiy xal etib borishni talab etadi. Millatlarning manfaatlariga to'g'ri munosabatda bo'lish va ana shu zaminda ixtiloflar chiqaradigan har qanday imkoniyatlarga chek qo'yuvchi sharoitlarni yaratib beradi.

Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik o'z-o'zidan xosil bo'lmaydi, albatta. Bular mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlaming qonunini natijalaridir.

Eng awalo shuni e'tirof etish kerakki, biz sobiq ijtimoiy siyosiy tuzumdan voz kechib, jahon halqlarining ilg'or mamlakatlari tajribasini inobatga olib, millatimiz an'analariga, milliy manfaatlarimizga muvofiq xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari mos keladigan, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etdik. Mazkur davlatning asosiy mavqedi" fuqarolar, tinchligi va milliy totuvligini, aholining munosib hayot kechirishini ta'minlashdir.

«Biz umume'tirof etilgan demokratik qoidalari tartiblarni xalqimizning tub axloqiy qoidalari bilan uygun tarzda qovushtira oladigan davlatni bunyod etishga intilyapmiz» - deydi I. Karimov.

SHuningdek, rivojlangan demokratik davlatlarning tajribasini atroflicha o'rganib chiqish, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy saboqlariga tayanib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Asosiy qonunini qabul qildik).

Yangi demokratik ijtimoiy siyosiy tuzum va uning asosiy qonuni jamiyatimizda barqarorlik tinchlik millatlararo totuvlikni ta'minlab berishnnng siyosiy negizlarini yaratdi. Ayni vaqtida, jamiyatimizda demokratik jarayonlar tobora avj olib bormoqda. Bu asosiy qonun — Konstitutsiyada mustaqamlangan bo'lib, uning negizida ilk bor oliy xokimiyat organi — Oliy Majlisga saylovlar bo'lib o'tdi. Davlatni boshqarish va jamoat ishlariga fuqarolami jalb qilish odatiy holga aylanib borayotir.

Xalqimiz asrlar davomida maxalla yiginlari, oqsoqollar kengashlari orqali jamoatchilik fikrini aniqlashning hamda birdamlik ko'rsatishning o'ziga xos usullarini shakllantirib kelgan. Maxalla axli hamda ko'pni ko'rgan oksoqollar sog'lom jamoatchilik fikriga ega bo'lishda eng katta kuch hisoblanadi. Fuqarolaming maxalliy o'zini o'zi boshqaruviga konun asosida berilgan huquq va erkinliklardan foydalanish barqarorlikni mustaqkamlashga, davlat ishlarini aholining ehtiyojlari, kayfiyatlar bilan muvofiq holda olib borishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikamizda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida qurilgan huquqiy demokratik davlatni va fuqarolik jamiyatini boshqarishda yuksak malakali mutaxassislarni taiyorlash va ularning yordamida hayotga zamonaviy boshqarish usullarini joriy etishga ham katta ahamiyat berilmoqda. Respublikamizda Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ta'sis etilib, u o'z ishini boshlab yubordi.

Karimov akademianing ochilish marosimnda so'zlagan nutqida, yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlashda boshqa mamlakatlar tajribasiga suyanish lozimligini alohida uqtirib utdi. CHunki biz bu darajadagi mutaxassislarni uqitish uchun hozircha o'quv qo'llanmalarimizni, o'z o'quv dasturlarimizni yaratib ulgurganimiz yuq. SHuning uchun, bu erda birinchi navbatda, boshqaruv xodimlarini tayyorlaydigan yirik xorijiy markazlarning tajribasi, dasturlari ishga solinishi darkor. Bu o'rinda anchadan buy on maxsus kurslar, markazlar, maxsus o'qitish modullarining keng tarmog'iga ega bo'lgan Frantsiya, Germaniya, AQSH mamlakatlari, shuningdek, Halqaro valyuta fondi, Jahon banki, Evropa Ittifoqi komissiyasi kabi xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlari institutlarining tajribasidan foydalanishimiz zarur.

«Bugungi hayotimizni yangilash va isloh qilish borasidagi har qanday qimmatli g'oyalar va fikrlar sohiblari bilan uchrashish, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, nafaqat akademiya tinglovchilari uchun, balki uning o'qituvchilari uchun ham butun bir maktab bo'lishi muqarrar...

Biz xorijiy mexmonlarga, Evropa va Amerika olimlari hamda amaliyotchilarga katta umid bildiramiz. O'zbekistonning ijtimoiy va davlat qurilishining barcha sohalari bo'yicha o'zlarining qiziqarli g'oyalari va tavsiyanomalarini akademiya bilan baham ko'rishni xoxlagan Germaniya, AQSH, Yaponiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan hozirdayoq kelishuvlar mavjudligi bizni quvontiradi va bu takliflami minnatdorlik bilan qabul qilamiz».

Milliy qadriyatlarimizning mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan yanada yaqinlashuvida davlatlararo, parlamentlararo uchrashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. SHuni e'tiborga olgan holda, jumxuriyatimiz raxbariyati bu masalaga ham ijobiy yondashib kelmoqda.

Jamiyatimizda barqarorlik tinchlikni ta'miniash da jinoyatchilikka, qonunbuzarlikka qarshi olib borilayotgan ishlar qo'l kelmokda. Keyingi yillarda respublikamizda uyushgan jinoyatchilikka, iqtisodiy quporuvchilikka, davlat, jamoat va xususiy mulkni muhofaza qilishda, poraxo'rlikka qarshi keskin kurashlar olib borilyapti. Natijada, jumxuriyatimizda huquqiy vaziyat ancha yaxshilanib bormoqda. Buni boshqa mamlakatlar raxbarlari ham e'tirof etmoqda.

YUqorida yuritilgan mulohazalardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiatiga qushilishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy siyosiy zamin vujudga keldi va u o'z samarasini bermokda.

Barqarorlik tinchlik millatlararo totuvlikning moddiy asosini iqtisodiy islohotlar tufayli yuzaga kelayotgan ijobiy jaraenlar tashkil qiladi. Davlat mulkini xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodiy ot asoslarini barpo etish, agrar munosabatlarning yangi turini shakllantirish va boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik tizimini tamomila tugatish, narxlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish va jaxon iqtisodiy hamjamiatiga qushilish — fuqarolarni ijtimoiy muxofaza qilish ana shular jumlasiga kiradi.

To'g'ri, ayrim hollarda yuqorida ko'rsatilgan jarayonlar ma lum sabablarga ko ra fuqarolar o'rtasida muayyan ziddiyatlarni ham tug'dirmadi. Lekin bular eski iqtisodiy to'zumdan yangisiga utish jarayonida kelib chiqayotgan vaqtinchalik ziddiyatlardir. Umuman olganda, jumxuriyatimizda muvaffakiyatli amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar fuqarolar o'rtasida osoyishtalik tinchlik va totuvlikni ta'minlashga asos bo'lib kelmoqda.

Barqarorlik tinchlik milliy totuvlikning madaniy asosini milliy ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy urf-odat va an' analarning tiklanishi, milliy ongimizning o' sishi, fuqarolar ma'naviy kamolotining yuksalib borishi kabilar tashkil etadi. Istiqlol tufayli mafkuraviy akidalardan xalos bo'lish natijasida o'z mamlakatimiz, o'z xalqimiz tarixini chuqurroq bilishga, ko'plab asrlar mobaynida yaratib kelgingan

ma'naviy qadriyatlardan tula baxramand bo'lishga, ona tilimiz go'zalligi va ulug'vorligini tushunishga muyassar bo'ldik. Ma'naviy kamolotning yuksalib borishi hayotiy qadriyatlami, ijtimoiy taraqkiyotning mazmuni va maqsadlarini isloh qilish va yangilashning barcha jarayonlarini baholashga yangicha yondoshish imkonini berdi»

Halqimiz azaldan orzu qilib kelgan barqarorlik tinchlik totuvlik kabi kadriyatlarga erishgan ekanmiz endilikda bizning oldimizda turgan dolzarb vazifa — ana shu oliv ijtimoiy siyosiy qadriyatlami quldan bermay, avaylab asrab, ko'z qorachig'iday extiyot qilib saqlab qolish ustida abadiy izchil ravishda bosh qo'shishimiz lozim. Bunga O'zbekistonda yashovchi har bir inson, - yoshidan, millatidan kat'y nazar, o'z xissasini qushmog'i kerak. Buning uchun Birinchi Prezidentimiz atrofida jipslashib, xalq bilan bamaslaxat, hamnafas, bir tan bir jon bo'lib, xalol mehnat qilib mustaqillikni yanada mustahkamlashimiz darkor. SHundagina biz o'z maqsadimizga etamiz.

SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar har bir oilada, mehnat jamoalarida, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyatda osoyishtalik tinchlik bo'lsa, mamlakatimizda ham barqarorlik tinchlik totuvlik bo'ladi. Mamlakatimizda tinchlik osoyishtalik bo'lsa, bu mintaqamizdagi barqarorlik tinchlikka garov bo'ladi. Mintaqamizda tinchlik bo'lsa, jahon hamjamiatida ham tinchlik osoyishtalik barkarorlik yuzaga keladi.

YAna shuni eslatib o'tish joizki, jamiyatimizda tinchlik barqarorlik millatlararo totuvlikni ta'minlashda mehnat jamoalarining, tuman, shahar, viloyat raxbarlari katta rol' o'ynaydi. Donishmand raxbar atrofidagi insonlarga doimo g'amho'rlik qilib, ish joylarida yaxshi muxit yaratib beradi va shunday yo'l bilan yangi yutuklami qo'lga kiritishga muyassar bo'ladi. Mansabdar shahslar shuni yaxshi bilishlari kerakki, ular egallab turgan lavozim, mansab xalqda xizmat qilish uchun, ulaming kundalik ehtiyojlarini qondirib, hozirgi murakkab vaqtida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish uchun berilgan,

«Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiatiga qushilishining garovidir», - deydi I.A.Karimov.

Barqarorlik tinchlik totuvlik —mustaqillikning tufayli qo'lga kiritilgan eng katta yutug'imizdir. SHunday ekan, bugungun kunda ulami qadrdash, avaylab asrash, ximoya qilish barchamizning eng dolzarb, eng olivjanob vazifamiz bo'lib qolmog'i kerak

Fuqarolik jamiyati - insonning yalpi xuquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan jamiyat tuzilishi bo'lib, davlat organlaridan tashqaridagi siyosiy partiya va jamoat tashkilotlaridan tashkil topgan jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati - demak, haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'lilikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. O'zbekiston «Kuchli davlatdan -kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasini ishlab chiqdi va uni izchilik bilan amalga oshirmoqda

Tayanch iboralar:

Demokratiya - siyosiy qadriyatlар sifatida, O'zbekistonda demokratik printsiplami joriy qilinishi va muammolari, Huquq va erkinlik shaxs qadriyatlari sifatida, Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik - jahon hamjamiatiga yo'l ochuvchi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlар ekanligi, «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi va uni o'rnatish masalalari.

Mavzuga doir nazarot savollarii:

Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik deganda nimalar tushiniladi?

Nima uchun demokratiya qadriyat xisoblanadi?

Nima uchun huquq va erkinlikning shaxs qadriyatlari sifatidagi axamiyati muhim sanaladi?

Mavzu yuzasidan foydalilanigan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.

2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.

3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.

4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonosada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro'e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Prezident Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatli // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.
12. Prezident I.A. Karimovning «Ikkinchи jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.
13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Prezident I.A.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.
14. 31.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.
15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.
16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'nnaviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.
18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.
19. Yusupov E. Falsaфа. - Toshkent: Universitet, 2000.
20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'FMJ, 2004
23. Achilliев A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

11-MAVZU: Ahloqiy, badiiy-estetik qadriyatlar, ularning tiklanishi va ahamiyati.

Reja:

1. Ahloqiy qadriyatlar va ulami jamiyat hayotidagi o'mi.
2. SHarqona badiiy-ahloqiy qadriyatlarimiz - yuksak madaniyat sarchashmasi.
3. Insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik - Oliyjanob fazilat.
4. Badiiy-estetik qadriyatlar, ularning jamiyat ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.

SHarq falsafasi va Islom ta'lomitida insonniig ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi xaqida juda ko'p qimmatli maslahatlar, fikr-mulohazalar mavjud. Muqaddas Qur'on Karim va Hadisi SHarif insonning ma'nnaviy kamoloti uchun beqiyos manba ekanligi hammamizga ma'lum. SHarq mutafakkirlari, olim ulamolari tomonidan asrlar davomida odob-axloqdga oid minglab kitoblar, xikmatlar yaratilgan. Afsuski, totalitar tuzum tomonidan olib borilgan siyosat tufayli ulardan xalqimiz maxrum qilib qo'yilgan edi. endilikda, istiqlol sharofati tufayli bu sohada ham jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtida xalqimizniig milliy qadriyatlarimizga qiziqishi tobora oshib bormoqda. SHuni hisobga olgan holda jumxuriyatimizda keyingi yillarda mazkur masala bo'yicha o'tmishda arab, fors va boshqa tillarda yozilgan adabiyotlar o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarimizga xavola

etilmoqda. O zbek olimlari, shoirlari tomonidan ham odob axloq masalalariga bag'ishlangan ko'pgina asarlar nashr qilinyapti.

Mazkur adabiyotlarda inson tug'ilganidan tortib to bandalikni bajo keltirganigacha amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar, maslaxatlar o'z aksini topgan. Masalan, birgina shariat qoidalarining o'zida musulmonlar amal qilishi zarur bo'lgan 934 ta talab mayjud. SHular orasida insopparvarlik insonni hurmat qilish va ulug'lashga qaratilgan g'oyalar alohida e'tiborga sazovordir.

SHarq falsafasi va islom ta'lomitida rahm-shafqat, muruvvat, odamiylik kabi fazilatlar doimo ulug'lanib, madx etilib kelingan. Odamiylik—bu kishining boshqa odamlarga, urug'-aymog'iga mexr-shafqat ko'rsatishi, yaxshilik qilishini, insonparvarlik munosabatlarida bo'lishini taqozo etadigan fazilatdir.

YUsuf Xos Hojib odamiylikni quyidagicha madh etadi:

- Senga kim qilar kan odamgarchilik,
- Javob ber unga sen qilib yaxshilik.
- Vafoga vafodor kishilik haqqi,
- Vafo qil, odil bo 'I, jam olmangulik.

Alisher Navoiy odamiylikning asl maqsadini shunday ta'riflaydi:

- Odami er sang demagil odami,
- Onikim yuq xalq g'amidin g'ami.

Kimki xalqqa qanday muomalada bo'Isa xalq ham unga shunday muomalada bo'ladi, «sen xalqqa qancha aralashsang xalq ham senga shuncha yondashadi», degan naqlar bejiz tug'ilmagan.

«Ey aziz, - deydi Muhammad Jabalrudiy, - xalg'ingga doimo yaxshilik qil, g'ilgan yaxshililing ulardan senga qaytadi. Hech kimsaga qasddan yomonlik qilma y, kimki yomonlik qilsa qilgan yomonligi, shubxasiz, o'ziga qaytadi».

Barhrdar ibn Maxmud aytganidek, arjumandlik bayrog'ini ko'taruvchilar va sarbalandlik nog'orasini chaluvchilar qanday kishilarki, ular halqning tinchligini va osoyishtaligini o' ylaydilar va kecha-kunduz shu haqda fikr qiladilar, barcha kishilarni o'z ukalaridek ko'radilar, birovning dil shishasini g'azab toshi bilan sindirmaydilar, adovat va jafo tikanini bechoralik saxrosida yurgan yalanoyoqlar oyog'i ostiga tashlamaydilar.

Xalq bilan hamnafas, hamdard bo'lish, unga yaxshi kunlarda ham, boshiga musibat tushgan qorong'i kunlarda ham sadoqatl bo'lib, astoydil xizmat qilish mumkin — musulmon farzandi uchun eng katta baxt xisoblanib, kelgan, «YAxshi hayot va o'zoq yashash uchun, xalqning duosi va shodligidan yaxshiroq posbon va qo'riqlovchi yuq» deydi, Barxurdor ibn Maxmud.

Xalqparvarlik — barcha insonlarga mexr oqibatli bo'lish, ulami hurmat izzat qilish bilan chegaralanadigan munosabatlarga emas, albatta. Halqparvarlik — eng awalo har bir inson tomonidan boshqalarga nafi tegadigan amaliy harakatdir. SHu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak masalan, moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi har bir mehnatkash uchun halqparvarlik — bu mehnat unumdorligini oshirib xalqimiz uchun zarur bo'lgan iste'mol maxsulotlarini sifatl va o'z vaqtida etkazib berish demakdir.

YOzuvchilar, ziyorolar uchun xalqparvarlik o'z asarlarida xalqning mehnati, hayoti, orzu umidlarini badiiy obrazlarda aks ettirib, ularning ichki dunyosini boyitish, ma'naviy barkamolligi, dunyoqarashini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat, deb bilmog'imiz lozim.

Olimlarimiz uchun xalqparvarlik xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan narsalarni ishlab chiqarishni ilmiy asoslab berish, kishilaming ongi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish demakdir.

Davlat arboblari uchun halqparvarlik — bu eng awalo har bir insonning huquq va erkinliklarini ximoya qilish, ularning extiyojini qondirish, bizrcha ijtimoiy kafolatlarini ado etish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, osoyishtalik, milliy totuvlikni ta'miniash demakdir. Insonparvarlik, xalqparvarlik ayni vaqtda vatanparvarlik hamdir.

VA TANPAR VARLIK - OLIYJANOB FAZILAT

Vatan — sermazmun, juda ham keng tushuncha. U yashab to'rgan uyimizdan boshlanadi. Xalqimiz uy qurgan odamni «vatanli bo'lib qoldi», deyishi bejiz emas. «Vatanostonadan boshlanadi» degan ibora barcha xalqlarda borligi ham shundan dalolat beradi.

Bizning xalqimiz o'zi tug'ilgan joyga juda katta muxabbat bog'laydi. SHuning uchun ham ular boshqa joyga ko'chishni xoxlashmaydi. Boshqa joylarga ketganda ham doimo o'zi tug'ilgan

el-yurtidan aloqasini uzmay, uni ziyorat qilib turadi. Bu ham Vatanga sadoqatli bo'lishning ko'rinishidir.

Vatan — insонning ota-onasi, qarindosh urug'lari, tug'ilib o'sgan joygina emas, balki yoshlik davrlarni boshidan kechirgan, yugurib elib o'ynagan, sayr qilgan dalalar, cho'milib yurgan soylar, daryolar, oromgox bog'lar, tog'lar, tabiat muhitdir. Demak Vatanni sevmoq — kindik qoni tug'ilgan joy tabiatini sevmoq uning uchun qayg'urish ham demakdir.

Vatan — bu birinchi mакtab, birinchi bilim, orttirilgan do'stlar, bilim berib voyaga etkazgan o'qituvchilardir. SHuning uchun ham inson qancha yoshga kirmasin, qaerda ishlamasin birinchi mакtab, birinchi o'qituvchi, maktabdoshlarini hech qachon yoddan chiqarmaydi, ularga doimo xurmat-izzat bilan qaraydi.

Vatan — bu o'sib ulg'aygan maxalla. Maxalla yoshlik davriniig eng yaxshi kunlari kechgan hozirgi hayotida ham hamdard, hamnafas bo'lib kelayotgan qo'ni- qo'shni, do'stu birodarlar maskanidir. Maxallaga hurmat, maxalla axli bilan doimo maslaxatli ish qilish, to' y-tomoshalar va boshqa tadbirlami o'tkazishni har bir inson o'zining muqaddas burchi deb bilgan. Hozir ham maxalla axlining roli tobora kuchayib bormoqda.

Vatan — bu oila hamdir. SHunday ekan oilaga, kindik qoni to'kilgan joyga mexr-muxabbatda bo'lish ayni vaqtida Vatanga sadoqatli bo'lish demakdir. Oila jamiyatimizning asosini tashkil qiladi. Oila a'zolarini, ular tug'ilgan va istiqomat qiladigan uy joyni e'zozlab ayni vaqtida har bir oilaning, insонning shajarasini, tarixini yaxshi bilishini taqozo etadi. Hap bir inson, o'z oilasi, ota-onsa, el-yurt tarixini, shajarasini yaxshi bilib olishi lozim. Bunda ayniqsa oila, maktab katta rol' o'ynaydi.

Vatan — bu har bir inson ishlayotgan mehnat jamoasi, o'qiyotgan bilim yurti, ijtimoiy siyosiy muhit hamdir. Mehnat jamoasining inson hayotida tutgan o'rni katta. CHunki mehnat jamoasida har bir inson hayot mакtabini o'tab, mutaxassis bo'lib etishadi, ma'naviy kamol topadi, hayotda o'z o'mini egallaydi, shuxrat qozonadi.

Vatan - bu har bir kishining yashab turgan qishloq, shahari, tumani, viloyati. SHuning uchun ham ular tuman, shahar, viloyat yutuqlari bilan faxrlanadi, unga o'z hissasini qo'shishga intiladi, mavjud tarixiy yodgorliklar bilan faxrlanadi. Ularning gullab-yashnashiga, obodonligiga ko'maklashadi. Vatan — bu xalqimizning jannat misol makoni O'zbekiston Respublikasidir.

Ona-yurt, Vatan — inson uchun oltin beshik. Inson ana shu oltin beshikda dunyoga keladi, ilk bor qadam tashlaydi, unib o' sadi, voyaga etadi, el yurt xizmatiga bel bog'laydi. SHuning uchun ham vatan har qanday inson uchun onasi kabi aziz va mukarramdir. Vatanni insonga baxt iqbol beradigan muqaddas maskan bo'lib hisoblanadi.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida yozganidek «Vatan har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilar. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar. Xatto bu vatan xis-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar ayrilsa o'zlaridagi kabi roxatda yashamas...»

Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonni, qumlik issiq cho'llami, eskimuslar shimal taraflarini, eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi».

Vatan bu halqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan deganda hamisha o'zimiz tug'ilib o'sgan, ta'lim olgan, voyaga etgan necha-necha avlodu ajdodlarimiz yashab o'tgan, ulaming aqlu-idroklari, mehnatlari sarf etilgan muqaddas yurt ko'z oldimizga keladi. Vatan bu ota yurt, ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, chuqur ildiz otib, o' sib kamol topib boradigan zamindir.

Vatan—muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insонning kindik qoni to'kilgan joy, har kimning borligini qadrlovchi zamin, ma'naviy kamolot va saodat maydonidir. SHuning uchun ham har bir inson o'z dard-alamini, orzu- umidlarini vatan taqdiri bilan bog'lab kelgan.

Vatan mehrini, Vatan sehrini, uning mo"tabarli ulug'vorligini so'z bilan ifodalash qiyin.

Haqiqiy barkamol inson Vatanning ravnaqi va istikboli, el-yurtning ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, xatto, shirin jonini ham ayamaydi.

Bu haqda Mavlono Fuzuliyning «mening bitta hayottim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lar edim», deb aytgan so'zlari har bir

aqli raso fuqaro uchun bebaxo o'gitdir.

Inson uchun Vatan yagonadir. Vatanning katta kichigi, ham, boy kambag'ali ham bo'lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. SHuning uchun ham u pulga sotilmaydi. Vatan m om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir.

Vatanni sevish, ona diyorini qadriga etish, uning kamoloti, gullab-yashnashi, osoyishtaligi uchun qayg'urish yoshligimizdan boshlab ongimizga singdirilishida chuqr ma'n o bor. CHunki, har qanday inson Vatani, ota-bobolari o'tgan muqaddas zamin bilan faxrlanib yashaydi.

Muqaddas Hadisi SHarifda «Vatanni sevmoq iymondandur» deyilgan. Bu so'zda chuqr xikmat bor. Vatanni sevish, ardoqlash kishiga kuch quwat beradi, aql- idrok ato etadi, yuzini yorug' qiladi, jasoratlarga chorlaydi, mardliklarga unday di, odamlar, millatlar, halqlarni birlashtiradi.

Vatanni sevish, Vatanim, xalqim deb yashash, ona-yurtning ravnaqi yo'lida xalol mehnat qilish, o'zini qahramonliklarga tayyorlab borish, o'zi yashab turgan zaminni e'zozlash, uning boyligiga boylik go'zalligiga go'zallik qo'shish, odamlami seva bilish demakdir.

Vatanni sevish, uning har bir qarich erini, har bir siqim tuprog'ini muqaddas bilib qadrlash, ko'zga to'tiyo qilish o'zbeklarga xos xususiyat bo'lib, bu ularga ajdodlardan meros sifatida davom etib, sayqal topib kelmoqda.

Hamid Olimjon «Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman» degan maqolasida bu haqda shunday degan edi: «Mening halqim o'z kindigining qoni to'kilgan tuproqni o'z onasiday aziz ko'radi. Mening halqim o'z bobolari ko'milgan tuproqni o'padi, shu tuproqni harom, порок qilgan odamni o'ldiradi. Qadim o'zbek botirlarn uzoq safarga ketganda, bir xovuch vatan tuprog'ini doim o'z yonlarida olib yurganlar. CHunki bu tuproq ularga o'z tug'ilgan erlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bo'lgan muhabbatini bir nafas ham unutirmagan. Bu bir xovuch tuproq unga o'z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini eslatgan, uzoq bo'Isa ham uni o'z vatanida, xis qiladigan va qasrda bo'lmasin o'z xalqi sha'niga isnod keltirmaslikka, o'z xalqining nomusi va sodiq o'g'li bo'lishga chaqirgan. U Vatanini qancha sevs, ota-onadan, sevimli yordan, qondosh vatanidan nishona bo'lgan shu bir xovuch tuproqni ham shuncha sevgan. SHu bir hovuch tuproqning kuchi shuncha zo'r bo'lganki, u suvsiz saxrolardan, qorli tog'lardan, vaxshiy daryolardan, yowoyi o'rmonlardan ko'z ochib yunguncha o'ta olgan. SHu bir hovuch tuproq uni o'tdan omon saqlagan. O'q uning ko'kragini tesholmagan, qilich tanasini tesholmagan, olov kuydirmagan, zindon chiritolmagan».

O'zbeklardek vatanini sevadigan, yurtiga boglangan halq jaxonda kamdan-kam topiladi. O'zbek halqi qo'liga qurol ushlab Vatan himoyasi uchun dushmanga qarshi jang qilishni juda yaxshi biladi. Vatan deb o'zini ham o'tga, suvga mardona otadi, aziz yurtning har bir qarich eri uchun jon olib jon beradi.

O'zbekistan o'zbek halqi uchun ota yurtdir, uning manfaatlarini himoya qiladigan jahondagi yagona davlatadir.

Vatanimiz O'zbekiston uchun qo'limizdan keladigan har bir foydali ishni qilish, gullab-yashnashi uchun xissa qo'shish bizlarga ajdodlarimizdan qolgan buyuk fazilatdir. «Qizil imperiya» davrida bizga, «sening vataning SSSR», «Vatan Kremlidan boshlanadi» deb qulog'imizga quyishdi. O'zimizniig xakiqiy Vatanimiz O'zbekiston ekanligini qalbimizdan surib chiqarishga, vatan tuyg'usidan judo bo'lishimizga zo'r berishdi. Milliylik va milliy mansublikka, milliy xis-tuyg'u va milliy g'ururga sezdirmasdan zarba urila boshlandi. SHunday joxilliklar natijasida milliy mansublik o'miga mamlakatda «Sovet fuqaroligi» targ'ibot, tashviqot qilina boshlandi. Ona Vatanimiz O'zbekiston uchun emas, balki Sovet vatani ravnaqi yo'lida fidokorlik ko'rsatish, jon olib, jon berishga da'vat etiladigan bo'ldi.

Sobiq sovet imperiyasi davrida odamlarda milliy manfaat, Vatanga, ona- zaminga mehr-muqabbat degan his-tuyg'ular asta-sekin so'na boshlagandi. «Vatan» tushunchasi o'zining jozibasini, ta'sirchanligini yo'qotib, mavxumlikka aylanib qolgandi. Qilinadigan har bir ishda va harakatda millatning tub maifaati, shon-sharafi, milliy o'ziga xosligi, aql-idroki va tafakkuri borlig'i hech kimning xayoliga kelmasdi. Faqat bir narsa «umumsovet» manfaati ko'zda utilardi, holos. Har bir millat va xalq bir necha ming yillar osha yashab kelayotgan o'z Vatani uchun qayg'urishga haqli emasdi, o'zi emasa ichmasa-da, lekin o'sha «ulug' Vatan» uchun tinmasdan mexnat qilardi.

Butun boshli bir xalqni, eng katta va qadimiyl millatlardan biri o'zbeklarni o'z ona yurtida cheklab tashlashdi. Uning huquqlari chegaralandi. Tili kamsitildi, tazyiqqa uchradi. O'beklarning o'tmishi u yodqa tursin, bugungi xizmatlari haqida ham buzib axborot berildi.

Ahvol shu darajaga borib etgan ediki, hatto o'zbek degan millat, O'zbekiston deb ataladigan mamlakat borligini dunyoda ko'pchilik bilmasdi. Al-Xorazmiy, Temur, Navoiy, Ulug'bek, Bobur avlodlarini ko'pchilik tanimas edi.

YAna bir muxim masala ustida fikr yuritishga to'g'ri keladi. Stalin siyosati tufayli bir butun Turkistonni maydalab, «mustaqil» milliy Mamlakatimizlarga bo'lib tashlangan edi. Bu aslida uzoqni ko'zlab qilingan siyosat edi. Ana shu siyosatning zaminida etgan asosiy maqsad, birinchidan, asrlar mobaynida yagona bir xududda yashagan, chegara nimaligini bilmagan, og'a-ini, quda-anda bo'lib kelishgan, o'zbek tojik, turkman, qozoq, qirg'iz xalqlarini bir-biridan butunlay ajratib tashlash, Turkistonni markazning xom-ashyo bazasi sifatidagi holatini chorizm mustamlakachiligi davridagidan ham mustahkamroq qilib quyishdan iborat edi. Ikkinchidan, tili, dini, madaniyati, tarixi, urf-odatlari bir biriga chambarchas bog'liq bo'lgan katta bir xalqni besh millatga ajratib tashlashdan ko'zda tutilgan muddao mazkur xalqlarni milliy o'zligini anglashdan, o'tmish tarixidan, milliy iftixoridan judo qilib, olomonga aylantirish bo'lsa, uchinchidan, zaruriyat tug'ilib qolsa qachonlardir, ular o'rtasiga nifoq solish, gij-gijlatish, orani buzib, bemalol xukmronlik qilaverish edi. YAgona bir butun ulug' va qudratli Turkistonni parchalab yuborishdan, milliy mamlakatimizlarga «mustaqillik» berishdan markazniig muddaosi nimadan iboratligi tub moxiyatini to'la tushunib etgan, buning oqibatida juda daxshatl va fojiali bo'lishini anglab etgan elimizning ilmli, zukko kishilar, ma'rifatchilar, ko'zga ko'ringan kishilar birin-ketin yo'qotildi, «xalq dushmani»ga chiqarildi, qatl va surgun qilindi. Muxojirlirkda yashashga majbur qilgan yurtdoshlarimiz mol-dunyodan emas, balki g'ariblikdan, Vatan diydoriga intazorlikda yashashdan cheksiz azob chekishgan.

Inson uchun na davlat va sultanat, na toju taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mexriga teng kelolmaydi. Vatandan judolik inson uchun eng katta baxtsizlikdir. G'urbatda, ayriliqda inson o'zini shod, baxtiyor hisoblay olmaydi.

SHod etmas emish kishini g'urbatda kishi, shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi, ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, ox g'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

Bu misralar o'zbek shoiri, Hindistondek buyuk mamlakatning podshosi bo'lgan Zaxiriddin Bobuming qalbidan afsus bilan otilgan nidosidir. Buyuk bir davlatning podshosi bo'laturib, uning bunchalik afsus nadomat chekishiga nima sabab bo'ldi? Bunga sabab yurt-mexri, Vatan ishq emasmiyan!?

Vatandan ayriliqda yashagan, o'zining butun borlig'i, g'oyasi, tanu-jonini millatiga baxsh etgan kishilarni shuro matbuoti, komfirqa mafkurasi va siyosati uzoq yillar davomida «Vatan xoinlari», «Vatangadolar» deb badnom qildi. Ularga qarshi qanchadan-qancha kitoblar, maqolalar yozildi, tuhmatlar, ig'volar uyuşhtirildi.

Ona — Vatan tuprog'idan benasib bo'lib, xorijda makon topgan vatandoshlarimiz so'nggi nafaslarigacha kindik qonlari tomgan ota meros yurtlari Turkistonni sog'inib, Turkistonga sig'inib, Turkistonga talpinib va topinib yashaganlar. Vatan diydorini qayta ko'rolmasdan, uning mehriga to'yolmasdan olamdan ko'z yumganlar, «O'zga yurtlarda eb ichish, kiyinish va ilm olishdan kamchiligidan bo'lmasa-da, - deb yozadi Buxoro sho'rolar xokimiyatingbirinchi raislaridan bo'lgan. Usmonxo'ja Po'latxo'jaevning farzandi, hozir Germaniyaning Myunxen shahrida yashovchi professor Temurxo'ja, - otamdan eshitganim Turkiston degan yurtga borishni qirq uch yil kutdim. SHu tuproqqa mexr qo'ydim, hamisha yodim-da, yuragimning tubida olib yurdim. Otamning tuyg'ulari, azoblari menga ko'chdi. Vafotidan oldin yonlariga chaqirib «Men senga bankda pul, shoxona qasrlar, hosildor erlar qoldirayotganim yo'q, seni suyadigan aka-uka ham qoldirmadim, faqat hamisha yodingda tutishing uchun Vatan xasratini qoldirdim» degan edilar. Otamning vasiyatlarini eshitgan onimdan boshlab men qayta Vatanlik bo'ldim. Vatan isming ichimda...»

Aytilganlardan ko'rinish turganidek Vatanimizning ozodligi va mustaqillikkni qurish istagi va orzusi faqat bizlardagina emas, balki musofir yurtlarda sarson sargardonlikda yurgen vatandoshlarimizning dillarida ham allaqachonlardan beri to'lib toshib ketayotgan edi.

Qanchadan-qancha bobokalonlarimiz, avlodu-ajdodlarimiz zo'r intazorlik bilan kutgan kunni — Vatanimiz ozod, erkin va mustaqil bo'lganini ko'rish har birimiz uchun eng katta quvonch, buyuk baxtdir. Buning uchun Ollohga ming karra shukur aytamiz. CHunki bu ulug' tarixiy kunlarga etganlar bor, etmaganlar bor, O'zbekiston davlat mustaqillik shu tuproqda yashayotgan millatdoshlarimiz qatori uzoq yillar davomida ona-yurtidan, elidan, qarindoshlaridan ayrilib, musofirlik xijronlarini tortgan muxojir yurtdoshlarimizni ham xayajonga soldi va cheksiz quvontirdiki, so'zda ifodalab

bo'lmaydi.

Toshkentda tugilib, hozir Olmoniyaning Myunxen shahrida istiqomat qiluvchi Murod Axmedov «Xalq so'zi» ro'znomasiga yuborgan xatida shunday deydi: «Vatan yagona tuyg'u bo'lib, uning takrori, o'xshashi yo'qdir. Olisda bo'lsam ham oxirgi nafasimgacha vatanim yodi bilan yashayman...»

«O'z uying ulan to'shaging», degan maqolning qadrini hech kim menchalik tushunib etmas, desam mubolag'a bo'lmas. SHuning uchun ham vatanni ulug'lovchi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi baxonasida O'zbekiston bilan hayolan suxbatlashdim, chog'roq she'r ham ezdim:

CHappar urgan chaman Vatan,
Bo'lgin doim omon Vatan!
Kindik qonim tomgan Vatan,
Ko 'z yoshtalarim yum-yum,
Sog'inchlarim lim-lim.
Jannatmakon yurtsan o 'zing,
Nasibasi butsan o 'zing,
Engilmagan mardsan o 'zing,
Ko 'z yoshtalarim yum-yum,
Sog'inchlarim lim-lim.
Ertayu kech o 'yimdasan,
Tushimdasan, o 'ngimdasan,
Ko 'nglimdasan, ko 'nglimdasan,
Ko 'z yoshtalarim yum-yum,
Sog'inchlarim lim-lim...»

Mustaqillikning eng katta ne'matlaridan biri bo'ldiki, endilikda olamlardagi millat, Vatan xaqidagi tushunchalar o'zining asl ma'nolariga qaytmokda. Vatan, bu endi ilgarigidek siyosat va mafkura asosiga qurilgan, milliy xis va idrokdan uzoq, allaqanday mavxum tushuncha emas. Mustaqillik tufayli biz o'zimizning xaqiqiy Vatanimizni topdiq. Jahon siyosiy haritasida (U zbekistan atalmish mustaqil davlat paydo bo'ldi.

«Vatan tuyg'usi — bu aziz va go'zal Vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli qilish demakdir. Vatanga sadoqat barchamizning farzandlik burchimizdir.

Vatan tuyg'usi — bu halqimizning oltin merosi, an'analarini, tili va madaniyatiga hurmat bilan qarash. Turon, Turkiston, (U zbekistan deb ataluvchi yurtimizning tarixini muttasil o'rganib borishdir».

Vatanimiz taraqkiyoti va istiqbolini jumxuriyatimizda yashayotgan turli halqlar va millatlarnnng o'zaro hamkorligi, do'stligisiz tasawur etib bo'haydi. Xalqlar do'stligi va qardoshligi kuch-kudratimizning manbai, mustaqilligimizni mustahkamlashnint yo'llaridan biridir.

O zbek xalqining erki, ozodligi va mustaqilligi, baxt-saodati, sevinchi va quvonchi jumxuriyatimizda istiqomat qilib kelayotgan qozoqlar, qirg'izlar, ruslar, turkmanlar, koreyslar, tatarlar, uyg'ular, ko'ringki, barcha xalqlar va millatlar bilan samimiyoq do'stlik va qardoshligidadir.

Tarix o'zbek xalqining zimmasiga bugungi kunda g'oyat buyuk muqaddas vazifani yukladi. Bu vatanimiz kuch-qudratini mustahkamlash, uning dovrug'ini olam uzra yoyish, shuxratiga shuxrat qo'shishdir. Vatanini butun borlig'i ila sevmagan, Vatan erki, yurt saodati uchun hayotini tikmaydigan kishini vatanparvar deb bo'lmaydn.

Haqiqiy vatanparvarlik millat, Vatan manfaati deb yashash, uning istiqboli, baxti va saodati yo'lida mehnat qilish uchun kurashishdir. Vatan erki va yurt ozodligi uchun hayotini tikkan kishini xalq ham, tarix ham aslo unutmaydi. Bundaylarni bemalol hakiqiy vatanparvar deb aytса bo'ladi.

Mustaqil O'zbekistonimizning ravnaqi, istiqlolli novqiron avlod tarbiyasi va ta'limiga ko'p jihatdan bog'liq. YOshlar Vatanimizning, mamlakatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshiramiz. Buning uchun ular zimmalariga yuklatilayotgan eng murakkab va mas'uliyatlari vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, xis qilishlari, unga o'zlarini hozirdanoq tayyorlab borishlari lozim.

YOshlarda o'z Vatani bilan faxrlanish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat odamning qalbiga ona suti bilan birga kiradi. Bu muqaddas tuyg'uni ona allasi parvarish qiladi, ota tarbiyasi va o'rnagi ulg' aytiradi.

YOsh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda urush va mehnat faxriylarining roli katta. Insonda yurtga, Vatanga muhabbat, keljakka ishonch tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. "Vatanga muhabbat hissi, - deydi Birinchi Prezidentimiz I. Karimov, - odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. YA'ni inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'Isa, tug' ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo' ladi"

SHu bidan birga, faxriylarga hurmat-e'tibor bilan qarash, ulami ijtimoiy muxofaza qilib, jamoat ishlarida, ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish — mustaqil davlatimiz tomonidan qilinayotgan xayrlı ishlar sirasidandir.

YOshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda oila tarbiyasi katta o'ren tutadi. Jamiyatning, davlatning, insonning kelajagi oiladan boshlanadi. Insonda yurtga, vatanga muhabbat, keljakka ishonch tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati benihoya katta.

Hayot tajribasi, insonning ilmiy, axloqiy kamoloti, o'z burchi va mas'uliyatini his qilish imkoniyati kuchayib borishi natijasida vatanparvarlik tuyg'usi kundalik axloq me'yorlariga, keyinroq borib e'tiqod va imonga aylanadi. Bugungi kunda yoshlarimiz vatanparvarlik bilan o'z vataniga sodiq bo'lish, uni himoya qilishga tayyor bo'lish, milliy qadriyatlarni asrash va yanada rivojlantirish, xalqning shon- sharafini yuqori ko'tarish kabilarni bog'laydilar.

YUksak ma'naviyat, odob-axloq, iymon, e'tiqod, insofu diyonat, yaxshi xulq- atvor insonda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ma'naviyat insonga xos xususiyat bo'lib, uning jamiyatdag'i hayoti, tarbiya, mehnat, hayot tajribasi jarayonlarida shakllanib sayqal topib, ruhiy mohiyatga aylanadi. Ishlarga beriladigan tarbiya qancha ertaroq boshlansa uning samarasini shuncha kuchli bo'ladi.

Inson kamolotida tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Abdulla Avloniy yuqorida eslatib o'tilgan asarida bu haqda «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo haloqat, yo sabot yo faloqat masalasidir» deb yozgan edi. OTkamiz halqlarining yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviy kamoloptirish imkoniyatlari bitmas- tiganmasdir.

O zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf- odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat emay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rindan turib ko'tib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr va shafqat, urug'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilarga, xesh-aqrabo-larga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamini ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

O'zidan kattalami, birinchi galda keksa bobolaru otalarni, nuroniy onalaru buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamini ayamaslik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, u o'zbek oilasida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qonga, vujud-vujudiga singdirib yuboriladi.

XI asrning ulug' shoiri, donishmandi, YUsuf Xos Hojib qariyalami hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlash joizligini uqtirib shunday degan edi:

Uluqqa etishsa kichik hurmati,
Ulug' ham kichikka hurmat ko 'rsatur.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlaridan boshlab hozirga qaHar davom etib kelayotgan ajoyib qadriyatlaridan yana biri — ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromlari, hurmatlarini joyiga qo'yishdan iboratdir.

Ota-onani qadrlash, ulaming tengsiz, o'lchovsiz xizmatiga sodiq bo'lish, duolarini olish bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

SHe'riyat mulkinining .sulton Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish farzandlar «...uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo' Isa ham, kam deb bil. Otang oldida boshiigii fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziliginini ol! Tunu kunga nur berib to'rgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chiziqdandan tashqariga bir qadam bilan Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» so'zidagi «dol» kabi qomatningi ham qil»

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat—bular insonni inson qilib turadigan axloqiy va ma'naviy qadriyatlarimizdan hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni —Konstitutsiyasida odob-ahloq

masalasida, xusu-san farzandlarning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalar davr talabiga binoan belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar* 2.

Milliy qadriyatlar xususida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatlarimizga ko'ra, o'zbek oilalarida, ayniqsa ko'p bolali xonodonlarda yoshlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Oilada ota-onaga yordam berib mustaqil mehnat qilishga intilib, hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha mehnat qilib bola chiniqqan, murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siqlar va qiyinchiliklarni bardosh bilan engib o'tgan, ota-onasining qadriga etgan, yoshligidan ko'zi pishib, oqu qorani tanigan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin yoshlar tarbiyasining mazmuni va mohiyatida, usul va shakllarida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Maktablarni milliylashtirish boshlandi. Ta'lim-tarbiyaga milliy qadriyatlarni joriy etish asosiy o'rin to'tadigan bo'ldi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Eshlarda milliy g'urumi shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat be-riladigan bo'ldi.

Bilimni sevish va ardoqlash, olimu fuzalolami, ustozlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham ibrat bo'ladijan ajoyib qadriyatlarimiz ko'p.

Bilim va zakovatning qimmati, jamiyat taraqqiyoti va shahs ma'naviy-ahloqiy kamoloti uchun ahamiyati shu qaHar kattaki, uni ta'riflashni ado qilib bo'lmaydi. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq hech narsa yo'qligi to'g'risida qadimgi hind dostoni «Kalila va Dimna», Nizomulmulknинг «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Tushioma», YUsuf Xos Hojibning «Qutag'du bilik» Ahmad YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq», Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat», Alisher Navoiyning «Hamsa» kabi ja-honga mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning ilm-fanimizda, madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib baen etmagan bironqa shoir va yozuvchi, bironqa olimu ulamo, bironqa etuk davlat arbobi bo'lmagan desak, mubolag'a emas. Buning uchun loaqal Muhammad Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruiy, Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi.

XII asrda ijod qilgan donishmand shoir Ahmad YUgnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asarida ilmli bilan bilimsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikri bunga misol bo'ladi: «Bilim to'g'risida so'zlamoqdaman, so'zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxt saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas qalbaki (aqcha) dir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo'ladi? er kishi bilim o'rganib bilguvchi bo'lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko'rgiliklar ichida qoladi. Bilimli er o'Isa ham oti o'lmaydi, bilimsiz kishining hayot chog'ida ham uning oti o'likdir».

YUsuf Xos Hojibning fikmcha, zakovat qorong'u tundagi mash'al kabitdir, bilim esa nur tarqatuvchi yorug' likdir. Kimda zakovat bo' Isa, o'sha asl odam bo' ladi, kimda bilim bo'Isa u martabaga erishadi, Odam zakovati tufayli asl ataladi. Bilim gavhar kabi bir erda to'planib turadi, u zakovatning konidir. Mushk-anbar va bilim bir-biriga o'xshash narsalardir, ulami o'zidan bo'laklardan yashirib saqlab bo'lmaydi. Mushk-anbarni yashirsang, uning hidi oshkor qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkor qiladi. Bilim o'z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmas-tuganmas boylikdir, o'g'ri va qalloblar uni hech o'g'irlab ola olmaydi.

Odamlarda ilmu hunar qancha ko'p bo'Isa, u o'zini shuncha oddiy, kamtarin tutadi. Kamtarlik odamni bezay-di, obro'sini oshiradi, do'stini ko'paytiradi. Kamtarlik, sermulohazalik, vazminlik, og'ir-bosiqlik singari insonni axloqiy-ma'naviy jihatdan go'zal qilib ko'rsatadigan yuksak fazilat va xislatlar kishining bilimidan kelib chiqadi. Buni bizning aj-dodlarimiz orasida o'tgan ulug' va dono kishilar, shoir va faylasuflar ham ko'p ta'kidlab o'tganlar.

Ana shu erda ulug' bobomiz Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub» asarida kamtarlik, tavoze' haqidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir. «Tavoze' kishi huzurida o'zini past tutish, kamtarlik ko'rsatish, xalq muhabbatini o'ziga tortar va odamlarni shu ishni bajaruvchi bilan do'stlashtirar.

Tavoze' do'stlik chamanida toza gullar ochar va u chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochar... Adabdan muhabbatga bezak va pardoz etadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Tavoze'li va odoblilarga ta'zim va hurmat etadi va urug'ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi».

Mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda diniy g'oyalar va qadriyatlardan, odob, axloq borasida islom imkoniyatlaridan oqilona, ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Islom dinida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan, hozir ham o'z qimmatyni to la saqlab qolayotgan eng muhim ahloqiy qoidalar, falsafiy fikr-muloha-zalar behisobdir. Islom odamlarni dinidan, millatidan qat'iy nazar, o'zaro hurmat-izzatda bo'lishga, bir-birini moddiy, ma'naviy, ruhiy qo'llab-quwatlashga unday di. Millat ajratish, boshqa millat kishilarini kamsitish islom dini aqidalariga tamomila yot.

Tabiatga mehr-muhabbat, tevarak-atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabototni asrab-avaylash islomning asosiy g'oyalaridan biridir. Tabiat ne'matlarni e'zozlash, ulaming qadriga etish—insonning burchi. Tabiiy ne'matlarni e'zozlash ularni asrash bilan, isrof qilmaslik bilan bo'ladi. Qur'onagi oyatlarda, payg'ambarimiz hadislarida hayvonot olAami, nabotot olami va atrofimizni o'rabi to'rgan boshqa narsalarni to'la-to'kis himoya qilish, saqlash, ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to'g'risida ta'limotlar borki, ular bilan tanishib, bu ta'limotlar go'yoki hozirgi kunimizni ko'zlab aytilganday ekandigiga guvoh bo'lasiz.

Jamiki tabiiy boyliklar, dov-daraxtlarni, hayvonot olamiyu suvdagi jonivorlarni avaylash masalasida islom dinida bayon etilgan eng zarur, eng foydali yo'l-yo'riqlar, bebafo o'git va g'oyalar umuminsoniy ahamiyatga molik qadriyatlar hisoblanadi, u millat tanlamaydi. Islom dinida tabiatni ko'z qorachig'idek avaylash haqidagi g'oyalar umumbashariy qadriyatlardan bo'lib hisoblanadi. Unda alohida ta'kidlanishicha, kaysi bir mo'min inson ekin eksa, yoki mevali daraxt o'tkazsayu ulardan qushlar, odamlar yoki hayvonlar esa bu uniig sadaqa hukmida bo'ladi. Bundan tashqari soyasidan xalq foydalanib to'rgan daraxtni kesib yuborgan odam do'zaxga mahkum etiladi, degan fikrlar ham bayon etilgan.

«Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat to'rgan paytda bexosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering», deb uqtirilganligi qanchalik muhim va zarurligini aytib o'tishning hojati bo'hNASA kerak, deb o'ylaymiz.

Islom dinida birovlarining haqiga ko'z olaytirish, ichkilikbozlik, o'g'rilik va qabih ishlar bilan shug'ullanish, foxishabozlik qattiq qoralanadi. Din odamlarni xarom-harish yo'llardan chetda yurishga, insofli, diyonatli bo'lishiga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga unday di.

Tarbiya, odob-axloq, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-onasi va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik singari insoniy qadriyatlar keng tashviq qilinadi. Buning aksicha, razolat, kibr-havo, ado vat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi razil sifatlar esa keskin qoralanadi.

Imkoni boricha va qaerda qodir bo'lsang ilm o'rgan ma'rifatingni ziyoda qil, degan g'oya islom dinining mag'iz-mag'iziga chuqur singdirib yuborilganligini Ha- disi SHarifdan olingen misollardan ko'rnish mumkin. «Ilmini CHin mamlakatida bo'Isa ham talab qilinglar», «Beshikdan to tobutgacha ilm izla» kabi chuqur ma'noli fikrlar musulmonlar uchun asosiy qo'llanma bo'lgan.

Islom dini va axloqi bay on etilgan, uning butun mohiyati asosiga jo qilib yuborilgan g'oya va qoidalarni bilib olish, ularga asoslanib ish yuritish, faoliyat ko'rsatish, shahsning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanishi uchun benihoya zarur va muhim.

Ma'naviy va ahloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr- muhabbat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi noyob insoniy fazilatlar qanchalik avaylab-asralsa, hayotga keng joriy etilsa, insonning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati shunchalik kuchayib, takomillashib boradi. Ana shu masalalarga alohida e'tibor qilinmasa kelajak boy beriladi.

«Mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lidagi eng katta masala, kishilarimiz dunyoqarashida, jamiyatimizda vatanga mehr g'oyasi birinchi o'rinda turishi kerak. Har qanday ish asosida milliy oriyat, milliy g'urur, millatchilik yoki shovinismga aloqasi bo'limgan, mana shu mamlakat mana shu halqqa mansubligi uchun kuch- quwat bag'ishlaydigan g'urur qo'yilishi lozim.

Bu muqaddas tushunchalar millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, mana shu yurt, mana shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir kishining hayoti, ongi, qoni va jismiga singib ketishi kerak.

O'tmishimiz va kelajagimiz bag'ishlaydgan mana shu iftixor tuyg'usi bilan biz yangi avlodlarni

tarbiya qilishimiz, o'z milliy davlatimizni qurishimiz lozim».

Haqiqiy vatanparvarlik xalq boshiga qora bulutlar yig'ilib, musibat tushgan vaqtarda, ayniqsa, namoyon bo'ladi. Buni biz o'zbek xalqi 1941 — 1945 yillarda fashizmga qarshi olib borgan mardonavor jasoratlaridan, vatanga bo'lgan chuqur sadoqatlaridan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Urush yillarida ko'rsatgan mardligi, matonati va qahramonligi uchun O'zbekistonning 120 ming o'g'il-qizlari or den va medallar bilan taqdirlandilar, ulaming 338 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni Oltin yulduzini, 53 nafari esa SHuhrat ordenining har uchchala darajasini olishga musharraf bo'ldilar. Urush yillari frontga O'zbekistondan jami 1 million 300 mingdan ziyod ofitserlar va soldatlar jo'nadi. SHularning 40 mingdan ko'prog'i jang maydonlarida mardlarcha halok bo'ldi, 130 mingdan ortig'i bedarak yo'qoldi.

1995 yilning 1 yanvarida bo'lgan ma'lumotlarga ko ra hozir O'zbekistonda 108 ming 281 urush qatnashchisi, 171 ming 370 urush ortida mehnat qilganlar, urushda halok bo'lganlaming 20 ming 676 oilasi istiqomat qiladi.

Hukumatimiz ularga katta e'tibor va g'amho'rlik qilayotir. Urush qatnashchilari «Jasorat», front orti mehnatkashlarining esa «SHuhrat medallari bilan taqdirlanganliklari buning yorqin dalilidir.

SABR-QANOAT— ULUGHISLAT

Xalqimizga xos yana bir ajoyib fazilat — sabr-qanoatdir. «Sabr, - Muhammad Jabolrudiy aytganidek, - barcha mehnat va og'irlikni engish va chidashdir. Bechora va nochor bo'lsa-da, o'zini badavlat kishidek tutish, ko'ringan kimsaga ahvoli haqida shikoyat qilavermaslik, g'amli kunda ham o'zini xandon va ochiq yuzli qilib ko'rsatishdir». Sabrli odam uzoq yashaydi. Sabri ko'pning do'sti ko'p. YOmon kunda sabr qilgan qilishi yaxshi kunga tez etadi.

Donolar deydirarki, «Qanoat tuganmas boylikdir, qanoatli kishi hech qachon kambag'al bo'lmaydi, chunki uning hech kimga ishi tushmaydi. Qanoatsiz kishi esa gadoya o'xshaydi, uning hamma narsasi bo'Isa ham ko'zi to'ymaydi, ko'proq topishga intiladi, narsa uchun odamlar oldida bosh egadi. Qanoatli kishi hech qachon xor bo'lmaydi. Aksincha, kishida qanoat bo'lmasa, topgan-tutganiga sabr qilmay ko'pga intilsa oqibat xorlik tortadi. Otalar so'zida aytishicha, qanoatli kishi qiyinchilikka, vijdonli kishi bechoralik kuyiga tushmaydi.

Mazkur fazilatlar ota-boblarimizdan bizga o'tib kelayotgan buyuk axloqiy qadriyatlardir. Unga amal qilish barchamizning burchimizdir. Ayniqsa hozirgi murakkab jarayonda sodir bo'layotgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga bardosh berib, sabr-toqat qilib, oldimizda to'rgan qiyinchiliklarni engib, Vatanimiz ravnaqi uchun mehnat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Sabr-toqat ayniqsa yosh avlod uchun zarur. Sabr-odob ahloqning ruhiy tayanchlaridan biri, chunki u har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishga yordam beradi, u mas'uliyat sezgisini tarbiyalaydi. SHuning uchun ham sabrli odam jamiyatda katta obro'-e'tiborga ega bo'ladi.

Alisher Navoiyning fikricha, «kimki sabr-qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'Isa, bilki, bu uni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zeb-ziyatlarni boylik deb bilsa, bilki haqiqiy boylik sabr-qanoat oltinlaridir. Qanoat oltini hech qachon yo'qolmaydi, Ana shu oltinni qo' lga kiritib shu orqali boyishga harakat qil. Kulbada qanoat qilganning joyi izzat taxtidadir».

Sabrli kishi hayotning achchiq-chuchugiga bardosh beradi, topganiga qanoat qilib yashaydi. Sabr-toqat qanchalik og'ir bo'lmasin keyinroq shodlik keltiradi. Xalqimiz «sabr tagi — sariq oltin», deb bejiz aytmagan. Toqatlilik, bardoshlilik, vazminlik kabi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar aslo xor-zor bo'lmaydilar.

Yoshlarni milliy qadriyatlar, sharqona odob-axloq asosida tarbiyalash — davr taqozosi

Davlatimiz madaniy-ma'naviy mustaqilligini ta'minlashda yoshlarni sharqona odob-axloq, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatimizimizga xorijiy mamlakatlarning sarmoyasi, yangi texnologiyasi, zamonaviy boshqaruv usullari bilan bir qatorda ulaming madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi kabilami ham olib kelmoqda. SHuning uchun biz yoshlarimizni millatimizning izzat-nafsi, g'ururiga tegadigan ayrim noma'qul hollardai asrashimiz kerak. Afsuski, «san'atda oshkoraliqni pesh qilib televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'limg'ur lav-halarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlik, ba'zan esa hatto ahloqiy buzuqlikni targ'ib qilishlar ko'rinish qoldi».

Bundan tashqari bozor munosabatlarining rivojlanishi tufayli chegaramiz ochilib mintaqamizga, shu jumladan respublikamizga ham chet-ellardan sifatsiz spirtli va boshqa ichimliklar, tamaki, turli dorilar, oziq-ovqat mahsulotlari keltirilib savdoga chiqarilmoqda. Natijada

biz o'z ixtiyorimiz bilan chet ellardan keltirilgan moddiy va ma'naviy afyun bilan xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni jismoniy va ruhiy jihatdan zaharlantirishga imkoniyat yaratib berayotirmiz. Axir rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o'zida ham sifati past, zararli mahsulotlarni iste'mol qilish u yoqda tursin, ularni ommaviy axborot vositalari orqali tashviq qilish ham man qilingan-ku!

Birinchi Prezidentimiz xalq deputatlarini Samarqand viloyat kengashi sessiyasida so'zlagan nutqida (1995 yil-21 noyabr') «televidenie ko'proq chet el videofil'mlarini namoyish qilish bilan cheklanib qolmoqda» deya yana bir bor yoshlар tarbiyasiga e'tibomi kuchaytirish zarurligini uqtirib o'tdi.

Xo'sh, buning uchun nimalar qilish kerak? Xorijdan keltirilayotgan axloqiy va g'oyaviy sust, ur-yiqit, jin-siy aloqa, giyohvandlik, terrorizmni targ'ib etuvchi kino — video mahsulotlarini savdoga chiqarmaslik kerakmi? Yo'q, albatta. Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan ekan, yuqorida atalgan mahsulotlar istaymizmi- istamaymizmi baribir mamlakatimiziga olib kelinaveradi. Bu tabiiydir. Ma'muriy yo'l bilan bularni to'xtatib bo'lmaydi. Lekin bundan mazkur jarayonga biz hech qanday ta'sir ko'sata olmaymiz, degan xulosa chiqarish noto'g'ridir.

Fikrimizcha, chet ellardan kirib kelayotgan milliy urf-odat, an'analar va ma'naviyatimizga tamomila zid bo'lgan axloqiy buzuqlik, hayosizlik va bema'nilikni yoqlovchi asarlarga qarshi o'zimizning ko'p asrlik tarixga ega, jahon xalqlari tomonidan z'tirof etilgan sharqona yuksak madaniyatimiz va ma'naviyatimizni qalqon etib qo'yishimiz kerak. Bunga erishish uchun har bir kishida biz yuksak madaniyat va ma'naviyat vorislari ekanligimiz haqida va bu bilan qanchalik faxrlansak arzirlik ekanligi haqida fikr, his-tuyg'ularni hosil qilishimiz darkor. O'zini yuksak madaniyatli millatga mansub ekanligini ongli ravishda his qiluvchi va bu bilan qonuniy ravishda faxrlanuvchi insonni hech qachon axloqiy va g'oyaviy jihatdan past madaniyatga (u qanday shaklda namoyon bo'lmasin) qaram qilib qo'yish mumkin emas!

SHunday ekan, bugungi kunda yoshlарimizning g' oyaviy-madaniy saviyasini yanada oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun yoshlarga milliy qadriyatimiz, ma-daniyatimiz va ma'naviyatimizni yanada chuqurroq va to'laroq o'zlashtirib olishga har tomonlama ko'maklashish bilan bir qatorda o'tmishda keng qo'llanilgan siyosiy oqartuv ishlarini jonlantirish, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktablarda, mehnat jamoalarida sharoitga qarab kamida har haftada siyosiy o'quv o'tkazishni tiklashimiz zarur, deb o'ylaymiz. Hozirgi vaqtida mamlakatimiz va jahon xalqlari hayotida o'ta murakkab jarayonlar va hodisalar ro'y bermoqda. Ular har bir kishidan nihoyatda ehtiyojkorlikni, ziyraklikni, xatti-harakatlarini puxta o'ylab, uzoqni ko'rib amalga oshirishni talab etadi. Bunga siyosiy o'quv orqali erishish mumkin. YUksak madaniyatli, ma'rifatli, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy etuk inson—davlatimiz xavfsizligini, mustaqilligini ta'minlovchi kuch ekanligini hech ham esdan chiqarib bo'lmaydi!

Tayanch iboralar:

Ahloqiy qadriyatlar va ularni jamiyat hayotidagi o'mi, SHarqona badiiy-ahloqiy qadriyatlarimiz - yuksak madaniyat sarchashmasi, Insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik - Oliyjanob fazilat, Badiiy-estetik qadriyatlar, ulaming jamiyat ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.

Mavzuga doir nazarot savollarii:

1. Ahloqiy qadriyatlar deganda nimalar tushiniladi?
2. Nima uchun insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik qadriyat xisoblanadi?
3. Nima uchun badiiy-estetik qadriyatlamining shaxs qadriyatları sifatidagi axamiyati muhim sanaladi?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.
4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar

faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O’zbekiston”. T.: “O’zbekiston”. 2017. 107 b.

5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so‘zi. 2010 yil, 7 dekabr.

6. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonosada. - Toshkent: O’zbekiston, 2011.

7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O’zbekiston, 2011.

8. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so‘zi. 2011 yil, 8 dekabr.

9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko‘taradigan yil bo‘ladi // Xalq so‘zi, 2013 yil 20 yanvar.

10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro- e’tiborini yanada oshirish yo‘Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O’zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.

11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Prezident Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbat // Xalq so‘zi, 2013 yil 10 may.

12. Prezident I.A. Karimovning «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi farmoni // Xalq so‘zi, 2013 yil 19 aprel.

13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo‘lib yashash- bugungi hayotning o’tkir talabi. Prezident I.A.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O’zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.

14. 31.0’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O’zbekiston, 2010.Qo’shimcha adabiyotlar.

15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.

16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O’zbekiston, 1999.

17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma’naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.

18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.

19. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.

20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to‘plami. - Toshkent: O’zbekiston, 1997.

21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O’zbekiston, 1999.

22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent:O'FMJ, 2004

23. Achildiyev A.S. Milliy g’oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O’zbekiston, 2004.

12-MAVZU: Diniy qadriyatlar va ularni komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

Reja:

Din - ijtimoiy ongning alohida shakli.

E’tiqod - diniy qarashlarning asosi.

Jahonning asosiy dinlari va ularni xalqlar ma’naviy hayotiga ta’siri. Islomiy qadriyatlar.

Mustabidlik sharoitida diniy qadriyatlarning ahvoli.

Mustaqillik sharoitida din.

Diniy bag’rikenglik - jamiyatimiz ma’naviy rivojlanishining zaruriy sharti.

Din tushunchasi o’zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, ishonch, inonmoq ma’nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, din real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalami tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mayjud deb hisoblaydigan, ularni o’ziga xos tarzda aks ettiradigan ma’naviy e’tiqod va amalning bir turidir. e’tiqod so‘zi ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, chuqur, mustahkam ishonch ma’nosini anglatadi- Demak, diniy e’tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak, ishonish tushuniladi. Ilohiyot, ya’ni diniy ta’limot nuqtai nazardan "din", "diniy e’tiqod" tushunchalari jamiyat, inson, uning ongi hayotning ma’nosи, maqsadi va taqdiri uni bevosita qurshab olgan moddiy olamdan tashqarida bo’lgan, uni go’yo yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir "to’g’ri",

"haqiqiy", "odd" hayot yo'llarini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy kuchga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarashlar, ta'limotlar majmuidan iboratdir.

Arab istilochilar O'rta Osiyonni egallab olgandan so'ng islomni joriy qilish bilan o'z yozuvlarini ta'lim-tarbiya, odob-axlokdarini va shu bilan birga arab madaniyatini olib keldilar. Islomgacha bo'lgan dinlar bilan bog'liq yozuvlarni, toat- ibodat buyumlarini yo'q kllishgan. Ibodatxonalar o'rniga masjidlar qurilgan, arab alifbosiga asoslangan yozuv kiritilgan. Davlat tili, ilmiy til asosan arab tili hisoblangan. Bu haqda Beruniy o'zining "Kadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozishiga ko'ra, Xorazmda arab lashkarboshisi qutayba islomgacha bo'lgan din bilan bog'liq yozuvlarni yaxshi biladigan va o'z bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, bu yozuvlarni butunlay yo'q qilib yuborgan

Islomgacha "din" so'zining o'rniga "tangri yo'li", "unga ishonch" iboralari qo'llanilgan bo'Isa kerak. Turkiy elatlarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlariga binoan "tangri" butun olamni, insonni yaratgan, "yuksaklik", "eng baland", "bahaybat" degan ma'nolarni ham anglatgan.

Muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy sabablarga ko'ra diniy dunyoqarashlar to'la hukmron bo'lgan sharoitlarda qar qanday ilg'or tabiiy, ilmiy, jumladan, falsafiy qarashlar ham diniy qarashlarni, ularning mavjudlik sabablarini, mohiyati masalalarini chetlab o'ta olmagan; lekin ularning din haqidagi qarashlari ruhoni va ulamolaming rasmiy qarashlaridan jiddiy farq qilgan. Biz bu vaziyatni Forobiylar va Beruniyning dinka bo'lgan munosabatlarida ko'rishimiz mumkin.

Forobiyning dinka munosabati asosan uning "Fozil shahar aholisi hakida kitob" risolasida bayon qilingan. Uning fikricha, din ham falsafa kabi voqelikni o'rganishga qaratilgan, Bu falsafa moddiy olamni bilish, sabab, oqibat bog'lanishlarini aniqdashga orqali o'rganadi. Din esa voqelikka bu uslub bilan emas, balki tasvir (obrazli), ramziy, majoziy, qiyosiy tasawurlardan foydalanish orqali e'tiqod qilishga chakirish yo'li bilan yondashadi. Demak, din voqelikni, sabab va oqibat bog'lanishlarining moddiy asosini o'rganmasdan izoxlashga kirishadi. Ayni zamonda voqelikni falsafiy bilish, o'z mohiyatiga ko'ra, diniy bilishdan ustivordir.

Beruniyning dinka munosabati uning "qadimgi xalklardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida bayon qilingan. Uning fikricha, din ham bilim bo'lib, bunday bilim vokelikdagi narsa va hodisalami dalillar orqali isbotlash bilan o'rganish mumkin bo'limgan joyda qo'llaniladi. Diniy bilim isbotsiz e'tiqodga, ilmiy bilim esa dalillashga, isbotlashga asoslanadi. Beruniyning o'zi esa butkul dalillarga asoslangan bilimlar bilan shugullangan. U moddiy olam haqidagi ilmiy masalalarni hal qilishda dinding ta'sirini cheklashga intilgan. Forobiylar va Beruniy dinka bunday yondashishlar orqali ilmiy bilimni din ta'siridan xalos etishga g'oyat o'rinni harakat qilganlar. Ular dinka emas, unga singib qolgan mutaassiblikka qarshi chiqqanlar.

Umuman din, xususan islom dini 5 asosiy funktsiyani boshqaradi. Bular qatoriga kompensatorlik, to'ldiruvchilik, integrativ (birashtiruvchilik), regulyativ (nazrat qiluvchilik), kommunikativ (aloqa bog'lovchilik), legitimevchilik (qonunlashtiruvchilik) funktsiyalar kiradi.

Jamiyat shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo'lgan din xalqlar hayoti bilan bog'liq holda rivojlangan, moslashgan, sekin-asta diniy tizimni vujudga keltirgan. Natijada muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, tarbiyaviy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olgan. Bunday vazifalar jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlarida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanib muayyan qolipga tushib, har biri maxsus qoida, g'oya, mafkura, dastur sistemasiga aylangan.

Dinding yuqorida qayd qilingan besh funktsiyasining qg'sqacha ta'rifi va tavsiflari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, har qanday din o'z dinidagilar uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj hosil bo'lishini olib qaraylik. U o'z hayoti. turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlarga etishishi qiyin, ilojsiz bo'lib ko'ringanda bunday ma'naviy ehtiyoj vujudga kelgan. CHunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarda, orzular ro'yobga chiqishi ilojsiz bo'lgan paytda insoniyatning dinka zhtiyoji jamiyat bo'lib yashash talablarida boshlangan; din bu o'rinda ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, dinlar o'z ta'limot tizimini vujudga keltirib, unga e'tiqod qiluvchi shaxs va jamoani shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funktsiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, islom o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti,

axloqiy munosabatlari, hattoki adabiyot va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bular orqali elat va xalqdarda turli xil birlashtiruvchi munosabatlar qaror topgan.

Uchinchidan, din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) funktsiyasini ham bajaradi. Har qanday dinlaming muayyan urf-odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'lif va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi.

To'rtinchidan, din dindorlaming birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat - aloqa bog'lashlik vazifasiga ham egadir. Bunda konkret bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'liish, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etish ko'zda tutiladi. CHerkov, masjid va diniy tashkilotlar dinning bu funktsiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat kiladi.

Beshinchidan, har qanday din ijtimoiy tizim sifatida muayyan cheklovatarsiz bo'la olmaydi. SHuning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqadi. Bu bilan u legityumlovchilik-qonunlashtiruvchilik funktsiyasini bajaradi.

Har qanday dinning muayyan tarixiy sharoitda bajaradigan funktsiyalari yig'indisi uning ijtimoiy rolini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir xil bo'lgan emas. U vaqtga, o'ringa, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

O rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda islomning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun muayyan-tarixiy sharoit, xalqning o'tmishi, tur mush tarzi, ishlab chikarish usullari, etnik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Islom va Qur'onning vujudga kelishi tarixi bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning echimlari XIX asming o'rtalaridan boshlab awalo, SHarq so'ngra Evropa islomshunosligida o'rganila boshlangan. Evropa, Amerika islomshunosligi va Qur'onshunosligida olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligi, aniq dalillarga boyligidan qat'i nazar, ularning barchasi uslubiy jihatdan cheklangan.

Din tarixida dinshunoslardan dinning paydo bo'lishini turlicha izoxlab kelganlar. Uming paydo bo'lish sabablari qadimgi dunyo dinshunoslarni qiziqtirgan, binobarin, unga javob topishga harakat qilishgan. qadimgi Xitoy, Hindiston va xususan, qadimgi grek faylasuflari borliq to'g'risida fikr yuritganlarida din, uning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida ham ayrim g'oyalarni olg'a surganlar.

Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy asoslarda o'rganish quyidagi: a) ob'ektivlik; b) muayyan tarixiy sharoitni hisobga olish; v) ilmiylik; g) qiyosiylilik; d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqliq, e) din mavjudligini, umuman gnoseologik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarni hisobga olishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon voqeligining xarakterli xususiyati shundaki, jamiyatning hamma tomonlariga ilmiy tafakkurning ta'siri keskin kuchaymoqda; uning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatidagi roli tobora ortmoqda. Fanning XX asrdagi muvaffaqiyatlari chindan ham g'oyat buyukdir. Ular bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanib, insonga tabiat sirlarini tobora chuqr anglash imkonini bermoqda. Bu yo'nalishdagi eng muhim bosqich - inson omili va uning ma'naviy qadriyatlariga bo'lgan ijobiy munosabatlardir. Talabalar bu imkoniyatlardan to'la foydalanish uchun har xil uydirmalarga, buzg'unchilik g'oyalari mutlaqo ishonmay, ilm-fangagina ishonishlari, uni chuqr egallab, shaxsiy va ijtimoiy hayotga tatbiq etishlari lozim.

Hozirgi vaziyatda ilmiy dinshunoslikning nazariy yutuqlari va mamlakatimizdagi diniy tashkilotlaming g'oyaviy va amaliy ish faoliyatini hisobga olganda, din va dindorlarga O'zbekiston davlatining adolatli munosabati o'rnatildi.

Bu hoi diniy tashkilotlarning hozirgi ijtimoiy tuzumga bo'lgan xolisona, do'stona munosabatlariga ob'ektiv baho berishni talab etadi.

Bularning hammasi davr talabidan va kelajakdagi mas'uliyatni his etgan holda respublikamizda aholi dindorligi darajasini aniqlash, dindorlar va diniy uyushmalarning jamiyatda tutgan o'mini oshirmay-toshirmay to'g'ri talqin etish hamda din bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning umuminsoniylik tamoyillarini tikiash va hokazolar din va diniy muassasalarga doir muammolarga bo'lgan xolisona yondashishdir. Bu yondashuv ko'pyoqlama xususiyatga ega bo'lib, mustaqil respublikamizning ichki va tashqi siyosatida ham o'z aksini topmoqda. Mamlakatimiz SHarq va g'arbdagi barcha tinchliksevar davlatlar bilan ularning ijtimoiy tuzumi, denga munosabatidan qat'i nazar, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy aloqalarni keng yo'lga qo'yomkda. Ijtimoiy, siyosiy hayotda diniy tashkilotlar faolliganing ortib borishini demokratik jarayonda ular o'rnining mustahkamlanishi deb qarash mumkin. Awalo diniy tashkilotlarni davlatdan ajratish, ularning siyosatdan uzoqlashuviga

olib keladi; ammo bu tashkilotlarning faoliyati muayyan ma'noda siyosiy xarakterga ega bo'lib kelgan. Diniy tashkilotlarga xos ijtimoiy, siyosiy faollikning tobora ortayotganini e'tiborga olib, uni ikki yo'nalishda - ijtimoiy hayotda va dunyoqarashda shaxsning faolligini talabalaming oshirish talab etiladi. Diniy tashkilotlarning ijtimoiy, siyosiy yo'nalishlarda ob'ektiv voqelikka oshkora va ijobjiy yondashishlari kengayib borayotganligi an'ana tusiga kirib bormoqda. Bunga respublikamiz hayotiga hozirgi kunda diniy tashkilot va ruhoniylaming xolisona munosabatlari, berayotgan ijobjiy baholari jonli shohid bo'la oladi. Bunda ayrim diniy tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini muayyan ahamiyatga molikdir. SHuning uchun hozirgi davrda ularga nisbatan bo'lgan munosabatlarda umuminsoniylik, demokratik xolislik tamoyillari tiklanmoqda. Dinga e'tiqod qiluvchilarga sho'rolar davridagidek ma'muriy-buyruqbozlik tazyiqi o'tkazishdan voz kechildi.

Tabiat va jamiyatdagi kuzatilayotgan hodisalar moxiyatiga ko ra nihoyatda murakkabdir. Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarda buyuk muvaffaqiyatlarga erishilgan hozirgi zamonda ham hali bilib etilmagan sirlari jarayonlar mavjud. Tabiat va jamiyatda hamma narsa va hodisalar doim o'zgarib va rivojlanib boradi.

Fan ham doim o'zgarib va rivojlanib borar ekan, unda hali echilmagan yangi- yangi jumboqlar, muammolar yuzaga kelib turadi. Fanning rivojlanishi yo'li ham shundan iboratki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tobora boyib boradi. Kuzatilayotgan hodisalaming mohiyatiga yanada chuqur kirib boraveradi. Odamzod aqli tabiatda ko'p ajoyib-g'aroyib narsalarni kashf etgan, shu bilan tabiat sirlarini o'rganib boradi. Bu jarayon hozir intensiv tarzda davom etmoqda.

Buddaviylikning ta'lomoti, uning Markaziy Osiyoga tarqalishi. Buddaviylikning asoschisi miloddan awalgi 1-ming yillikda yashagan Buddha hisoblangan. U tarixiy shaxs bo'lib, 80 yil yashagan. Uning xususida turli rivoyatlar mavjud. Uning nomi hind tilida nurlangan, oliy haqiqatga erishgan degan ma'noni anglatadi. Rivoyatlarga qaraganda, keng ma'noda ko'p marta ilohiy tug'ilishlar tufayli mutloq barkamollikka erishgan; boshkalarga ham diniy najot yo'lini ko'rsata oladigan odam bo'lgan.

Tarixiy manbalaming dalolat berishicha buddaviylikning asoschisi shahzoda Sidxartxadir. U vafot etgandan so'ng Buddha -"haqiqatga erishgan" deb atalgan; u ushbu oliy maqsadga erishish uchun Gautama urug'idan bo'lgan eng obro'li SHak'ya qabilasini tanlagan; ana shundan bu diniy rivoyatda Buddha-Gautama nomi keng tarqalgan. Diniy rivoyatlarga ko ra Gaugama hind qabilasi hukmdorlaridan birining o'g'li bo'lib, u befarzand bo'lgan; ammo uning xotini g'oyibdan homilador bo'lib, 45 yoshida o'g'il tukqan; bola tug'ilganda mo "jiza yuz bergan: tabiiy hodisalar - er kimirlab, chaqmoq chaqib, momaqaldoq gumbirlab turgan; uning ovozini Koinotdag'i ilohiy kuchlardan tashqari barcha tirik mavjudodlar ham eshitib turg'angar; chaqaloqqa Sidxartxa (topshiriqni bajaruvchi) deb nom qo'yganlar; U 7 kundan keyin yurib ketgan va gapira boshlagan.

Sidxartxaning otasi o'g'lini din yo'liga bag'ishlashga rozi bo'lmay, unga yaxshi ma'lumot bergen hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalagan va u hech qanday qiyinchilik ko'rmay o'sgan; o'spirinligidayok o'zining donoligi, kuchliligi va epchilligi bilan xammani hayratga solar ekan. U bir cholga duch kelgan, kasal yotgan kishini, o'likni ko'rgandan so'ng hayotning mohiyati, maqsadi, og'irlklari, kasallik va o'lim hakida o'ylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligani anglab, tarki dunyo qilgan, darvesh yo'liga kirgan; bu bilan u kishilar boshiga tushadigan kulfatlar, azob-uqubatlar sabablarining mohiyatiga tezroq etib, ulardan qutulish yo'lini topmoqchi bo'lgan. Nihoyat, 36 yoshida "haqiqiy bilim" ni topganligani e'lon qilgan. SHundan so'ng u Buddha deb nom olgan ("budda" so'zi ilohiy haqiqatga erishgan, degan ma'noni anglatadi). SHu tariqa unda ulug'vor hakiqat siri ochilgan, ular buddaviylik ta'limotiga asos qilib olingan.

Har qanday dinlar kabi buddaviylikning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlardan izlash va topish lozim.

Buddaviyliqda bir necha mazhabdar paydo bo'lgan. Bulardan eng yirigi I - asrda undan ajralib chiqqan hinoyana ("kichik arava", tor yo'l ma'nosida) SHri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; maxoyana ("katta arava", keng yo'l ma'nosida) Tibet, Xitoy, Yaponiya, Mongoliyada hamda Oltoy va Uzoq SHarqda yashovchi ba'zi xalqlar o'rtasida keng tarqalgan.

Buddaviylikka xos mazhablardan biri Tibet va Mongoliyada ham tarqalgan bo'lib, u lamaizm degan nom bilan yuritiladi. Buddaviyliknang bu mazhabi mahailiy xalqlar o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan diniy tasawur va urf-odatlami o'zlashtirgan. Lamaizmda buddavishshkka xos tasawurlar bilan bir qatorda, Buddaning yana kaytib kelishi va er yuzida adolatli hokimiyat o'matishi

to'g'risidagi rivoyatga keng o'ren berilgan. Lamaizmni ko'chmanchi, qaloq, savodsiz xalq hayotiga moslashtirishga urinish mavjud; undagi ibodat qilish tartibi xam ancha soddalashtirilgan

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Warning oilaviy-maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari mahoyana (shimoliy) ko'rinishdaga buddaviylik ta'sirida shakllangan.

Xristianlik jahon dinlaridan biri bo'lib, eramiz 1-asrining 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida ko'p xudolik dinlari o'miga kollar va mazlum elatlarning dini sifatida yakka xudolik (monoteistik) tarzda shakllangan. Xristianlik Falastin va O'rta Er dengizi yahudiylari dinlari doirasida vujudga kelgan; o'nlab yillardan keyin esa boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqalgan. Yangi va eng yangi tarix davrlarida u mustamlakachilik siyosati va missionerlik natijasida Evropadan tashqariga ham tarqalgan. Xristianlik Evropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alariiga tarqalib dunyo xalqlarining teyarli uchdan birini (2 milliardini) tashkil etadi.

Xristianlik vujudga kelishini Bibliyaning xabar berishicha, Iisus Xristos faoliyati bilan bog'lab tushutiriladi.

Xristianlikning vujudga kelishida sharq dinlarining ham ta'siri bo'lgan. Jumladan, misrliklarning Osiris va Isida, eronliklarning Mitra, yahudiylikning Muso haqidagi rivoyatlari, oxirat to'g'risida xikoya kiluvchi har xil rivoyatlar ham xristianlik ta'limotiga kiritilgan.

Xristianlikdagi odam-xudo to'g'risidagi tushunchani ishlab chiqishda yagona imperiyaga birlashgan Rim imperatorlarining yakka Xudolik to'g'risidagi ichki siyosati ham katta ta'sir ko'rsatgan. SHu maqsadda imperatorlarga va Rim shahri xudolariga sig' inish yuzaga kelgan.

Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining "Qadimgi axdnoma" kitobiga kirgan barcha "muqaddas g'oyalalar", ya'ni Emi Xudo yaratganligi, o'simlik va hayvonot dunssining vujudga kelishi, insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquki, oxirat rohatlari haqidagi g'oyalalar katga rol o'ynagan.

1947 yili O'lik dengiz qirg'og'idagi qumron yaqinida qadimgi qo'l yozmalar topilgan edi. Bular hukmron jamoaning diniy ta'limotlari - iudaizm va xristianlik o'tasidagi oraliq butunni tashkil kilganligini ko'rsatmokda.

SHunday kilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko'pchilik elatlaming dinlari, rivoyatlari, urf-odatlari asosida tashkil topgan. Bu din dastlab qullar, ezilgan kambag' allaming talablarini, "xoloskorlik" g'oyalari o'ziga singdirgan din sifatida vujudta kelgan. Keyinchalik uning ijtimoiy, diniy strukturasi o'zgarishi bilan hukmron tabaqalar qo'lida mazlum xalqlarni ekspluatatsiya qilishning g'oyaviy qurologna aylangan.

Xristianlikning muqaddas diniy yozuvi - Bibliyaning ikkinchi qismi - "Yangi axdnoma" bo'lib, u eramizning I-II asrlarida grek tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik naydo bo'lmasdan birmuncha oldin yaratilgad 1 - qismi "Qadimiy axdnoma" deb atalib, u iudaizmning mukaddas yozuvi hisoblanadi. Bibliyaning ikkinchi qismi - "Yanga axdnoma" deb atalib, u xristianlikning muqaddas yozuvi deb hisoblanadi.

"Yangi axdnoma" 27 kitob (bob) dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4 ta "Injil" (Evangilie, ya'ni Xushxabar), havoriylarning (Iso shogardlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning "Vaqiynomasi" kiritilgan.

Xristianlik boshqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o'zgarmas karomatni, bilimni, benixoya qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani asoslaydi. U uch ko'rinishdagi yakka xudoni o'zida mujassamlashtirganlik aqidasini yaratgan. Uch kurinishdagi xudo haqidagi ta'limotga binoan, xudoning ichki haeti sababi o'z-o'zidan mavjud bo'lgan uchlikdagi uch asos yoki "muqaddas uchlik" bo'lgan - ota- xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruhning o'zaro munosabatidir. Ug'il Iso bayon qilingan tarjimai holiga ko'ra ota-xudodan, muqaddas rah ham ota-xudodan yaratilgan (provaslav yo'nalishi ta'limoti), (katolitsizmda esa ota-xudo va o'g'il-xudo ham xudodan tug'ilgan).

Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati - odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, "Gunohni yuvish", ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda kurbon qilishi" haqidagi ta'limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh - ota xudo, bola xudo va mukaddas ruh - uch yuzli xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'iboti, tashkilotchiligi, jannat va do'zax, oxirat ya'ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi qaqidagi va boshqa aqidalami o'z ichiga oladi.

Xristianlik davlat dini deb e'lon qilingandan so'ng, 325 yili imperator Konstantin boshchiligidagi

Nikey shahrida xristianlarning 1 jahon yig'ilishi bo'lgan. Yig'ilish xristian dinining qonun-qoidalarini ishlab chiqqan va xudoni uch shaxsning (ota xudo, o'g'il xudo) rux xudo, birlikda ifodalaiishidir deb uqtirgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo'lib o'tgan II jag'on yig'ilishida cho'qinish va tirlishi haqidagi yangi aqida kabul kilingan.

Ota xudo tabiat, odam va farishtalarni yaratgan, deb hisoblanadi. Iso o'g'il xudo hisoblangan. Xudoning gavdalanishi aqidasiga ko'ra, Iso xudoligicha qolgan holda Mariya ismli qizdan tug'ilgan odam ham bo'lib kolgan. Butga parchinlangan xudo Iso tortgan azoblari va o'limi bilan o'zini odamlarning gunoxlari uchun ota xudoga qurbon qilgan va shu bilan gunohini yuvgan. Ushbu aqidaga qo'ra, Iso odamzodga gunoxlardan xalos bo'lish yo'lini ko'rsatib bergen. Isoning tirlishi aqidasi kelgusida hamma odamlar tirlishining garovi, deb e'lon qilingan. U tirligandan so'ng osmonga - ota xudo huzuriga chiqqanligi, ya'ni osmonga chiqib tushishi (islomda me'roj) aqidasi bu dunyodagi xayot oxiratdagi mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, deb uqtiradi.

Hozirgi zamon xristianligida turli yo'nshshsh va oqimlar orasidagi kelishmovchiliklaming kamaytirilishi bugungi kun uchun xosdir. Bunga 1948 yilda tashkil topgan Jahon cherkovlari kengashining faoliyatlari va ekumenik xristianlar kumaklashmokda.

Katolitsizm - bu xristianlikda eng ko'p tarkalgan yo'nalishdir. U Evropa, Osiyo, Afrika ka Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil qiladi.

Katolitsizm ta'limotida jannat va do'zaxlar oralig'idagi dune, gunohkorlaming ruhi, jopi haqidagi, Isoi masihni benihoya qurmatlash, uning tanasi va jonimi ko'klarga ko'tarish sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolitsizmda Bibliyani sharxlash huquki faqatgina ruhoniylarga bsriladi; chunki ular uylanmaslik haqndagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalaشتirilgap ko'renishga ega; diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviedagi kabi katolitsizmda ham farishta, ilohiy kuch, chirimaydigam marhum jasadlariga sng'inish odatlari sakdanib qolgan.

Katolitsizm boshqa yo'nalishlardan farkdi o'laroq markazlashgan tizimga ega. Vatikan ana shunday markaz sifatida (maydoni 44 hektar) 1924 yildan boshlab Papa Piy XI ning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi. Rim Papasi cherkovning yakka rahbari bo'lib, u Iso Masihning erdag'i noibi hisoblanadi. 1870 yili e'tiqod va axloq masalalarida uning bsnuqsonligi haqidagi akida qabul kilindi. 1978 yilda sobiq Pol'sha kardinali Korol' Voytla 264- Rim papasi etib tayinlandi va u hozirga qadar Ioann Pavel II nomi bilan bu vazifani bajarmoqda.

Son jihatdan unchalik katta bo'limgan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzilgai, uning qoshida jumhuriyatimizning boshqa hududlaridan ro'yxatdan o'tgan katolik diniy jamoalari ham o'z faoliyatlarini olib bormokdalar.

Xristianlikning SHarqiyaning tarmog'i bo'lmissiz pravoslaviening rinojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Koistantinopol', Aleksandriya, Antioxiya, quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, ellada, Albaniya, Pol'sha, CHexoslovakija, Amerika cherkovlari shakllangan.

O'zining ahamiyatiga ko'ra pravoslav dunyosida beshinchi bo'lgan, lekin muxlislari soni jihatidan birinchi bo'lgan rus pravoslav cherkovi X-XI asrlarda vujudga kelgan. Uning paydo bo'lishi endigina shakllanayotgan fsodal munosabatlarni himoya qilish uchun, yangi g'oyaga muhtoj bo'lgan Kiev davlatiining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerak edi. Rusning xristianlashuvi darrov amalga oshgai ijtimoiy jarayon bo'lmay, bir necha asr davom etgan ziddiyatli tarixiy hodisa edi.

Pravoslaviening Markaziy Osiyo aholisi orasiga kirib kelishi XU1-X1X asrlarga to'g'ri keladi. Awal savdo-sotiq, keyin bu mintaqqa xalqlarini mustamlakaga aylantirishdan iborat bo'lgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870 yili Pokrovsk monastiri koshida missionerlik jamiyatni tashkil qilingan. Jamiyat a'zolari mahalliy millatlarga mansub aholi orasida, garchi jiddiy natijalarga ega bo'limgan bo'lsa ham, xristianlik bilan bog'liq katta targ'ibot ishlarini olib borganlar. SHu maksadda 1844 yili "Karomat ko'rsatuvchi Nikolayning xayot yo'li" nomli risolani qirg'iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar, maxsus diniy maktablar ochildi. 1872 yili Rus pravoslav cherkoviga karashli Turkiston (keyinchalik Toshkent, O'rta Osiyo) eparxial boshqarmalari ochildi.

Pravoslav cherkovi hozirgi kunda jamiyatimizning yuksalishi bilan bog'liq tadbirlami qo'llab-quvvatlamokda, ayniksa dindorlarni axlokiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi

o'zining rejalarini ishlab chiqmoqda. Bunda inson shaxsining kadr-qimmatini ulug'laydigan, oila asosini mustahkamlaydigan va mehnatga, butun jamiyatga nisbatan sofdil va vijdonlilik ruhida bo'lgan munosabatlarni qaror toptirish nazarda tutilgan. CHerkovning ichki tartibini qayta qurishni amalga oshirishga, cherkov hayotini yangilashga, ruhoniylar orasida uchraydigan muhofazakorlik va sustkashliklarni bartaraf qilishlarga ham katta e'tibor berilmokda. 1988 yilda bo'lib o'tgan rus pravoslav cherkovining ming yillik sanasini tantanavor, ulug'vor nishonlanishi, rus pravoslav cherkovining xalqaro obro'sini ko'tarilib borishiga ta'sir etdi. Muhim sanani nishonlash bilan bog'liq bo'lgan tantanalar, bayramlar va boshqa turli-tuman tadbirlar ruhoniylar uchun o'zlarining faqatgana ilohiyotchilik, cherkovning ichki hayoti va tartibi bilan bog'lanib kolmadi; balki jahonda, xususan Osiyo mintaqalarida tinchlik uchun kurash, irqi kamsitishlarga barham berish, tabiatni muhofaza kilish, sog'liqni sakdash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish, jamiyatda adolatli hayotni karor toptirish bilan bog'liq ko'pgana masalalarini muhokama qilish uchun foydalandilar. Ulug' bayram kunlari diniy e'tiqod va marosimchilik masalalarini hal qilishga Ham qaragildi.

Toshkent va O'rta Osiyo eparxial boshqarmasi (unga 22 diniy jamoa bo'y sunadi) ham mustaqil jumxuriyatlarda vijdon erkinligi talablariga rioya kiladigan tadbirlar o'tkazmokda, xalqlar o'rtasida osoyishtalik qaror toptirish uchun harakat ktislomokda.

Pravoslav cherkovi ko'p millatli mintaqada millatlararo va har xil yo'nalishdagi dinlar orasidagi munosabatlarga dindorlami axloqiy jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish uchun ko'maklashishlarga alovida e'tibor bermokda. SHuningdek u ilohiyotchilikka oid bo'lgan karashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boshqa, shu qatorda islom bilan bir-biriga tutash bo'lgan umumiyo alokalami izlamokdalar; fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlар bilan musulmonlar diniy boshqarmalari o'rtasidagi muloqotlami rivojlantirishga qaratilgan ko'pgana yirik tantanali anjumanlar chakirilishining tashabbuskori bo'lmoqdalar.

Bundan tashqari rus pravoslavie cherkovi xayriya shaklidagi faoliyatlarga, chunonchi, halok bo'lgan jangchilarga yodgorliklar o'matish, urushda jabr ko'rgan baynalmilalchi jangchilar sog'liklarini tikiash, tinchlik va bolalar uchun mo'ljallangan jamg'armalari ko'paytirish va shu kabilarga katta e'tibor bermoqdalar.

Pravoslaviening ijtimoiy, siesiy qarashlarini va dindorlamning diniy ongaari bilan bog'liq hamma o'zgarishlar ulaming dunyoqarash mavqelarini majburan o'zgartirishlariga olyb bormaydi. Zero, rusga xristianlik kirib kelishining ming yilligini tantanali tarzda bayram qilinishining o'zi jamoatchilikning keng doiralari orasida muayyan taassurot qoldirdi.

Protestantlik - bu ham xristianlikdagi yana bir yunalish bo'lib, katolitsizm va pravoslaviedan farqli o'larraq, diniy qarashlar jihatidan ham, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan ham bir xil bo'limgan yo'nalishlami faqatgina kelib chiqishi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog'liq bo'lgan kupgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablami yuzaga keltirilgan.

Protestantlik umumxristianlik asoslari va qarashlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunoxdan xalos bo'lishning yangi usullarini ilgari surdi. Iso Masihning kishilar gunohini yuvishga qaratilgan o'zini-o'zi qurban qilishiga ishonch, dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoni y bo'lishi mumkinligiga ishonch, Bibliyaning oliy nufuziga ishonch orqali xalos bo'lish ana shular jumlasiga kiradi. SHunday qilib protestantlik xudojo'ylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib o'tdi va uni ixtiyorli diniy ishonch bilan bog'ladi. Protestantchilik Bibliyaga siganishning o'ziga xos shaklini qaror toptirdi. Bu bilan protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, dindorlami axlokyay jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish uchun ko'maklashishlarga alovida e'tibor bermoqtsa. SHuningdek, u ilohietchilikka oid bo'lgan qarashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boshqa, shu qatorda islom bilan bir-biriga tutash bo'lgan umumiyo aloqalarni izlamokdalar; fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlар bilan musulmonlar diniy boshqarmalari o'rtasidagi mulokotlami rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina yirik tantanali anjumanlar chaqirilishining tashabbuskori bo'lmoqdalar.

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari,

Habashiston, /arbiy Sudanda yashovchilaming bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy hamda Filippin aholisining bir qismi, Evropa qismida bo'lsa, Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlaming bir qismi denga e'tiqod qiladi. Aholining ko'pchiligi mutloq musulmonlardan iborat bo'lgan 10 ta mamlakat, xatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etgan ba'zilari ham (Misr, Malayziya) 49 % i o'zlarini musulmon deb ataydilar. YA'ni ulaming ba'zilarida (Mavritaniya, eron, Pokiston, Qamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so'zi qo'shib aytildi. Rasmiy statistika bo'yicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi musulmonlardan iborat 28 ta mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan. Er yuzi aholisining qariyb 1,5 milliardi islomga e'tiqod qiladi.

SHuningdek, islom Markazi Osiyo, Kavkaz orti va SHimoliy Kavkaz, Volga bo'yи, /arbiy Sibir va boshqa hududlarda yashovchi aholi orasida tarqalgan. Hozirda islomga e'tiqod qiluvchilarning soni oshib bormoqda. Ayniqsa e'tiqod haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtli matbuot sahifalarida, radio eshttirishlarda va oynai jahon ko'rsatuvlarida din mavzuidagi chiqishlarning ko'payishi, bu haqida maxsus gazeta va jumallaming keng tarqalganligi islomga bo'lgan e'tibomi oshirib yubordi.

Islom jahondagi ayniqsa Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiyligi qiyofasida muhim iz qoldirgan. Bunga eng awalo bu hududlarda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi islom mafkurasi zaminida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukumronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari shariat tomonidan idora etilishiga imkon berdi. SHunga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo'qolmay, ya'ni islom yo'nalihsida rivojlangan va ko'pincha qadimiy musulmon an'analar sifatida qabul qilingan. Musulmonlar madaniy merosi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun kurashi jarayonida asosiy masalalardan biriga aylandi va ijobiy ahamiyat kasb etdi. Islomning pay do bo'lishini tahlil etish davming xususiyatlari, arab qabilalari o'rtasida hukmron bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlami va ulaming diniy-g'oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi. Arabiston yarim oroli noqulay iqlim sharoitiga ega bo'lgan qum sahrolardan va tog'lardan iborat bo'lib, uning aholisi VVI asrlarda ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanalar edi.

YArim orolning cheksiz sahrolarida yashovchi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari-bundan ham og'ir sharoitda yashar edilar. Ular taraqqiyot jihatidan ancha orqada qolgan, hali urug'chilik qabilachilik tuzimida edilar. YArim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan va qadimdan Hijoz deb nomlangan joylar bu davrlarda birmuncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib asosan janubdan shimolga o'tgan qadimiy karvon yo'li bilan bog'liq edi. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganada VI asr YAmandan shimolga Suriya, Misr, Falastinga olib boradigan karvon yo'li faqat bu davlatlaming o'zlariga emas, balki janubda YAman orqali Habashiston va Hindiston, shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va eronni ham bir-biri bilan bog'laydigan o'z davri uchun yirik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'li edi. Hijozdagagi ayrim aholi yashaydigan manzillar, yo'l ustida joylashgan Makka, Madina, Toyif shaharlari II asrda ancha rivojlangan. Bular shuningdek, ko'chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qilar edilar.

Makka diniy markaz va savdo markazi sifatida arab qabilalari orasida e'tiborlisi edi. Makka markazida joylashgan Ka'ba islomda eng «muqaddas» hisoblanadi va «Allohning uyi» (Baytulloh) sajdah hisoblangan va hozir ham shunday. Undagi qoratosh (Hajar al-asvod) va uch yuz otmish sanam arab qabilalari e'tiqod manbaiga aylangan. Ziyoratga kelish oylari muqaddas hisoblanib, bu vaqtlar ichida qabilalarda urush va janjallar to'xtatilar edi.

622 yili yuz bergen bu ko'chish (arabcha «hijrat»)dan musulmonlaming hijriy yil hisobi boshlanadi. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «Muhojirlar» (ko'chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa «ansorlar» (yordamchilar) deb nom olgan.

630 yili Madina qo'shinlari Makkani qarshiliksiz egallaydilar. Ummaviylar bilan raqobat tugab, ular Muhammad payg'ambarning yaqin yordamchilariga aylanadilar. Islom Arabiston yarim orolining asosiy hukmron diniga aylanadi. SHunday qilib, Muhammad (s.a.v.) islom bayrog'i ostida arab qabilalarini birlashtirib yagona markazlashgan mamlakatni tashkil etadi.

Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyingi davrlarga kelib anchagina mustahkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat YAmanda Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrolarigacha cho'zilgan katta hududni o'z ichiga oladi. Payg'ambar

vafotidan keyin xalifalar (yordamchilar) davlatni boshqaradilar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixiga «arab xalifaligi» deb nom beradi. Muhammad (s.a.v.) vafot etgandan keyingi birinchi kunlardayoq musulmonlar jamoasi y o'lboshchilari hokimiyat uchun kurash boshlaydilar. Bu kurashda muhojirlar guruhi g'olib chiqadi va xalifalik davlatini choriyorlar boshqaradi. Abu Bakr hukumronligining dastlabki yillarda bir qator arab qabilalari o'rtasida Madina hukmronligiga qarshi o'z mustaqilligi uchun harakat boshlanadi. Bu voqealar diniy manbalar «ar-ridda» deb nom olgan. Islom tarixida Madina hukmronligiga qarshi bosh ko'targan qabilalar harakati «islomdan chiqish», «diniy qaytish» deb ta'riflangan. Dindan qaytgan kishilar qattiq ta'qib qilingan.

Keyingi xalifalar zamonlarida ham istilolar davom etadi. Kavkaz va Turon tomoniga yurish kuchayadi. Qisqa vaqt ichida Gruzin, Ozarbayjon, eronning shimoliy qismi, Xurosan, Mavr erlari arab qo'l ostiga o'tadi va xalifa qo'shinlari Amudaryo sohillariga chiqadi.

Buning natijasida Amudaryo sohillarida SHimoliy Afrikagacha Tbilisi va Darbanddan YAman va Usmongacha cho'zilgan imperiya vujudga keladi. Qisqa vaqt ichida arab qo'shinlarining bunday engil g'alaba qozonishining sababi nimada degan savol tug' ilishi tabiiy. Arab qo'shinlarining yaxshi tashkil qilingan yoki yuqori harbiy texnikaga ega bo'lgan deb aytish to'g'ri bo'lmaydi, chunki bu qo'shinlar badaviylar va boshqa har xil qabilalardan tuzilgan bo'lib, o'z zamonida ma'lum bo'lgan harbiy san'at va texnika darajasidan ham ancha orqada turar edi. Osonlik bilan erishgan g'alabalarning asosiy sababi bu davrda arab qo'shinlariga jiddiy qarshilik ko'rsatadigan kuchning yo'qligi edi.

O rta Osiyo xalqlari hayotiga islomning kirib kelishi bilan kalom, ya'ni islom falsafasini va diniy talablami bajarishda arab tili ustivorligi o'matilgan. So'ogra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tili ta'siri kuchli bo'lgan.

Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o'z ona tillarida yozuvni, ma'rifatu-madaniyatini, ilm-fanni rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu jarayon keyinchalik islomning ta'sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kishilarning turmush tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf-odat va marosimlar diniy tus olgan, yoshlarga bilim berish uchun ko'plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan.

Demak, O rta Osiyo xalqlari hayotida ilm-ma'rifikat va madaniyatning rivojlanishida islomning ijobjiy rol o'ynaganini e'tirof etishimiz lozim. O rta asrlarda shakllanib ijod etgan savodli kishi, olim, shoir, ma'rifatparvar mutafakkirlaming hayoti va faoliyatida islomning ijobjiy roli bor desak xato qilmaymiz.

Islom O rta Osiyo xalqlari turmush tarziga, madaniyatiga turli qirralarada o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, me'morchlilik yodgorliklari - madrasa, masjid, maqbara va boshqa islomiy obidalarni qurishda, ilm-fan, madaniyat va ma'rifatni targ'ib qilishda ayniqsa musulmonlami yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash o'z ifodasini topgan. Ganchlardan turli shakllar yasab yopishtirish kabilalar ham xalq ijodiy qadriyatiga mansubdir.

Islomda, eng awalo, din asoslari-«arkon-ad-din» hisoblanuvchi besh assosiy amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajarishni talab etilgan. Hozir ham shunday. Bular, birinchi, kalimai shahodatni bilih; ikkinchidan, har kuni besh vaqt namoz o'qish, uchinchidan har yili ramazon oyida bir oy ro'za tutish; to'rtinchidan, yiliga bir marta shaxsiy molidan zakot berish; beshinchidan, imkon bo'Isa, umrida bir marta haj qilishdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana shu besh rukn bilan chambarchas bog'liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablarini xalqlar turmush tarziga kiritilib, o'ziga xos ma'naviy madaniyatning turiga, an'anaga aylantirilgan.

Tayanch iboralar:

Din - ijtimoiy ongning alohida shakli, E'tiqod - diniy qarashlarning asosi, Jahonning asosiy dinlari va ularni xalqlar ma'naviy hayotiga ta'siri. Islomiy qadriyatlar, Mustabidlik sharoitida diniy qadriyatlamining ahvoli, Mustaqillik sharoitida din, Diniy bag'rikenglik - jamiyatimiz ma'naviy rivojlanishining zaruriy sharti.

Mavzuga doir nazarot savollorii:

1. Islomiy qadriyatlar deganda nimalar tushiniladi?
2. Nima uchun diniy bag'rikenglik qadriyat xisoblanadi?
3. Nima uchun huquq va erkinlikning shaxs qadriyatlari sifatidagi axamiyati muhim sanaladi?
4. Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

13-MAVZU: Milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning mushtarakligi.

Reja:

1. Milliy qadriyatlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar.
3. Milliy va Umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi.
4. Millatlararo totuvlik - osoyishtalik va tinchlik garovi.

O'zbek xalqining madaniyati juda qadimiy bo'lib, uning tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Bu madaniyat jahon madaniyatidan chetda yuzaga kelgan va rivojlangan emas. Zero, har qanday xalq madaniyati o'z mamlakati doirasida, tor milliy biqiqlikda emas, balki boshqa xalqlar madaniyati bilan aloqada, bog'liqlikda, o'zaro tansir va aks tansir etish asosida rivojlanadi.

O'zbek xalqi madaniyati ham faqat milliy asosda emas, shu bilan birga umuminsoniy madaniyatlar tansirida o'sdi, rivojlandi. Unga xitoy, eron, arab, yunon, rus, qadimgi dunyo hamda Rim davri madaniyati jahondagi boshqa madaniyatlar o'zining ijobiy tansirini ko'rsatdi. O'z navbatida, o'zbek xalqi ham boshqa xalqlar madaniyatining yuksalishiga, umumjahon madaniyati taraqqiyotiga faol tansir ko'rsatdi. Madaniyatimiz, buyuk namoyandalari Muso Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamashshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarining durdona asarlari jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi bunga misol bo'ladi.

SHuni alohida tankidlash kerakki, o'zbek xalqining moddiy va mannaviy madaniyati rivojlanishi bir tekisda amalga oshgan emas. Unda bir necha bor yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan Uyg'onish davri ham, aksincha buyuk Uyg'onish davridan keyin manlum obnektiv va subnektiv omillar tansirida nisbiy tushkunlik davrlari ham bo'lgan. Madaniy taraqqiyotdagi netekislikning — banzan juda katta tezlik bilan behad ilgarilab ketishining, gohida esa sustlashib, sekinlashib, turg'unlikka uchrab qolishning asosi sababini hukmron ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar mohiyati va xususiyati, ichki va tashqi omillari tansiridan qidirishga to'g'ri keladi. Insoniyat taraqqiyoti uzlusiz va bir tekis olg'a boravermaydi. Tarixda banzan turg'unlik, erishilgan yutuqlardan chekinish, banzi sohalardadepsinish hollari ham bo'lib turadi.

O'zbek xalqi jahon moddiy va mannaviy boyliklarini yaratish va rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan xalqlardandir. U o'zining tafakkur quvvati, qobiliyati va istendodi bilan Markaziy Osiyo fan va madaniyatining, adabiyot va sannatining, axloqiy va falsafiy g'oyalarining vujudga kelishi va rivojida katta o'rinn tutadi. SHu bilan birga u tarixning haqiqiy ijodkori sifatida jamiyatning madaniy, mannaviy taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochib bergen.

Ortaklar, rivoyatlar va dostonlarni o'qir ekanmiz, xalqda voqealarni oldindan ko'ra biluvchi ajoyib tafakkur, qobiliyat va isteudodning bitmas- tunganmas ekanligini, u hech qachon umidsiz, orzu-niyatsiz yashamaganligini, har doim kelajak tomon intilganligini anglab olamiz. Har qanday ertak va afsonaning zamiriga xalqning muayyan maqsad va niyatları, jismoniy mehnatni, engillashtirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlari mazmunan singdirilgan bo'ladi. Ular xalq ommasining talabi va ehtiyojlari asosida vujudga kelish bilan bir qatorda, o'z navbatida kishilarning mannaviy, aqliy taraqqiyotiga turtki vazifasini ham o'tagan, mehnatni sevishga o'rgatgan, ish unumini oshirishga, tabiatning zararli kuchlariga tansir etishda kishilarga yordam bergen.

O'zbeklar o'zining aqlni lol qoldiradigan ajoyib amaliy sannati, yuksak badiiy did va mahorat bilan ishlangan hunarmandchilik buyumlari bilan qadim zamonlardan hozirgacha dunyo xalqlari o'rtasida shon-shuhrat qozonib kelmoqda. Hunarmandchilik bizning xalqimiz uchun avlod-ajdodlardan saqlanib kelayotgan meros, bebafo qadriyatdir.

O'zbek xalqi amaliy sanuati, hunarmandchiligi ildizlari uzoq o'tmishta borib tutashadi.

O'zbekistonning hozirgi hududidagi SHosh, CHag'oniyon, Marokand, Urganch, Buxoro, SHahrisabz shaharlarining qadimgi o'rniда olib borilgan qazuv tadqiqotlar ota-bobolarimiz yaratgan hunarmandchilikning o'lmas obidalarini kashf etdi. YOZMA manbalar qadimiy markaziy Osiyo aholisining konlarda ishlaganini, mis va temirdan turli xil harbiy va mehnat qurollari yasaganliklarini, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik va boshqa ishlari bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

YUNON tarixchisi Gerodot «Tarix» asarida Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona,

Parfiya davlatlarining miloddan avvalgi VI asrdagi madaniyati haqida keng maulumot bergen.

O’rta Osiyoga tashrif buyurgan XIV asr mashhur arab sayyohi Ibn Battuta Xorazm, Buxoro va Samarqand shaharlari bozorlaridagi hunarmandchilik rastalari o’zining xilma-xilligi, fayzi bilan diqqatga sazovorligini alohida taukidlagan.

Xalq dahosining mahsuli bo’lgan hunarmandchilik va amaliy sanuatining turlari nihoyatda xilma-xildir. Ularning hammasi xalqning kundalik turmush talab va ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan va rivojlangan.

Ajdodlarimiz o’tmish davrlardan boshlab naqqoshlik, o’ymakorlikni, to’quvchilik, zargarlik, zardo’zlik, gilamdo’zlik, miskarlik, sartaroshlik, kulolchilik, musiqa asboblarini yasash va boshqa sohalarda katta mahorat ko’rsatgandir. Faqat yog’ochga emas, shuningdek, marmartoshga, metallarga o’ta nozik va go’zal naqsh solishlari, gilam va matolarga rang-barang gullar tushirishlariga qarab, ota-bobolarimizning mahoratlari va didlariga qoyil qolamiz.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Namangan, Qo’qon va Toshkentdagи xalq ustalari ganch o’ymakorligi sohasida katta shon-shuhratga ega bo’lganlar. Bu sanuat namunalarini qadimiylar binolar, muhtasham saroylar, arklarning ichki va tashqi bezaklarida, devor peshtoqlaridagi o’simlik va hayvonlarning tasvirlarida, lojuvard koshinlarda ko’rish mumkin. O’ymakor ustalar faqat ganchga o’yma naqshlar berish bilan cheklanib qolmay, balki jimjimador panjaralar va go’zal naqshin guldonlar ham yasay bilganlar.

Zargarlik sanbati Farg’ona, Toshkent, Samarqand, Xiva va Buxoroda ayniqsa mashhur bo’lgan. XX asr boshlarida birgina Buxoroning o’zida 400 ga yaqin zargar bo’lib, ular asosan Toqi zargardonda ishlashgan va savdo qilishgan. Buxorolik zargarlar qadimgi taqinchoqlar, isirg’ a, uzuk va bilakuzuk tayyorlashda rang-barang tovluuvchi moddalar: oltin, yoqut, marvarid, feruza, lojuvard, haqiqdan ko’proq foydalanganlar.

Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, jahon uzra dovruq taratib, bizning davrimizgacha etib kelgan o’ziga xos va takrorlanmas amaliy sanuatlardan y ana biri to’qimachilik va kashtachilikdir.

Ilm-fan va madaniyatning qadimiylar beshiklaridan hisoblangan Buxoroning zardo’zlik sanbati butun ja honga mashhur bo’lgan. Matolarni turli-tuman rangda qoyilmaqom qilib bezash va gul bosishda, zardo’zi, kashtachilikda, matolarga tilla suvi yuritilgan ipakdan zeb berishda uncha-muncha odam Buxoro zardo’zlariga va ustalariga tenglasha olmagan.

O’zbekiston gilamchilik sohasida ham annanalarga boy o’lkadir. CHo’g’dek qip-qizil gilamlar naqshlarining guldordigi va g’oyatda nafisligi bilan bir-biridan qolishmaydigan samarqandcha va buxorocha, xevacha va turkmancha, eroni, afg’oni, uyg’urcha va xitoycha gilamlar xalq ommasi amaliy faoliyatining mahsuli sifatida hozirgacha ham o’zining shon-shuhrati va qimmatini saqlab kelmoqda.

Badiiy kashtachilik o’zbeklar orasida azaldan keng tarqalgan va sevimli kasb- hunar hisoblangan. O’zbek oilalarida, ayniqsa xotin-qizlar o’rtasida bu kasbni bilmaydigan, sevib ardoqlamaydigan kishi topilmagan deyish mumkin. O’zbek kashtachilar tomonidan yuksak badiiy did bilan tikilgan palak, choyshab, gulko’rpa, par da, belbog’ va boshqa ajoyib buyumlar maishiy tur-mushimizni hali- zamon bezab, go’zallashtirib kelmoqda.

Musiqa sannati eng qadimiylar shu bilan birga o’zbek xalqi o’rtasida keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib kelgan sohalardai biridir. Musiqa kishilarning his-tuyg’ularini, fikrlarini va kayfiyatlarini o’ziga xos tarzda ifoda etadi.

Musiqaning tausir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbotlagan. Abu Ali ibn Sino musiqaning tansir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni kuylar vositasi bilan davolash mumkin, degan fikrni ilgari surgan edi.

Aytishlaricha, buyuk faylasuf olim Abu Nasr Farobiy musiqa ilmida ham tengsiz bo’lgan. U o’zining asarlarida musiqa nazariyasi, ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishilarga maunaviy-ruhiy tausiri haqida qimmatli fikrlar aytgan. Farobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo’lib qolmay, amaliyotchi ham bo’lgan. Uning o’zi taniqli mashshoq, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobining ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan.

Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo’ujizakor tausiri, inson maunaviy kamolotidagi ahamiyati haqida fikr yuritib, Farobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to’g’risida» degan mashhur asarida shunday deydi: «Bu ilm shu maunoda foydaliki, u o’z muvozanatini yo’qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo’lgan odamlar

xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasha, ruh ham to'siqqa uchraydi. SHuning uchun ovozlarning tansiri bilan rujni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va o'z substantsiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi».

Musiqa sanuati kishiga yuksak tuyg'ular, zavq-shavq, butun bir g'oyalalar olamini ochib beradi. Odamlarni maunaviy jihatdan boy, sof va barkamol qiladi. Musiqa tufayli inson o'zida yangi, ilgari sezilmagan kuchlar topadi, hayotni o'zgacha tus va bo'yoqlarda ko'radi. Musiqa insonni hayotni sevishga danvat etadi, Vatan kelajagi uchun kurashga undaydi.

Musiqa singari qo'shiq ham o'zbek xalqi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodining bu muhim shaklini keltirib chiqqagan, rivojlantirgan, takomillashtirgan sabablar ichida eng birinchisi va belgilovchisi —mehnat, insonning amaliy faoliyatidir, kuy va qo'shiq insonning doimiy hamrohi, uning shodmon va qayg'uln onlaridagi yo'ldoshidir.

O'zbek xalq pooziyasi, xalq qo'shiqlari uning ijodkori tarixi bilan, mehnati bilan uzviy bog'liqdir. Poaziyada ham, qo'shiqda ham xalqning ruhiyati, inson tuyg'ulari, pok sevgisi, orzu armonlari bilan birga ijtimoiy ahvoli mujassamlashgan bo'ladi. SHuning uchun xalqning' tarixini uning poaziya va qo'shiqlari bilan, qo'shiqlarini esa tarixi bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Xalq og'zaki ijodini, qo'shiqlarini bilmay turib, mehnatkash xalqning chinakam tarixini, milliy ziynatining shakllanishini bilish mumkin emas. Dunyoda qo'shiq aytmaydigan, qo'shiqdan zavqlanmaydigan, raqs va laparlarni, dilbar kuylarni yoqtirmaydigan bironta ham xalq bo'lmasa kerak. O'zbeklar ham shular jumlasiga kiradi.

O'zbek xalqi azaldan sho'x raqslar, maftunkor kuy va sermazmun qo'shiqlarni jon-dilidan sevadi. SHodlikda ham, qiyinchilikda ham unga murojaat qiladi, undan zavq-shavq oladi, orom va taskin topadi.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qayd qilib o'tilgan mehnat qo'shiqlari, o'roqchi, xirmon qo'shiqlari, ov qo'shiqlari, qahramonlik, jang qo'shiqlari, mavsum va marosim qo'shiqlari, ishqiy qo'shiqlar — bularning hammasi ming yillar davomida xalq ko'nglidagi hasrat va shodlikning yo'ldoshi bo'lib kelgan.

Ota-bobolarimiz to'y-tomoshalarda, xalq yig'inlarida, marosimlar, sayllar va bayramlarda xalq shoirlari, baxshilarining shirador ovozi, do'mbira va qo'bizidan taralgan sehrli kuy ohangi, qo'ziqchilar, dorbozlar, qo'g'irchoqbozlar tomoshasi, xonanda va raqqosalar sanuatidan, o'yin-kulgusidan behisob zavq-shavq olishgan.

Musiqa va qo'shiqning inson hayotida bu qadar keng o'rin olishi, takomillashib, mazmunan boyib va chuqurlashib borishining sabablari bor. CHunki qo'shiq insonni qiyinchiliklarni engishga, ruhan tetik bo'lishga, do'stlarga vafo ko'rsatishga, dushmanlarga nisbatan shafqatsizlikka undaydi. Kindik qoni to'kilgan ona-Vatanni sevishga, undan faxrlanishga dan vat, muhabbat, faxr-iftixorning shakllanishi va rivojlanishi ham manlum darajada unga bog'liq.

Xalqimizning qadimiy va boy tarixini, bosib o'tgan uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini, o'y-fikrlari, orzu-intilishlarini, ajdodlarning boshidan kechirgan nolayu-fig'oni, ko'z yoshi, qisqasi yuragidagi dardi, g'amu hasratini uning yaratgan qo'shig'i, ijro etgan raqsi, kuy-ohangi, musiqasiga qarab bilish mumkin. Ana shumannoda qo'shiq va musiqa xalqning o'tmish hayoti, tarixi, uning xarakter xususiyatlari, kayfiyat va orzu-umidlarini bilib olishning muhim sohasidir.

Xalq amaliy saqnati, ular yaratgan va yaratib kelayotgan jamiki milliy o'zbek buyumlari madaniyat va mannaviyatning bitmas-tuganmas manbalari bo'lib xizmat qilmoqda. Xalq amaliy sannati milliy qadriyatlarimizning noyob qismidir.

Istiqlol tufayli madaniy-mannaviy hayotimizda tub sifat o'zgarishlari vujudga kelmoqda. eski mafkuradan xalos bo'lish natijasida o'z mamlakatimiz, xalqimiz tarixini chuqurroq bilish, asrlar mobaynida yaratib keligan mannaviy qadriyatlardan bahramand bo'lish, ona tilimiz go'zalligini va ulug'vorligini tushunish imkoniyatiga ega bo'ldik va bu milliy qayta tiklanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mannaviy kamolotning yuksalib borishi hayotiy qadriyatlarni, ijtimoiy taraqqiyotning mazmuni va maqsadlarini, isloq qilish va yangilashning barcha jarayonlarini baholashga yangicha yondoshish imkonini berdi.

Hozirgi kunda YUNESKO Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyotini o'rganish, tikiash va keng ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. Bu bejiz emas, albatta. Jahon davlatlari entirof etganidek, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari asrlardan beri jahon madaniyati taraqqiyotiga salmoqli

hissa qo'shib kelganlar. Ularning fan, xo'jalik faoliyati va sannatda erishgan yutuqlari butun insoniyatning boyligiga aylangan. Qadim-qadim zamonlarda ular, murakkab irrigatsion tizim va inshootlar barpo etishni, sahrolarda bo'stonlar yaratishni o'rgangan. Hozirgacha mislsiz bo'lib qolgan. menmorlik namunalari ularning mehnati bilan qad ko'targan. Ularning tafakkuri bilan matematika, astronomiya, tibbiyat, muhandislik ilmida mukammal kashfiyotlar yaratilgan.

Bizning milliy madaniyatimiz mintaqaviy va umuyinsoniy qadriyatlar bilan tutashib ketgan. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi fan, adabiyot va sannat arboblarining mannaviy madaniyat, fan sohasidagi ishlari jahon xalqlari tomonidan hozirgi kunda ham tan olinib yuksak baholanmoqda.

yil avgust oyida Toshkent davlat SHarqshunoslik instituti o'qituvchisi Rahmonberdi Muhammadjonov urdushunoslikni rivojlantirishda qo'shgan hissasi, shuningdek, O'zbekiston va Pokiston xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalami rivojlantirish borasidagi xizmatlari uchun Pokiston Islom Respublikasi Birinchi Prezidentimizining farmoniga binoan «SHarafli mehnati uchun» nishoni bilan mukofotlandi. 8 avgust kuni Islomobodda mukofotni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

1995 yili Termiz shahri yaqinidagi «Uchqizil» suv ombori sohilida joylashgan A.N. Semashko nomli Salomatlikni tikiash va tibbiy davlat institutining rahbari—professor Zokirjon Zunnunovning «Issiq-quruq iqlimda yurak-qon-tomir sistemasining adaptiv va noadaptiv o'zgarishlari va ularni tabiiy usullar bilan muvofiqlashtirish» mavzusidagi ilmiy ishi Nbyu-York Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan yuksak baholandi va unga «Nbyu-york Fanlar akademiyasining anzosi faxriy unvoni» berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir anzosi S. Azimjonovga Hindiston Respublikasining «Javoharlavl Neru nomli do'stlik mukofoti» berildi.

Akademik G. Pugachenkova va professer F. Sulaymonovalar Frantsiya Respublikasi Akademiyasining Palbma ordeniga sazovor bo'ldilar.

Taniqli o'zbek fizik olimi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, Beruniy nomidagi respublika davlat mukofotining sovrindori, fizika- matematika fanlari doktori, professor Rahim Bekjonovning yadro fizikasi borasida olib borayotgan tadqiqotlari chet ellarda ham manlum. U ana shunday salohiyati tufayli 1995 yili Nbyu-York Fanlar akademiyasining anzoligiga saylandi.

Mavjud manlumotlarga ko'ra, hozirning o'zida yuzdan ortiq O'zbekiston olimlariga xorijiy mamlakatlar fanlar akademiyasining anzoligiga qabul qilinishlari to'g'risida takliflar yuborilgan.

Istiqlol tufayli mintaqamizdagi turkiy tilda so'zlovchi xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, manna viy-madaniy aloqalarimiz ham mo'stahkamlanmoqda. Ming yillar davomida bir ildizdan bahra olgan xalqlarimiz orasida eski mafkura tufayli qo'yilgan sunniy to'siq barbod bo'ldi. Tarixni, o'zlikni anglash mavridi keldi. Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining ilgari Anqara va Istanbulda o'tgan oliy darajadagi uchrashuvlari, Anqara bayonnomasi hamda Istanbul deklaratsiyasi ana shu maqsadni amalga oshirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni, mannaviy uyg'unlikni mustahkamlash yo'lida muhim qadam bo'lgan edi. 1995 yil 28 avgust kuni Bishkekda turkiy tilli davlatlar rahbarlarining navbatdagi uchinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuv Bishkek deklaratsiyasini imzolash bilan yakunlandi. Majlisda xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha fikr almashish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, madaniy-mannaviy aloqalarni rivojlantirish hamda giyohvandlikka qarshi kurashni kuchaytirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Bishkek uchrashuvida Ozarbayjon Birinchi Prezidentimizi Haydar Aliev, Turkiya Birinchi Prezidentimizi Sulaymon Demirol, Turkmaniston Birinchi Prezidentimizi Safarmurod Niyozov, O'zbekiston Birinchi Prezidentimizi Islom Karimov, Qirg'iziston Birinchi Prezidentimizi Asqar Aqaev, Qozog'iston Birinchi Prezidentimizi Nursulton Nazarboevlar ishtirot etishdi.

Turkiyzabon davlatlar boshliqlarining 1996 yil oktyabrda bo'lib o'tgan Toshkent uchrashuvida ham do'stlik va birodarlik ruhi ustun bo'ldi. Ayniqsa bu uchrashuvning Sohibqiron Amir Temur tavalludining 600 yilligi tantanalari kunlarida o'tganligi unga alohida fayz va manno bag'ishladi.

Mintaqamiz xalqlarini mannaviy jihatdan yanada jipslashtirishda annanaviy tarzda respublikalararo kunlarning o'tkazilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Manlumki, 1994 yil 23 mayda O'zbekistonda Qozog'iston kunlari ochildi. Bu bejiz emas, albatta. Qadimdan bir mannaviy-ruxiy iqlimdan nafas olib kelgan xalqlarimiz tarixining, ayniqsa, bugungi masnuliyatli davrda aql, zakovat va shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab etiladigan davrda yana ham yaqinroq, yana ham mehr-oqibatliroq bo'lishlari lozimligini hayotning

o'zi taqozo qilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov tankidlaganidek, «qozoq va o'zbek xalqlari tarixning barcha davrlarida birga bo'lgan, yonma-yon qadam tashlab, turmushning bor shodligu g'amini birga baham ko'rgan.

«Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi, — deydi I. A. Karimov, — ularning dunyo va axborot tsivilizatsiyasi qadriyatlariga moslanishini ham anglatadi.

Biz hozirgi tsivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiylar qadriyatlar jumlasiga huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni kiritamiz. Bu — nelson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazolardir».¹

Istiqlol tufayli jamiyatimizda yangi zamonaviy demokratik davlat va siyosiy tizim barpo etildi. Umum e'tirof etilgan demokratik qoidalar, so'z erkinligi, vijdon va din erkinligi hayotimizda tobora mustahkam qapop topib bormoqda.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «bizni sotsialistik tuzumdan keyingi bir qator mamlakatlardan farqlab turgan, yuksak darajada rivojlangan yuksak madaniy demokratik davlatlar bilan yaqinlashtirib turgan, jahon hamjamiyatiga har tomonlama qo'shilib ketish uchun yo'l ochib berayotgan narsa fuqarolar tinchligi, millatlararo totuvlik ijtimoiy barqarorlikdir»¹.

Barqarorlik tinchlik millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni tashkil etadi. Fuqarolar o'rtasidagi tinchlik millatlararo totuvlik va do'stlik ularni avaylab saqlash va mustahkamlashga intilish azaldan halqimizning o'ziga xos fazilati bo'lib kelgan va hozirgi vaqtida ham shunday bo'lib kelmoqda. Halqlar o'rtasida tinchlik totuvlik do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'matish millatimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan.

O'zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda tarakqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlagen. SHuning uchun ham uning jahon hamjamiyatidagi obro' va e'tibori tobora ortib bormoqda. Davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash va havfsizlikni ta'minlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti katta rol' o'ynaydi. O'zbekiston 1992 yilning 2 martidan boshlab BMTning teng hyqqiali a'zosidir. Mazkur xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda mintaqamizda tinchlik barqarorlik millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan ko'pgina savobli ishlar qilinmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimizi Islom Karimov 1993 yili BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik sohasida BMTniig doimiy seminari tashkil qilish to'g'risida taklif kiritgan edi. O'zbekiston Birinchi Prezidentimizining bu tashabbusi xalqaro miqyosda katta kiziqish uyg'otdi. Amerika Qo'shma SHatlari seminar yig'ilishi o'tkazish g'oyasini qo'llab- quwatladи va ushbu anjumanda yuksak diplomatik darajadagi vakili ishtiroy etishi istagini bildirdi. Bunday organanni tashkil qilish g'oyasi davlatlararo o'tkazilgan seminar va konferentsiya hamda MDH hujjalariada ham qayd qilingan. Seminar yig'ilishning maqsadi o'zaro fikr almashish, ishonchli mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratish yollarini muxokama etish, tinchlik va barkarorlikni saqlash, nizolarning oldini olish, iqtisoddagi o'zaro jipslashish jarayoniga, insonparvarlik va madaniy sohadagi hamjhatliklarga ko'maklashishdan iborat. SHuningdek seminar yig'ilish mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik muammolarini qal etish, tahlil qilish, BMT, alohida davlatlar bir guruh davlatlarga ta'sirchan bo'lgan bosqichma bosqich diplomatiya uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini o'z oldiga qo'ygandi. 1995 yil 15—16 sentyabrda mazkur seminar kengashning O'zbekiston poytaxti Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik na hamkorlik masalalariga bag'ishlangan majlisi bo'lib utdi. Seminar kengashda BMT, EXHK, Islom Konferetsiyasi tashkiloti delegatsiyalari, BMT xavfsizlik kengashiga a'zo mamlakatlar, Mustaqil Davlatlar Hamdo' stligi, Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari, shuningdek, mintaqaga tutash davlatlar delegatsiyalari — jami 31 davlat, 6 xalqaro tashkilot ishtiroy etdi.

BMT Bosh kotibining maxsus vakili Mahmud Mistiry seminarni ochar ekan, O'zbekiston tashabbusi bilan o'tkazilayotgan ushbu anjuman 50 milliondan ortiq aholi istiqomat qilayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'miniash yo'lida muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov seminar kengashda so'zlagan nutqida shunday dedi: «Biz mazkur seminarni mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik tizimini o'matish va uni amalga siljitish yo'lida, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari va halqlari uchungina emas, balki bu mintaqaga chegaradosh ulkan hudud uchun ham juda zarur bo'lgan hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asosni shakllantirishda turli fikr va yondashuvlarni yuzaga chiqarish va ulami bir-biriga

yaqinlashtirishda manfaatdor bo'lgan anjuman deb baholaymiz» [1](#).

Anjuman qatnashchilari «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha Toshkent seminar kengashi, ishtirokchilarining bayonoti»ni qabul qildilar. Mazkur Bayonotda Markaziy Osiyo davlatlari mintaqada vujudga kelayotgan vaziyat uchun o'zlarining mas'uliyatini to la his qilib, mintaqaviy xavfsizlik barqarorlik va hamkorlikni ta'miniash jahon hamjamiyatining muttasil rivojlanishiga o'zlarining kollektiv ravishda qo'shadigan muhim hissasi ekanligidan kelib chiqib harakat qilishlarini e'tirof etib, shunday deyilgan:

«Boy ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy rang-barangligi bilan ajralib turgan Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik, barqarorlik va izchil taraqqiyot mintaqasi bo'lib qolishi, insoniyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin va lozim. Bu maqsadga faqatgina kollektiv sa y-harakatlar va jahon hamjamiyatining har tomonlama qo'llab-quwatlashi orqaligina erishish mumkin».

Bayonotda elatlararo ziddiyatlar, narkobiznes, terrorchilik qurollaming qonunga xi洛f ravishda joydan-joyga ko'chirilishi, insonlaming ko'chishga majbur bo'lishi singari xavf va tazyiqlarga alohida e'tibor berish zarurligi, shuningche Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'milash, yangi kommunikatsiyaviy tartib barpo etish, hukumat vi hukumatga daxldor bulmagan turli organlar ishtirok etishi lozim bo'lgan ekologiya tizimini barpo etish, Orol muammosiga z'tiborni yanada kuchaytirish, Markaziy Osiyo davlatlarining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalanishda hamkorlikni ta'miniash bo'yicha sa y- harakatlarni tashkil qilish kabi muhim masalalar o'z aksini topgan.

Seminar-kengash ishtirokchilari yakdillik bilan e'tirof etdilarki, Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining BMT va EXHTning inson huquqlari bo'yicha talablariga sodiqligini tasdiklaydilar, mintaqada demokratiyalashtirish jarayoni va kamsonli millatlar vakillarini hisobga olgan holda inson huquqlari muhofazasini ta'minlashni chuqurlashtirishga harakat qiladilar.

Turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari a'zolari O'zbekiston Birinchi Prezidentimizi Islom Karimov tashabbusi va BMTning to'la xayraxonligi bilan o'tgan mazkur seminar key gash mintaqqa xavfsizligini mustahqkamlash yo'lida muhim qadam bo'lishini ta'kidladilar.

«O'zbekiston, - deydi Hindiston Respublikasi tashqi ishlar davlat vaziri Salmoi Xurshid, — qamisha tinchlik va hamkorlik tarafdori bo'lib kelgan. Biz 1966 yilning boshida Hindiston va Pokiston rahbarlarining Toshkentda uchrashganliklarini yaxshi bilamiz. O'shanda poytaxtingizda imzolangan tarixiy Toshkent Deklaratsiyasi Hindiston yarim oroliga tinchlik olib kelgandi. SHuning uchun ham O'zbekistonning tinchlik va hamkorlik borasida olib borayotgan faoliyatini munosib baqolash joyz. Hozirda O'zbekiston o'z tashqi siyosatini tinch-totuv yashash, barqarorlik va hamkorlik printsiplari asosida amalga oshirib, jahon hamjamiyatida obro' va e'tibor topmoqda». [1](#)

Toshkent seminar kengashi dunyo xavfsizligi yo'li mintaqaviy xavfsizlikni ta'miniash orqali o'tishi, boshqacha aytganda, mintaqalar xavfsizligini ta'miniash yo'li bilan jahon xavfsizligini ta'miniash mumkin ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi. Mintaqamizda barqarorlik tinchlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar ichida 1995 yili sentyabr' oyida BMT tomonidan Nukus shahrida o'tkazilgan Orol havzasi mintaqasining barqaror rivojlanishiga bag'ishlangan konferentsiya va unda qabul qilingan deklaratsiya, ham muhim o'rin tutishini aytib o'tish joizdir.

1995 yilning oktyabr' oyida N'yu-Yorkda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining ellinginchi yubiley sessiyasida so'zlagan nutqida I.Karimov jahon davlatlari rahbarlari va keng jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan muammolarga qaratib, yalpi xavfsizlikka mivtaqalarda xavfsizlikni ta'miniash orqaligina erishish mumkin ekanligini uqtirib o'tdi. SHuningdek BMTning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar munosabatlarini faollashtirish, tangliklaming oldini olish yo' lida uning mintaqaviy tizimlarini yanada rivojlantirish lozimligi to'g'risidagi takliflarni ilgari surdi.

O'zbekiston mintaqamizda, jumladan Tojikistonda tinchlik va barqarorlikni ta'miniash yo'lida ham faol harakat qilmoqda. 1995 yil 3 aprelda O'zbekiston tomonidan muholif kuchlar rahbariyati bilan uchrashuv chog'ida Tojikiston halqlari kongressini chaqirish xaqida taklif kiritildi. Bu taklif qabul qilindi va Tojikistondagi muholif kuchlar o'zaro muzokaralarga kirishdilar.

Mazkur anjumanning tinchlik va barqarorlikka erishish borasida barcha siyosiy partiyalar, jamiyatdagi sog'lom kuchlar uchun muhim minbar bo'lishiga ishonch mustahkamlamoqda.

1995 yil 10-11 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi

hukumati mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash muammolari, Tojikistonda tezroq tinchlik umatish maqsadida tojiklararo muloqotni ta'miniash bo'yicha birgalikda qilinadigan harakatlami muhokama etdilar. O'zbekiston va Tojikiston Respublikasi o'tasidagi munosabatlarda yanada chuqurlashtirish haqidagi memorandumda «O'zbekiston tomoni BMT xomiyligi ostida o'tgan Tojikistonda tinchlik o'matish va milliy totuvlikni qaror toptirishning asosiy tamoyillari to'ug'risidagi tojiklararo muloqot doirasida imzolangan protokolni tabriklaydi», deyiladi.

Siyosiy muloqot, kuch ishlatish va ekstremizmdan voz kechish, BMT homiyligi, kuzatuvchi mamlakatlar ishtirokida o'zaro maqbul echimlarni izlash Tojikistonda tinchlik va barqarorlikka erishishning yagona yo'lidir. SHuni e'tiborga olgan holda memorandumda quyidagilar ta'kidlanadi:

«Tomonlar bundan buy on ham mintaqaviy xavsizlikning muhim muammolari yuzasidan doimiy maslahatlashuvlar o'tkazish amaliyatiga rioya qiladilar va xalqaro tashkilotlarda birgalikda harakat qilishda davom etadilar.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati ikki davlat qardosh xalqlari farovonligi yo'lida bundan-buyon ham tinchlik 6apqarorlik hamda totuvlikni ta'miniash va oshirish, yaqin hamkorlik rejalarini hayotga muttaqil tatbiq etish uchun birgalikda harakat qiladilar».

O'zbekiston Afg'onistonda ham tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlashing tarafdiridir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov hozirgi kunda mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash muammolari xususida so'z yuritganda bugungi kunda Afg'onistonadagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tikiash borasida davom etayotgan ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda, mntaqadagi strategik mavxumlikni tugatish nihoyatda dolzarb masala ekanligini ta'kidladi¹.

Hayot shundan dalolat beradiki, bugungi kunda notinch va fojiali mintaqalarda joylashgan davlatlaming bir-birini o'zaro anglash va birgalashib harakat qilishini ta'minlabgina butun dunyoda tinchlik va barqarorlikka erishish yo'tlarini belgilab olish mumkin. SHuning uchun ham biz uchun barcha tinchliksevar mamlakatlar bilan o'zaro foydali teng huquqli munosabatlami yo'lga qo'yib, jahon hamjamiatiga qo'shilish o'ta dolzarb vazifadir.

Barqarorlik, tinchlik, totuvlik bular davlatimizning yangi binosini barpo qiladigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigai to'g'ri yo'ldir. «Tinchlik va barqarorlik,- deb yozadi I.Karimov, - bular xalqaro hamjamiat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik yaxshilik sofdillik singari umuminsoniy kadriyatlamni qabul qilgan va birgalikda baham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lshi, jahon hamjamiatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqi, o'zaro manfaatli munosabatlar o'matilishi mumkin»².

Ma'lumki, umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan, muayyan mintaqadagi konkret davlatlaming hamjihatligi va birgalikdagi harakatidan boshlanadigan jarayondir. SHuni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston rahbariyati BMT ishlab chiqqan qarorlarga muvofiq Afg'onistondagi mojarolami bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish zarurligini qayd etib kelmoqda. Bular: mojaroni bosqichma-bosqich bartaraf qilish, muzokara jarayonida barcha manfaatdor tomonlaming ishtirok etishi; o'zaro yon berish va oqilona o'zaro kelishuv asosida nuqtai nazarhami bir-biriga yaqinlashtirish; bu jarayonda BMT, Evropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Islom konferentsiyasi tashkiloti va boshqa halqaro tashkilotlarning xomiyligi va faol ishtirok etishi; mamlakat hududiy yaxlitligining saqlanishi; qanday shaklda bo'lmasin, tashqaridan tazyiq yoki aralashuvga yo'l qo'yib bo'lmasligi; Afg'onistonga qurol-yarog' etkazib berishni qat'iy taqilab qo'yish zarurligi.

Bugun Afg'onistonda giyohvand moddalar ishlab chiqish ortib borayotgani dunyo hamjamiatida katta havotir uyg'otmoqda. Birok, bu illatga qarshi faqat giyohvand moddalar ishlab chiqarilayotgan xudud atrofida "xavfsizlik zonasasi"ni tashkil etish, jazolash va ma'muriy chora-talbirlarni kuchaytirish bilangina kurashishning kifoya qilmaydi. Ushbu muammoni xal qilish uchun, birinchi navbatda, Afg'oniston iqtisodiyotini chuqur trkibiy o'zgartirish, aholini tinch va buniyodkorlik mehnati bilan band etish orqlai hal qilish mumkin va lozim.

Markaziy Osiyo mintaqasida hozirgi vaqtida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. Mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va aggressiv millatchilik etnik va millatlararo ziddiyatlar, korruptsiya va jinoyatchilik maxalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari, ekologik muammolar xavfsizlikka tahdid ko'rsatib turibdi.

Mazkur muammolarning salbiy oqibatlaridan holi bo'lishda mintaqada jug'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlab qolish katta ahamiyatni kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'miniash muammolarini xal qilishga qo'shilgan salmoqli hissa bo'ladi. Biz «yangi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz. Xavfsizlik barqarorlik va sobitqadam rivojlanish degan so'zlar buning ramzidir. CHunki, aynan shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Sayyoramizda jug'rofiy-siyosiy muvozanatning ajralmas sharti bo'lib qoladi. Bu har bir insonga kelajakka dadil va ishonch bilan qapam huquqini beradi»[1](#).

Millatlararo totuvlik — osoyishtalik va tinchlik garovi

Respublikamiz rahbariyatining mintaqamizda barqarorlik tinchlik, millatlararo totuvlikni qapop toptirish borasida faol harakat qilib kelayotganibejiz emas, albatta. Hozirgi o'ta murakkab va ziddiyatli jarayonda hukumatimiz tomonidan uzoqni ko'zlab olib borilayotgan insonparvarlik siyosati tufayli jamiyatimizda osoyishtalik tinchlik va totuvlik fuqarolarning kundalik turmush tarziga aylanib ketgan. Buni biz millatlararo munosabatlarni takkomillashtirish sohasida qilinayotgan harakatlardan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, nnsonning baxt-saodati, keljak hayoti millatlararo munosabatlar bilan o'zviy bog'liq. Bu ayniqsa, ko'p millatli davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Hozir mamlakatimizda yuzdan ziyod millat va elat vakillari yashaydi.

Ma'lumki, millat ijtimoiy etnik birlikning murakkab shakllari jumlasiga kiradi. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar millat va elatga emas, balki urug' va qabilalarga bo'limb yashagan, xo'jalik hayoti ham qabila va urug'g' doirasidan chiqqa olmagan. Urug'ning a'zosini boshqa kishilardan ajratib turadigan asosiy belgi ulaming kelib chiqishidagi birlik, qon-qardoshlik edi.

Kishilar birligining urug' va qabilaga nisbatan ancha yirik yuqori, doimiyroq shakli bo'lgan elatlar sinfiy jamiyatlar mahsuli bo'lib, ibtidoiy jamoa munosabatlarining emirilishi, jamiyatning sinflarga bo'linishi, davlatning paydo bo'lishi bilan kelib chikdi. elatlar ham qon-qardoshligi, tili va madaniyati bir xil bo'lgan bir territoriyada yashaydigan kishilar jamoasidan tashkil topgandir. elat kishilar birligining o'zidan oldingi shakllariga nisbatan yuqori turi bo'lsa-da, uning ham iqtisodiy zamini mustahkam emas edi. Feodal mahdudlik o'zaro urushlar natijasida mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi savdo aloqalari izdan chiqar, iqtisodiy munosabatlarga putur etar, madaniy aloqalar, o'zaro bordi-keldilarga raxna solinardi. Iqtisodiy taraqqiyot kishilaming tarixan barqaror birligini millatning vujudga kelishi uchun asos bo'ldi. Garchi o'ita asrlarda turli xalqlar, elatlarda millatning tashkil topishi uchun til va hududiy birlik kabi shart-sharoitlar vujudga kelgan, madaniy birlik elementlari birmuncha rivojlangan bo'lsa-da, iqtisodiy hayot birligi hali paydo bo'lgan emas edi. Mamlakatning har xil nohiyalari, viloyatlari, o'lkalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanmasdan turib kishilarning millatga uyushuvi mumkin emas.

Tarix sahnasida paydo bo'lgan burjua tuzumi feodalizmga xos bo'lgan tarqoqlik va biqiqlikka xotima berdi, iqtisodiy aloqalarni kengaytirdi, milliy davlatning vujudga kelishiga sabab bo'ldi, mayda mahalliy bozorlarni qo'shib yiriklashtirib, ulkan milliy bozorlarga, keyinchalik jahon bozoriga aylantirdi, ishlab chiqarish vositalarini markazlashtirdi. SHu tariqa zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoit imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Millat kapitalizm davrida vujudga keldi.

Millat kishilarning tarixan tashkil topganligi bo'lib, u xo'jalik til, madaniyat, milliy ruhiyat xususiyatlarining yagonaligi bilan ajralib turadi. Til, hudud, iqtisodiy turmush, madaniyatdagi umumiylilik, bular millatning eng muhim belgilaridir.

Millatning til, hudud, iqtisodiy turmush va madaniyat jihatidan birligi undan oldin vujudga kelgan urug', qabila va elatlarning birligidan tubdan farq qiladi. Millatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashishi elatlarning og'zaki ijodi va yozma adabiy tilning rivojlanishi asosida yagona milliy tilning paydo bulishiga olib keladi. Millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, uning iqtisodiy tuzumi, odat an'analari, yashash muhiti uning ma'naviy qiyofasi ta'sir etadi. U yoki bu millatga mansub bo'lgan kishilarning o'ziga xos milliy xususiyati va psihologiyasi milliy tili va madaniyati bo'ladi. Til millatning eng muhim belgilaridan biridir.

Dunyoning turli mamlakatlarida hozir o'zining turmush tarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, pivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan qariyb ikki ming turli halqlar va millatlar yashamoqda. Ulaming qariyb 1600 tasi Osiyo va Afrika mamlakatlarida, qariyb 100 tasi rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda, qariyb 250 tasi sobiq sotsialistik mamlakatlarda yashaydi,

Mustaqil davlatlar soni hozir qariyb 190 tani tashkil etadi. Er yuzida 101 milliondan ortiq kishidan tashkil topgan millatlar ham shuningdek ming va xatto yuz kishidan iborat bo'lgan qabilalar va etnik guruhlar ham borligini aytmasdan o'tib bo'lmaydi.

Hozirgi davrda sobiq Ittifoq hududida ijtimoiy, milliy va millatlararo munosabatlar masalasida ilgari aslo kutilmagan salbiy hodisalar, juda ham o'tkir va qaltis muammolar, kuchli to'qnashuv va mojarolar tez-tez ro'y berib turganligi ham hech kimga sir emas.

Milliy va millatlararo munosabatlar masalasida bo'lib turgan keskinliklar va ziddiyatlar oddiy bir anglashilmovchilik natijasi emas. Uning muayyan sabablari bor, albatta. Milliy va millatlararo munosabatlar masalasi sohasida mavjud bo'lgan muammolami xal qilish omili ularni keltirib chiqqangan, chuqurlashtirib yuborgan sabablarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini belgilashdan, ularni yangicha siyosiy va falsafiy tafakkur asosida nazariy. jihatdan idrok etishdan iboratdir.

Milliy va millatlararo munosabatlarga oid shunday muammolar va vazifalar borki, ularni ilgari qo'llanilgan eski vositalar, usullar bilan hal etib bo'lmaydi. Hayot milliy masalaga yangicha yondashishni, siyqa usullardan qat'ian voz kechishni kun tartibiga qo'ymoqda.

Milliy masalaning hozirgi davr talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, ijodiy boyitilgan eng muhim nazariy qoida va xulosalari hayotga qanday tattbiq etilayotganligini o'rganish, ularni ilmiy tahlil etish katta amaliy siyosiy va ma'rifiy tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

Milliy qadriyatlarni tikiash va ulardan samarali foydalanish milliy manfaatlar va milliy qiziqishlar bilan uzviy bog'liqdir. Milliy manfaatlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotni har tomonlama, teran qamrab oladi. Boshqacha aytganda, xaqqoniy milliy manfaatlar—bu muayyan millat vakillarining talab va ehtiyojlari yig'indisidan iboratdir. Ammo milliy manfaatlar va ishlar boshqa mintaqqa vakillarining manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak Asl manfaatlar bir guruh milliy ekstremistlar, millatchilik shovinistik buyuk davlatchilik dardiga mubtalo bo'lgan kimsalar emas, balki mehnatkashlar ommasi ifoda etadi.

Millatlar va milliy manfaatlar, milliy xis-tuyg'ular mavjud ekan, milliy munosabatlar ham kun sayin e'tibor berishni talab qiladigan masaladir, u umumiylik munosabatlarini hisobga olgan holda o'z vaqtida va ijobiy xal etib borishni talab etadi. Millatlarning manfaatlariga to'g'ri munosabatda bo'lish va ana shu zaminda ixtiloflar chiqaradigan har qanday imkoniyatlarga chek qo' yuvchi sharoitlarni yaratib beradi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, turli millatlarning manfaatlariga jiddiy e'tibor berilgandagina ixtiloflarga sabab bo'ladigan zamin yo'qoladi: o'zaro ishonchsizlik, har qanday fisqu-fasod xavfi yo'qoladi.

Ba'zi hollarda milliy manfaatlar g'oyaviy-siyosiy mazmuniga ko'ra bir- biridan farq qilishi mumkin. SHuning uchun ham ko'p millatli davlatimiz xalqlarining sog'lom milliy manfaatlarini doimiy ravishda topib, o'rganib, ularni yo'llarini izlamog'imiz lozim. Lekin bir yoqlama xarakterdagi, mamlakat birligini mustahkamlashga xizmat qilmaydigan o'ta shaxsiy, tor «milliy manfaatlar» atrofida o'ralashib qolish to'g'ri emas.

Bir millatning manfaatlari boshqa millat, elatlarning manfaatlaridan, talab va ehtiyojlaridan ajratilmagan holda o'rganilishi lozim. Jamiyat hayotini demokratiyalashtirish, oshkorali kni chuqurlashtirish sharoitida, nazokatnn saqlagan holda, barcha millatlar va elatlarning o'ziga xosligi-yu, manfaat, qiziqishlarini kamsitmasdan, doimo xalqlar do'stligini mustahkamlash, yoshlarni baynalmilallik va vatanzavarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini qidirmoq kerak.

Milliy manfaatlarni nazar-pisand qilmaslik cheklab qo'ying xunuk ijtimoiy-siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunga Tog'li Qorabog', Gruziya, Ukraina, Kavkazorti mamlakatimizlarida, Tojikistonda va boshqa joylarda ro'y bergen va berayotgan ko'ngilsiz voqealar misol bo'la oladi. Bu voqealar milliy qadriyatlar negizida turgan muammolarni oqilona hal etish lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi, millatchilik va shovinistik kay fiyatları qo'zralishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlar keng ma'noda mamlakatning barcha aholisini tashkil etuvchi turli ijtimoiy sinflar, millatlar va elatlarning manfaat va qiziqishlarini ifodalaydi. Demak, har bir o'lka, muxtoriyat yoki mustaqil davlat shaklidagi mamlakatimizlar tarkibida bir necha millatlar va elatlar borki, ularning barchasiga xos bo'lgan, yaxlit tarzda. amal qiladigan manfaat va qiziqishlar yuzaga keladi. Umummanfaat zaminida yuzaga kelgan munosabatlar asosli ravishda ularning barchasiga xos bo'lgan umumiyligini qadriyatlamining shakllanishiga asos bo'ladi. SHu nuqtai nazardan aytish mumkinki, umummilliy manfaatlar mazmun va mohiyati jihatdan milliy qadriyatlarga qaraganda keng va

chuqurroqdir. Bundan ko'rinib turibdiki, umummilli manfaatlar milliy manfaatlardan farqli o'laroq, alohida yoki bir guruhdagi kishilami emas, balki mamlakatimizdagi barcha mavjud millat, elat va xalqlar maqsad va intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalaydi.

Umummilli manfaatlar butun holda namoyon bo'lsa, milliy manfaatlar ana shu butunning bo'lagi shaklida namoyon bo'ladi. Umumiylikni alohidilikdan, alohidilikni umumiylid dan ajratib bo'hnaganidek, milliy manfaatlarni ham

umummilli manfaatlardan ajratib qarash mumkin emas. Zero, umummilli manfaatlar, milliy manfaatlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Milliy va umummilli manfaatlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. SHuning uchun ulami bir- biridan ajratib, bir-biriga qarama- qarshi qo'yib bo'lmaydi. Haqiqiy baynalminal inson bo'lmoq uchun faqat o'z millatining manfaatinigina o'ylash kerak emas, balki uni umumisoniy manfaatlar bilan uyg'un holda ko ra bilmoq kerak.

Ko'pmillatli mamlakatimiz taraqqiyotining tarixiy, tajribasi umummilli manfaatlar bilan milliy manfaatlarni bir-biriga uyg'unlashtirishning bir qancha printsiplarini yaqqol ko'stish imkoniyatini beradi. Bu printsiplardan eng asosiysi—umumdavlat, umummilli manfaatlarni cheklash, kamsitish emas, balki umumiyatning manfaatiga asoslanish, ozchilikning manfaatini ko'pchilik manfaatlaridan ustun qo'ymaslik demakdir.

Haqiqiy baynalmillallik faqat milliy, hududiy mamlakatimiz manfaatlarini teran anglashdangina iborat emas, balki umummilli yangilanish vazifalarini ado etish yo'lida mamlakatimizdagi barcha hududlarning imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanishni ham taqozo etadi. Milliy va umummilli manfaatlarni yakka-yakka, alohida-alohida holda emas, balki o'zaro bog'liq holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Turli xududlarda yashab kelayotgan xalqlar millatidan qat'i nazar, hamma joylarda va hamma vaqt o'zlarishshg rang barang milliy ehtiyojlarini qondira olishlari darkor. Bu munosabat xududiy muxtoriyatga ega bo'hnagan xalqlarga ham tegishlidir, ularning milliy manfaatlarini ham oqilona ximoya qilish zarur.

Qardosh mamlakatimizlarda yashayotgan millat va elatlarning talab va ehtiyojlarini har tomonlama o'rganish, ularni qondirish yo'lyRini izlash hamda mamlakatimizning umumiyl manfaatiga muvofiqgashtirish nisbatan katta ahamichtga egadir.

Keng ma'nodagi millii qadriyatlar asosida turuvchi umummilli danfaatlar, yuqorida ta'kSHdlaganimizdek shunday umummilliB munosabatlarni namoyon etadiki, bularga quyidagi talablarni kiritish mumkin:

- mamlakatda yashovchi barcha kishilaming, millati va istiqomat joyidan qat'i nazar teng huquqliligi va erkin rivojlanishini ta'miniash;
- halqlaming o'z taqdirini o'zi belgilashi, milliy qadr-qimmatni qaror toptirish: ona tilini va madaniyatini, halq urf-odat va an'analarini rivojlantirish huquqi berilishi. mustaqil davlatlar ko'p millatli, halqlarining hamdo'stligini mustaqkamlash, shu jumxuriyatlar tarkibidagi hamma turdag'i muxtoriyatlarning ham mustaqilligini amalda tA' 'inlash;
- kaasonli halqlaming, milliy guruhlarning manfaatlari va qiziqtirishlarina ximoya qilish\$ ular turmushimining an'anaviy shakllariga ehtiyyotkorlik balan munjsabatda bilish, qatag'onga uchraganva zo'rberib so'chirilgan halqlaming huquqlarini tikiash, zo'ravonlik harakatlari oqibatlarini bartaraf etish;
- aholining nohaqlikdan ko'chishining oldini olish,
- qochoqlar uchun huquqiy maqomlar joriy etish, ularga zaruriy yordam berish;
- milliy ekstremizm, shovinizm, irqchilik diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish;
- ko'pmillatli davlatning umummilli xavfsizligini ta'miniash va qo'riqlash,

YUqorida ko'rsatib o'tilgan munosabatlarning barchasi aynan hayotimiz mezonidan kelib chiqayotgan xaqqoniylardir. Bularga o'z navbatida, e'tibor bermaslik salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi muqarrar. Biroq muammolami xal qilish jarayonida faqat muayyan jumxuriyatdagi u yoki bu millat va elating talab va ehtiyojlariga zo'r berish, milliy mahudlikka, xudbin manfaatlarga asir bo'lib qolish ham yaramaydi. CHunki bu hoi muayyan mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ravnaqiga xissa qo'shmaydi, aksincha, salbiy ta'sir etadi, milliy xis- tuyg'ulaming junbushga kelishiga sabab bo'ladi. Milliy va umuminsonyy manfaatlarning moxiyatini belgilash, himoya qilish chogida yo'l qo'yilgan shoshma- shosharlik o'yamasdan tashlangan har bir qaFam og'i'rlar qalb jarohatlariga olib kelishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik kerak. Ma'lumki, O'zbekistan ahjisining

etnik tarkiSid o'zbeklar ustun mavqeni egallabdi. SHu bilan bir qatorda respublikamiz hududida o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari ham yashab turibdi. «O'zbekistonning milliy madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy kayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birgalikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchunqu4ratli omil bo'lib xazmat qiladi va respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilish uchun qulay sharoitlami vujudga keltiradl».

Milliy munosabatlар ijtimoiy munosabatlaming ajralmas qisididir. SHuning uchun ham milliy va millatlararo munosabatlarda ijtimoiy hayotimizning iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, qiyinchiliklar, ziddiyatlar o'z aksini topmay qolmaydi. Har qanday rivojlanishga ziddiyatlar xosdir. Binobarin, ular milliy munosabatlар rivoji uchun ham muqarrardir.

eng muxim, ziddiyat ularni doimo yuzaga keltirib turadigan jihatlami ko'ra bilish, hayot o'rtaga qo'yayotgan savollarga o'z vaqtida to'g'ri javob topib berish zarur. Afsuski, o'tmishda biz milliy siyosatning ulkan yutuqlari haqida keragidan ortiqcha darajada gapirdik ammo mazkur sohadagi jiddiy kamchiliklar, buzilishlar, xatolar, muammolar haqida lom-mim demadik. YUtuqlarimizga ortiqcha baxo berdik kamchiliklar, xatoliklar, jiddiy qiyinchiliklami ko'rib ko'rmaslikka oldin, real voqelikdan ancha yiroqlashib ketdik, qorani oq qilib tasvirladik milliy masaladagi echimlarini kutayotgan muammolar, ro'y bergen va gazak olib borayotgan salbiy xodisalar xususida indamaslikni, hamma narsani bezab, benuqson qilib tasvirlashni o'zimiz uchun odat qilib oldik. Milliy masalada, millatlararo munosabatlarda, iqtisod va ekologiyada, til masalalarida, paxta yakka xokimligi, ijtimoiy masalalar, aholini oziq-ovqat, uy-joy bilan ta'miniash, tibbiy xizmat ko'rsatish, milliy kadrlami o'stirish, yosh bolalar o'rtasida kuchayib borayotgan bevaqt o'lim va 6oshqa eng dolzarb muammolar xaddan uzoq yillar davomida indamasdan, dardimizni ichimizga yutib keldik. Turg'unlik yillarida nashr etilgan ilmiy ishlarda, yoqlangan dissertatsiyalarda, ayrim sobiq raxbarlaming balandparvoz nutqlarida milliy munosabatlarda hech qanday muammo yo'qligi, bo'lishi ham mumkin emasligi haqida zo'r berib gapirildi, bu sohadagi yutuqlar bir yoqlama, faqat yaxshi tomonlardangina bayon etildi va bo'rttirildi, real haqiqat buzib ko'rsatildi. Ayrim jumxuriyatlar va muxtor tuzilmalarning ham, milliy guruhlarning ham ijtimoiy iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, ehtiyojlari etarli ravishda hisobga olinmadi. Millatlar va elatlар taraqqiyotining o'zi o'rtaga qo'ygan birtalay keskin masalalar o'z vaqtida hal etilmadi. Bu esa ijtimoiy norozilikka olib kelib, ba'zan mojaroli tus oldi. Milliy xudbinlik va kibr-havo, tayyoriga ayyorlik kayfiyatları va mahalliychilik ko'rinishlari sodir bo'lib qoldi. O n yillar davomida yig'ilib qolgan salbiy hodisalar uzoq vaqtgacha e'tiborga olinmadi. Buning natijasida bunday ko'ngilsiz hodisalar ro'y berdiki, bu narsa nafaqat sobiq sho'rolar jamiyati kishilarini, balki jahon xalqlarini ham tashvishga solmoqda. Sobiq Ittifoqning tugab ketishi, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjonda, CHechenistonda va boshqa jumxuriyatlarida ro'y berib turgan voqealar va jarayonlar shular jumlasidandir.

Sobiq Ittifoq hududining gox u, gox bu erida ro'y berayotgan bugungi ijtimoiy etnik mojarolar buning yaqqol misolidir. Uzoq yillar davomida zo'r berib aytiganidek agar sobiq Ittifoqda milliy masala bilan bog'liq bo'lgan muammolar to'la va o'zini kesil hal etilganida, ming minglab odamlar qatag'onlik qurban bo'limganida, koshki bir qatop xato-kamchiliklarga, jinoyatlarga yo'l qo'yilmaganidagi, keyingi yillarda bir qancha mingta qilarida noxush hodisalar bo'limgan, qon to'kilмаган, qurbanlar berilmagan bo'lardi.

Nisbatan xiyla jonlanib qolgan millatchilik milliy kalondimog'lik milliy xudbinlik ekstremizm ko'rinishlari, ma lum ma'noda, aynan o'sha eski xatolardan oziqlandi, deyish mumkin. Kishilami darg'azab qilgan salbiy hodisalarning tug'ilishiga faqat shaxsga sig'inish yillarida mamlakatlararo munosabatlarni belgilash, baynalmilal tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida ro'y bergen juda katta xatolar, kamchiliklarga emas, balki keyingi yillarda milliy masalaga yondashish borasida yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlar ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Xatolar yig'ilib-yig'ilib, gazak olib, oxiri, yuqorida aytib o'tilgan, milliy zamindagi ko'ngilsiz hodisalarga sharoit yaratdi.

Milliy va millatlararo munosabatlар masalasida yo'l quyilgan xato va kamchiliklar qanday salbiy oqibatlarga olib kelganligini, nimalarda namoyon bula yotganligini bilish, milliy masalada kelajakda bunday vaziyatlar takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ulami keltirib chiqqargan va rivojlanirib yuborgan sabablarni keng va atroflicha idrok qilish maqsadga muvofiqdir.

SHuni e'tiborga olish kerakki, milliy va millatlararo munosabatlarga bevosita daxldor bo'lgan

juda ko'plab muammolar birdaniga, favqulodda, bir ikki yil ichida emas, balki uzoq yillar mobaynida sekin-astalik bilan paydo bo'lib, rivojlanib, oqibatda o'ta keskinlashib ketgan bir paytda qayta qurish bu sohadagi qator muammolar va ziddiyatlarni yuzaga qalqitib chiqardi.

Hozirgi kunning asosiy vazifasi milliy masalada o'tmishda ro'y bergan nuqson va kamchiliklami sanab o'tishdangina iborat bo'lmay, balki bugungi kunning vazifalari va kelajak xaqida ilmiy asosda aniq-ravshan, fikr yuritishdir. Faqat orqaga qarab oldinga yurish mumkin emas, shunday qilinsa birinchi to'siqdayoq qoqilib qolish mumkin. Biz turmushning xatolar haqida ko'p o'yladik ma lum chora-tadbirlar ko'rdik ham. endigi vazifa hozirgi kun haqida boshqotirishdir. Agar shunday qilinmasa, ko'p imkoniyatlardan foydalana olmaymiz, mayda-chuyda masalalar doirasida o'ralashib qolib, muhim voqealar, vazifalami bilish, ulardan foydalanish va amalga oshirish imkoniyatlarini qo'ldan boy beramiz.

Jumxuriyatimizda keyingi vaqtida ro'y bergan tarixiy voqealar, jumladan, (U zbekistan Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Qonun qabul qilinishi, uning 160 dan ortiq xorijiy mamlakatlar tomonidan tan olinishi, hayotimizning hamma sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar milliy va millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirmoqda. SHulardan to'liq foydalangan holda, milliy va millatlararo munosabatlar sohasidagi barcha mavjud kamchiliklami zudlik bilan tuzatish hammamizning oldimizdag'i dolzarb vazifadir.

Milliy muammolar to'g'risida gap borganda, davlat mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy inqirozdan chiqish ham, milliy qadr- qimmat, qimmat va o'zlikni anglashnn qaror toptirish ham, ekologiya, tabiatni muxofaza qilish ham, til va ma'naviy merosni saqlash ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Milliy va millatlararo munosabatlarga doir muammolaming hammasi o'zaro bog'liq. SHuning uchun ham ularni o'zaro ajratib xal etib bo'lmaydi. Odamlarning kayfiyati, jamiyatdagi ma'naviy siyosiy iqlim ko'p jihatdan ana shu muammolami ijobjiy xal etishga bog'liq.

O'z milliy davlati xududlaridan chetda yashovchi kishilaming manfaatlarini hisobga olish o'tmishda izdan chiqqanligi millatlararo munosabatlar chigallashuvining sabablaridan biridir. U yoki bu millatga mansub kishilarniig maifaatlari kamsitilishi, e'tiborga olinmasligi milliy alamzadalik va mojarolarga olib kela boshladi. Bunday ko'ngilsiz hodisalarining oldini olish uchun o'z milliy davlati xududidan tashqarida yashayotgan har xil millat va elat vakillarinint adolatli talab va istaklarini zaruriy ravishda inobatga olish va qondirish lozim. Hayot milliy guruhlaming davlat hokimiyatdagi vakilligini, ona tilida ta'lim olish, milliy madaniyatni, urf-odat, an'analarini rivojlantirish va boshqa huquqlarini yanada aniqroq belgilab quyishni kun tartibiga qo'ydi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida 1 milliondan ziyod qozoqlar, qariyb 300 ming qrim tatarlari, 500 ming koreys, 700 ming tojik yashaydi. Ulaming turli-tuman ehtiyojlarini qondirish uchun qator chora-tadbirlar qo'rilmoxda. Aholming ona-tilida ta'lim olish borasidagi ehtiyojlarini to'laroq qondirilmokda. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, madaniy va ma'naviy boyliklarni taqsimlash masalalarida ijtimoiy adolat printsiplariga asoslanilayapti. Milliy tilda ro'znomalar, kitoblar nashr etilmoqda. Ko'pchilik millatlarning ehtiyojlarini hisobga olib, televizion ko'rsatuv va radio eshittirishlar kengaytirilmoqda, milliy madaniyat markazlari ta' sis etilmoqda. Boshqa millatlarning vakillari davlat hokimiyatni, ijtimoiy ishlarga jalb qilinmoqda. Uylaymizki, bunday tadbirlar millatlararo munosabatlami yanada takomillashtirishda ijobjiy rol' o'ynaydi.

Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ro'zasida «O'zbekistonning asr boshida» degan uzoq muddatga mo'ljallangan, keng qamrovli rivojlanish dasturini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish zarurligini qayd qilib, «bu dasturda har bir fuqaro, har bir vatandoshimizning bugungi va kelajak manfaatlari o'z ifodasini topishi lozim», deb ko'rsatdi. Bunday dasturni izchillik bilan amalga tatbiq etish milliy va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirib, jamiyatimiz barqarorligini ta'minlashga katta zamin bo'lishi shubhasizdir.

Milliy siyosatga taalluqli, har bir millat va elatning manfaatlariga, kishilaming milliy tuyg'ulariga daxldor bo'lgan hamma ishlarda ayniqlsa xushyor va sergak bo'lish, ayni chog'da qanday libosdaligidan qat'inazar, milliy cheklanganlik va manmanlik millatchilik va shovinizm ko'rinishlariga qarshi kurash olib borishni hech qachon esdan chiqarib bo'lmaydi.

Milliy manmanlik milliy maxdudlik milliy maqtonchiqlik bizning g'oyat buyuk boyligimiz bo'lgan baynalalmilalchilik tuyg'ularimizga tamomila yot. Milliy tuyg'ular juda nozikdir. Biror millatni ortikcha maqtash, uning tarixi, madaniyatini ideallashtirish boshqa millat vakillarining milliy

tuyg'ulariga birmuncha tegib ketadi. Bu milliy tuyg'ular millatchilik tuyg'ulariga aylanib ketishi mumkin. Milliy madaniyat tarixini xaddan tashqari ideallashtirib yuborish ham o'z navbatida, shovinistik kayfiyatlarining kuchayishiga yordam berishi mumkin.

Kamsonli millatlar madaniyatiga, milliy xususiyat va an'analariga katta millatlarning yondashuvidagi buyuk davlatchilik kayfiyatlarini millatchilik tuyg'ularining kuchayishiga ta'sir ko'rsatadi. U yoki bu jumxuriyat xududida yashayotgan kam sonli millatlarning tiliga, ularni o'z tilida o'qitishga, ro'znama va kitoblar nashr qilishga, ish yuritishga nihoyat darajada extiyotkorlik bilan yondashish kerak. Buni e'tiborga olmaslik milliy adovatga, alamzadalik va xokazolarga olib kelishi turgan gap.

Insoniy muiosabatlar millat tanlamaydi. Jumxuriyatimizning oddiy mehnatkashlariga milliy manmanlik mutlaqo yotdir. Ular biror millatni ko'klarga ko'tarishga ham, odamlarni millati eski diniy e'tiqodiga ko'ra qarama-qarshi qo'yishga ham hech qachon ehtiyoj sezmaydilar. Ularning asosiy shiori xalol yashash va mehnat qilish, atrofdagilar bilan chinakam insoniy munosabat o'rnatishdan iboratdir. Oddiy insonlarni milliy xudbinlik kabi salbiy tushunchalar bilan zaharlashni, ularni bexuda bezovta qilishni aslo oqlab bo'lmaydi. Millatchilik shovinizm, milliy maxdudlik milliy kalondimog'lik shaxsni ma'naviy va axloqiy jihatdan emiradi, jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy qashshoqlikka olib keladi.

Millatchilik va shovinistik munosabatlar natijasida, va boshqa sabablarga ko'ra hozirgi paytda sobiq Ittifoq Mamlakatimizlarida turli mamlakatlarga mansub bo'lgan 60 million kishi o'z xududidan tashqarida yashaydi. Bu narsa, albatta, qator muammolaming turilishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi paytda ana shu muammolarni xal etishga qaratilgan ishlar olib bormoqda. Milliy munosabatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida so'z yuritilar ekan, mazkur masalaga taalluqli bo'lgan yana bir muhim narsani aniqlab olishimiz lozim. O'tmishda milliy munosabatlarga xos ikkita tendentsiya mavjud, ularning birinchisi millat va elatlarning gullab- yashnashini tashkil qilsa, ikkinchisi ularning o'zaro inoqlashuvini tashkil etadi, degan fikr mavjud bo'lib, ikkinchi tendentsiyani birinchisnga nisbatan ustun deb hisoblanardi. Endilikda, milliy munosabatlardagi ikki tendentsiya xaqidagi masalaga hozirgi sharoitni hisobga olib yangidan yondashishimiz zarur bo'lib turibdi. Fikrimizcha, milliy munosabatlar rivojlanishdagi tendentsiyalarning birinchisi jamiyatimizdagi barcha millat va elatlarning erkin va har tomonla rivojlanishi bo'Isa, ikkinchisini ular o'rtasidagi qardoshlarcha do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish va yanada mustahkamlash, desak haqiqatga mos tushadi.

Bunday yondashish, barcha millat va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishini ta'miniash bilan birgalikda ular o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga imkoniyat ochib beradi.

Tayanch iboralar:

Milliy qadriyatlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, Mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar, Milliy va Umuminsoniy qadriyatlarining mushtarakligi, Millatlararo totuvlik - osoyishtalik va tinchlik garovi.

Mavzuga doir nazarot savollarii:

Milliy qadriyatlar deganda nimalar tushiniladi?

Nima uchun millatlararo totuvlik qadriyat xisoblanadi?

Nima uchun mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarining axamiyati muhim sanaladi?

Mavzu yuzasidan foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 2017. 488 b.

2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston". 2017. 50 b.

3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston". 2016. 59 b.

4. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". T.: "O'zbekiston". 2017. 107 b.

5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omildir // Xalq so'zi. 2010 yil, 7 dekabr.

6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostososada. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.

7. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Bizning yo'lizim - demokratik islohotlami chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yolidir // Xalq so'zi. 2011 yil, 8 dekabr.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro- e'tiborini yanada oshirish yo'Tida mehnat qilish - muqaddas burchimiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyadagi nutqi // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 4 aprel.
11. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik - barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Prezident Islom Karimovning 9 - may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbati // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.
12. Prezident I.A. Karimovning «Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmoni // Xalq so'zi, 2013 yil 19 aprel.
13. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi. Prezident I.A.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 15 may.
14. 31.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.Qo'shimcha adabiyotlar.
15. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent, 1998.
16. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
17. Tulenov J, Qodirov B, G'o'furov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000.
18. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - Toshkent: Abdulla Qodiri, 1994.
19. Yusupov E. Falsafa. - Toshkent: Universitet, 2000.
20. Tulenov J. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
21. Hakimov I. Sog'lom muhit - sog'lom avlod. - Toshkent: O'zbekiston, 1999.
22. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent:O'FMJ, 2004
23. Achildiyev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2004.

14-MAVZU: Mustaqillik va yangi qadriyatlar tizimi.

Reja:

1. Mamlakatimizda jahon siviliziyatisyasingin to'laqonli tarkibiy qismi bo'lgan yangi qadriyatlar tizimi shakillanishi uchun ob'ektiv va sub'ektiv omillaming paydo bo'lishi.
2. Istiqlol davrida yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelishining zaruriyligi.
3. O'zbekistonning o'ziga hos yangi qadriyatlar tizimi shakillanishi.
4. Tabiiy va iqtisodiy qadriyatlar xalq farovonligi xizmatida.
5. Ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi
6. Mustaqillik davrida qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar.

Mustaqilimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan kup asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaxo manaviy va ma'daniy merosning tikiash davlat siyosati darajasiga kutarilgani nixoyatda muxim vazifa bo Tib qold».

Natijada xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning soxibiga aylandi.

SHuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum xukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga, biryoqlama yondoshishdek ijtimoiy illatdan ongimizni xoli etdi.

Mustaqillik bizning milliy ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquwat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi.

«Biz, - deydi I.A.Karimov, - boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim sultanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu-fan barq urub yashnagan, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu-mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi»!

Mazkur asarning oldingi saxifalarida keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'lkamiz olimlari nafaqat tibbiy ilmlar mantiq, huquqshunoslik, san'atshunoslik, tarix va xokazolar ham o'zlarining ilmiy maktablarini yaratib, jahon madaniyatini rivojlantirishga salmoqli xissa qo'shib kelganlar.

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lган sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamiko'st foydalanishimiz lozim.

«Bizning kelajagi buyuk davlatimiz, - deydi I.A.Karimov, - ana shu falsafaga uyg'un xolda, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Baxouddiy Naqshban, Imom Al Buxoriy, Imom At-Termiziyy, Amir Temur, Mizo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un xolda shakllanishi lozim».

Darhaqiqat, islom ta'limoti ming yillar mobaynida xalqimiz yaratgan boy madaniy va mafkuraviy merosdir, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ijobiy rolini aslo inkor etib bo'lmaydi. Akademik Izzat Sulton ta'kidlaganidek, «Diniy e'tiqodlarga keng yo'l ochilgan, din bizning madaniy atimizning ajralmas qismi bo Tib qolgan bugungi kunda bizga diniy e'tiqod bilan sug'orilgan Olohni tanishga asoslangan ahloq zarur. Xalqimizning butun tarixi mobaynida ishlangan, asrdan asrga boyitib va mukammallashtirib borilgan ahloq bugungi va kelajagimizdagи ahloqiy qoidalarimizga asos bo'la oladi».

Mustaqillik bizga ma'naviy mulkimizni, tariximizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etishni imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqlol tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Bugungi kunda ulug' bobolarimiz Imom Al-Buxoriy, Imom At-Trmiziyy, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Baxouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubroning insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi diniy, ahloqiy va huquqiy xikmatlari qaytadan jaranglay boshladi.

Avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning kechmishi, tarixi va xayotini aks ettirgan asarlaming o'z ona tilimizda nashr etilayotganligi quvonchlarimizga quvonch qo'shmoqda.

Endilikda o'tmishimizning ko'pgina saxifalari xujjalalar, qo'lyozma materiallari birinchi manbaalar asosida yoritilmoxda. Tarixiy xaqiqatlar asl manbaalarga tayanib tiklanyapti.

Bularning hammasi tarixiy adolatning buyuk g'alabasi, tantanasidir.

Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'mi benihoyat kattadir.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma'naviy-ahloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun mohiyati jihatidan chuqr bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. SHularning ichida markaziy o'rnini dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lган insonning dunyoqarashini shakllanitirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash bu kishilaming olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi xaqidagi, ilmiy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy va xokazo qarashlari va tasawurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olam xaqidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak atrofdagi narsa va xodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga, bilimga ega bo'lsalar ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni

anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. SHundan ko'rini turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izoxlangan va baholangan bilimlar majmuasidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilishi va baholashiga oid bo'lган ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu-umidlari, ular faoliyatiga ma lum yo'naliш beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Mifologiya, diniy, falsafiy dunyoqarash - ijtimoiy borliqning in'kosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Inson faoliyatida ilmiy falsafiy dunyoqarash asosiy rolb o'ynaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini xaқida yaxlit ma'lumot beradi. SHu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamni bilish mumkinligini materiyaning doimo harakatda va rivojlanishidaligini ta'kidlaydi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar ob'ektiv olamdag'i hamma narsa va xodisalar jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini chuqur anglab oladilar.

Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi xaқida tasawurlar xosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy, falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasi xisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanishni xozirgi vaqtida mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifasidir.

Falsafiy dunyoqarash narsa va xodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ulami ma'naviy kamol toptirishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lган rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarni, ahloqiy normalar va qoidalarni mujassamlashtiradi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, turli-tuman xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi xaқida ishonch xosil qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fikricha, barcha insonlarga xos bo'lган olijanob fazilatlar eng awalo faylasuflarda o'z aksini topmog'i lozim.

«Faylasufning xulq-atvori, ahloqi ham o'z kasbiga loyiқ bo'lishi kerak. SHuningdek, o'z xalqini ra'yini va o'z xalqida bo'lган eng yaxshi urf-odatlarini qattiq tutgan bo'lishi kerak.

Faylasuf bo'lmoqchi bo'lган odam o'z ahloqi va xislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyn u faylasuf bilimini o'rganishiga va uni boshqalarga o'rgatishga kirishuvi mumkin», - deb yozadi Farobi.

Inson ma'naviy kamolotining eng muxim ko'rinishi va zarur shartlaridan biri siyosiy madaniyatning o'sib borishidir. Agar har bir millat vakilida, har bir insonda yuksak siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyraklik bo'lmasa Mustaqillik barqaror bo'la olmaydi.

Siyosiy madaniyat o'zida xalollik va poklikni, ishchanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlaming g'oyaviy-siyosiy etukligi, nazariy bilimlami istiqbirlni yorqin tasawur etgan xolda amalda qo'llay bilish, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarini keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat, aytilganlardan tashqari, insondagi faollig va tashabbuskorlikni, yuksak ahloqiylik, qat'iy irodalik, xushmuomulalik, ziyraklik, uzoqni ko'ra bilishni o'z ichiga oladi.

SHarq mutafakkirlari jamiyatni ilmiy asosda boshqarish masalalariga katta e'tibor berib kelganlar. Jumladan, Farobi, Beruniy YUsuf Xos Hojib, Amir Teiur, Ulug'bek, Navoiy va boshqalarning asarlarida davlatning tuzilishi, uning ichki va tashqi siyosatning asosiy tamoyillari, davlat rahbarlarining hususiyatlari bo'yicha muhim malumotlar berilgan. ularni sinchiklab o'rganib, xayotga ijobji tadbiq etish mustaqil davlatimizning siyosiy asosini yanada baquwat qilishda katta zamin bo'lishi shak-shubxasizdir.

Mustaqilligimiz olidida turgan muammolami, milliy istiqlolimizning nazariy masalalarini yuzaki bilishni, ularning tub mohiyatiga tushmaslik va so'zda shunchaki qayd etishni siyosiy onglilikham, siyosiy madaniyat ham deb bo'lmaydi. Nazariy bilimlar mustaqillikning amaliy

masalalari bilan bog'langan, har bir insonning iymon-e'tiqodiga aylangandagina faoliyatnig asosi yuzaga chiqadi.

YUksak siyosiy bilim va madaniyatga, iymon-e'tiqodga ega bo'lgan inson jamiyatimiz, davlatimiz, xalqimiz va millatimizning eng katta boyligi hisoblanadi.

Ma'naviy barkamollik huquqiy ongni ham o'z ichiga oladi. Inson muayyan jamiyatda yashar ekan, uning ahloq-odobi shakllanishi mavjud huquqiy mezonlar bilan bog'lanmog'i kerak. Insondagi fayllik u xohlagan ishni qila berishdan iborat emas. Fayllik jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar chegarasida bo'lmos'h'i zaruryu

Jamiyat qabul qilgan qonunlami hurmat qilish, unga asoslanib ish ko'rish, huquqiy qoidalar va mezonlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy kamolot, ahloqiy nopolik belgisidir.

Inson huquqiy madaniyatining darajasi uning huquqiy bilimi va saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki o'sha qonunlarning barcha sohalarda to'la ijro etilishi bilan belgilanadi.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlanganidek, «Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U - odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani - turli mojarolami hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir».

Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi.

Ta'lim-tarbiya olidida turgan asosiy maqsad yosh avlodga ajdodlarimizning dono tajribalarini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni xis qilishg o'rgatish, qonunlarga rioya etish xislatini qaror toptirishdan iboratdir. Bu borada ham SHarq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanmog'imiz lozim, chunki ajdodlarimiz tomonidan qonunga rioya qilish, unga bo'ysunish kabi masalalar chuqr va atroficha ishlab chiqilgan. Bunga islom ta'limotining durdonasi hisoblangan «SHariat» va «Xidoya», Amir Temur «Tuzuklari» va boshqa manbalar, huquq masalasiga oid fikr- mulohazalar misol bo'la oladi.

Madaniyatning inson ma'naviy-ahloqiy kamolotidagi ahamiyati aytib o'tilganlardangina iborat emas. O'z erkini qo'lga kiritgan mamlakatda milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usini qaror toptirish juda muhim. Mustaqillik, davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari bo'lgani xolda etuk milliy ong bo'lmasa erkinlik, hurriyat qo'lida ushlab turish behad mushkullashadi.

Ma'naviy barkamol inson o'ziga loyiq ko'rmagan biron-bir nojo'ya kishi o'zgalarga ham ravvo ko'rmaydi, hech bir kishiga jabr-zulumni xohlamaydi, jonzotga ozor bermaydi. Vatanga va millatga sodiqlik ham madaniyatilik, ma'naviy barkamollik, ahloqiy nopolik belgilaridan hisobalandi.

Jismoniy baquwat, ma'naviy-ahloqiy jihatdan bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'lomaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom aloddan tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishni tashkil etadi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida aytiganicha, «badanning salomat va quwatli bo'lmos'h'i insonga eng kerakli narsadurki... Maishatimizni rohatda bo'lmos'h'i jasadimizning sog'lom bo'lmos'h'iga bog'liqidir. Biz sihatimizni saqlamoq ila amr bo'Tinganimiz, shuning uchun vujudimizni har sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmoqdan saqlanmog'imiz lozimdir».

Jismoniy sog'lom, baquwat, lekin ma'naviy qashshoq kishilar insoniyat uchun foydadan ko'ra zarar keltiradilar.

Xalqimizda, «sog'lom tanda sog' aqb» degan dono naqil bor. Sog'lom ijtimoiy muxit shaxsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga xam yordami bordur,-deydi Abdulla avloniy eslatib o'tilgan asarida. - Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon huquqlardan saqlanmasa choponning ustini qo'yib, astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustiga kir chiqadur».

Allomalarimiz asarlarida ta'kidlanganidek, insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining, shuningdek, ahloqiy, ruhiy diniy tarbiyaning ham ahamiyati shak-shubxasizdir.

«Qadimgi ajdodlarimiz komil inson xaqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaqiy tilda aytsak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar nopoliklikka,

adolatsizlikka nisbatan murosasiz, isyon bo'lishi kerak»!,-deydi I.A.Karimov.

Insof va adolat tuyg'usi, imon va halollik, xushmuomalalilik va xushxulqlik- bular inson ma'naviy barkamolligining namoyon bo'lish shakllaridir.

Biz xozir milliy tiklanish davrida yashamoqdamiz. Har qanday milliy tiklanish milliy uyg'onish zaminidagina muvaffaqiyatlama amalga oshadi. Milliy uyg'onish asosan ma'naviyat sohasida, milliy ong, insonning ma'naviy, ahloqiy kamolotida yuz beradi. Ma'naviy kamolot faqat o'tmishni to'la tushunib olishgina emas, balki kelajakka intilishdan ham iboratdir. « Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan etuk odamlar halm qiladi. Tehnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruxiy-ma'naviy salohiyat -ma'rifatli insonning ikki qanotidir.»

Ajdodlarimizning ma'naviy merosi asosida xalqimiz ma'naviy barkamolligini shakillantirish xususida gap ketganda bu borada olimlarimiz oldida turgan masalalami ham chetlab o'tib bo'lmaydi, albatta. Fikrimizcha, Markaziy Osiyo mutafakkirlaming asarlarini sinchiklab o'rganibchiqib, ularin ona tilimizda chopr etib, xalqimizga etkazib berish, respublika olimlarining oldida turgan birinchi vazifa bo'lsa, SHarq falsafasi va islom ta'limotidagi milliy qadriyatlarimizga asoslangan yangi, zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratib, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yish ikkinchi vazifa deb, bilmog'imiz kerak.

A.Karimov milliy mafkura kontseptsiyasining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan 2000 yil 6 apreldagi uchrushuvda so'zлади. Nutq jamiyatimiz hayotidagi eng muhim masalalardan biri milliy mafkura xususida bo'ldi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy hayotimizda, balki, ongu tafakkurimizda ham yangilanish o'zgarish jarayoni kechmoqda. Pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod, erkin va farovon hayot qurishdagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy- ma'naviy kuch-quwat manbai, ilmiy asos - bu milliy g'oya, milliy mafkuradir. Fikr bor joyda baxs bo'ladi, baxs bor joyda haqiqat yuzaga keladi. Milliy g'oya, milliy mafkura ma'no-mohiyati, biz uchun juda zarur va kerakligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

O'z kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur. Davlat tizimi, uni boshqarishdagi siyosat aniq mafkura asosiga qurilmog'i lozim. Oldin g'oya paydo bo'ladi. Odamlarimizni olijanob maqsad atrofida birlashtirishimiz zarur. Ongni, tafakkumi o'zgartirmsidan turib, biz ko'zlagan oliv maqsadga erishib bo'lmaydi.

Biz totalitar tuzumdan erkin va ozod tuzumga o'tish sharoitida yashamoqdamiz. SHu davrda maqsadimiz aniq bo'lishi kerak. Maqsadga puxta ishlangan mafkura asosida etishish mumkin.

YOshlarimizni qanday g'oya negizida tarbiyalaymiz, qanday mafkura va tafakkur ular uchun qurol bo'lib xizmat qiladi?

Hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. eng ta'sirchan kurash awalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Lekin hali suyagi qotmagan yoshlarimiz soxta g' oyalar orqasidan ergashib ketmoqda.

Milliy g'oya millatning o'zligini anglashga, qadriyatlarni tiklashga xizmat qilmog'i kerak

Milliy mafkuramiz: a) milliy qadriyatlarga va b) umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi zarur.

Milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi kerak.

“Foyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, olishish mumkin.” Ozod bo'lsang ozod bo'l, erkin bo'lsang erkin bo'l, mustaqil bo'lsang mustaqil bo'l. O zbek millati oqko'ngil millat. Milliy mafkura o'zlikni anglashga xizmat qiladi. O'zlikni anglash o'z tarixini bilishdir. Tarixini bilish nasl-nasabini anglashdir. Milliy g'oya birlashtiruvchi kuch, qanot bo'lishi shart.

Milliy g'oya ma'naviy negizida umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi.

Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi - barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiyligi manfaatiga mos keluvchi moddiy va madaniy hodisalar, mezonlar, qadrli jihatlamining ustuvor bo'lishiga tayangan g'oyalar asosidagi faoliyat qadriyatlardir. Har bir odam jinsi, irqi, millati, yoshi, kasbi, e'tiqodidan qat'iy nazar awalambor bashar farzandi, insondir. SHu umumiyligi barcha odamlar, millatlar uchun birday ahamiyatli va qadrli bo'lgan predmet, hodisa, jarayon, munosabatlarni farqlashga imkon beradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixinining yaxlitligini ifoda-laydi, u davrlar o'tishi va ijtimoiy hayotning o'zgarishi bilan bir qatorda takomillashib, rivojlanib, tobora ko'proq xalqlarni,

millatlami, inson-lami yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi va kamol toptiruvchi kuchga aylanib boradi.

fnsonparvarlik va ijtimoiy adolat, erkinlik va ozodlik, barqa-rorlik va farovonlik, ezgulik va taraqqiyotga bo'lgan intilish umuminsoniy qadriyatlarning muhim jihatlaridir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar uzviy bog'liq va ta'sirlashuvda o'zaro boyib boradi. Umuminsoniy ahamiyat kasb etgan milliy qadriyatlar barcha xalqlar uchun muhim qadriyatga aylanadi. SHu jihatdan, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmunan kengdir, kelib chiqishi bo'yicha barcha odamzodga tegishlidir. Hech bir millatning boshqa xalqlardan ajral-gan holda rivojiana olmasligi, ayniqsa, hozirgi davrda biror xalqning yakka o'zi jahon tsivilizatsiyasidan alohida holda taraqqiy etmasligi ma lum.

Umuminsoniylik milliy va shaxsiy qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi. Umuminsoniylikning ustuvorligi - bu, har bir inson baxtli-saodatli, ozod va erkin bo'lishi, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha ishlar, o'zgarish va islohotlar inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim, degan qarashga asoslanadi. Ana shu sababdan ham, inson erkinligi, uning haq-huquqlarini ta'miniash, qonun ustuvorligi, demokratiya, fikrlar rang-barangligi va ijtimoiy plyuraizmga erishish umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga amal qilish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda jahon davlatlarning ichki va tashqi siyosatida ana shu tamoyillarga amal qilinishi - umuminsoniylikning ustuvorligi g'oyasiga tayanish, bu g'oyani amalga oshirish sifatida baholanmoqda.

Har bir millatning mavqeい uning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlamni qarama-qarshi qo'yish milliy hudbinlik yoki xalqaro nizolarga olib kelishi, natijada, butun insoniyat tsivilizatsiyasi rivojiga to'siq bo'lishi mumkin. SHuning uchun, umuminsoniy ahamiyat kasb etgan qadriyatlamni qaerda va qachon shakllangan, qanday millat vakillari yaratganidan qat'iy nazar ehtirom bilan tan olish hamda qabul etish taraqqiyotga xizmat qiladi. Mustaqil respublikamizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga, xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanish yo'lidan borishiga alohida e'tibor berilayotgani ham shundan.

Demak, milliy istiqlol g'oyasi quyidagi umuminsoniy qadriyatlamni e'tirof etadi va o'ziga singdirib oladi:

Qonun ustuvorligi.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'miniash.

Turli millat vakillarini, ularning madaniyatini va qadriyatlarini hurmat qilish, ular bilan hamkorlik qilish, do'stlik va yaxshi qo'shinchilik.

Dinlararo bag'rikenglik.

Dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik.

Turli xalqlarning ilg'or tajribasini, insoniyat madaniyati yutuqlarini o'rganish va egallab olish.

Inson - eng oliy qadriyat.

Vatan - eng oliy qadriyat va h.k.

Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shakllidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlar bo'Imagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlaming ustuvorligi, boshqa xalqlamikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlamining eng etuklari va milliy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umummiliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlamni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlamining eng yaxshilarini voyaga etkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Milliy qadriyatlar - milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir. Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarixdan ma'lumki, o'tkinchi manfaat

va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkurlar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlami taraqqiyotga eltg'an.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat:

Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.

Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr - do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.

Oila, mahalla, el - yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish.

Ota-onal, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat - e'tibor, butun jamiyatni hurmat qilish.

Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat, uni sevish.

Kattalarga - hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat, hurmat, degan e'tiqodga amal qilish.

Ayol zotiga ehtirom ya'nii, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash.

Sabr-toqat, va mehnatsevarlik.

Halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Bu tamoyil va qadriyatlar O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlari asrab - avaylashi, keljak avlodlarga etkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdag'i bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatami hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf- odatlari, an'analarini hurmat qilishni ta'miniash milliy istiqlol mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi.

Demak, o'zbek xalqining milliy xususiyatlarda:

Oila - muqaddas tushuncha. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. YOshlarni tarbiyalashda, kamolga etkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir...

Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon.

Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu boroda muayyan qadriyatlar shakllangan. «YOn qo'shni - jon qo'shni», «Xovli olma - qo'shni ol», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» va h.k.

Keksalarga hurmat - inson hayotiy tajribasi davomida shakl-langan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasi qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalami e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruwat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz. «Keksani qopda saqla, o'ligini hafta saqla»....

Ayol zotiga ehtirom - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin- qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Demokratianing eng muhim yutug'i - har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir...

Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat - eng oliy qadriyatdir. SHuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda ona nomi qo'shiladi. Milliy istiqlol g'oyasi onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun faro von hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlaming erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab etishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan.

Demak, milliy qadriyatlar insonning inson sifatida o'zini anglashi, o'z-o'zini himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnomalaridir.

Milliy an'analar - milliy qadriyatlarning bir bo'lagi bo'lib, u millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilari, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlari va islohotlarning avloddan - avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish tarzi. Mustaqillik yillarida an'analarga aylanib borayotgan bayramlar ham mavjud:

1 yanvar' - YAngi yil.

mart - Xalqaro xotin - qizlar kuni.
21 mart - Navro'z bayrami.
may - Xotira va qadrlash kuni.
31 avgust - Qatag'on qurbanlari shahidlari kuni.
1 sentyabr' - Mustaqillik kuni.
1 oktyabr' - O'qituvchilar va murabbiylar kuni.
8 dekabr' - Konstitutsiya kuni. «Ramazon hayat»i (IYD al-fitr). «Qurban hayat»i (IYD al-ADHA).

O rta Osiyo xalqlari tarixi bilan bog'liq milliy bayramlar ham bor: Mustaqillik bayrami, Navro'z, Mehrjon, Boychechak, Gul sayli va boshqalarni nishonlash an'anaga aylanib bormoqda.

Milliy ma'naviy qadriyatlamli boyitishda milliy g'oyaning ahamiyati. Milliy g'oya ma'naviyatga tayanishi, undan hayot va ozuqa olishi bilan birga, ma'naviy- ruhiy hayotga ham ijobjiy ta'sir o'tkazadi. Milliy g'oya qadriyatlamli yanada yuksaltirish, ularni odamlaming ongi va qalbiga singdirish, istiqlol va istiqbolga xizmat qilmaydigan jihatlarini bartaraf etish vazifalarini ham amalga oshiradi. Ma'naviy hayotdagi behisob hodisalani, qadriyat va ne'matlarni xalq manfaatlari va e'tiqodi nuqtai nazaridan baholash - milliy g'oya mezonlari bilan o'lchanadi.

Milliy g'oya dastawal, har bir inson uchun eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar - ota-onva farzandlar, aka-uka va opa-singil, qarindosh-urug' lar orasidagi aloqalami yuksak ma'naviy qadriyatlar asosiga qurishni taqozo etadi. Betakror va buyuk qadriyat - mahallaning hurmati va e'tiborini, uning o'z-o'zini boshqarishdagi rolini oshirish ham milliy g'oyaning muhim vazifasidir.

Milliy g'oyaga sadoqat - yuksak vatanparvarlikda, mustaqillikni mustahkamlash va Vatan ravnaqini ta'minlashga shaxsiy hissa qo'shish istagida namoyon bo'ladi. Dunyodagi hamma xalqlarda ham mehmonnawozlik miqyosi va me'yori mavjud, lekin u har bir xalqda turli xarakterga ega.

Marosimlar, urf-odat va an' analar har bir xalqning betakror boyligi, merosidir. Insonning hayoti, u tug'ilganidan boshlab, vafot etgunga qadar turli marosimlar doirasida o'tadi. Marosimchilik millatning o'ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va an'analarni kelajakka etkazish vositasidir.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, tarix sinovlariga dosh berib necha-necha avlodlardan o'tib kelayotgan ma'naviy boylik ekanligi, shubhasiz. Lekin bu boyliklar o'z-o'zidan va osonlikcha qadriyatga aylanmaydi. Tom ma'nodagi qadriyat maqomini olish uchun bular odamlar va ijtimoiy guruhlarning ichki dunyosi va turmush tarziga singishi, faoliyatini yo'lga solish va baholash mezoniga aylanishi kerak.

Umuman, milliy ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma'naviy borlig'imizning muhim va serqirra sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi ta'lif va tarbiyani talab qiladi.

Milliy g'oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi.

Bozor iqtisodiyoti ko'pchilik xalqlarga manzur bo'lgan va ular kelajagini ta'minlovchi iqtisodiyot hisoblanadi. U hozirgi davrga xos umuminsoniy iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatida erkinlikka, xo'jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

O'zbekistonning sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, demokratik tuzumga o'tish yo'li - jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning asosiy mazmuni jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1992-1993 yillarda «O'zbekistonning o'z istiqlol vataraqqiyot yo'li», «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li» asarlarida demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi tahlil qilindi. O'zbekistonda demokratik, ijtimoiy adolatli jamiyat qurishning keng qamrovli yo'naliшини, o'zbek modelini asoslab va belgilab berdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston ana shu demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysi. Ana shu siyosat negizida o'zbek modeli yoki boshqacha aytganda Islom Karimov yo'li yotibdi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning islohot yo'lini tanlab olar ekan uning asosida ichki siyosat olib borishning beshta asosiy tamoyilini ishlab chiqdi. Ular quyidagilardan iborat:

Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi yoki iqtisodiyotning mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilmasligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosatdan ortda qolmasligi zarur, u biror

mafkuraga bo'yundirilishi aslo mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan holi bo'lishi lozim. Bozor mexanizmlarini ishga solish uchun awalo:

1) Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish siyosatini o'tkazish; 2) bahoni, narh-navoni bosqichma-bosqich erkinlashti-rish; 3) bozor infratuzilmasini shakllantirish; 4) aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati olib borilmoqda.

Davlat - bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirib keldi va kelmoqda. Bozor iqtisodiyotini davlat yo'li bilan tartibga solish, iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni boshqarish hamda ijtimoiy muammolami hal etish yo'li bilan bevosita, huquqiy va iqtisodiy vositalar yordamida bilvosita amalga oshirilmoqda.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ulami og'ishmay amalga oshirish lozim. Huquqiy davlatning elementlari: a) qonun ustuvorligi; b) qonun oldida hammaning tengligi; v) hamma o'z ish faoliyatini qonun doirasida bajarishi; g) hokimiyat organlarining bo'linish kabi printsiplariga amal qiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritib kelinmoqda. Bozor munosabat-larini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan chorlar ko'riliishi lozim. Bunda 1) daromad (pul) siyosati yani pul-kredit siyosati, pul daromadi siyosati o'tkazilib kelinmoqda. 2) Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy kafolatlar, kam ta'minlanganlami ijtimoiy qo'llab-quwatlash. 4) Aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish. 5) Xalqning moddiy turmush sharoitlarini yaxshilash kabilar amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich o'tishi - tadrijiy yo'li. Bozor iqtisodiyotiga ob'ektiv qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Bu yo'l Evropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlar qo'llayotgan «SHoka terapeya» yo'lidan tubdan farq qilib (ular birdaniga), bozor iqtisodiyotiga iqtiso-diyotda, siyosatda, ma'naviy hayotda, ijtimoiy jarayonlarda bosqichma-bosqich o'tilmoqda.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ulaming amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi,

bozor munosabatlarni izchil joriy etishni ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlar va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Xalq farovonligi g'oyasi, uning mohiyati va yo'nalishlari. Tarix va taraqqiyotning bosh maqsadlaridan biri - bu xalq farovonligiga erishishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi - xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. YA'ni islohot - islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiya-tida ana shu maqsad mujassamdir. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab etishga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish zarur. buning uchun esa ulaming dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, erga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki farovon turmush asosi - erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskor-likdir. Biz bulaming har bir haqida qisqacha to'xtalishni lozim topdik:

Erkinlik - farovon turmush asosi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidentimizi Islom Karimov o'zining qator asar va chiqishlarida bu masalaga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Xususan, «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida mamlakatimiz uchun XXI asr boshlaridagi asosiy ustuvor yo'nalish-laridan birini ham ana shu masala bosh vazifa qilib qo'yildi. "Birinchi ustuvor yo'nalish - mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish".

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jaravon-larini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu bora-dagi asosiy vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini

nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolaming o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ulaming haq-huquqlarini va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi yig'ilishida bu masalaga alohida e'tibor berib shunday degan edi: «Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyyati bo'hnish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtaida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat». SHuningdek, Birinchi Prezidentimiz «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili haqida to'xtalib, o'zini-o'zi boshqarish organlari - mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim»ligi bayon etildi.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish maqsadi - birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'ekt-laming iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlaming mavqeい va huquq-larini mustahkamlash demakdir.

Tadbirkorlik - faro von turmush asosi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1994 yil 16 dekabrda Birinchi Prezidentimiz huzuridagi Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalalar bo'yicha idoralararo Kengashning navbat-dagi majlisida "Tadbirkorlik - iqtisodiyot kelajagi" mavzuida mazkur masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etgan edi. Unda bozor muno-sabatlariga o'tishning keyingi bosqichida quyidagi 3 ta ustuvor yo'nalishni belgilab berdi:

"Birinchi asosiy masala" - mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish borasidagi ishlami oxiriga etkazishdan iborat. Islohot-ning asosiy ma'nosи va kerak bo'lsa, negizi bu - mulkni haqiqiy egasiga topshirish, tadbirkorlikka keng imkoniyat ochib berishdir.

Ikkinchi muammo va ustun yo'nalish - iqtisodimiz tarkibini keskin o'zgartirish, ya'ni xom ashyo emas, tayyor mahsulot chiqarishga, uning sifati va raqobatbardoshligini dunyo bozori talablariga javob beradigan holga etkazish...

Uchinchi muhim vazifa - milliy pulimiz nufuzini yanada mustahkamlash, uning Amerika dollari, nemis markasi, yapon ieni kabi dunyodagi obro'li valyutalar bilan erkin almashuviga erishmoqdir.

"Har bir odam boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi, har oila obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi".

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu fikrlarini davom ettirib, 1999 yil 27 iyulda Vazirlar Mahakamasining birinchi yarmida iqtisodiy islo-hotlar yakuniga bag'ishlangan yig'ilishida "Tadbirkorlik - yuksalish garovi" mavzuida ma'ruza qildi Ushbu ma'ruzadagi ba'zi, muhim tomonlarini keltirib o'tamiz:

«Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - tanlab olingan islohotlar va yangilanish yo'limizdan orqaga qaytmaslik. Oliy Majlisning XIV sessiya-sidagi «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» ma'ruzasida bayon qilingan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishdir».

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - xalq turmushini yaxshilashdir, toki diyormizda yashayotgan har bir inson o'zi va oilasi misolida o'z farovonligi ortib borayotganini his qila olsin.

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro obro'sini oshirish. Xonardonimiz-dagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va totuvlikka nisbatan bo'layotgan har turli tahdid va xavf - xatarlarga nisbatan ogoh va hushyor turishdir».

Umuman, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi (1995) qonunda ta'kidlangani-dek, «Tadbirkorlik - mulkchilik sub'ektlarining harakatdagi qonunchilik doirasida tovar ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga hamda daromad va foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyat»dir.

Tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

shaxsiy (xususiy) faoliyat;

yollanma mehnatni jalb qilib amalga oshiriladigan tadbirkorlik;

v) fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

Tashabbuskorlik - farovon turmush asosi. Islom Karimov mustaqillik yillarda kadrlarning ishbilarmonlik faoliyatini 3 toifaga ajratib ko'rsatgan edi: 1) bu hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib

qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'laydigan, xalq g'ami, tashvishidan begona kishilar. 2) Befarq, loqayd odamlar bo'lib, ular hech kimga qarshi gapirishni, dushman orttirishni xohlamaydigan kishilar. 3) YOsh, tashab-buskor, kuch-g'ayratga to'la, Vatan ravnaqi uchun fidoyilik bilan xizmat qiluvchi kadrlar.

Umuman, bugungi tashabbuskor xodimlar oldiga puxta bilim, xorijiy mamlakatlar tajribasi va chet tilini egallash, iste'dodli, iymonli, adolatli, mas'uliyatni his qilish kabi bir talay talablar qo'yilmoqda.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy - ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berishda quyidagilarga diqqat qaratmoq kerak:

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari asosida an'anaviy madaniyatga qaytadan baho berish lozim.

Dunyoviy mezonlardan kelib chiqish zarur. Bunda:

mantiq talablari va qoidalariga mos yondashuv darkor.

tajriba (eksperiment) sinovidan o'tgan bilimlarga asoslangan mezonlarga tayanish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarni insonlar-ning ijtimoiy manfaatlariga bo'ysundiriladi. Gelvitsiy: «Tabiat tabiiy qonunlar orqali boshqarilsa, jamiyat ijtimoiy manfaatlar qonuniyatlarini asosida boshqariladi», degan edi.

Ma'naviyatni yuksaltirishda milliy g'oyaning ahamiyati. Milliy g'oya xalqning ko'nglidagi orzu-umidlami, maqsad va intilishlarini nazariy tarzda ifoda etadi. Milliy g'oya mavzusi baland-parvoz mavhum orzular emas. U har bir inson, jamiyat oldida turgan maqsadlar ifodasidir.

Millatning tub manfaatlari, uning o'z o'tmishiga bergan bahosi va kelajakka ishonchi milliy g'oyada o'z aksini topadi. YUksak ma'naviyatga, pokiza axloqqa, demokratiya tamoyillariga tayangan milliy g'oyalari jamiyatni rivojlanishga etaklaydi. Milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlash, qadriyatlarni yuksaltirish omili va mezonidir.

Mehnatsevarlik - ham shaxsiy, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatga aylangan. Milliy istiqlol g'oyasi bu qadriyatga alohida baho beradi, uni buyuk kelajakning ishonchli garovi deb e'tirof etadi. Demak quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Mehnat - inson faoliyatining eng muhim turi. faro von hayot kechirishning asosiy shartidir.

Ta'lif inson tarbiyasida muhim o'ring a ega.

Sabr - o'zbek xalqiga xos azaliy qadriyatlardan biri.

Savob, muruwat, sahovat, andisha kabi tushunchalarda insoniy mohiyat mujassamlashgan. 2004 yil «Mehr va muruwat yili», 2005 yilning «Sihat- salomatlik» yili deb nomlanishi, bozor munosabatlari rivojiana-yotgan hozirgi davrda bu axloqiy qadriyatlarning ahamiyati oshib bormoqda.

Halollik - insoniyat yaratgan eng olijanob axloqiy fazilatlardan biri.

Odillik va haqiqatparvarlik, rostlik va to'g'riso'zlik, jamiyatda «butun hayotimiz va faoliyatimizning bosh g'oyasi» bo'lgan adolat va haqiqat-ning namoyon bo'lismidir.

Demak, asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy ma'naviy qadriyatlarni milliy g'oyaga ma'naviy zamin, negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Unga xalq, millat, jamiyat amal qilish uchun kuchli, qudratli, ta'sirli milliy mafkura kerak.

